

Ikkinchi Qism

Birinchi bob

1

Sultonning ajab bir odati bor edi- ko'ngilxushlikka chog'lansa ham harb mashvarati yanglig' majlis tuzardi. Bu kabi yig'inlar, ayniqsa, hukmdorning xos kishilari, nadimlariga alohida taalluqli edi. Saroy sari chorlangan ayonlar biron jiddiy kengash bo'lmog'iga xezlanib, har ne so'roqqa javob va yechim topmoqqa hozir kelardilar. Ular huzuri muborakka kirib, sulton Malikshohning qoshida Jafarakni ko'rdilaru olampanoh dilxushlikni ixtiyor etganligini angladilar va ko'pchiliklarining lablarida nim tabassum zohir bo'ldi. Ahli xos o'z mavqelariga binoan sultonning ikki yoniga tizildilar. Uning o'ng yonida har doimgidek vaziri azam Nizom ul Mulk, amirul fuzalo Umar Xayyom va boshqalar, so'l yonida esa muhtasib Badriy, Muhammad Takash, Qazviniy va amirlar amiri Arslon Tosh boshliq amirlar turardilar. Quyiroqda bo'lsa mashshoqlar, hofizu qasidago'ylar jam edilar. Sulton muloyim jilmayish ila ayonlar tazimiga mayl bildirdi va bu bilan barchaga etiborli ekanligini anglatdi. Filhaqiqat, ayni damda sultonning yuz-ko'zidan nur yog'ilar, labidan uchayotgan har bir so'zda mutoyibaga moyillik sezilardi. Uning libosi-boshidagi tojdan farqli o'laroq dur qadalgan salla, yupqa och yashil qabo, uchi qayrilma etigi ham kayfiyatiga bisyor monand edi. U jamoatga imkon qadar xush so'zlamoqqa urinardi.

Sultonning bu kungi maylini allaqachon payqagan uning qiziqchisi Jafarak chuchukka, ayniqsa, Xudo berdi. Pakanagina jikkak bu odam juda so'zamol ediki, gap kelganda, o'zgarlar tugul sultonning o'zini ham ayab o'tirmasdi va hech kim unga etiroz bildirmoqqa jazm etolmasdi. Albatta olampanohdan hayiqardilar, balki Jafarak chuchukning qismati sultonning ilkida ekanligini yaxshi anglardilar. Bu achchiq zabon qiziqchi ham o'z maqomini tuzuk bilarmidi yoxud aslan shundayin mardona jurat sohibimidi, atrofda qilarga igna sanchishini qo'ymasdi. Uning "saydlari asosan ulamoyu amaldorlar bo'lardilar. U hech birovni ayab o'tirmasdi. Chamasi, uni onasi shunaqa sertikon bir mahluq etib dunyoga keltirgan ko'rinadi. Ehe-e, unga tish qayraganlar qancha. Ayniqsa, uning so'z paykoniga vaziri azam ko'p bor ro'baro' kelardi. Biroq vazir unga achchiq qilishga bir jihati sultondan hayiqar, qolaversa, o'z o'zligini atrofda qilarga namoyish etmoqni ham istamasdi. Chuchuk nishonga urganda zohiran yengil kulib qo'ya qolar, ammo ichini nimadir birvarakay shilib yuborgandek tuyulardi. Shuning uchun Nizom ul Mulk Jafarak gap boshlaganida zirillab turardi. Sulton nazdida esa qiziqchisining vaziri azamga aytayotgan gaplari shunchaki mutoyiba edi xolos, unga parvo qilmoqlik tuzuk bo'lmasdi. Ustiga ustak dunyoni zir titratgan sulton Malikshoh ham oddiy inson edi. U ham oddiy bandalar kabi goho tushkunlikka tushardi, xayolga berilardi yoki arzimagan narsa uchun kimnidir yomon ko'rib, uning mag'lubligi, kamchiligini payqaganda huzurlangandek tuyulardi. Nizom ul Mulkning mashhurligi, el aro boobro'ligi va hatto o'zini bosh vazir soyasida qolib ketayotgandek his qilishi bazan sultonni iztirobga solar, bu o'jizona g'ayiriligini Jafarakning vaziri azamga nisbatan masxalarini taqiq etmaganligida goho sezdirib ham qo'yardi. Qisqasi, Jafarak chuchuk sultonning vaziri azamdan pinhona qasos olmog'i uchun o'zigagina ayon vositasi edi.

Jafarak chuchuk keng chalvor va yalang'och tanasiga qizil nimcha kiyib olgan. Boshi taqir qirilgan va ko'zlari dumaloq, katta-katta bo'lgani bois ham kulgili, ham biroz qo'rqinchli ko'rinardi. U sultonning yonidan sakrab turdi-da, "Shulton shakboz! (yani "sakboz-itboz demoqchi) deya hayqirdi chuchuk til ila. Barcha sultonga birrov qaradi-yu uning jilmayib turganini ko'rib, baravariga qahqaha urdilar. (Aslida Jafarak anoyi emasdi- u o'zining chuchuk tilliligini ro'kach qilib, sultonni "shakboz, yani shak keltiruvchi ham demoqchi bo'lardi.)

-Men-da uning ko'ppagiman.-dedi Jafarak, endi "to'rt oyoqlab tilini osiltirgancha xakillarkan.

Taqi barcha xandon otdi.

-Vale uning o'jga (o'zga) shadoqatliyoq shaki boy-qanjiq...

Ayonlar gap kim tomonga og'ayotganligini angalayolmay, jim qoldilar.

Qiziqchi endi ketini o'ynatib, qiyqirgancha sakray boshladi:

-Qanjiq!.. Qanjiq!.. Qanjiq!.. -So'ng dumaloq ko'zlarini ola-kula qilib biroz jim turgach, birovga sir aytayotganday kaftini og'ziga olib borib, dedi,- U o'lguday to'p (ko'p) tug'adi- o'n ittita shakbachchalayiyam boy. Vav, vav, vav... -U har tarafga irg'ishlamoqqa tushdi.

Jamoat gap vaziri azam haqida ketayotganligini fahmladi, biroq barchalari sultonga ergashib qattiq-qattiq kulaverdilar. Bazilari esa sohib devonga zimdan nazar tashlab qo'yardilar.

Nizom ul Mulk zil ketgan, yuziga qon urib, bazo'r nafas olardi. U alamdand titrayotgan bo'lsa-da, sezdirmaslikka urinar va hammasidan ham Jafarak o'z payrovini qanday yakunlarkin, deya bezillab turardi. Bu chuchuk deganlari aksar hollarda so'zini qaqshatqich tarzda poyoniga yetkazardi. Vaziri azam ana shundan qo'rqqoqda edi. Qo'rqqanicha bor ekan...

-Bachalayi-ku o'n ittita etan, letin qanjiq shakning o'n ittita emchagi boymikin, a? -Jafarak qorniga urib, taqi irg'ishlayverdi.

Vaziri azam adoyi tamom bo'ldi. Sulton boshliq ayonlarning hammalari qah-qah otib kularkanlar, Nizom ul Mulk go'yo kulayotgandek yuzini tirishtirgani bilan ich-ichidan bir ingroq kelib, hiq-hiq qilardi xolos. Alamdand ko'zlari yoshlanib ketgandi. Jamoat uzoq kuldi, bu to sulton kulgidan to'xtab, ilkini ko'tarib, jim bo'lishga ishorat etguncha davom qildi.

-Malumingiz bo'lg'aykim, biz asad oyining adog'i yoxud sunbulaning ibtidosida shikorg'a (ovga) chiqmoqlikni ixtiyor qilduk. Shul boisdan amirul saydgarga (ovchilar amiri) va jamiki saydgarlarga bu shohona shikorg'a hozirlik ko'rmoqni amr eturmiz.

Bu xabarni eshitgan ahli ayon baravariga mamnunlik kayfiyatini namoyish etdilar.

-Amirul fuzalo, xos nadimimiz Umar Xayyom janoblari shikorda bizga hamroh bo'lg'aylar. -Sulton nim tabassum ila shoirga boqarkan, bilinar-bilinmas bosh silkidi.

Xayyom avvaliga sultonning niyatini tushunmaganday bir lahza hayron turdi-da, so'ng shoshib tazim qildi.

Bu oliy ehtiromdan qarshi tarafda turgan Qazviniyning ko'zlari olayib, kosasidan chiqib ketayozdi...

Ixtiyori oliy barchaga ayon etilgach, taqi ko'ngilxushlik avj oldi...

2

O'shanda Xayyom huzuri muborakdan chiqqach, vaziri azam bilan uchrashmoq niyatidan qaytdi, chunki ayni damda unga ro'baro' kelmoq uni masxara etmoq ila barobar edi. Sohibi devon hozir tanho qolmog'i lozim edi. Vujudidagi alam otashini bosib, tin olmog'i joizligi shoir uchun maqul ko'rinardi.

Aslida Xayyom sultonning amridan shodlanmadi. Shikorga ketsa, rasadxonadagi ishlar to'xtab qolishi va ayniqsa, xoma-yu davotidan yiroq tushmog'i uni xomush etdi. Biroq tojdorning hukmi vojib edi.

U ertasiga korfarmoni chaqirib, Shokir Talxni olib kelishni buyurdi. Shokir Talx deganlari Xayyomga avvaldan eshligi bo'lgan

etikdo'z edi. U bilan Isfahonga yangi kelgan kezlari mana shu korfarmo bois tanishgan edi. Shoir poshnali poyabzal kiyolmasdi, kiya-da, oyog'i toliqar va hatto mo'lroq yurib qo'ysa, og'rishga tushardi. Shul vajhdan hamisha poshnasiz yassi tagcharmli oyoq kiyimi kiyishga urinardi. Bu uning nazdida, juda qulay tuyular, uni kiya, qadamini yengil olardi. O'shanda korfarmo Shokir etikdo'zning boshkentdagi eng oldi ahli hunarlardan biri ekanligini aytgach, Xayyom uni darhol huzuriga chorladi. Chorlashdan oldin etikdo'zning ismiga nega endi Talx laqabi qo'shib aytilishini so'rab ham oldi. Chunki Shokir kabi go'zal ism ortidan bundayin sifat berguvchi g'aliz so'zning ishlatilishi uni chindan hayron qoldirgandi va shuning uchun bu laqabning tarixiga qiziqishi ixtiyorsiz ravishda ortdi.

-Shokir etikdo'z judayam to'g'riso'z.-dedi korfarmo shoirning so'rog'iga javob berib,- Gapini xaspo'shlab o'tirmay, shartta aytadi-qo'yadi. So'zini bisyor namakoblab so'zlar va shul bois Talx derlar uni.

Keyin Shokir Talx ila bir necha bor gaplashgach, angladiki, u chindan ham talx zabonli ekan. O'zi asli toza ko'ngilli etikdo'z har qanday fikrini dag'alroq yo'sinda ifoda etmoqqa odatlangandi. Bu faqatgina to'g'riso'zlikdan deyilsa, xato bo'lardi, aniqrog'i, bu uning ilmu urfon borasida g'ofil va tarbiyasi noto'kis ekanligidan ham dalolat edi. Talx tamsili uning suratu siyratiga rostdan ham mos tushgandi.

Xayyom Shokir Talxning kelishidan zavqlandi. Yo'g'on-yo'g'on barmoqlariga monand dumaloq qop-qora yuzi, og'och butog'i kabi katta burni shoirning zavqini qo'zg'ab, tabassumga hamroh etdi.

-Hazratim chorlagan ekanlar.-dedi Shokir Talx salom-alikdan so'ng o'z odaticha shoshib.

-Avvalo murodimiz sizni ko'rmoq edi... -deya gap boshladi shoir so'zlarni xijjalab, kulimsiragancha. -Oz fursat bo'lsa-da suhbatingizni...

Talx dag'al ovozdada bidilladi:

-Oyog'imga poyabzal dorkor bo'lib qoldi, deya qoling, taqsir!

Xayyom etikdo'zning erkalgini ko'tarardi va bundan o'zi huzurlanardi.

-Buncha oshiqursiz, og'oyi Shokir! -dedi kulib u, - Siz tikkan etiklar ham huddi suhbatingiz kabi biz uchun qimmatlidir, biroq ul bir bahona xolos. Aslida suhbatingizga mushtoqmiz, Talx.

-Hazratim mubolag'a etdilar. Illo bizning suhbat nima-yu tegirmon toshining tovushi nima. Shundog' bo'lgach, bahuzur xizmatni aytaversinlar, janob.

Xayyom yurak-yurakdan qah-qah otib kuldi:

-So'zlang, Talx, so'zlang. Talx otingiz araz etib, qochib qolmasin tag'in!..

Kulishdilar.

Shoir muddaoga ko'chib, sulton hazratlari ila shikorga hozirlanayotganligini va dashtu sahroda uzoq-uzoq yurmoq uchun mos kelguvchi etik buyurmoqchi ekanligini aytdi.

-Ko'p yurganda oyog'im toliqmasa bas. Pishiqroq charmdan bo'lsa... Bu yumush borasida sizdan o'tadurg'oni yo'qtur.

Shokir Talx taqi bir bora shoir oyog'ining qolipu o'lchamlarini olib, ketmoqqa shaylandi.

-Poshna borasida unutmashinlar, Talx.-deya eslatdi shoir uning ortidan.

-Poshningiz mening bo'ynimda-ku, hazratim, qandoq unutay. - dedi etikdo'z so'ziga qo'sh mano yuklab.

Xayyom kula-kula qoldi.

O'sha kunlari vaziri azam Nizom ul Mulk ila uchrashmoq, valinematining ahvol-ruhiyasidan boxabar bo'lib, hol so'rmoq shoirning birlamchi muddaosi edi. Har tugul o'shanda sohib devonning ko'ngliga ozor yetdi, bu dard ustiga chipqon bo'lib, g'animlar tantana qildilar, oshkora muzaffarlik nashidasini surdilar. Xayyom ayni mana shu ozorlarni vaziri azamning qalbidan quvmoq istardi. Biroq hadeganda u bilan uchrashmoq nasib etavermedi.

Xayyom otlarga ishqiboz edi va shikor tufayli taqi otlarga oshno bo'lmog'idan quvonardi. U sultonning otxonasiga va turfa jonzotlar boqilguvchi tomoshaxonasiga kirmoq uchun ijozati oliyga musharraf bo'lgan edi. U ham bo'lsa, sulton Malikshoh shahriyori azamning saxovatlari tufayli nasib etgandi. Shuning uchun shikorga hozirlik bahona sultonning otxona va tomoshaxonasi sari oshiqdi. Xayyom tuzukkina sinchi (otning ahvoli, sog'ligini o'rganuvchi odam) edi hamda u yerdagi sinchi-yu sayis (otboqar)larni juda yaxshi tanirdi, ular ham g'alat felli shoirga ko'nikib ketgandilar, shuningdek, uning o'tparastligini ham juda yaxshi bilardilar va hurmatlar edilar.

Sulton Malikshoh turfa jonzotlarni xush ko'rardi. To'g'ri, shikorga chiqqanda hech bir mahluqni ayab o'tirmay, birvarakay tig'layverardi, lekin tirik jonivorlarning tomoshasidan ham o'zini tiyolmas, aksincha, goho ularning harakatlarini kuzatib, zavqlanar, huzurlanar edi. Uning xos hayvonotxona bunyod etganligi va u yerga tez-tez kirib turmog'i ham ana o'sha felidan edi. Hayvonotxona-tomoshaxonada jonzotlarning jamiki turlari mavjud edi: bo'ri, palang, sher, qoplon, tulki, ohu, jayron va hako'zolar, qushlaru parrandalardan lochin, kabutar, qumri, to'ti, sava, to'vus, durroj (tustovuq)lar saqlanardi. Sulton saydgar lochin va saklar tayyorlamoqqa alohida etibor berib, say etardi. U otlarning fahmu farosatidan qanchalik zavqlanib, shiddatidan nechog'lik kuch olsa, lochinlarning jasur surati-yu mardona fellaridan shunchalar vujudiga quvvatu shijoat to'lib borardi. U o'zini lochinga o'xshatardi va lochinday tutmoqqa intilardi. Har bir lochinga ayruha etibor berar, go'yo o'z bolasini erkalayotgandek mehr ila siylardi. Lochin parvozini ko'rganda uning ko'zlari chaqnaq, olov sochayotgan monand ko'rinar, yelkalari shishib, bo'yin tomirlari bo'rtib ketardi. Bu mahal misoli ikki hukmdor-qushlar shohi ila bashar sultoni bahs boylashib, bir-birlaridan zavqlanayotgandek tuyulardi.

Xayyom ot zotlari turlari kabi lochinlar haqida ham ko'p narsa bilar va bu jonzotlarning qadim tarixlaridan tuzukkina boxabar edi. Aslida sultonning shoirni o'ziga nadim etib tayinlamog'iga ushbu jihatlar ham qisman bois bo'lgan edi. O'shanda sulton sayisxonada Xayyom ila otlarni tomosha qilib, xordiq olmoqda edi. U tinmay o'z otlarini tarifu tavsif etardi, qaysi ot qayerdan keltirilganligi haqida so'zlardi. Sulton boshqa bir joyda yoxud davrada bunchalar ochilmasligi, so'zamol bo'lmasligi aniq edi. Uni bu xush kayfiyatga solgan narsa otlarga bo'lgan mislu qiyossiz mehri edi. Shunda shoir suhbat asnosida maqbul bir fursatni topib, hukmdorning ijozati ila unga g'aznalik Sabuq Teginning o'g'li sulton Mahmud va uning Ayo'z otlig' g'ulomi tarixini so'zlab berdi:

-Kunlardan bir kuni qo'shni mamlakat hukmdori Mahmud G'aznaviyga elchi yo'llab, unga ko'p bebaho tortiqlar ila bir ot ham jo'natadi. Elchini sulton Mahmud saroyida izzat-ikrom ila kutib oladilar, dabdabali qabul marosimi uyushtiradilar. Marosimdan so'ng sulton tuhfa qilingan otni ko'rmoq uchun boradi. Ot barchaga maqul keladi, lekin sulton saroy otboqarlaridan "Otni ko'rmagan hech kimsa qoldimi?-deya so'raydi. Sayislar boshlig'i "Sultonim, otboqarlarning hammalari, hatto muhojir ot bilgichlar ham ko'rishdi va bu otga qoyil qolishdi, deydi. Shunda bir chetda turgan otboqarlardan biri "Ayo'z ko'rgani yo'q, deganida, sulton "U ham kelib ko'rsin, deya amr etadi. Sayislar boshlig'i esa "Olampanoh, Ayo'z yaqinda kelgan qulingiz, u hech narsani bilmaydi,

otlarning tagini tozalab yuradi xolos, deb oraga so'z qo'shadi. Sulton bo'lsa, g'azab ila o'z amrini qaytaradi.

Ayozni chaqirib keladilar. U sultonga tazim qilgach, bir chetda qo'l qovushtirib turadi. Sulton esa unga buyuradi:

-Ushbu otni yaxshilab ko'r va qanday otkanligini bizga ayt.

Ayoz o'ylab turib, deydi:

-Olampanoh, kamina g'ulomingiz, oddiy otboqardurmen. Sinchilik qilmoqqa o'jizdurmen. Agar hazrati oliylari istasalar, amrlari vojibki, bilmoqqa say etgum. Ammo undan avval otning daryoga tushib chiqishini ko'rsam-da, so'ng bir fikr aytsam.

Sulton Ayozning talabiga rozi bo'lib, otni daryoga olib borishlarini buyuradi. Ayozning bu talabi otboqarlar boshlig'i va boshqa bazi kimsalarga ham yoqmagani aniq edi. Biroq "Sultonning amri vojib, deb otni daryoga olib bordilar va suvga tushirdilar. Suv otning beligacha ko'mgach, u biroz suv ichdi. Shundan so'ng Ayoz otni daryodan olib chiqdi, shu bilan birga uning har bir harakatini kuzatib turdi. Ot sohilga chiqqach, "endi bo'ldi, ketdik, deb saroy sari yo'l oldi. Barcha hayratda -"bu qul nimani bildiykin, deya ajablanardilar. Bosh sayis Ayozning oldiga kelib, sekin "Nimani bilding, Ayoz?-deb so'ragandi, Ayoz "bilganimni so'ragan odamga aytamen, dedi. U sultonga ro'baro' bo'lib, tazim qilgach, dedi:

-Olampanoh, sizga inom etilgan ot zotli ko'rinadur, qadam tashlashlari, yurishi, suvga botirlik ila tushishi, chiqishi hayratomuz, shohlarga arzigulik ot. Lekin fikri o'jizimcha, bu ot yoshligida sigir suti ila boqilgan chiqar, chunki harakatlari otlarga xos bo'lsa ham bazi qiliqlarida qoramollarda bo'ladigan alomatlar sezildiki, bu hol meni o'ylantirib qo'ydi. Balki men xato qilayotgandirmen, unda bir qoshiq qonimdan kechmog'ingizni o'tinamen.

Sulton otboqarlar boshlig'idan "Sen nima deysan?-deb so'radi. U esa hech narsa deyoymasligini bildirib, boshini egdi.

So'ng sulton elchi ila yo'liqishdi. Suhbat asnosida gapni ot mavzusiga burdi. Elchi ot haqida batafsil so'zlab berdi:

-Bu ot podshoh yilqisidagi eng zotli biyaning bolasi bo'lib, uning yoshligida tasodif tufayli biya halok bo'lgan, toycha esa zotli sigir suti ila boqilgan.-deya gapini tugatdi elchi.

Sulton ot sigir suti ila boqilganiga qanoat hosil qilgach, Ayozni huzuriga chorladi:

-Bu sirni qanday anglading?-deya so'radi undan.

Ayoz tazim-tavoze ila dedi:

-Ey, ulug' sulton, har hodisaga diqqatu ishtiyiq ila qarash va uni kuzatish, ko'rgan-bilganlarini tafakkur qilmoqdan inson bilimi, tajribasi ortadi. "Hayotda sodir bo'ladigan yaxshi-yu yomon har hodisani kuzatib borishga o'rgan va shunga odatlan, der edi padari buzrukvorim. Men yoshligimdan keksalarni hurmat qilar, keksa bilim sohiblarining so'zlariga quloq solar va aytganlarini uqib olar edim. Keksalardan eshitganlarim va o'zimning yoshlikdan kuzatganlarimdan fahmladimki, qoramollar suvdan chiqqanlarida orqa oyoqlarini galma-gal ortiga silkitadilar. Bu ila orqa oyoqlarida o'sgan yunglardagi suvlarni tushiradilar. Lekin otlarda bunday hol uchramaydi. Keltirilgan tulpor daryoga hayiqmay, seskanmay tushdi. Ammo suvdan chiqib, orqa oyoqlarini silkitdi. Men hayron bo'ldim. O'ylay-o'ylay bu ot yoshligida sigir emgan bo'lsa kerak, degan xulosaga keldim. Ehtimol men adashayotgandirmen. Unda sultonimdan meni afu etishlarini so'raymen.

Sulton Mahmud Ayozning javoblaridan mamnun bo'libdi va o'sha zahoti miroxur (otboqarlar amiri) etib tayinlabdi.

Bundan ayon bo'ladiki,-deya gapini tugatdi Xayyom-ot tarbiyasida, uning zotini toza saqlamoqda har bir narsa etiborga olinmog'i lozim ekan.

Filhaqiqat, otlarni bilmoq borasida sulton ila shoir bir-birlaridan qolishmasdilar. Balki shul bois ham suhbat qizigandan qizirdi. Xayyom o'zining Ayoz haqidagi rivoyatini tugatgach, undan ilhom olgan sulton ham taqi otlar tarifiga tushib ketdi. Chindan ham go'dakligidayoq ot minib, shamshir tutgan, yaniki harb ilmuni puxta egallagan bu turkiy hukmdor barcha qavmdoshlari kabi otlar xususida ko'p narsa bilardi. Qadim turkiy shoh Afrosiyob aytgan ekan: "Erga ot andog'kim, ko'kka oy. Agar ot bo'lmasa, harbiylarga jasur odamlar degan nom noloyiq bo'lur edi. Ko'p sarkardalar otga minmoqni falak bo'yniga minmoqdan afzalroq bilganlar. Zero uni "Qutlug' qadam deb bejiz aytmaganlar. Ha, bu gapni turklar aytgan, sulton ham bu tarifga ishonadi. Sulton Malikshoh, shuningdek, rasulilloh sallallohu alayhi vasallamning ot haqida aytgan hadisini ham yaxshi bilardi. "Xayr yilqining peshonasiga yozilgan, deydi Payg'ambar alayhissalom . Ayniqsa, arab otlari bemsildir...

-Mana bu forslar alus deb ataydurg'on ot.-deya gapida davom etgandi sulton o'shanda. -Aytadilarki, u go'yo osmonda uchadi, juda ziyrak va boshqa otlarning dupurini uzoqlardan eshitadi. U juda qanoatli, ammo sovuqqa chidamsiz. Bunday ot egasi bo'lmoq baxt, biroq bu jonivor anchayin nozikdur. Men bunda xo'p chopganmen, shoiri zamon.

Xayyom nim tabassum ila sultonning gapini davom ettirib ketdi:

-Ustod Aristotilusning yozishicha, otlarning turi juda mo'l. Ul zotning etiroficha, qushlar rangidagi, xususan, oq ot yaxshi va etiborga loyiq. Uning sohibi jangda doimo zafar qozonadi. Bunday otni podshohlar minsa yarashadi.

Shoirning gapi sultonga juda yoqib tushdi. Chunki u oq otni xushlar va bir necha xil zotli oq otlari bor ediki, har jabhada ularni minar hamda bundan faxru iftixor etib, huzurlanardi.

O'shanda ularning bu yoqimli suhbatu uzoq cho'zilgandi va oxirida sulton Xayyomga "otlar xususidagi bu bilimlaringiz ila "Tulpornoma otlig' risola bitsangiz bo'lur erkan, deya lutf etib, siylagandi. Mana, endi sayisxonada shikori xosga hozirlik ko'rib turibdi. Bu shikordan albatta, yaxshi, toza va xush havodan simirib, sihatini barqaror etib qaytadi. Faqat xoma-yu davotdan ayru tushmoq...

Shikorga, tag'inki, shohona shikorga hozirlik uzoq davom etardi. Avvalo uchqur otlarning tuyoqlari yangitdan taqalanib, yuvib, moylanar, yollari xafsala ila taroqlanib, xinolar surtilardi. Bu nimarsa ot uzra o'ltirgan chavandozni shijoatlantirar, zotli arg'umoqning mayin, xino tusli yollari uchishi unga jurat va ulug'vorlik baxsh etardi. Shuning kabi bu amallar shikori xosning ziynati, uning suratiga berilguvchi orolari edi.

Bir yonda usta saydgarlar ov qurol-aslahalarini sozlaydilar, hozirlaydilar. Nayza va paykonlarning sinonlarini (tig'larini) charxlab, sadoqlarga joylaydilar. Boshqa g'ulomlar arobalarga oziq-ovqat, idish-ayoqlaru chodirlarni, ko'rpa-to'shaklarni ortadilar. Ko'plab meshlardagi suvlarni asosan tuyalarning va bazi otlarning ustiga yuklashar, qolgan kerakli buyumlarni ham shu tariqa saranjomlashardi. Ikki nortuyaga amoriy (kajava, tuya ustida o'ltirishga mo'ljallangan maxsus o'rindiq) ham o'rnatilgan bo'lib, bu sulton hazratlari uchun edi. Mabodo safar chog'i ot ustida toliqsalar, amoriyda hordiq olishlari mumkin edi.

Shikori xosga shundayin alohida tadorik joiz edi. Saroy hovlisi, tashqisi bir necha kunlab shovqin og'ushida bo'lardi. Ayniqsa, ovchi saklar zanjirlarga bog'lab olib chiqilganda, ularning basma-bas xurishlari olamni tutib ketardi. Zotdor, shikori xos uchun o'rgatilgan bu katta-kichik, turfa rang itlarning ovozidan nainki odamning, olamning ham qulog'i batangga kelardi. Yaxshiki, ularning "tilini bilguvchi sakbozlar bor, aksi bo'lsa, bu mag'zi yo'q maxluqlar ne ko'yga tushardilar, Ollohga ayon.

Bir necha saydgar lochinlar esa sultonning va ahli shikorning ham faxru iftixori edilar. Bu mag'rur, mardona qushlarda ulug'lik,

kiborlik ramzi mujassam edi. Ular ham goho yuraklarga vahm solguvchi sas ila hayqirib qo'yardilar...

3

Sunbulaning boshida shikorga otlandilar.

Undan avval Xayyom vaziri azamning huzurida bo'lib, biroz suhbat qurdi, Jafarakning payrovidan so'ng mudom shashtsiz bo'lgan valinematining ko'nglini olishga urindi. Sidqidildan qilingan muomala, samimiyat kishi qalbiga, shuuriga tasir qilmasdan qolmaydi. U ko'ngillarni ko'taradi, odamning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Vaziri azamda ham shunday bo'ldi-o'z jigarbandu arjumandiday bo'lib qolgan shoirning samimiy so'zlari, xayrixoh chehrasi zimiston ko'nglini yoritib yubordi. U o'sha onda yana bir karra amin bo'ldiki, bu dahri dunning omonligi ezgulik, samimiyat va chin do'stlikning mavjudligiga bog'liq ekan. Har holda ilmu marifat boqiy ekan, zero Xayyomni unga yovuq tutgan ham ilmu marifat va ezgulikka eshlik edi.

-Yaxshi olimu shoirdan usta saydgar chiqmasligi aniq, -degandi o'shanda Nizom ul Mulk shoir ila xayrlasha turib. -Biroq yaxshi shoirdan yaxshi hamroh chiqadi. Olampanoh ila muloqotda ul zotni ehtiyotlaganing kabi o'zingni ham saqlagin. -Bu uning otalarcha nasihati edi. U hukmdorlar Quyosh yanglig' bo'lishligini taqi bir karra eslatgandi...

Shikorning avvali boshkentga yaqin vodiya, unga tutashib ketgan tog'lar ustida kechdi. Yollari o'siq, arabiy oq otda viqor va haybat ila chopgan sulton Malikshoh nihoyat suyukli tulporidan tushib, piyoda yurmoqqa boshladi. Vodiyning yelkasiga oyoq qo'ygan tog' buyuk saljuqiy sultonga ham jalolatli (ulug'vor) ko'rinar, uning yuksakligi qayerda intiho topmog'ini tasavvur etmoq mushkul edi. Bu yerda atrof javonib (tomonlar) tog'dan iborat edi. Tog' yonbag'ridagi katta-kichik qora-qo'ng'ir tusli, goho oqish xarsang toshlarga suyanib turfa og'ochlar o'sgan. Bu og'ochlar bazi joylarda g'uj-g'uj bo'lib o'sganidan yaxlit yong'oqzor, tog'olchazor va mevalari mayda-mayda yovvoyi olmozorlarga aylanib ketgan. Undan yuqorida esa zarangzorlar yastangan. Bu og'ochzorlar ostida o'sguvchi giyohlar ham turfa xil-bug'doyiq, qo'ziquloq, namatak, yovvoyi olcha, qoraqand (zirk) kabi o'tlarning bir necha xillari mavjud. Ayniqsa, bu yanglig' giyohlar tog' ustidagi yaylovlarda mo'l-ko'l. Bu kabi nabototning bisyorligi turfa jonzotlarning hayot kechirmog'i uchun ham juda qulaydir. Unda tulki, bo'ri, sirtlon, goho esa ayiq va yo'lbarslar ham emin-erkin yashaydilar. Tog'ning yuqorisida bo'lsa, jadiy (tog' takasi), kiyik, tog' qo'yi, qor qoplani kabi jonzotlar ko'p. Tog'da yashovchi qushlarning turi behisob, ularni tanish, ajratish ancha mushkul.

Saydgarlarning bir qismi va sakbozlar itlarini olib, tog'ning yuqorisiga chiqib ketdilar. Ular balandga chiqib, bir qancha muddat jim turishar, tog' ustini sukunat qoplab, jamiki jonzotlar xotirjam bo'lgach, vahimali sas berguvchi burg'ularni chalishib, itlar ila shovqin-suron solishib, quyiga enardilar. Bu saylari ila tog'dagi borki hayvonotni sayyodlar tomon haydardilar. Tog'ning boshlanishida sulton boshliq har xil yarog'lar tutgan saydgarlar turishar va ular qimirlagan narsaki bor jontalosh etardilar. Saydgarlar asosan sultonning ko'ngilxushligi uchun xizmat qilishar, o'ljalor qismatini ham aksaran unga topshirishardi. Sultonning atrofida ancha-muncha darrandani (yirtqichni) ham yenga olishga qodir alp qomat saydgar-qo'riqchilari hamisha shay turardilar. Shikor mahali sultonning joni azizini omonda saqlamoq ularning zimmasida edi.

Sulton Malikshoh o'ljani tanlab o'tirmasdi. Jon tashvishida o'zini har yonga urib, yashirinishga urinayotgan jonivorlarning barini birvarakay goh kamon, goh palaxmon va yoki nayza ila shikastlayverardi. Yonidagi bir necha yarog'bardorlari xorisa xorirdiki, sulton aslo xorimasdi. Kishining etini seskantirguvchi bir qiyofaga kirib, turfa maxluqotni o'ldiraverardi. Ayni damda u qatlgoh uzra qilich yalang'ochlab, mahkumni kutayotgan jallodga o'xshardi. U usta mergan edi, otgan o'qlari nishonga bexato tegardi... Ko'p o'tmay hammayoq hayvon jasadlariga to'lib ketdi. Ularning hammasini ham yig'ishtirib olmasdilar. Bazi qimmatbaho mo'ynali jonivorlarni to'plab, terisini shilib olmasalar agar, aksariyati o'sha joyning o'zida qolib ketardi. Sulton uchun shikorda o'ldirish zavqi muhim edi.

Xayyom bu "qatlgohga umuman yaqinlashmadi, bazan chodirda qolsa, gohida teskari tomondagi tog' yonbag'irlarida kezindi. To'yib-to'yib tog' havosini va unga chulg'ab may simirdi, maysazorlarga burkanib, osmonga termuldi, qadrdon mavoni kuzatdi. Goho esa mastona sher bitdi:

Ul azal Sayyodi qo'yib dona, dom
O'z oviga qo'ydi odam deya nom.
Olamda ne yaxshi-yomonlik bo'lsa,
O'zi qilib, to'nkar odamga mudom.

O'sha sarxush kechalarda ko'k baldog'i Oyga termulib, o'rtandi, ehtirosdari junbushga kelib, Oy yuzida Maryamning jamoli aks etib, shuurida taqi sher aylandi:

Yo Oллоh, ul go'zal Oyni yaratib,
Sochi sunbulidan anbar taratib,
Unga qaramagil, deya buyursang,
Zulm-ku, dil shavqin o'zing qo'zg'atib.

Shoirning jon talvasasida tipirchilayotgan jonivorlarni ko'rmoqqa na holi, na toqati bor edi. U o'limga sira-sira ko'nika olmasdi. Oллоh o'zi yaratgan inson ishqida barpo etgan bu olamda to'yib-to'yib yashashni, barchaning yashashini istardi. Xayyomning hamisha o'zgalardan pinhon tutishga uringan siri-bu uning juda-juda hayotparastligi edi. U hayotni sevardi va shuning uchun, o'limning ulug'ligini his etgani holda, unga toqat qilolmasdi.

Tog'dagi ov ikki haftaga yaqin davom etdi.

Dashtu biyobondagi shikor o'zgacha bo'lardi. Bu yerda saydgarlar ko'proq ot ustida ov qilardilar. Sulton ham oq tulporiga minib, o'ljaning ortidan quvar va bolaligidan hadisini olganiday, otni choptira borib, jon qayg'usida yugurayotgan jonivorga qarata yoydan o'q uzardi. Sayd qulagach, taqi boshqa jonivorning ortidan quva ketardi.

Yozida (dashtda) oq saksovullar mo'l edi-ularning bo'yi goho yetti-sakkiz gazgacha yetardi. Bundan tashqari, yirik juzg'unlar, shuvoq va sho'raklar ham ko'p bo'lib, qalin butazorlarni bunyod etgandiki, bu hayvonlarning jon saqlamog'i uchun o'ng'ay edi. Bu yerlarda ovbop jonivorlardan ohu, kiyik, tulki, shag'ol (chiyabo'ri), quyon va sher kabi darrandalar ham ko'p uchrardi. Dashtdagi

shikor saydgar uchun chinakam sinov ham edi. Unda otning ustida yoy ota olmoq mahorati ila botirlik ham bo'lmog'i lozim edi. Chunki ot ustida chopib borayotgan ovchining ro'baro'sidan banogoh biron yirtqich chiqib qolishi va ot hurkib, suvoriysini yerga qulatmog'i mumkin edi. Saydgarining yozig'ida (peshonasida) bo'lsa, sher yoki boshqa darranda uni g'ajab tashlashi ham turgan gap. Sulton Malikshohning padari buzrukvori sulton Alp Arslon davrida bo'lgan shikorlarning birida shunday bo'lgandi. Unda Malikshoh yoshgina bolakay edi, havas ila otasining ortidan yugurib yurardi. Kichkina yoyidan o'zicha o'qlar ham otardi. O'shanda ko'plab yarador jonivorlarning jon berishini ko'rgan ersa-da, qonga belangan odamning bunday tarzda jon talashmog'ini hech ham kuzatmagandi. Butalar ortidan tuyqusdan chiqib kelgan sher bechora saydgarining bo'g'zini g'ajab tashlagandi... Bu mudhish manzara uni hali hamon tark etmaydi Jangu jadallarda necha-necha odamning yostig'ini quritgan, adadsiz jonivorlarni xokga qorgan sulton Malikshohning yodiga o'sha voqea tushishi hamono yuragi zirillab ketadi. Chunki bu uning o'lim haqidagi ilk bolalik tasavvuri edi. O'lim deganda uning ko'z oldiga o'sha bo'g'zi g'ajilib, qonga belangan saydgar kelardi.

Sulton yozi shikorida lochinlariga ham erk berdi. Ular ham qushbonlarning ilkidan shiddat ila osmonga ko'tarilib, o'lja izlay boshladilar. Lochin podshohlar shikorining ulfatidir, u ila quvonadilar, uni sevadilar. Lochinning xulqi o'zining nozikligi va pokizaligi ila tojdorlarning xulqiga o'xshaydi. U go'shtxo'r parrandalarning podshohidir. Shul bois lochin boshqa odamlarga qaraganda podshohlarga ko'proq yarashadi. Lochinda boshqa jonivorlarda bo'lmagan jalolat mavjud. Podshohlar uni tomosha qilishning yaxshi alomatleri bor deb bilishadi. Sulton Malikshoh ham shunday deb bilar va ayni damda qushbonlar ilkidan ko'kka parvoz etayotgan lochinlarga uzoq-uzoq zavq ila tikilmoqda edi.

Asli lochinlarga ishqiboz bo'lgan Xayyom ham hozir sultonning yonida edi va u ham lochinlar parvozini kuzatardi. Shoir qushlar shohi haqida ko'p narsa bilar va uning bilishidan sulton ham boxabar edi. U lochin haqidagi rivoyatlarni bilishdan tashqari, uning harakatlariga qarab turli bashoratlar qilishga ham qodir edi...

Ana, lochinlardan biri to'rg'ayni tutib, vahshat ila qiyqirib qaytdi. Shoir seskanib tushdi, lochinning bundayin harakati yaqin orada bo'lguvchi yomonlikdan dalolat berardi. Qush uchib kelib sultonning ilkiga qo'ndi.

-Shoirlar shohi shohning shoh qushi haqida ne deydi? -deya sulton ilkidagi lochinni yuqori ko'tarib, ko'z-ko'z qildi.

-Sultonimning lochini benazir. -Xayyom ot ustida o'ltirgan sultonga yaqinlashib, o'ng ilkini qush tomon uzatganicha davom etdi. - Uning paylari qattiq, boldiri yo'g'on, o'zi yumaloq va miqti, qomati kelishgan, tusi sarg'ish. Demakki, bag'oyat sog'lom va ovga bisyor harisdir (o'chdir). Chin tojdorlarga munosib lochin ekan.

Shoirning gaplaridan sulton yayrab ketdi:

-Sizning har xususda ilmingiz beqiyos ekanlig'iga taqi bir karra amin bo'ldim. -dedi va shohona iltifot ko'rsatdi. -Bu kungi oqshomni biz ila o'tkazg'aysiz, shoiri zamon.

Xayyom yengil tazim qildi.

Shoir sultonning ko'ngliga yo'l topa olgandi. Chunki uning lochinga bemisl mehri borligini juda yaxshi bilardi. Esida, mana shunday shohona shikorlarning birida ajab taassurotli voqea kechgan edi. O'shanda sulton ilkiga lochinni qo'ndirib, suv ichayotgan qushbonini ko'rib qoldi. Uni yuz darra urib jazolashni buyurdi va dedi:

-Bu ne hol?! Lochin -bu qushlar shohi, podshohlar ilkidagi eng aziz va muhtaram jonzot. Ne bo'ldiki, sen bunday odobsizlik qilasan? Podshohlar ezozlagan narsa ilkingda-yu, sen fahmsiz suv ichmoqdasen!

Qushbon tahluka ichra dedi:

-Xudovando umringizni uzun qilsin, sultonim, agar tashna bo'lsamu ilkimda lochin bo'lsa, ne qilay?

-Bu ishga layoqatli odamga ber. -degandi o'shanda sulton biroz yumshab. -U lochinni ushlab tursin, sen suvingni ichaver.

Sultonning chodiri qoshida vadaga binoan tuzilgan shohona ziyofatdan sarxush alpozda qaytgan shoir o'z chodiriga kirgisi kelmay, tashqariga o'ltirdi. Doimgiday yana osmonga tikildi. Go'yo uni hamisha osmon o'ziga chorlab turadigandek, ko'k sari talpinib yashardi. Cho'lning tungi osmoni yanada bo'lakcha bo'larkan-keng, bepoyon, tip-tiniq. Huddi mehribon bir kishining ko'zlariga o'xshaydi. Jimirlab nigohingga sanchilguday bo'layotgan lojuvard yulduzlar esa o'sha ko'zlardan otilgan mehrga chulg'ongan uchqunlar yanglig'. Bunchalar ham yarqiramasa bu yulduzlar?! Ularning partavi (shulasi) jonim rishtasiga payvand. Ana, Oy qoshida Nohid yulduzi porlaydi. Buyoqda esa surati cho'mich monand Dubbi Akbar yulduzlari, bir yonda Hulkari axgar (cho'g'). Bu bepoyon koinoti yaratgan Zotga hamdlar bo'lsin! Bu sonsiz yulduzlarning adog'i bormikin? Ularning inson ko'zi ilg'ay olmaydiganlari qanchaykin? Bir kun kelib bashar qavmi qadami, uning shuuri ana o'sha cheksiz mavolarga yetib borarmikin? Taqi cheksizlik! Taqi ustoz Uqlidusning o'sha ikki yondosh chiziqlari, hech qachon kesishmaydigan hadlar. Nahotki hech qachon kesishmasalar? Huddi ezgulik va yovuzlik kabi. Demak, ularni bir-birlariga yaqinlashtirmoq, o'rtalikni topmoq uchun oradagi xolis meyorini topa bilmoq lozim ekan-da. Ana o'shanda ezgulik va yovuzlik majozan bo'lsa-da qovushadilar. Qovushganlari bilan ulardan taqi ne bino bo'lardi? Bilmaysen, yo Abul Fath Umar, bilmaysen! Lekin oraliqning hosil bo'lmog'i aniq. Hamma narsada oraliqni topa bilmoq lozim, uni topa bilmoq esa ulug'lik nishonasidir. Hamma narsada meyor, yani eng xolis oraliq topilar ekan, mavjud parda, balki g'ayb pardasidir, ko'tariladi va ko'p asror oshkor bo'ladi. Biroq bunga erishmoq mushkul. Nafs bandasi bo'lgan odamzot baribir bir tomonga og'ib ketadi... Yaxshi fikr. Albatta yozib qo'ymog'i kerak...

Ulug' muallim Aristotilusning egri va to'g'ri hadlar haqidagi fikriga uyqash fikr bo'ladi. Yani u egri chiziqni ahmoq, to'g'ri chiziqni esa oqilu dono kishilarga o'xshatadi. To'g'ri chiziqlar bir-birlariga hamisha tekis yopishadilar, egri chiziqlar esa hech qachon mos tushmaydilar. Yani oqil kishilar bir-birlarini oson tushunib, til topisha oladilar, ahmoqlar esa... Ustoz topib aytgan. Taqi o'sha oraliq!.. Xayyomning miyasi chirsillab ketganday tuyuldi. Xayolini chalg'itish niyatida yuzini kaftlari ila keskin ishqalab, yana Oyga tikildi. May otashidan qizigan vujudida yoqimli jimirlash uyg'ondi. Oy yuzida taqi Maryam namoyon bo'ldi. Hozir ne ila mashg'ul ekan u arman go'zali?! Shoirning tani qizib, o'rnidan turdi-da, egnidagi shirdog'ini (issiqdan saqlanish uchun kiyiladigan kiyim) va Shokir Talx tikib bergan tagi yassi o'ng'ay etigini yechdi. Shirdog'ini taxladi va so'l yoniga yonboshlab, unga boshini qo'ydi. Ko'zlarini yumarkan, xayoli go'zal Maryamning vasliga ilk bora yetishgan onlarga uchdi.

Rasadxona qasabasidagi tog'ning bag'rida katta bir buloq bor edi. Uning yoqasida ulkan yong'oqlar o'sgan bo'lib, ularning ostidagi xarsang toshlar tekis va silliq soyada salqinlab o'ltirish uchun juda o'ng'ay edi. Buloq suvi bag'oyat tiniq va toza, tami totli edi, kishining ichgan sari ichgisi kelar, boshqa suvlar kabi qorinni shishirmasdi. Bir safar Maryamning mayli ila o'sha buloq bo'yiga bordilar. Silliq xarsangtosh ustiga yonma-yon o'ltirdilar. Qiz ilkini tizzalari uzra qovushtirib, ularning ustiga oppoq yonog'ini bosib, buloq suvining xiromiga tikildi. Anchagacha bir so'z demadi. Xayyom ham unga halal bermoqni istamadi. Nihoyat qiz boshini ko'tarib, oyoqlaridagi guldor xipcha chuvaklarini yechdi, hovuchini to'latib suv olib, yuziga bosdi. Billurdayin suv tomchilari yuzida sirpandilar. Shoir unga mahliyo bo'lib tikilib turardi. Vujudida huzurbaxsh va shuningdek, o'rtaguvchi bir his kezina boshlagandi. U ana shu o'rtanish asnosida yutoqqanday yutindi.

-Qanchalar sohibjamolsen, Maryam!-dedi u qizdan ko'zlarini uzolmay.

Qiz unga qiyolab, jon olg'uvchi nigoh tashladi. O'siq qayrilma paykonlar bir necha bor silkindilar.

-Chiningizmi?-so'radi u yoqimli erkaliq ila.

Bu payt shoirning nigohi uning uzun ko'ylagi ostidan chiqib turgan oppoq oyoqlariga tushdi. Ayniqsa, tovonlari go'zal edi-qizg'ish-sariq, ko'ngilga ehtiros o'tini solg'uvchi.

-Seni juda-juda yaxshi ko'rib ketmoqdamen, Maryam!-dedi shoir ovozi titrab.

-Endiginami? -deya qiz taqi-da olov qaladi.

-Azaldan!

-Men ham aytayinmi? -dedi qiz endi araz qilganday boqib.

Xayyom o'zini tutib turolmadi, uning yelkasidan ohista ushlab, o'ziga tortdi. U qizni ilk uchrashuvdayoq sevib qolgan, biroq otasining hurmatidan andishasi ortib, o'zga nigoh ila boqmoqdan tiyilardi. Hozir esa ishq o'ti solgan tug'yonini jilovlay olmadi.

Qiz ham qarshilik qilmadi. Shoirning bag'riga suqilgani sariq betakror huzur og'ushida qolmoqda edi.

-Jonim!-dedi shoir titrab.

Qizning boshidagi silliq yog'lig'i (ro'moli) sirg'alib, tushib ketdi. Mushk[1] ning bo'yiga chulg'angan tim qora sochlari to'lg'onib, yoyildilar.

Shoir nim pushti lablarga lablarini bosdi. Ular beqiyos totli edilar, xuddi manov buloqning suvidek toza va musaffo. Ikki oshiq dil bir-birlariga chirmashdilar...

Chodir yonida uxlab qolgan shoir hansirab, to'lg'onardi. U so'l yoniga yonboshlab, yuragini quchgancha shirin tush ko'rmoqda edi...

Shikorning yozidagisi ham ikki hafta davom etmoqda edi. Sulton hali shikordan zerikmagandi. Bu safar peshinga yaqin saksovuyl va shuvoqlar chirmashgan qumli daraga kirib qoldilar. Atrof javonib qumtepalardan iborat. To'rt burchagiga nayzalar o'rnatilib, soyabonlar tutilgan arobalar o'ljalarga to'lgandi, biroq hukmdor ovni to'xtatay demasdi. Bir mahal ikki saydgar tepalik ortidan ikki sherbachchani ko'tarib kelib qoldilar. Sherbachchalarning ko'zleri endigina ochilgan bo'lsa-da, tinmay irillardilar, biroq baquvvat saydgarlarning chayir ilkidan qutula olmasdilar. Sherning bachchasi ham sher bo'lgani bois bu bandilikka dosh berolmasdilar.

Ularni sultonning istagiga binoan qafasga soldilar. Hukmdor sherbachchalarni saroy hayvonotxonasiga eltmoqni niyat qilgandi. Oradan hech qancha fursat o'tmay, saydgarlar sherbachchalarni olib kelgan yoqdagi tepalikda nara tortgan ona sher paydo bo'ldi.

U shiddatli tarzda o'kirar va odamlar tomonga talpinardi. Ahli shikor darrov sergak tortib, yarog'landilar. Yoylariga paykonlarini joylab, zix (kamon ip)larini tarang tortib, shay turdilar.

Sultonning yuzida tantanavor bir mano barq urib, kuldi.

-Mana endi jang qiziydurg'on ko'rinadur!..

Ona sher quyiga tushib kela boshladi. Saydgarlar sultonning amri ila uni o'qqa tutdilar. U yoy o'qlariga chap berar, goh oldinga, goh orqaga sakrab, irillardi, odamlarga hamla qilishiga paykonlar bo'roni monelik qilardi. Bu hol anchagacha davom etdi.

Saydgarlar sherning ahvolidan zavqlanib, qiyqirardilar. Axiyri sher bundan zerikdimi yoxud saylari nafsiz ekanligini tushundimi, yerga dumalab, boshini har yonga urib, o'kira boshladi. Barcha uni masxara qilganday battar qiyqirmoqqa tushdilar. Birdan sher tinchib qoldi-da, bir pas qimir etmay yotdi.

Hammalari hayrat ila sukutga toldilar. "O'lib qoldimi, nima balo?-deya o'ylardilar ular. Ko'p o'tmay, ona sher o'rnidan turdi, xotirjam qiyofada odamlarga tikildi. So'ng ohista bir necha qadam ortiga tislandi-da, shiddat ila oldinga tashlandi. Hali odamlar o'zlarini o'nglab olmaslaridan ularga yaqinlashdi va shahd ila shundayin bir sakradiki, misoli uchayotgandek kelib, o'ljalari ortilgan arobaning burchagidagi soyabon tortilgan nayza tig'iga ko'ksini urdi. Tig' g'irchillab ko'ksiga chuqur-chuqur botdi. Uni kuzatib turgan odamlar uvillab yubordilar. Sher bir-ikki tipirchiladi-da, nolakor sasda cho'zib bir ingragach, jon berdi. Nariroqdagi qafasda turgan sherbachchalar ketma-ket irilladilar.

Barcha bir lahza jim qoldi. Hammaning qalbini hayrat va achinish hissi egalladi. Bu, ayniqsa, Xayyomga qattiq tasir qildi, u yoqasini tutib, "Subhonolloh! deb yubordi.

Jimlikni Sultonning ovozi buzdi:

-Sherlarga achinmaydurlar.-dedi u asta va itobli (g'azabkor) tarzda xitob etdi. -Ulardan iftixor eturlar!- Ammo u shu gapini aytdi-yu beixtiyor bir so'lish oldi. Shu-shu kechgacha ojizlana bordi. Oqshomda isitmasi chiqib, yotib qoldi.

Xayyom uning shirdog'ini yechib, yozi oftobidan qorayib, ozg'inlashgan yuzidagi sovuq terlarni artidi.

-Menga ne bo'ldi, shoir?-so'radi u titrarkan.

-Shikorni to'xtating, olampanoh.-dedi Xayyom yalinchoq ohangda,- Ko'ngilxushlik uchun jonivorlarning qonini to'kmoqlikni bas qilaylik. Ruhiyatingizga shikast yetmish, sultonim!

-Ha, o'zim ham sezib turibmen!.. -Sulton entikdi.- Tongda saroyga qaytmoqlikka farmon bering, shoir. Shaharga qaytishimiz hamono Adam Shayx hazratlarining xonaqosiga, muridlariga xayru ehsonlar qilgum, inshoalloh!

-Sultonimning niyatlari o'zlariga yo'ldosh bo'lg'ay.-deya uning so'zini maqulladi Xayyom.

Ertasiga ertalab Isfahon sari yo'l oldilar. Sultonning amoriyda o'tirmoqqa ham holi kelmagach, arobaga yotqizdilar. Umar Xayyom uni muolaja qilmoqqa tushdi.

Bu shikorda o'n ming boshdan ziyod jonzotlarga qiron keltirildi. Shu-shu xalq ichra "Sulton Malikshoh, minorat al qorun, yani "Sulton Malikshoh shoxlardan minora tikladi, degan naql tarqaldi.

Ikkinchi bob

1

Isfahonda va umuman saljuqiy sultonlar hukmronlik qilayotgan butun mamlakat hududida turli din va mashablarga mansub avom baqamti umrguzaronlik qilardilar. Saljuqiy hukmdorlar islomparast va islomparvar bo'lganlari holda, o'zga dinga mansub qavmlarga ham bag'rikenglik ila munosabat ko'rsatardilar. Ulardagi mana shu fazilat ko'pchilikka manzur bo'lar va zabt etilgan o'lkalardan Isfahonga hamda mamlakatning boshqa kentlariga olib kelingan shoiru fuzalolar, hunarmandlar bu yer xalqi ila tez qovushar, taqi urfu odatlariga ham tez ko'nikib ketardilar. Biroq bu ulkan va qudratli davlat siyosatining bundayin maqomga yetishmog'i oson kechmagan, unga anchayin kurashlar ila erishilgan. Mamlakat ichra bu yanglig' tartib o'rnatilishida vaziri azam Nizom ul Mulk hazratlarining xizmatlari beqiyos bo'lgan. Keksa vazir yozgan, shuningdek, allaqachon xalq ichra shuhrat topib, ziyo taratayotgan "Siyosatnoma otlig' risolani mutolaa etgan kishi bunga yanada amin bo'lg'ay. Zotan bu donishmandlikka

yo'g'rilgan risolada tojdorlarga va umuman davlatni idora etmoq ila mashg'ul kishilarga ko'pu xo'p pandu nasihatlar borki, ularni quloqqa olib, amal qilmoq oqillar ishidir. Aslan ham bu kitob saljuqiy shahzodalarni tarbiya etmoq va ularning amallari ila barpo qilingan buyuk hamda qudratli mamlakatni saqlab qolmoq orzusida bitilgan edi. Fozilu donish vazir hukmdorlarga neniki aytmoqni ixtiyor etgan bo'lsa, o'sha gap yoxud unga muqobil rivoyat va hikoyat mazkur risoladan joy olgandi.

Nizom ul Mulk sunniylarning shofein mazhabiga mansub edi. Sulton Malikshohning amakisi, saljuqiylar saltanatining asoschisi Muhammad To'g'rulbek o'lguday sunniyparast hanafiy va bu borada bisyor mutaassib edi. U butun umri mobaynida shofeinlarni qatl etib, quvg'in qilib yashadi. Vale sof sunniylar davlatini barpo etmoqqa qurbu imkoni yetmadi.

Bu g'ayirlik va adovat tuyg'usi sulton Alp Arslonda ham mavjud edi. U shofeinlarni quvg'in qilmasa-da, ularni ochiqdan-ochiq yomon ko'rardi. Ularga ziyon-zahmat yetkazmasligining boisi esa Nizom ul Mullday oqilu dono vaziri borligi va uning shofeinlar mazhabiga mansubligidan edi. Lekin u bundan pinhona afsus-nadomat chekardi. Goho kayfiyati buzilgan paytlarda bu nadomati tiliga ham chiqib ketardi:

-Mening vazirim shofein bo'lmasa qaniydi! Afsus!...-derdi itob ila.

U saltanatni ilki qattiqlik va kuch ila idora etardi. O'zining etiqodiga, yanikim hanafiy mazhabiga juda sodiq va muhabbatli edi. Shofein bo'lgan vaziri azam uning huddi mana shu sadoqatu muhabbatidan xavfsirab yashardi.

Yosh sulton Malikshoh davrida Nizom ul Mulk o'z orzusiga yetdi- hanafiy va shofein mazhablari rasman teng deya etirof etildi hamda ular o'rtasidagi nizolar birmuncha barham topdi. Mamlakatning jamiki joylarida shofeinlarga nisbatan g'ayri munosabatlar yo'q bo'ldi. Go'yoki musulmon dunyosi osmonida oqillik quyoshi balqib, jumla jahon murosa-yu ahillik ziyosiga yo'g'rildi. Bir so'z ila ifoda etilsa, saljuqiylar va demakki, vaziri azam orzusidagi mustahkam saltanat barpo etildi. Davlat idorasiga ahli dinning tasiri kuchaydi. Nizom ul Mulk joriy etgan Nizomiyada (ko'plab fanlar o'qitiladigan va davlat tomonidan taminlanadigan o'quv maskani, zamonaviy tilda aytganda, universitet) va diniy idoralarda mutakallimlar (Islomni ananaviy va turg'un holda tushunuvchi diniy oqim) ko'paydi. So'fiylar alohida hurmatu etiborga ega bo'ldilar, Isfahon so'fiylarining piri komili Adam Shayxning nufuzi ortdi. Xonaqohlar, mullavachcha-yu hofizi Quronlar uchun mamlakat xazinasidan mo'l-ko'l oltinu kumushlar tortiq etilardi. Sulton boshliq ko'plab amaldorlar shofeinlarning marhum imomlari ruhiga izzat-hurmat ko'rsatmoqni odat qildilar.

Vaziri azam shular bilangina cheklanib yoki kifoyalanib qolmasdi. U mamlakatdagi o'z tasirini, nufuzini mustahkamlab borardi.

Bu borada, ayniqsa, uning o'zi joriy etgan Nizomiyalar juda-juda o'ng'ay edi. Ulardagi vazir tomonidan tayinlangan mudarrislar va jome masjidlarining imomlari Quroni karim hamda hadisi shariflarga uyg'un tarzda uning yo'riqlarini ilgari surardilar. Raiyatning shuuriga mashhur va donishmand sohibi devonning fikru nasihatlarini singdirmoqqa urinardilar. Filhaqiqat, bu urinishlar zoye ketmayotgandi, Nizom ul Mulknining mavqei saljuqiylar saltanati aro mustahkamlanib borardi.

Biroq bani bashar baribir bandaligicha qolardi, yani u minbad o'zaro nizolarsiz, kelishmovchiliklarsiz yasholmasdi. Vaziri azamning xohishi va sayi ila mamlakatda shofeinlarga qarshi taqiblar tugatilgandek ko'rinardi, lekin ular o'rtasidagi bu murosa-yu madoralar faqatgina boshkent Isfahonda va taqi bazi viloyatlarda sezilarli edi xolos. Bunga aksil o'laroq ko'plab viloyatlarda va ayniqsa, Islom olamining markaziga aylangan Bog'dodda ular orasidagi nizolar mudom davot etardi. Biroq bu kurashlar asosan om (oddiy xalq) o'rtasida pinhona tarzda olib borilardi. Aslida bu nizolar hech qachon barham topmasligini vaziri azam va boshqa mulohazakor kishilar ham juda yaxshi tushunardilar.

Shunday qilib, buyuk saltanat bir qadar osoyishta hayot kechirmoqda edi...

Saljuqiylar davlatida ko'pchilikka noayon bo'lgan va sulton Malikshoh hamda vaziri azamgina sezib turgan taqi bir xavf quvvat yig'moqda edi. Bu xavfning asosida hanafiylarni va na shofeinlarni tan olmagan, ularning har ikkisiga ham birdek tish qayragan (shialikka mansub) ismoiliylar turardilar. Ularni bir so'z ila tarrorlar (o'g'ri, qaroqchi, tajovuzkorlar) deb ham atash mumkin. Zero bu ahli tarror butun dunyo bo'ylab yoyilib, kuch yig'a boshlagandilar. Saljuqiy saltanatda esa ular asosan Qazvin, Isfahonda va Islom xalifasi-yu shayxulislom hukmron bo'lgan Bog'dodda ko'pchilik edilar. Ularning sanog'i kun sayin ortib borardi. Bu haqda butun saltanat bo'ylab izg'igan hufiyalar kunda-kun ora yangi-yangi xabarlar olib kelardilar. Ismoiliylarning peshvosi vaziri azamga juda yaxshi malum bo'lgan Hasan Sabboh edi va u olampanohning ismoiliylarga qarshi bir reja ixtiyor etganidan ham boxabar edi. Shunga qaramay, ismoiliylar vaziri azamning o'z tanasidagi eng xavfsiragan og'riqli azosidek edi go'yo.

Bu o'y-fikrlar vaziri azamni bir lahza bo'lsin tark etmas, nafaqat shuurini, balki qalbini ham kemirib borardi. Keyingi kunlarda uning ko'ngliga g'ulg'ula solguvchi taqi bira voqea ro'y berdi-sulton Malikshoh hazratlari shikordan hastalanib, buning ustiga kishini xushlamaydigan bo'lib, tund alpozda qaytdi. Olampanohning ruhiyatidagi bu darzning shikor mahali ro'y bergan sher voqeasi tasirida paydo bo'lganligidan boxabar edi. Biroq hastalik chekinib, oyoqqa turgan bo'lsa-da, u hali biron marta vaziri azamni huzuriga chorlamadi. Bu narsa vazirni turli gumonu ishtibohlarga ro'baro' etmoqda edi.

Sohib devonning shundoq ham, yani shuncha tashvishu xavflarsiz ham xotirjam yashashi mumkin emasdi. Chunki uning osh ayoqiga og'u solgan, aniqrog'i, og'u soldirgan g'animlari hayot edilar. Ibn Bahmanyor zindonda sirli tarzda o'lim topgani bilan uning hamtovoqlari, rahnamolari tirik yurardilar. Biroq vaziri azam ularning kimlar ekanligini bilmasdi, bilolmasdi. Goho tanho qolib, o'yga botganda, son-sanoqsiz qo'llar uning girbonidan olayotgandek tuyular va xayolan mislsiz kuch topib, ulardan omon qolardi. Shunday vaqtlari atrofida payt poylab, pisib yotgan behisob kushandalari borligini his qilardi, payqardi...

2

Sultonning dili xufton edi. Dunyoning yarmini zir titratgan tojdor hozir zabun bir ahvolda o'tirardi. Uning bu ko'ngilxiraligi shikorning so'ngida boshlangan ersa-da, saroyda ro'y bergan oxirgi hodisa avvaliga g'azab tulporiga mindirdi. Lekin o'tgan bir necha kun mobaynida g'azabi so'nib, bag'rini o'kinch, alam egalladi, har nimarsaga hafsalasiz ahvolga keldi. Undagi so'ngan o'sha g'azab shohona bo'lgani singari, ayni damdagi o'kinchu alami bir jihati oddiygina insoniy bo'lsa-da, aslida bu tuyg'ulari ham shohona edi. U hatto shohlarga ham dunyo bebaqo ekanligini anglab, har qancha himmatu saxovat ko'rsatmasin, baribir odamiy xiyonatdan, shundoqqina biqinidagi xanjarlar tig'idan omonda qolmasligini anglab turardi. Bu narsani anglash juda eski, biroq har bir odam o'zicha erishadigan shohona kashfiyot edi. Shu kabi bu kashfiyot hamisha boyagidek alam ila nihoyalaniadi...

Sulton qars urib, hojibi dargohni (saroy noziri, qabul marosimlarining mutasaddisi) chaqirdi.

Hojibi dargoh kirib, tazim ila xizmatga shay turgach, buyurdi:

-Avvalan muhtasibni, so'ngra vaziri azamni chorla!

Xizmatchi chiqib ketgach, noxush o'ylar uni taqi ishg'ol eta boshladi. Menga ne bo'ldi? Bunchalar dilzadalik nechun? Ha, bir qiziqchi o'lsa o'libdi, vazirzoda xiyonat qilsa qilibdi? Nima, shunga ham ota go'ri- qozixonami? Yo xiyonatga endi ro'baro' kelishimi? Axir bu Odamdan (Odam Atodan) qolgan sho'rish-ku. Shunga shunchalar alam tortmoq durustmi? Axir u sulton, buyuk

saljuqiylar saltanatining hukmdori! Bu yanglig' ahvolga tushmoq sultonga yarashiqlimi? Yo'q, aslo!..

Aslida gap vaziri azamda ham, qiziqchisida ham va boshqada ham emasdi. Uning ahvoli ruhiyasi o'sha shikorda ro'y bergan ona sher voqeasidan so'ng butunlay o'zgarandi. Lekin o'zida kechayotgan bu ayru holatni o'zi tuzuk-quruq anglamasdi. Vaholanki, shikordan qaytgach, bir oycha hastalanib yotdi. Tabiblar muolaja etdilar, nafasi o'tkir duogo'yga bir necha bor dam soldirdilar, so'fiylar xonaqosiga, beva-bechoralarga xayru ehsonlar qildilar, ammo jismi sihat topsa-da, ruhi, qalbi oromga erishmadi. Mudom shu ahvol.

Haqiqatda esa saljuqlar davlatining sarhadlari kengaygandan kengayib borar, uning chegaralari mag'ribda Hozor va Marvarid dengiziga, shimolda Qofqoz va Qora dengiz sohillariga, janubda esa Fors ko'rfazi hamda Ajamu Shom sahrolarigacha yetgandi. Vizantiya va Misr Fotimiylari ham unga qaram edilar. Bular juda katta hududlarni o'z ichiga olardi va mana shu ulkan hamda bemisl hudud Buyuk Saljuqiylar davlatini tashkil qilardi. Endi Sulton mashriq tomonga ko'z tikmoqda edi. Uning o'yida qoraxoniylar davlati bo'lmish Movarounnahr sari yurish qilish rejasi ham bor edi, biroq buni hali hech kimsaga oshkor etmagandi. Hojibi dargoh kirib, muhtasib Sayyid Muhammad Badriy kelganligini malum qildi. Sultonning ijozati ila ko'p o'tmay huzuri muborakda muhtasib paydo bo'ldi. U olampanohga tazim qilib, uning ishorasi ila taxtning so'l yonidagi o'rindiqqa o'ltirdi. Sulton ilki ostidagi Nizom ul Mulk bitgan va o'ziga tuhfa etgan "Siyosatnoma kitobini olib, Badriyga uzatdi. So'ng:

-Shariatda xiyonatga jazo bormu, muhtaram Badriy janoblari?-dedi past, o'ychan ovozd.

Keksa muhtasib shoshib qoldi. U tabiatan juda hurkak edi va hozir ham joni ko'ziga ko'rinib ketdi. Sho'rlik birovga, biron gapga qarshi chiqmoqlikni umumun xushlamas va istamasdi ham. Hozir ko'zlarini jovdiratib, sukutda qolmog'i ham ayni damda maqbul so'zni izlayotganidan edi.

-Nechun indamaysiz? -Sulton bu so'rog'ini javobsiz qoldirish mumkin bo'lgan manoda aytdi.

-Agar olampanoh...

Tazim ila kirib kelgan hojibi dargoh muhtasibning gapini bo'ldi va vaziri azam kelganligini malum qildi.

Nizom ul Mulk huzuri muborakka kirib, bosh egib salom berdi va sultonning ishorati ila uning o'ng yonboshidagi kursiga o'ltirdi.

U xiyol sarosimali ko'rinar, hatto boya tazim qilayotganida noqulayroq say etdi chog'i, amomasining (sallasining) pechi (sallaning chap tomonida osilib turadigan qismi) yelkasidan sirg'alib tushib ketdi. Keksa vazir buni o'tirgach payqadi va osilib qolgan pechini shoshib o'ng yelkasiga tashladi. Uning bu bezovtaligi sulton hazratlarining o'zgarib qolganligi va uni shu kungacha biron marta yo'qlatmay, banogoh huzuriga chorlab qolganligidan edi.

Sulton vazirga o'grilib, miyig'ida kuldi va dedi:

-Vaziri azamning sihatlari durustmi?

Vazir shuurida bu so'roqqa turli manolar berarkan, tazim qildi.

-Shukur, olampanoh. Sultonimning soyayi davlatlarida hamisha omondamiz.

-Biz ulug' bir donishmandlik kitobidagi hikmatni siz ila baham ko'rmoqni ixtiyor etdik.-dedi sulton muhtasibga "o'qing manosida ishorat qilarkan, hali belgilab va unga tayinlab qo'ygani sahifani ochishga buyurib.

Vaziri azam o'z kitobini tanidi va bir noxushlikni sezib, ichidan zil ketdi.

Ozg'in, rangpar muhtasibning nafaqat ilki, hatto siyrak soqoligacha titrardi. U o'shandayin titroq ovozda kitobni o'qiy boshladi:

"-Husravi Parvezning vaziri Bahrom Cho'bin ila munosabati boshda yaxshi edi, uni ko'p hurmat qildi. Usiz hatto taom yemas, biron piyola gulob ham ichmas edi. Shikorda ham, saroyda ham ular hamisha birga bo'lishardi. Kunlardan bir kuni Hirot ila Saraxsning omillari podshoga har bittasi bir xarvordan zarur va qimmatbaho yuk ortilgan uch yuz bosh tuya olib keldilar. Husravi Parvoz bularning hammasini Bahrom Cho'binga berdi.

Ertasi kuni Husravi Parvezga noxush xabar keltirdilar-Bahrom Cho'bin g'ulomini qip-yalang'och qilib qattiq savalabdi. Podsho darg'azab bo'ldi va Bahrom Cho'binni darhol chaqirtirib keldi, so'ng qurchiboshiga "Qurxonadan besh yuz shamshir olib chiq!-deb buyurdi. Qilich olib chiqilgach, Cho'binga qarab murojaat qildi:

-Qani, Bahrom, qilichlar ichidan yaxshilarini tanla!

Bahrom yuz ellik qilichni saralab oldi.

Shundan keyin podsho yana dedi:

-Shu qilichlardan o'nta yaxshisini tanla!

Bahrom tanlab, chetga terib qo'ydi.

Podsho yana buyurdi:

-Endi shu o'n qilich ichidan keskir ikkitasini tanla!

Bahrom eng yaxshi va keskir ikki qilichni tanlab olib, podshoning oldiga qo'ydi.

-Endi,-dedi podsho, -har ikkala qilichni bir qinga joylashtir.

Bahrom Cho'bin hayron bo'ldi, so'ng dedi:

-Alo hazrat! Axir ikki qilich bir qinga sig'maydi-ku?

Podsho dedi:

Podsho dedi:

-Unday taqdirda bir mamlakatga ikki hukmdor sig'adimi?..

Badriy o'qishni to'xtatib, kitobni asta yoparkan, sultonga qarab mo'ltiradi.

Vaziri azam boshidayoq o'qilayotgan hikoyatni eslagan va sulton nima demoqchi ekanligini fahmlagan edi. Biroq hukmdor ne bois bu hikoyatni o'qitayotganligini anglolmay halak edi.

Sulton bo'lsa, hikoyat tugagach ham manglayini tutib, o'ng yonboshiga suyanganacha ancha sukutga toldi. Nihoyat vazirga manoli tikildi-da,

-Ana shundoq!..-dedi yumshoq zarda ila.

Vazir "aybim ne degandek hayronu lol turardi.

-Sizga ijizat!-dedi bir mahal sulton vazirga o'lganning ustiga tepgan yanglig'.

Nizom ul Mulk zabun bir ahvolda xayollari chalkashib, eshikka ravona bo'ldi. U chindan-da yaqindagina ro'y bergan dahshatli voqeadan bexabar edi...

Sulton hastalikdan so'ng oyoqqa turgach, ko'ngil xiraligini yozmoqni istab qoldi. Bir xayoli Xayyomni chorlamoqchi bo'ldi. Lekin shoir uning muolajasi ila bandligi bois kunda-kun osha shu yerda ekanligini o'ylab, dili yangilikni tusadi va suyukli qiziqchisi Jafarak Chuchukni chorladi. Ahli saroy buyuk bir sarosimada qoldilar, chunki qiziqchi allaqachon uqboga rixlat qilgan, bu sovuq

xabarni bemorlikdan endi-endi xalos bo'layotgan sulton hazratlariga yetkazolmay necha kundirki xizmatchilarning holi tang edi. Ana endi tojkor o'z qiziqchisini yo'qlab qoldi-yu... Har tugul endi shum xabarni alo hazratga yetkazmoq o'ng'ayroq. Yetkazdilar ham...

Jafarak Chuchuk saroy ayonlari huzurida vaziri azamni rosa masxara qilgach, vazir bu og'ir yukni ming azob ila ichiga yutib qo'yavergan edi. Biroq bu gap ustomon kimsalarning chaquvi ila vazirning to'ng'ich o'g'li, Chuchuk aytmoqchi, o'n ikki "sakbachchaning biri bo'lmish Balx hokimi Jamol ul Mulkning qulog'iga yetib borgach, u o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Itobga kelib, alamdan va o'ch ishtiyoqida tishlari g'ichirladi. Jamol ul Mulkning felida sarkashlik (qaysarlik) va kibru havo ustivorroq edi. Ushbu vajhdan sulton Malikshohni uncha xushlamas, bu borada otasining nasihatlariga ham uncha quloq tutmasdi. Hali sulton Alp Arslon hayotligidayoq otasi unga yosh shahzoda Muhammad Jaloliddinga, yani Malikshohga vazirlik mansabini tavsiya etganida, u "Shu go'dakka vazirlik qilamanmi! deya rad qilgandi. Undagi o'sha munosabat va fikr mudom saqlanib qolgandi. Shuning uchun Jamol ul Mulk battol masxarabozning adabini berib qo'yish niyatida ertasigayoq dorulsaltanat sari yo'lga chiqdi. Isfahonga yetib kelgach, Jafarakni tutdi va avval uning tilini kesib, qonga beladi. So'ng bo'g'izlab tashladi. Bu haqda na otasiga va na boshqa biron bir so'z aytmay Balxga qaytib ketdi...

Uning bu qilmishi sultonning yuziga oyoq qo'yimoqlik va hatto uni ochiq-oshkora pisand qilmaslik ila barobar edi. U go'yo Malikshohni kurashga davat etardi. Sulton ham bu davatga "labbayka deya javob berdi va vaziri azamni bu mudhish qilmishdan boyagidek kinoya ila voqif etgach, tunda Balx sari hufiya kishi yubordi. Hufiya Balxga yetib borib, Jamol ul Mulkni pinhona bo'g'ib o'ldirdi va ikki oydan so'ng boshkentga og'ir xastalikdan qazo qildi, degan xabar olib keldi.

3

Vaziri azam sulton huzuridan chiqqach, avbosh o'g'lining qilmishini eshitib, tahlkada yurgan kunlarda ayonlar taqi saroyga chorlandi. Sulton Malikshoh harbiy mashvaratni ixtiyor etgan edi. U mashvarat chog'i qoraxoniylar hukmronligi ostida bo'lmish Movarounnahrda lashkar tortmoqchi ekanligini oshkor etdi. Bu xabarni eshitgan saroy ayonlari, sipohsolar (lashkarboshilar) olampanohni muborakbod etib, olqishladilar. Qalbi tahlka-yu andishada bo'lgan Nizom ul Mulk esa zohiran olqishlarga xayrixoh tursa-da, yonidagi Umar Xayyomga zimdan manoli qarab qo'yadi. Chunki...

Akasi sulton To'g'rulbekdan so'ng saljuqiylar taxtiga o'ltirgan sulton Alp Arslon uning Bog'dod xalifasining aralashuvi bois amalga oshirolmagan niyatini ro'yobga chiqarishga ahd qildi. To'g'rulbek zamonida qoraxoniylar hukmdori Tamg'achxon uning tajovuzlaridan xalifaga arz qilgan va xalifa har ikki tojdorni murosaga solgan edi. Bu davrga kelib, Bog'dod xalifaligi inqirozga yuz tutgan, xalifaning ham, shayxulislomning ham mudom omonligi Islomning hurmatidan edi xolos. Aslida butun sharqiy olamga buyuk saljuqiylar hukmronlik qila boshlagandilar.

Shunday qilib, hijriy 450 (milodiy 1071) yilning boshida sulton Alp Arslon qariyb ikki yuz minglik qo'shin ila Movarounnahr sari yurish boshladi. Bu yurt xalqining azaliy xaloskori, himoyachisi bo'lmish ko'hna Jayhun sohillariga yetib, bir muddat nafas rostlash bahonasida daryo uzra ko'priklar qurdirishga tushdi. Kunlarning birida saljuqiy sipohiylar shubhali bir kimsani tutib keltirdilar. Oshkor bo'lishicha, bu kimsa qoraxoniylar saltanatining darvoza shahri bo'lmish Termiz qalasining qutvoli (komedanti) ekan. U sultonga muhim bir sirni aytmoqchi ekanligini bildirgach, uni sulton Alp Arslonga ro'baro' qildilar. Yusuf otlig' kimsa g'animning jonfido hufiyasi bo'lib chiqdi- u sultonga yovuq kelgani hamono uning ko'ksiga xanjar urdi va o'zi ham soqchilar ilkida tilka-pora bo'ldi. Sulton qattiq yaralangani sababli qo'shinni orqaga qaytardi va Isfahonga yetib kelgach, omonatini topshirdi. Taxt vorisligini o'g'li Jaloliddin Malikshohga hamda unga rahnamolikni suyuqlikni vaziri Nizom ul Mulkga vasiyat qildi.

Hali qoni qaynoq bo'lgan yosh sulton tez orada padari buzrukvorining xunini talab qilmoqni ixtiyor etib, kelasi yili ko'klamdayoq Buxoro sari yurishga hozirlik ko'ra boshladi. Biroq Buxoro qozikaloni Abu Tohir vaziri azam Nizom ul Mulkga maktub ila kishi yo'llab, bu yurishni to'xtatishligini o'tindi. Evaziga boju xirojlar miqdorini ziyoda etmoqlikni vada qildi. Qozikalon mo'ljalni to'g'ri olgandi. Chunki vaziri azam sultonga murojaat etib, Movarounnahr yurishini to'xtatishlikka erishdi. Unda sulton Malikshoh hali yosh, vaziri azamning yo'liga yurguvchi, ko'p yumushlarda unga itoat etguvchi va shu ila ota vasiyatini bajarayotganligidan shodlanuvchi g'uborsiz yigitcha edi. Endi esa u ulg'aygan, o'z fikrida qattiq turguvchi sarkash hukmdorga aylangan va shon-shavkati Nizom ul Mulk zakovatining ko'lkasida qolayotganligini tushunib yetgandi. Qolaversa, zurriyodi qilgan avboshlik vaziri azamga bo'lgan ishonchiga ham putur yetkazgandi. Endi bu urushga qoraxoniylar naslidan bo'lmish malika Turkon Xotun ham monelik qilolmasligi aniq edi. Bundan tashqari, qozikalon Abu Tohir olamdan o'tgan, Buxoroda avomga nisbatan jabr-zulm kuchayib, uning avvalgi hukmdori Shams ul-Mulkning o'g'li Ahmadxon sultonga itoatsizlik qila boshlagandi. Vaziri azam ham, Xayyom ham bu narsalardan boxabar edilar va ayni damda Movarounnahr saltanatining oldingi kuch-qudrati qolmaganligini ham yaxshi bilardilar. Ahmadxon hali g'o'r, qisqa o'ylaguvchi yigitcha edi. Ammo Xayyom bir zamonlar dunyoga ilkin cho'zgan qoraxoniylar sulolasining shon-shavkatini, aqlu zakosini yaxshi bilardi...

Sulton ko'klamda boshlanajak Movarounnahr yurishiga tadorik ko'rish haqida farmon bergach, mashvarat yakun topdi. Qazviniiy huzuri muborakdan chiqarkan, muhtasib Badriyni ertaga shahzoda Takash hazratlari huzurida bo'lajak, uning o'zi aytmoqchi, "muhim suhbatga taklif etdi.

4

Ertasi kuni Qazviniiy shahzoda Muhammad Takashning saroyiga kirib kelganida (saljuqiy shahzodalar va malikalar o'zlarining alohida qasr-saroylariga ega edilar.) u o'z qasrining tomida edi. Shahzodaning feli-yu odatlaridan anchagina boxabar bo'lgan amirul shuaro to'g'ri qasr tomi sari yo'naldi.

Takash bolalikdan kabutarboz edi. Qasrining tomi ustiga bir necha qo'noqlar o'rnatilgan bo'lib, ularda hamisha turfa xil kabutarlar tizilib turar, bir qismi esa osmoni falakda charx urardi. Uning yuzdan ziyod kabutarlari bor edi. Hozir ham osmonda bir gala kabutarlar uchib yurar, yumshoq oromkursida par bolishlarga suyanib, yonboshlab kuzning iliq va yoqimli oftobiga toblanib o'tirgan shahzoda Takash ulardan ko'zini uzolmas, goh qars urib, goh qiyqirib, hurkitar, taqi chiroyliroq raqs etmoqqa undardi. Ayni damda u dunyodagi jamiki narsalarni birin-ketin kashf etib, hayratga tushayotgan masum go'dak monand ediki, qanotli go'zal mahluqlarning harakatlaridan zavqu shavqqa to'lib, sakrab yuborguday bo'lardi. Unga sayin qanot qoqqanida bir parcha nur misol ko'ringuvchi kabutarlar tobora yuksalib borardi. (Uning xush odati xizmatkorlari uchun ham naflil edi. Ular kabutarlarning go'ngini ko'nchilarga pinhona pullardilar. Kabutar go'ngi teri oshlashda juda naf keltirarkan.)

Sultondan bir yoshgagina kichik bo'lgan Takash uning ona boshqa inisi edi. U ozg'in, novcha bo'lib, ko'zlari chinakam

sahroyilarga xos qisq, burni katta, yonoqlari bo'rtgan, to tabassum qilmaguncha kishini o'zidan nari surib turguvchi qiyofali inson edi. Buning ustiga u juda kam kular, yuzi hozirgidek kabutarga oshno damlarda ko'proq yorishardi.

Qazviniy xushomadga uyg'un tazim ila unga yaqinlashdi. Shahzodaning kabutarlar parvozidan sirayam ko'z olgisi yo'q edi.

Shuning uchun avvaliga shoirni xushlamayroq kutib oldi va so'ng kechagi kelishuvlari yodiga tushdi shekilli, zo'raki mulozamat ko'rsatdi.

-Ajab toza ko'nglingiz bor-da, shahzodam,-dedi Qazviniy Takash ko'rsatgan o'rindliqqa o'ltirarkan, xushomadgo'ylarcha bidillab. -Do'stlaringiz parvozidan hamisha shodlanasiz. -Uning pachoq basharasi Takashning cho'ziq yuzi qarshisida ayanchli darajada kichik ko'rinib, amomasining ostida qolib ketgandek tuyulardi.

Qazviniyning tagdor gapi shahzodaga maqul tushib, xiyol jilmaydi.

-Muhtasib ko'rinnmaydilar, shoir?-deya so'radi u Qavviniyga bir yo'la o'g'rilib.

-U yuraksiz taka soqoldin ne naf, shahzodam. Baribir biron korga yaramaydur!

Xizmatkor iliq gulob keltirdi.

Ichdilar.

-Jafarak tufayli sultonimiz battol vaziridan yuz o'girdilar. O'zini qo'yarga joy topolmay yuradur qanjiq sak. -Qazviniy Chuchukning vaziri azam haqidagi payroviga ishora qilib, xiringladi. -Aslida rahmatli Ibn Bahmanyor solgan og'udan o'lib keta qolgani durust edi. Endi hali farzand dog'ini ham tortmasaydi. -U Jafarak Chuchuk uchun sultonning albatta o'ch olishini nazarda tutayotgandi.

Takashning yuzi taqi yoqimsiz ahvolga keldi.

-Ha, Ibn Bahmanyor mardona turdi. Ammo baribir zindonbonga aqcha berib, azobini yengillashtirmaganimizda oxirigacha bardosh qilolmasdi. Bizni ham oyog'imizdan tortardi. -Takash biroz jim turgach, qo'shib qo'ydi.- Minbad bu yuraksizlikdan emasdurki, hali istiqbolimizda buyuk ishlar turibdur. Alarni ro'yobga chiqarmog'imiz uchun ham biz yashamog'imiz darkor.

-To'g'ri aytasiz, shahzodam. Sultonlik asli sizga yarashiqli. -Qazviniy ovozi pasaytirib, hech kim yo'qligini bilsa ham u yon-bu yoniga qarab oldi.- Endi anovi xudosiz mayparstni daf qilsak, murodimiz ikki hissa hosil bo'lg'ay.

-Ha, u majusiyparast ham sultonning ishonchiga kirib oldi. -Takash taqi bir to'xtaldi.- Biz ana shu ishonch chirog'ini so'ndirmog'imiz lozim.

Qazviniy darrov gapni ilib ketdi:

-Uning dushmani o'z sherlari. Ular sher emas, lainning nayranglari. Taqi u bu sherlarini, - u manoli jilmaydi, -malikamizga o'qib, ko'ngilxushlik qiladur. Sultonimizga yetkazsak kifoya, shahzodam.

Takash jim qolib, barmog'idagi zabarjad (och pista rang qimmatbaho tosh) ko'zli uzugini boshqa ilkining uzun barmoqlari ila o'ynab, unga tikildi.

Shoirlar amiri paytdan foydalanib, taqi xushomad otiga qamchi bosdi:

-Bu barmoqlarga sultonning muhrli uzugi yarashadur, shahzodam!

Takash yalt etib unga qaradi-da, mamnun jilmaydi va dedi:

-Sultonimiz ko'klamda Movarounnahr ustiga qo'shin tortmoqliklarini aytdilarmi?..

Qazviniy unga savol nazari ila tikilarkan, "shunday dedi sekingina.

Takash uni yaqinroq kelishga undadi va pichirlab muhim bir rejasini tushuntira boshladi...

Uchinchi bob

1

Umar Xayyom bu kech ijod ila mashg'ul edi. Bir zamon uning oshyonasi ostonasida Mikoil paydo bo'lib, odob yuzasidan tomoq qirdi-da, shoir ishdan bosh ko'tarib, u tomon qaragach, kirmoqqa ijozat so'radi. Xayyomning o'ychan nigohi unda bo'lgani holda xayoli yozayotgan asari ila band edi. Shuning uchun ostonada turgan Mikoilning muddaosini angalayolmay bir muddat unga so'zsiz tikilib qoldi. Nihoyat shuurida qatlangan fikrlar bir yonga surilib, ro'baro'sidagi kishining nimadir demoqchi ekanligini ilg'adi. Ilg'adi-yu vujudida ojiz bir itob uyg'onganini ko'zlari oshkor etdi va Mikoilga "kel dedi xushlamaygina. Uning felida qo'rslik, hatto haqgo'ylik ortidan vujudga kelguvchi xiyol dolozorlik mavjud edi va ayniqsa, uni suyuqli mashg'ulotidan chalg'itsalar, ilhomiga darz solsalar toqat qilolmasdi. Mikoil xojasining bu felini har tugul yaxshi bilardi. Ayni damdagi harakatlari esa chorasizlik tufayli paydo bo'lgan shoshqaloqlikning mahsuli ediki, bu suyuqli sohibiga biroz erkalanish hissiga ham qorishib ketgandi.

Xayyom unga qovoq uygancha "o'tir deganday ishora qildi.

-Ne muddaoing bor? -deya so'radi shoir, u ro'baro'siga o'tirgach, yer ostidan.

Mikoil xojasining xushlamaganligidan esankirab, kalovlanib qoldi:

-Afu etgaysiz, xojam... Men...

-Og'zingga chandir solganmisen, nechuk buncha chaynalasen?! -Xayyom xizmatkorini dadillikka undadi.

-Avval ham bir o'tinchimni aytib erdim, hojam...

Esladi - u sevgilisi Layli haqida gapirgandi. Agar malikadan ruxsat olib bersa, Xayyomning oq fohisi ila unga uylanmoqchi ekanligini aytgandi. Nechuk uning bu o'tinchini faromush qildiyn? Ha, bir-ikki bor malikaga ro'baro' kelganida tilining uchiga ham kelgandi, biroq Turkon Xotundan qarzdor bo'lishlik hissi ustun kelib, tiliga bog'ich solgandi. Keyin esa unutibdi. Qolaversa, u hukmdorlar ila muloqotda bo'laverib pishib ketgan, ularning huzurida so'z aytganda xushyorlik lozimligini juda yaxshi tushunib qolgan edi. Bu borada yetti o'lchab, bir kesgan maqul. Bu dunyo, saroylar uning qalb atalmish hur saltanati emaski, istagan so'zini aytib, istagan falsafasini, fikrini to'kib solsa. Yo'q, ularning saltanati uning qalb mamlakati hoqoniga bo'yin egmaydi. Ularning o'z qonun-qoidalari, toshu torozulari va hatto o'z shariatlari bor. Shul andishalar bois uning iltimosi xayolidan faromush bo'libdi.

-Yodimda,-dedi mudom to'ng ovozda so'zlayotgan Xayyom. -Fursat kelganda ayturmen malikamizga. Nechuk buncha oshiqursen? Mikoil xijolat tortib, bosh egdi va xazin bir ovozda dedi:

-Oshiqmoqligim boisi, Layli bisyor aziyatda qolmish, xojam. Malika saroyidagi mojarolardin...

-Bas! -Xayyom Mikoilning gapini keskin bo'ldi. -Hasrating ikki dasturxondin osharkan-ku, ey, ayiqboz. Senga ijozat, boraqol!

Mikoil itoatkorona bosh egib, o'rnidan turdi va eshik tomon yo'naldi.

Xayyomning bag'rini nimadir tirnaganday bo'ldi. Hozir u o'zining fikr olamidani qaytib, shuuri dunyoviy tashvishlar qurshoviga tushmoqda edi. Bunchalar dilozorlik nechun? Nahotki bir shirin so'zga yaramasa?!

Mikoil ostonaxatlayotganda uni to'xtatdi:

-Menga qara, Mikoil.

Yigit to'xtab, ortiga o'grildi.

-Polvonning o'zga bir ovozda o'kiradurg'on bo'lib qolmadimi? Hatto ko'zlari ham bejo boqadur?- Xayyom kuldi. -Yoki u ham sohibi kabi ishq dardiga muhtalomi?

Mikoil jilmaydi.

-Men sezganim yo'q, xojam.

-Etibor qilchi, balki sezarsen...

U chiqib ketdi. Xayyom uning ko'ngil xiraligini biroz yoritganidan taskinlanib, ijodga qaytmoq ilinjida qog'oz uzra o'girildi. Biroq endi ijod zavqi so'ngandi, boshidagi fikrlar tirqirab ketgandi. Shuning uchun xafsalasi pir bo'lib, taqi Mikoilni esladi.

Filhaqiqat, uning ayig'i o'zga bir atvorga kelmiş. Uni ko'rib, bir paytlar ayiqlar haqida eshitgan gapi yodiga tushdi. Aytishlaricha, tutqun ayiqlar umr intihosida o'z sohibini halok etarmish. Buni bilganlar aytib erdi. Polvonning felidagi o'zgarishni payqab, goho Mikoilning taqdiridan xiyol xavotirga tushib yurguvchi edi. Mana endi o'sha xavotirni andak oshkor etgan bo'ldi.

Darvoqe, vaziri azam ertaga Nizomiyaga taklif etibdi - talabalarga vaz aytib, saboq berishi lozim emish. Bechora o'g'lining qilmishidan andishaga, taqdiridan qo'rquvga tushganligi rost. Keksayganida bu ko'rgilik unga og'irlik qilmog'i aniq. Avbosh bolaya! Nahot podshohga hamla qilsang? Axir u hukmdor, so'zi tugul, bir kiprik qoqmog'i seni chilparchin qilmog'i mumkin. Buning ustiga podshohning xeshu yaqinlariga itobichi? Bularni o'ylamoq uchun aql darkor, bola! Padaringni ne ahvolga solding-a! Endi sho'rlik talabalar ila muloqot qilib ovunmoqchi shekilli. Ha, vaziri azam talabalarga saboq bermoqni, vaz aytmoqlikni xush ko'rardi. Shul bois u Nizomiyaga ko'p kelardi. Xayyom esa uning aksi-tabiati kamgap bo'lganligidan har turfa jamoatlardan o'zini olib qochar, ilmi toliblarga vaz aytmoqni ham yoqtirmasdi. Ehtimol u madrasa talabalari baribir meni tushunmaydilar, deya begonasirarmidi yoki ularning tilini topib, diliga yo'l sololmasligidan xavfsirarmidi, ne bo'lganda ham u madrasa ostonasiga kam qadam qo'yardi. Uning feli shunday edi. Yo'q, aslida undayin ham emasdi, mabodo qulfi dili ochilsa, ro'baro'sidagi kishilarning ko'zlari uning suhbatini angelayotgan yanglig' tashna boqayotganliklarini payqasa, chunonam so'zlardiki, o'zini unutib qo'yardi. Ayniqsa, uning o'zigagina xos bo'lgan mastona bir ilohiy jazba holatida sher o'qiganida butkul boshqa odamga aylanardi. Ming afsuski, uni o'qib tinglaguvchilar va anglaguvchilar ozchilik edilar.

Kanizak Parmuda ohista qadamlar ila kirib, ilkidagi ko'raga (may idishi) va sopol piyolani xontaxaning bir burchagiga qo'ydi.

Unda Xayyomning o'zi tayyorlab bergan giyohlar damlamasi bor edi. Shoir undan issiq-issiq ichmoqlikni xush ko'rardi. Bundan juda yaxshi boxabar bo'lgan kanizak uning ko'nglini olmoq istagida edi. Biroq Xayyom hozir xayollaridan ayru tushmoqni istamasdi, shuning uchun kanizakning bemavrid kirib kelishi dilida g'ashlik uyg'otdi. Zimdan unga boqarkan, hamisha go'zal ko'ringan va aslida ham sohibjamol bo'lgan Parmuda ko'z o'ngida badqiyofali bir kimsaga mengzadi. Buncha xunuk bo'lmasa-ya bu kanizak! Avval ko'zim qayoqdaydi? Fahmu farosati ham hamin qdar, aksi bo'lsa, ayni xayol ummoniga g'arq bo'lganida kirib kelarmidi... Bas! Biron gulyuzni topib, uylanganim bo'lsin. Balki shunda bul kabi xayolkushlardin yiroq tushurmen!.. Mana shu noxush va shuningdek, uning uchun g'ayrishiuri bo'lgan o'ylar asnosida ko'z o'ngida Maryamning go'zal siymosi vujudga keldi. Parmuda va xonadagi nimqorong'ulik undan uzoqlashdi, qalbiga oydinlik indi. Maryam juda go'zal edi va taralayotgan nurga qorishib ketganday ko'rindi. Hozir u ham ana o'sha nurga singib borardi...

Parmuda shoirming yuzidagi manoni anglayolmay, indamay qaytib chiqib ketdi.

Maryam hozir ne qilayotir ekan? Tez-tez hastalanguvchi otasining ko'nglini ovlamoq ila bandmikin? Yo bu kabi u ham xayol og'ushidamikin?.. Buloq boshidagi onlarni eslarmikin?!.. Xayyomning vujudi otashlana boshladi. Uning tanasi oppoq, qahrabo yanglig' edi. Sochi, qoshu kiprikleri tim qora, go'yo qora tusli alanga lovullayotganga o'xshardi. Lablari pushti, silliq, ulardan buloq suvining bo'yi keladi. Labining o'ng kunjida lablariga uyg'un holda hamisha titrab turguvchi xoli bor. Oh, bu xol ostidagi qimtilgan mavodan dimoqqa urilguvchi xushbo'y tam! Jonni nisor etsa arzir ul bo'yga!..

Kimdir tomoq qirdi.

Xayyom olis-olislardan qaytganday bo'ldi. Qarshisida xiyol bukchaygancha turgan Rindoniy kirmoqqa ijozat so'ramoqda edi. Taqi uning manglayi tirishdi, bag'ridan bemisl bir nara ot ilmoqqa shaylandi.

-Oromingizni buzdim, chog'i, xojam? -dedi kulrang tusga kirgan soqol-mo'ylabidan may hidi anqigan Rindoniy andak xijolat tortib.

Xayyom oshkora zarda ila dedi:

-Oromimni emas, beoromlig'imni buzdingiz, ey, Rind.

Keksa farrosh ne qilarini bilmay, mulzam bo'lib qoldi.

Shoirming esa mudom zardasi qaynardi:

-Menga g'ayri kengash tuzganmisizlarki, bu kech aslo o'z holimga qo'ymag'aysizlar!

Rindoniy tazim ila tezroq juftakni rostlamoqqa shaylandi.

Xayyom sadoqatli va ayni shuningdek, darvesh ko'ngilli kishisini ranjitib qo'yishi mumkinligini darhol fahmladi, fahmladi-yu qon tomirlari uzra barq urgan bir nimarsa lahzadayoq butun vujudini kezini, shuuriga sanchildi.

-Ne yumushingiz bor edi, ey, Rind? -dedi ostonadan g'oyib bo'layozgan farroshni to'xtatib.

U ortiga qayrildi va shoirming nigohidagi qaytishni sezib, xiyol jilmaydi:

-To'fon tindimi, xojam?

Xayyom avvaliga uning so'zini anglamadi va birdan parishon ko'zlarida tabassum porladi.

-Inshoolloh, tindi.-dedi va Rindoniyni o'tirishga undadi. -Muddaoni ayting, taqsir.

-Xo'p bo'ladi, xojam.-Farrosh birrov taraddudlanib oldi-da, so'zida davom etdi, -Rasadxonamizning tabboxi anchadan beri

hastalanib yurib edi, xabaringiz bor. Bu kun butkul holdan toyib, yotib qolibdi. Ahvoli ancha mushkul, xojam. Shul vajhdan, oshpazlikni o'zim evlab tusammikin, deb kelib edim. Sizning ijozatingiz ila, albatta.

Xayyom biroz jim turdi-da, dedi:

-Ijzat. Erta oqshom chog'i tabboh holidin xabar olg'aymiz. Bechora qizi Rayhona yo'qolganidan so'ng o'nglanolmadi. Shul ayriliq dardi yiqadi (yiqitadi) shekilli uni. -Uning nigohida taqi parishonlik zuhur eta boshladi.

Buni payqagan Rindoniy suhbat poyoniga yetganini fahmladi-da, bir ishorat ila ijozat so'rab, chiqib ketdi.

Xayyomning tafakkur bo'stonida fikr giyohi unmoqda edi. U o'zining boshidan shu so'nggi soatlarda o'tkazgan kechmishlarini o'ylab, taftish qilar va o'zicha ulug' bir kashfiyot yasardi: demakki odam bolasining erki, ko'ngil hurligiga qanchalar dahl qilinsa, u shunchalar zulmkor bo'lar ekan. Demak, inson tuyg'ularini hadlashga say etmoq yovuzlikdir. Yo, Olloh! Uning o'zi shu o'tgan

qisqa fursat mobaynida o'z erki, ko'ngil maylining hurligi deya necha dilga ozor bermadi axir!..

U ilkiga xomani olib, oldidagi qog'ozning bir chetiga yozib qo'ydi: "Butkul hur bo'lmoqlik yovuzlikka aksil buyuk isyondir.

2

Nizom ul Mulk joriy etgan Nizomiya madrasalarida saboqlar juda erkin tarzda berilardi. Ilmu fanga sulton hazratlarining ham, vaziri azamning ham xayrixohliklari borligi bois ushbu ilm maskanlarida inson tafakkurining durlari "bu Islomiy, bu noislomiy deya ajratilmasdi. Shu sababli ham ilmi toliblar Payg'ambar alayhissalomning "Hatto Chindan bo'lsa ham borib ilm o'rganing, degan hadisi sharifini o'z suluklariga charog' qilib olmishdilar. Vaziri azamning murodiga binoan davlat mahkamalarida ham ishlashlari ko'zda tutilgan bu talabalar hukm surgan o'shal eminlik bois hur fikrlarga sohib edilar. Biroq sulton va vaziri azamning amrlari ila hufiyalar hamma joylarda izg'ib, payqaganki shubhali gap-so'zlarni saroyga yetkazib turardilar. Bundan Xayyom ham juda yaxshi boxabar edi.

Vaziri azam o'tkir voiz edi va ilmi toliblar shuning uchun ham uni xush ko'rardilar. Avvalo u oliy martabali amaldor bo'lganligi, hamki vazlari tasirli hamda chuqur bilimga asoslanganligi bois va nihoyat bazi talabalar esa uning nazariga tushmoq ilinjida saboqlarni qoldirmaslikka urinardilar. Vazir saboq bermoqlikni yoqtirar, yosh-yosh yigitchalarning chaqnoq nigohlari, ilmg'a tashnaliklari uning zavqini keltirardi. Qalbiga mahzunlik cho'kib, anduh bossa, jismu joniga dunyo tor kelsa, madrasaga oshiqardi. Talabalar ila muloqot va uzoq vaqt berilib qilingan vazxonlikdan so'ng yengil tortardi, ko'ngli yorishardi. Madrasa saboqlari uning dil dardiga malhamu shifo yanglig' edi.

Bu kun Nizomiyaga vaziri azam ila amirul fuzalo Umar Xayyom ham kelganligidan xabar topgan ilmi toliblar ikki karra xushnud bo'ldilar. Madrasada kamnamo bo'lgan shoirning tashrifi, bu yerdagi hurlik bois yoshlik sururiga esh parvozpesha va olis yulduzlarga ko'z tikkan bazi daryodil ilmi toliblar uchun, ayniqsa, quvonchli edi. Ular shoir va olim Umar Xayyomning betakror hamda ilhombaxsh fikrlarini tinglashga oshiqardilar.

Saboq mahali vaziri azam ham ishtirok etmoqni ixtiyor qildi. Balki u ayni damda bezovta bo'lgan qalbiga halovat, dil yarasiga malham istab shunday qildimi yoxud Xayyomning so'zlarini tinglagisi keldimi, noayon. Darsxonaga Xayyom ila kirdi-yu bir chetga o'tib, tolib misol o'ltirib oldi.

Xayyom juda ravon va oddiy tilda ehtirosli so'zlardi. Goho o'z so'ziga berilib ketganidan chakka tomirlari bo'rtib, ovozi balandlab ketardi. Lekin hech vaqt duduqlanib yoki gapini yo'qotib qo'ymasdi, so'z, fikr tilidan, shuuridan daryoday oqib kelardi.

U so'zini Mutlaqiyat (Olloh) va inson, ularni anglash, ularning o'zaro hamda tashqi olam ila munosabatlari xususida gapirmoqdan boshladi. Har bir fikrini faylasufona mushohada qilarkan, Quroni karim va Hadisi shariflar ila dalilladi. Nihoyat tabiat haqidagi falsafiy fikrlarini nujum ilmi ila uyg'un etib, kavokibu (yulduzu) sayyoralar va umuman koinot, uning tuzilishi borasida so'zladil.

Uzoq gapirdi. Saboq benihoya tasirchan va qiziqarli bo'lganligi tufayli toliblar orasida biron bora bezovtalik yoxud zerikish sezilmadi. Barchalari jon qulog'i ila tingladilar. Hatto vaziri azam ham kiprik qoqmay, hayratini yashirolmay quloq tutdi...

Xayyom gapirishdan to'xtadi. Ana endi darsxonada jonlanish paydo bo'ldi va talabalar savol bermoq uchun izn so'radilar. Ilk savol shoir hech shubhalanmay kutgan mazmunda bo'ldi. Uni ozg'in, rangpar yuzli, ammo ko'zlari chaqnaq turguvchi talaba berdi:

-Yulduzlar chindan ham inson taqdiriga dahl qiladilarmi, hazrat?

Odatda bundayin mazmundagi so'roqqa javob qilgan kishilar ko'pda ulug' mushkulotlarga ro'baro' bo'lardilar. Chunki ilmi nujum tili ila gapirilsa, javob albatta Islomga, shariatga zidday tuyulardi. Saljuqiylar saltanatida qanchalar hur-fikr qadr topmasin, dili siyoh, g'ayur ko'ngil g'alamis kimsalar ham mavjud edilar va ular o'z maqsadlari yo'lida har nega hoziru qodir turardilar.

Xayyom to'g'riso'z va ayniqsa ilm bobida hamisha adolatpesha hamda fikr aytmoqlikda botir yurakli edi.

-Siz, mullo yigit, qaysi oyat va hadislarni nazarda tutib, ushbu savolni berayotganligingizni sezib turibmen. Bu savol bani bashar dunyoga kelganidan buyon beriladi va har kim har xil javob aytadi. Bu borada Firavnu Homonlar ham, mubodu

(zardo'shtiylarning bosh ruhoniysi) shomonlar ham, shohlaru gadolar ham bosh qotirganlar. Vale aniq va puxta javob mudom yo'q. Biroq ulug' hakim fuqalalar yulduzlar ila suhbat qurib, qo'p asrordin voqif bo'lg'onlar. Huddi shul kabi bu xususda bizning ham o'z qarashlarimiz bor. Yani odam tanasidagi yurak nima uchun xizmat qiladi? Qonni sovutib, aylantirib bermoq uchun, shundaymi? Yulduzlar esa "yo'lchilarga yo'l ko'rsatmoq va osmonga bezak uchun yaratilgan. Shu gapga qanoat hosil qilmoq mumkinmi axir? Tanho buyuk zot shunchalar bemisl hilqatlarni nahotki shuning uchungina yaratgan bo'lsa? Yo'q, bu Ollohning zotini, sifatlarini kamsitmoq emasmi? Axir qalb ham bor -u Tangrining nazargohi. U qayerda joylashgan? Albatta shuur va yurak oralig'ida. Hamma sir ana o'sha oraliqda yashiringan.

Tasavvur eting, zaminimiz butun falak (koinot)- kavokibu sayyoralar, ko'zimiz ilg'aganu ilg'amagan olamlar ichra bug'doy donicha kelguvchi bir vujud. Falak aylanarkan, unga uyg'un tarzda Zamin ham charx uradi. Demak, bir-biriga hamrishta ekanmi? Inson shuuri Zaminga nisbatan jimitdek bir narsa. Lekin u o'z qariga jumla falakni sig'dira oladi. Ehtimol Olloh taboraka taolo falakning kichik suratini inson shuuriga jo etgandir? Balki shuning uchun u hamisha o'z asliga- Egasiga talpinib turar!.. -Ayni damda Xayyomning nigohida falak aksi paydo bo'layotgandek edi. -Va ehtimolki, bizlarni o'z shuurimiz idora etgani kabi Olloh nomai amolimiz xaritasini falak qarida pinhon etgandir? Falak qarida esa yulduzlar jilva qiladir. Haq, falak va inson bir butun, yaxlit va shuningdek, ayruvir...

Aksar talabalarning ko'zlari quyoshday porlab, hayrat og'ushida shoirga tikilar va uning fikrlari qanotida yuksak-yuksaklarda parvoz etardilar.

Xayyom fikrlar ummonidan chiqay demasdi:

-Hozir qay biringiz ruh haqida so'raysiz-bu shubhasiz.

Talabalar ichra yengil kulgu ko'tarildi.

-Yulduzlar va falak, inson va ruh haqidagi savollar hamisha baqamti kelurlar. Balki bu savollarning tug'ilmog'iga azimushshan Qurondagi "Ey Muhammad, sizdan ruh haqida so'raydilar, ayting, ruh parvardigori olam amridandur oyati karimasi bois bo'lgandir. Haq gap-bizlar ruh haqida nihoyatda kam bilimga egamiz, zero ruh Ollohning siridir. Qolaversa, hatto Payg'ambar alayhissalomga ham bundan ortiq so'zlamaslikka amr etilgan. Biroq aqli o'zimiz imkonida bu borada mushohada etmog'imiz ham zaruriydir.

Malumingizkim, inson jismi uning qazosidan so'ng xoki turobga aylanadi. Ammo ruhchi? Olloh uni qayerga yo'llaydi? Suqrot, Aflotunu Pifag'oruslarning fikricha, inson ruhi avvalda xiyol noqis bo'lur va shul bois ul tandan bul tanga o'tib, sargardon kezadi. Bu hol to ular komillik maqomiga yetgunlaricha davom etadi va komilikka erishgach, jism, yanikim tan ila robitani uzadilar.

Insonning ruhi hayvonot, nabotot va hatto sanga turobga ham o'tmog'u mumkin. Bu benihoyat ibtidoiy fikr, biroq unda haqiqatdan

ulush ham mavjud. Ha, Oллоh inson ruhini uning qazosidan so'ng o'z dargohiga oladi va komillik maqomiga (nomai amoliga) boqib, koinotning qaysi kunjiga yo'llashni hal etadi. Buni avom tilida osmon qavatlarida deb atash ham mumkin. Komil ruhlar to qiyomatga dovur osmonning malum qavatida halovatda yashaydilar. Boshqalari esa, darajotiga monand makon topadilar. Ularni hayvonu giyohlar, sangu kesaklar ichra ham uchratmoq mumkin. Illo pok ruhlar pok mavolarda qo'nim topur, nopoklari esa... Bu narsa ibtidoiy fikrlarda ruhning tandan tanga ko'chmog'iga nisbat berilgan.

Azali muxtasar so'zlashga o'rgangan Xayyom ayni damda so'zining cho'zilib ketishi haqida mutlaqo o'ylamas, quyilib kelayotgan qatma-qat fikrlaridan zavqlanib, ilhom og'ushiga sho'ng'ib borardi.

-Ibtido va Intiho xususida ne deysiz, ustoz?-deya savol berdi bir talaba.

-Ibtido va Intihoni anglamoq uchun manguilik ne ekanligini aql mezoniga solmoq lozim. Bani bashar paydo bo'lguncha beaded vaqt daryosi oqib o'tmish. Har bir odam qazosidan so'ng taqi qancha xadsiz vaqt oqib o'tgay. Uch o'lchamli bizning mavoda jami insoniyatning hayoti manguilik qoshida bir lahza xolos. Biroq inson bir lahzada butun manguilikni his etishi, anglashi mumkin.

Ibtido va Intihoni inson anglagan ana o'sha lahza bog'lab turadi. Qolgani juda cheksiz-chegarasiz, ko'zu shuur ilg'amas.

Men aql barkamolligi nuqtai nazaridan qaraganimda, so'zdan mo'tabarroq va kalomdan buyukroq hech narsani topmadim. Chunki undan afzalroq biror narsa bo'lganda edi, Haq taolo Payg'ambar sallallohu alayhi vasallamga o'sha narsa ila murojaat qilgan bo'lardi. Illo hamma narsa so'zdan iborat. -Xayyom o'z kashfiyotidan zavqlandi va dilida uni ehtiros ila qaytarib qo'ydi: "Olamda eng buyuk va mo'tabar narsa so'zdir.

Vaziri azam ro'baro'sida olamning turfa sinoatlaridan vaz aytayotgan otashnafas sho'irga, tag'inki o'zi mehr qo'ygan shogirdi qavmidagi sarkash olimga mahliyo bo'lib tikilib qolgandi. U Xayyomning suratu siyratidan ufurib turgan hurlik nafasidan masrur edi va unga benihoya havas qilardi. Sultonning qilgan muomalasidan mudom dilxun yurgan sohib devon o'z farzandining taqdiri uchun qayg'urib toliqqandi va bir taskinu andarmonlik ilinjida Xayyomning suhbatini orzulagandi. Har tugul odam taftini odam ko'tarur, degan gap bor. Agar o'z xonasiga qamalib olib, ming bir G'ylar girdobida qolsa, kekxa yuragiga zil kelmoqi aniq. G'am-anduh kshini aqlu shuuridan mosuvo kelmog'i ham hech gap emas. Ustiga ustak dilni vahm ofati ishgo'ol etur. Aslida-ku biron tashvish borasida uzoq qayg'urish uning ho'yiga (feliga) muxolif edi, yani yaratuvchiga tavakkul qilmoqni bilardi. Biroq banda baribir banda ekan-da, balki o'z joni uning ko'ziga ilg'anmas, vale belidan bo'lg'onining qismati jigarini pora qilaverarkan. Vaziri azam ana shu o'yu xayollardan yiroq tushmoq istadi va ayni damda o'z muddaosiga yetishgandi, yani u Xayyomning tug'yonli olamiga havasu xayrixohlik ila kirib bormoqda edi.

Abul Fath Umar esa esa mudom so'zlardi, ilm ishqi haqida ehtiros ila gapirardi:

-Ilmda fidolik lozim, aksi o'lsa, kishi no'noq bir muxlisga aylanajak. Ilm olmoq-bu umidvorlik, vuslati (visoli) nasiya bo'lgan oshiqlik. Agar ilmga butun vujud, qalb va shuurning gavhari baxshida etilmasa, beaded say puchdir. Eslang, aziz ilm oshnolari: yamanlik Uvays Qaroniy Hazrati Risolat sallallohu alayhi vassallamni ko'rmagan edilar. Biroq har nafasi ul zotning ishqi ila yo'g'rilgan edi. Mabodo vasliga oshiqsa, uyda kekxa va ko'zi ojiz volidasi borki, tarki xona etsa, sunnatga xilof bo'lur. U kunu tunlarni bedor o'tkazdi, mujgonlari (kipriklari) bir-birlarining vaslini sog'indilar. Ashklari liboslarini nam etdi. Hazrati Uvays faqat va faqat Payg'ambar alayhissalomni sog'inib yashadilar. Nihoyat u ulug' ajrga, buyuk bir maqomga erishdi. Hotamul anbiyo ham g'ayb kuchi ila ul zot haqida bilardilar va ashobga aytardilarki, "Yamandin bir Oллоh oshig'ining isi keladur, deb. Uqboga rixlatlari arafasida esa Hazrati Umar va Hazrati Alini, Oллоh ulardan rozi bo'lg'ay, huzuriga chorlab, muraqqalarini (kiyimlarini) berdilar-da, "Uvaysga ayting, ushbuni kiysin-da, ummatimni duo qilsin, dedilar. -Xayyomning vujudi yonib, ovozi xirillab, ko'zlari yoshlarga to'lmoqda edi. -Ular muborak muraqqani eltdilar!.. Vohki, ahli ummat, ayting, bundin ortuq ehtiros, sazovorlik bo'lurmi?! Uvays ne-ne ulug'lar orzulab yetolmagan qutlug' visolga erishmadilarmi?.. Va Payg'ambar alayhissalom oxiratda Uvaysga berilajak ulug' ajrlar haqida ham bashorat etdilar...

Bazi talabalarining ko'zlarida yosh aylandi. Hatto, asli ko'ngli to'lib turganmidi yohud chindan-da sho'irning so'zlaridan mutaassir bo'ldimi, vaziri azamning ko'zlari ham yoshga to'ldi.

Xayyom esa hozir o'zini taniyolmasdi...

Sho'irning vaziri azam ila muloqoti mudarrisxonada davom etdi.

Avvalo Xayyom valinematining so'lg'in va zabun ahvolini ko'rib o'kindi:

-Ahvolingiz durustmi, hazrati oliylari?-deya so'radi farzandlarcha g'amxo'rlik ila.

Nizom ul Mulk ham buni payqadi va mutaassir bo'ldi.

-Shukur!.. Rasadxonada ahvol nechuk? Dargohi oliyidin biron ko'ngilsizlik yetmadimi?

-Yo'q, ustoz. Barcha yumushlarimiz o'z xaylida bormoqda.

Sho'irning "ustoz deyishi ham vaziri azamga juda-juda xush yoqdi, chunki u so'nggi kunlarda tobora ko'ngilchanu tasirchan bo'lib bormoqda edi.

-Endi men ila kamroq muloqotda bo'lmoqlik payida bo'lg'il. -U sho'irning yuzida paydo bo'layotgan ranjish alomatini sezib, izoh berdi. -Ranjida bo'lmog'ing o'rinsiz. Illo bu ikkimiz uchun ham va hatto rasadxona uchun ham naflidir. Sultonimiz avbosh farzand tufayli menga nisbatan g'azabdalar. Bu g'animlarimiz uchun ayni fursatdir va ular tezkor say etajaklar. Ilohi, senga shikast yetmasin!- vaziri azam jim qolarkan, yuzida o'ychanlik zuhur etdi. -Mening xavfim Qazviniy va valiahd Takashdin. Alardin voqif va ehtiyot bo'lg'aysen. Endi senga ziyon yetkazmoqqa boshlag'aylar.

Xayyom vaziri azamning so'zlarini tinglarkan, shikorda ro'y bergan lochin voqeasi ko'z o'ngida namoyon bo'ldi. O'shanda Sultonning lochinlaridan biri o'ljani tutib, vahshat ila qiyqirganicha ortiga qaytgan edi. Bu saltanatda tanazzul, qo'shinda g'alayon bo'lmog'idan dalolat edi. Nahotki shu qiyoslar va inson yoxud saltanat taqdirining bir mahluq harakatu xo'ylariga bog'liqligi rost bo'lsa? Nahotki shundayin ulug' saltanatdin ham fayz yuz burib, unga ziyon yetsa va yoki sultonun vaziri azamning azaldin eshu yovuqligidin-da barakot ketsa? Yo alhazarki, shuhrati mag'ribu mashriqqa yoyilmish vaziri azam Nizom ul Mulldayin donishmand zot mana bu kabi zabun ahvolga tushsa-ya! Axir u qandayin sohibi iroda, viqorli va hatto gohida kibru havoli ilgi daroz (uzun) kishi emasmidi. Endi esa tojdorning birgina ishoratidan so'ngra mung'ayib qolibdi. Aslida ham unga og'ir edi, zero u o'z jonidan ko'ra ko'proq farzandining qismatini o'ylab yonmoqda edi.

-Yomonlarning yomonligi Oллоh taoloning sinovidir, hazratim. -dedi Xayyom taskin ohangida, -Alardin himoyat etguvchi ham uning o'zidir. -Shoir bu gapni aytishga aytadi-yu shuurida galdagi osiyona fikr barq urdi: yomonlikni o'zi yo'llasa-da, taqi o'zi undan himoyat etsa. Agar o'trusida (qarshisida) dilxun valinemati bo'lmaganida hozir ushbu mazmunda ruboiy aytmog'i tayin edi.

-Malika va shahzodalar ila muloqotda ham xushyor bo'lg'il.-dedi vaziri azam ko'zlari mudom o'ychan boqarkan.

Xayyom endi Mikoilning o'tinchini esladi-bu xavfu xatar va hatto vahima ichra malika Turkon Xotunga bir so'z aytmoq ham

dushvor.

Alarning suhbatini bundin ortiq mavzuda qovushmadi va shu asno xo'shlashdilar.

Oradan ikki kun o'tib, farzand dog'i ado qilgan rasadxona sohibi matbahi ham olamdan o'tdi. Xayyom peshvo ahli rasadxona uni bir mo'minga munosib izzat-ikrom ila qabrga topshirdilar va aza ochib, xudoyi bag'ishladilar.

Buyoqda Qazviniyning Muhammad Takashga aytgan gapini to'g'ri chiqdi -oradan ikki oy o'tib, sulton Malikshoh vaziri azamga qo'shilib, uning o'g'li uchun aza ochdi.

To'rtinchi bob

1

Xayyom vaziri azam ila kechgan o'shal suhbatdan so'ng rasadxonani qariyb tark etmay qo'ydi. Hatto ijodu yulduzlardan-da ko'ngli sovuganday bo'lib, bag'ridagi sher ishqi ham so'nayozdi. Ko'p fursatni o'z oshyonasida tanholikda, sajjoda uzra o'tkazmoqlikni odat qildi. Ayniqsa, tunlarini ibodatda bedor o'tkazib, hamisha zikrulloh ila mashg'ul bo'lardi. Uning dil mayli shundayin evrilgandi-o'zi ham hayratda ediki, ilki mayga yovuq kelmasdi. Uning bu kechmishi qoshida sheru may sog'inchi va hatto yor sog'inchi ham hechun abas edi.

O'zidagi bu o'zgarish tufaylimi yoxud avvaldan maqsadi bormidi, kanizak Parmudani ham o'zidan yiroqlashtirdi. Onasi ila singlisi otasining qabrini g'arib holda tashlab, Nishopurdan Isfahonga kelmoqlikni istashmagach, alarga taqi aqcha yo'llab, kanizakni shahardagi uyiga ko'chirdi. Uy kimsasiz qolayotganligini bahona qildi.

U Mikoilga ham Layli ila diydorlashmoqni taqiq etdi, ammo sangtaroshga bu amrining boisini oshkor qilmadi. Sho'rlik yigit ilojisiz bir ahvolda bo'yin egmoqqa majbur bo'ldi.

Biroq Xayyom goh-gohida o'z xohish-irodasiga aksil tarzda malika Turkon Xotun saroyiga qatnar, malikaning xohishiga binoan shahzoda Mvhmudning tarbiyasi ila band edi. Shunday kunlarda istasa-istamasa Turkon Xotun ila ro'baro' kelar va uning yuho ko'zlariga bardosh bermoqqa majbur bo'lardi. Malika vujudidagi shayton tillaridan yaralmish olov kamida undan sher o'tinar va goho ana shu o'tinchlari asnosida o'zi shoirning o'tlig' satrlaridan o'qiy boshlardi. Xayyom uning muddaosini anglab tursa-da, o'zini beparvo va bexabar tutmoqqa urinardi. Balki u umr yo'lining ayni bekatida g'alayonu firib boshlagan shaytonu jinlar domidan omon chiqmoqlik uchun ham ibodatga sho'ng'iganday tuyulardi...

Shahzoda Mahmud chechak dardiga yo'liqdi. Mana ikki haftadirki Xayyom uning muolajasi ila mashg'ul. Har kuni malika qasriga qatnaydi.

Bu yilgi qish qattiq keldi. Hatto zaminu devorlar yaxladi, chunki izg'irin shamol yo'llar va devorlar yuziga suykilib esadi. Uning tasirida badanlar zirqiraydi... Xayyom issiq kiyinib, taqi malika saroyiga jo'nadi. Shahzodaning sihati ancha durust bo'lib qolgandi. Shul bois shoir uning holidan boxabar bo'liboq malikaning ko'ziga yo'liqmay, zudlikda ortiga qaytmoqchi bo'ldi. U goho hayron bo'lardi- sulton shahzoda va malikalarning saroylarida tabiblar behisob hamda ularning oralarida o'likni tiriltirmoqdin o'zga barcha yumushlarga qodirlari ham bor edi. Lekin negadir sohibi saroylarning ko'plari Xayyomga mayl qilardilarki, u o'z nazdida, riyozatchi olim, zakiy munajjim va sarkash shoirligi qolib, tabibga aylanib borayotganga o'xshardi. Ha, u ibn Sinoni suyardi, uning "Al Qonunini yod bilardi, ar Roziyni mutolaa etmoqlikdan tolmasdi, biroq tabiblikni kasb qilib olmoqlikni istamasdi. Hozirgi urinishlari esa tojdorlarning ixtiyori tufayli edi.

Xayyom muddaosiga yetolmadi-shahzoda Mahmud huzuridan chiqay deb turganida Turkon Xotun kanizak yuborib, uni o'z huzuriga chorladi. Shoir ixtiyorsiz ravishda bu amrga bo'yin egmoqqa majbur bo'ldi. U xosxonaga kirib borganida malika keng oromkursida yastanganicha yal-yal yonib o'ttirardi. Uning yuzidagi ajib qizillik har ne mardning (erkakning) yuragiga g'ulu solgulik edi. Xona ancha iliq edi va shunga qaramay, chamasi, malika may no'sh aylagan ediki, uning yuzidagi qizillik, ko'zidagi suziklik boisi ham ayni shu edi. Qolaversa, mayi xosda sovuqni kesmoqlik sifati ham bor.

Turkon Xotun shoirni o'rnidan turib qarshi oldi va o'ziga yaqin turgan kursiga taklif etdi.

-Shahzodamizning sihatlari nechuk?-so'radi u va uning so'z ohangida "Bilib qo'y, shahzoda taxtning yagona merosxo'ridir, degan jizzakilikdan paydo bo'lguvchi mano ham bor edi.

-Inshoolloh, shahzoda sog'ayib qoldilar. -Xayyom shunday deya shahzodaning muolajasi endi qanday davom etishi xususida muxtasar so'zlab o'tdi.

Malika o'g'lining ahvolidan juda yaxshi ogoh edi, bu gaplari esa shunchaki suhbat avvalining odatiy jimjimalari edi. Aslida uning muddaosi o'zga ediki, har uchrashuvdagi sayi o'shal sari yo'nalardi.

Turkon Xotun joduli nigohini shoirga qattiq qadadi-da, o'tlig' jilmaydi.

-Bizlarni nazmingizni tinglamoqqa munosib ko'rmayotirsiz, muhtaram shoir.-dedi u Xayyomning yashirinishga chog'langan ko'zlarini taqib etib.-Bizning tabi nazmimizga shubha qilsangiz ham sherlaringizga oshiqligimiz chindur.

Shoir yengil tazim qildi-da, hukmdorlar xush ko'rguvchi soxta xushomadga o'tdi:

-Yo'q, aksincha, sherlarimning sizning etiboringizga munosib emasligi rost, malikam.

Movarounnahr malikasi mamnun va kibrli qiyofada bosh silkidi.

-Janobimizni yo'qlamoqdin murodimiz shulki, ruboiylaringizni usta bir xattot ilkida kitobot etsak - bu ko'plab muxlisaringiz kabi biz uchun ham ayni muddao bo'lur edi.

Xayyom bu haqda sira o'ylab ko'rmagan edi va uning sherga oshnolig'i ham ko'ngli, aniqrog'i, o'zi uchun edi. U to'rtgina satrdan iborat ruboiylarini qalbi tug'yonga kelganda, ilm zahmatidan toliqib, o'zga mashg'ulot istaganda va yoki dili ozurda bo'lganida sahfalari chetiga yozib qo'yardi xolos. Ularni kitobot etmoq tugul biroq o'qimog'i xususida ham mutlaqo xayol qilmasdi.

-Men bu haqda aslo o'ylamagandim. Qolaversa, nazmim kitobotga arzirli adadda emas. -dedi u malikani ranjitishdan saqlanishga urinib.

Turkon Xotun ketishga ijizat bergach, shoir xosxonadan o'ychan qiyofada chiqarkan, bo'sag'ada kanizak Layliga ro'baro' keldi. U g'amgin va hatto iltijoli nigoh tashladi, so'ng ovozsiz tazim qildi-yu yog'lig'ini ko'zlari sari tortib, shoshila-shoshila nari ketdi. Xayyomning ko'ngli bir ahvol bo'lib, ko'ksining bir cheti achishdi. Bu kun mening kunim ermas ko'rinadur, deya o'yladi qasrdan chiqishga chog'lanib, faqat ozori dillar taqib etadur meni! Yaxshiki, Mikoilni rasadxonada qoldiribman, aks holda... Voh, yulduzlar ayni kunlarda bizlardin yuz burib, o'zga burjlarni ko'zlaydur chog'i. So'ng darrov o'ziga tanbeh berdi: bir hasta dilga ko'mak ilkingni uzatolmasang ham munajjimlik qiladursan-a, ey, chodirdo'zning o'g'li! Ko'ngling zimiston esa, yulduzlarda ne ayb?! Yorug'likni Ollohdin tila!.. U alamli bir jilmayib qo'yarkan, qasr eshigidan kirib kelayotgan Qazviniyga ko'zi tushdi. Hali o'zining mahzun xayollaridan ayrilib ulgurmay, amirul shuaroning yoqimsiz ovozi qulog'iga, pachoq yuzi nigohiga botdi.

-Assalomu alaykum, o, fozillar amiri!-deya ilkini ko'ksiga qo'ygan Qazviniy soxta tabassum ila tazim etdi.

Ko'rishdilar.

-Shahzodamizning ahvoli nechuk? -Asli kasbi go'ng titkilash bo'lgan mahluq najasga belangan biron yemish qidiradi va topsa, uning hididan kishi gul bo'ylaridan sarmast bo'lgani yanglig' sarxushlanadi. Qazviniy ham hozir ayni shu ko'yda edi.

Xayyom xayollar og'ushidan mudom chiqolmas va boya o'zi etirof etgani ruhiy bedorlik shuurini hamon tark etmagandi. Ko'z oldida xira parda paydo bo'lib, qoramtir dog'lar yoxud sharpalarni, g'imirlardi. Ayni damda uning o'ylari voqelik ila qorishib ketgandek edi. Shuning uchun Qazviniyning so'rog'ini to'la anglamasa-da, shahzodaning nomi tilga olinishi hamonoq boshidagi unga bog'liq fikrlari lisoniga ko'chdi.

-Inshoolloh, shahzodamiz sog'ayib qoldilar. Faqat...

Qazviniy xushyor tortib, quloqlarini ding qildi:

-Xo'sh-xo'sh?..

Xayyom esa shunda ham sergak tortmadi.

-Faqat shahzodaning ko'zlarida bir nimarsa borki, kishi ko'ngliga vahm solodur...

Najasxo'r mahluq o'z murodiga yetdi, "xushbo'y taomini topdi..."

Qazviniy ko'kragini kerib, g'oz turdi, ko'zlari yovuzona chaqnadi.

-Ha endi, ul zot sultonning zurriyodi-da. Avomdin bir nimasi ortiq bo'lmoqligi aniq. Lekin... -Qazviniy ovozi nasihatomuz ohangga yo'g'irdi, -Lekin sizdek odamning sultonzoda haqida bundayin so'zlarni aytib yurmog'i...

Xayyom zil ketdi. U shuncha ilmi, qobiliyati ila ham ruhiy takomilga yetmagandi. Shu kunning o'zida ketma-ket ro'y bergan ruhiy zarbalar uni shoshirib, toliqtirib qo'ygandi va u shuning uchun ham ruh mezonining posangisini faromush ayladi. Boshidagi o'ylarining tiliga ko'chgani dil ko'zining o'sha onlarda so'qir qol'gonidan edi. Aks holda boya ko'z oldidagi xira parda va qoramtir sharpalarni payqaganidayoq sergak tortmog'i lozim edi.

Qazviniy qasr ichkarisiga yurdi. Xayyom esa undan chiqarkan, nadomatning tirnoqlari bag'rini timdalay boshladi. Bu so'zlarni nechun aytdi? Axir Qazviniyning g'arazli muddolarini bilardi-ku! Endi esa kech, yoy paykoni otildi, uning kimningdir ko'ksini pora etmog'i aniq. Agar o'sha ko'krak sohibi sulton bo'lib chiqsa, ne ko'rgilik! Tojdorlarning, ayniqsa, turkiy sultonlarning felini Abul Fath Umar yaxshi bilardi. Chunki u qoraxoniylar saroyida xizmat qilgan, ularni yaxshi biladi. O'sha Shams ul Mulk dargohida xizmat qilib yurgan kezlari kishini mutaassir etguvchi shunga dohil bir voqeaning guvohi bo'lgan edi. Darvoqe, bu voqea ro'y bergan o'sha kuni yosh malika Zuhra Xotunga ilk bora ro'baro' kelgandi... Xullas, o'shanda kenja shahzodaga saboq berguvchi fozillardan biri kimgadir "shahzodaning ilki kitob tutmoqqa qodir emas, xayoli hamisha shamshiru tulporda turadi, degan ekan kuyunib. Bu gap chaquv orqali Shams ul Mulkning qulog'iga yetibdi. G'azabga mingan hukmdor "sen kitob jinnisi shahzodadan nuqson qidirguvchi bo'ldingmi, deya muallimni darra urdirib, shahardan sazoyi qilgandi. Xayyom buni ko'rib, yoqa tutgandi, axir bu shahzodaning taqdiriga qayg'urib mulohaza tarzida aytilgan gap edi xolos-ku!.. Endi bo'lsa yana bir turkiy qavmdan bo'lmish saljuqiylar saroyida kun o'tkazmoqda.

Ularning feli esa ayon-xiyol ginachi, anchagina badgumon va ayniqsa, zurriyodlari, yanaki norasida o'g'illari haqida yomon so'z aytilishiga toqatsiz bo'lguvchi edilar. Hozirgina Xayyomning zabonidan uchgan paykon sultonning ana o'sha nozik yerini jarohatlashi mumkin edi. Afsus chekkan Xayyom yoyandoz tilini tishladi...

Bir kuni Xayyom sulton huzurida qandaydir bazmda o'ltirardi. Shul mahal epcillik va yoqimtoylik ila xizmat qilayotgan amirzodalardan birini xiyol kuzatib turdi-da, zavqlandi. Hayratini yashirolmay, sultonga izhor etdi.

O'shanda sulton unga qarata shunday dedi:

-Jo'janing huddi o'zi. Tuxumdan chiqiboq hech qanday ko'maksiz donni cho'qishni o'rgana oladi, vale o'z oshyonini topib borolmaydi. Kabutarning bolasi esa, -Sultonning ko'zlari tanali chaqnadi,-mashqsiz donni cho'qiy olmaydi. Biroq Makkatullohdan Bog'dodga uchayotgan kabutarlar galasining sardoriga aylanadi!.. - Bu uning sultonzodalar haqida aytgan tarifi edi.

Xayyom hozir ixtiyorsiz ravishda sultonning ana o'sha xudbinona tuyg'usiga dahl qilgandi...

Filhaqiqat, Qazviniy o'sha kech Xayyomning so'zlariga qo'shib-chatib sultonga yetkazdi.

2

Ko'klam yaqinlashib, Buxoro fathiga hozirlikning so'nggi yumushlari uhdalanmoqda edi. Biroq sultonning kayfiyatidagi va yoxud xo'yidagi evrilish mudom davom etar, yaqinlarining payqashlaricha, hadeganda asliga qaytay demasdi. U hamon kishi suymas, xonanishin edi. Qoraxoniylarning uning ustidan xalifaga va taqi shayxulislomga qilgan arzlari qulog'iga yetib kelgani bois ham Movarounnahr hukmdoriga qattiq tish qayragan va toki uni mag'lub etib, muzaffarlik nashidasini surmaguncha ko'nglining joyiga tushmog'i dushvor edi. Arz etsang, sultonning o'ziga arz et edi, ne baloki, xalifa atalmish nomigagina qolgan bir qisindidan panoh istarsen! Saljuqiylarning shonu shavkati qoshida Bog'dod xalifasi-yu uning shayxulislomi ne bo'pti?! Agarki Islomdek buyuk va muqaddas dinning hurmati bo'lmasa, allaqachon bu xalifalikdan nom-nishon qolmasdi-ya! Qolaversa, Buxoroda avom tomonidan norozilik g'alayonlari ko'tarilayotganligi ham quloqqa chalinib turardi. Xalq Shams ul Mulkning o'g'li, Buxoroning hozirgi hukmdori Ahmadxonga qarshi isyon qilardi. Bu esa sulton Jaloliddin Malikshohni Buxoro yurishi sari ikki hissa ilhomlantirardi. Sulton keyingi haftalarda zavja-yu kanizaklariga unchalik mayl bildirmay qo'ygandi. Bu uning qoni sovuganidan yoxud yoshidan erta qariganidan emasdi. U hali ham baquvvat, ehtiros olovi bemisl bir yigit edi. Maylsizligi esa qalbidagi sovush tufayli ediki, hamon o'sha so'nggi shikordan orttirib qaytgan dilgirligi davom etardi...

Bu kech esa may ila oshno bo'ldi va shirin sarxushlik og'ushida qonida tag'i olov uyg'ondi. Ko'z oldida Buxoro go'zali Turkon Xotunning joduli nigohi namoyon bo'ldi. Bu ko'zlar uni hamisha sehrlab, g'alat bir tushunksiz tuyg'ular og'ushiga soladilar.

Sulton qoraxoniyzoda malikaning bag'riga har safar go'yo ilk visol onlaridagidek yutoqib-yutoqib, sog'inib-sog'inib, o'rtanib-o'rtanib oshiqadi. Malika uni har safar betakror va bemisl ehtiros qo'ynida erkalaydi. U esa har gal visol onlari nihoyalagach, bo'lib o'tgan oromli kechmishlarini bir boshdan eslamog'ga say etar, ammo ularni butunlay tiklamog'ga xotirasi ojizlik qalardi.

Chindan ham malikaning jodusi bormidiki, tun bo'yi mislsiz huzur-halovatga oshno etardi-yu tong otishi bilan o'shal orom onlari uning xotiridan ko'tarilib boraverardi. U mana shundan hayratga tushar va taqi malikaning og'ushiga oshiqaverardi. Huddi shuningdek, malikaga yovuq kelganida goho qalbini, dunyoning yarmiga sohiblik qilayotgan yovqur va zabardast saljuqiyzodaning yuragini vahm qamrab olardi. Shu holini o'zi sira angolmas, shunday paytlari yuragi qinidan chiqib ketguday bo'lar, zavjasining ko'zlariga hadiksirab boqardi. Biroq u baxsh etgan huzurni boshqa hech kim unga berolmasdi va buni u juda yaxshi bilardi.

Sulton bu tunni Turkon Xotun quchog'ida o'tkazmoqlikni ixtiyor etdi va bu haqda malikaga xabar berdi. U may tasiridan ko'zlari suzilib, taxtiravonda o'ltirar, zanjilar ham uning oromini buzmaslik uchun ohista qadam tashlaganliklari bois bir maromda yoqimli tebranib borardi. Shu payt uning ko'z o'ngida Qazviniyning yoqimsiz basharasi paydo bo'ldi va unga qarab tirjaydi. Sultonning quloqlari ostida Xayyomning shahzoda haqida aytgan gaplari Qazviniyning ovozi yangradi. Kishi ko'nglida vahm uyg'otarmish? ! Keyin esa malikaning Xayyom ila yaqinligini esladi-buni ham Qazviniy shipshidi. Dunyoni zir titratgan sultonning dilida uning o'zi ham tushunib yetmagan tuyg'u-rashk olovi junbushga keldi. Lekin ayni damda uni Turkon Xotun o'tli ehtirosi sog'inchi o'ziga chorlayverdi...

Malika Turkon Xotun go'shangasi butkul shafaq rangida bo'lib, ko'zlarga olov yoqardi. Malikaning yuzi va yarim yalang'och tanasining tusi ham o'shal muzaffar rangga uyqashib ketgandi. U uch bor tuqqan bo'lsa-da, durkun edi, tirsillagan jismidan hirs yog'ilib turardi. Sulton hamisha ana o'sha hirs olovida jizg'inak bo'lar, balki ko'nglida uyg'onguvchi vahm ham shu qovrilishlar ortidan kelarmidi?.. Oh, bu joduli ko'zlar! Suzilib, bemisl huzur sari chorlayotgan bu ko'zlar har nechuk bag'rni o'rtab yubormog'i tayin edi. Malikshoh uning sirli nimarsasidir bor, deya xayol qilar, shuning uchun ham uni ixtiyorsiz tarzda juda qattiq sevar, ixtiyorsiz tarzda juda-juda qizg'onar va huddi shu kabi uning qarshisida qo'rquv hamda tahlikaga duchor bo'lardi.

Malika yel mengiz (kabi) ohista sirg'alib, parqu to'shakning chetiga keldi-da, sarxush sultonning ilkidan tutib, asta o'rnidan turarkan, xushbo'y nafasi ila uning bo'yin va yuz-ko'zlarini huzurbaxsh siypalab o'tdi. Ne-ne bokira mohitoblarni o'zining jirkanch hirs ila zabunu xor etgan hukmdor adoyi tamom bo'ldi. Hozir u Turkon Xotun poyiga mum yanglig' to'kilishga tayyor edi... Malika o'zidan xush bo'y taratib, sultonning jubbasini asta yechib tashladi. Harir niliy (havo rang) tungi kiyimi ichra ko'kraklari, bo'liq sonlari-yu dumbasi er ko'ziga yoqimli larsillardi. Hukmdorning tomog'i kuydi, og'zi quruqshab, tamshandi. Ziyrak malika malolsiz bir tezlikda say etib, muzdek gulob tutdi. Sulton uni yutoqib simirdi. Lablaridan ayoq uzilishi hamono malika hirs ila ularga lablarini bosdi. Entika-entika chirmashdilar. Shu asno to'shakka qulab, dumalay boshladilar...

Ikkisi ham chalqancha yotishar, vujudlarini betakror bir hazur allalardi. Sultonning lablari bilinar-bilinmas qimirlab, muloyim ovoza dedi:

-Shahzodaning sihati durustmi, malikam?

Turkon Xotun hozirgi ovozi ham vujudga o't qalardi.

-Shukur, sultonim. Umar Xayyom janoblarning urinishlari ila tez sihat topdilar.

Hukmdorning qalbini g'ashlik tirnab o'tdi. Boyagi tushuniksiz rashk olovi kuydirdi.

-Ha, Xayyom deganlari qasringizdan nari ketmay qolganmish? G'alat nazmbozlik ham qilarmish?

Malika sultonning kesatig'idan Qazviniyning ko'lansa isini sezdi. U malika huzuriga kirib, Xayyomga malomat qilmoqchi bo'lganida, uning gapini bo'lib, "Xayyom bizning hifzi himoyamizda, deya mulzam qilgandi. Demakki, u sultonga ham arz etgan.

-Men ne qilsam, sizning suyuqli o'g'lingiz,-Malika bu so'zga ataylab urg'u berdi, -valiahd Mahmud ibn Malikshohning istiqboli uchun qilgum. Malumingizkim, Umar Xayyom sizning qutlug' dargohingizda qadr topgan benazir olim va shoirdir. O'g'limiz ul zotdan saboq olsa, unga yovuq yursa, foydadan holi bo'lmas, deya o'y qilurmen.

Sultonga malikaning ovozi ham, gaplari ham xush yoqdi. Xayyom kim? U bor desa-bor, yo'q desa-yo'q bo'lguvchi bir musofir-da.

Sulton bo'la turib unga adovat tutsa... Sulton shahd burilib, ikki ilki ila malika yuzini tutib, o'ziga o'girdi va ko'zlariga tikildi.

Biroq uning nigohidan bir qavat eti sidirilib tushganday bo'ldi-da, sir boy bermay, ojizroq tovushda so'radi:

-Shahzodaning... o'g'limizning nigohi kishi ko'ngliga qo'rquv soladurmi?

Malikaning ichida muzaffariyat tuyg'usiga chulg'angan bir nara uyg'ondi. Shu on "ahvoling nechuk, ey, sahroyi?! deya qah-qah urib yuborishiga oz qoldi. Uning nazdida, hozir sulton butunlay mag'lub bo'lgandi.

-Bu nechuk savol sultonim?!-degan malika erining seryung ko'ksiga lab bosdi...

Olov yangitdan yona boshladi...

3

Quyosh yorqinroq nur sochib, Isfahondagi azim daraxtlarning kurtaklari lab bura boshlagan onlarda sulton Malikshoh lak-lak lashkarini so'nggi bor ko'zdan kechirib, yakuniy farmonlarini berdi. U birvarakayiga mag'ribu mashriq sari qo'shin tortmoqqa ahd qildi. Yanikim Hasan Sabboh boshliq ismoiliylarning qilmishlari haqidagi turli xabarlar sultonni otashin (darg'azab) etib, shamshir tutmoqqa chorlamoqda edi. Bu ismoiliy otlig' nobakorlar oshyonsiz bir sak misoli har yerda izg'irdilar. Hatto boshkenti azim ichra ham ularning sharpalari sezila boshlagandi. Ayniqsa, ular joylashib olgan Alamit (yani "Burgut uyasi) nomli tog' uzra qad rostlagan qalaga yovuq bo'lgan Qazvin shahrida ul ko'ppaklarning tasirlari kuchli edi. (Sulton ham, vaziri azam ham ularni sak, ko'ppak deb atardilar.) Xabarlariga qaraganda, hatto Qazvin hokimi ham ismoiliylarning so'zidan chiqolmas emish. Ha, bu Hasan Sabboh deganlari juda makkor. U mor misol kulcha bo'lib olib yotaveradi, oftobda toblanib, zahar-og'usini yig'averadi va bir kun oni kelgach, shundayin hamla qiladiki, har nechuk jonzotni halok etadi. Uning turfa harakatlari xususidagi xabarlar qancha ko'p tarqamasin, ayni damda u kulcha bo'lib yotgan mor yanglig' edi. Sulton buni juda yaxshi anglardi va shuning uchun ul og'uli morni inida kulcha bo'lib yotgan holda yanchib tashlamoqni istardi. Bu istagi uni Alamit sari chog'roq qo'shin yo'llamoqqa undadi. Mana, bu tong Buxoro fathiga shay turgan ikki yuz ming kishilik lashkar oldidan, sultonning sodiq lashkarboshilaridan biri, amirlar amiri Arslon Tosh boshliq o'n ming kishilik saralangan qo'shin Alamit sari yo'l oldi...

Sulton davlat idorasini har tugul vaziri azam Nizom ul Mulkka topshirdi. Bomdod namozi adog'ida sultonga muzaffariyat ila qaytishlikni tiladilar, uning shaniga uzundan-uzoq hamdu sanolar aytilib, fotiha o'qildi. Ulkan ajdaho yanglig' pishillab turgan beaded qo'shin asta qo'zg'olib, tebrana-tebrana sudrala boshladi. Lekin endi uning g'ala-g'ovurga uyqash guvillab-pishillashini turli aslaha-yu yarog'larning va shuningdek, aroba-yu turfa xil harb ulovlarining shaqir-shuqir, taraqa-turuq tovushlari bosib ketdi-da, malum muddat o'tgach, bu tovushlar ham bir maromga tushib qoldi. Shunday qilib, ulkan ajdaho-qo'shin Buxoro sari yo'l oldi. Filhaqiqat, bu lashkar ikki yuz ming adadda aytilgani bilan, bir qarashda, hisobsizday tuyulardi. Uning o'rtasida turgan kishi na boshini, na oxirini ko'ra olardi. Mabodo qiyosga ehtiyoj bo'lsa, saharbordonda qo'shin tomoshasi uchun chiqqan odam u o'tib bo'lguncha fursatni shom etar va hatto namozlarni qazo, yemak nafslarini sazo aylamog'i ham mumkin edi. Shuningdek, qo'shin qadamlaridan qo'pgan changu g'ubor mo'lligidan tun bo'yi nafas ololmay uyquni-da keyinga qoldirishi shubhasiz edi.

Odatda lashkar karvon mengiz bir maromda yurishini hisobga olib, uning boshiga yuk ortilgan tuyalarni qo'yardilar. Bu jonivorlar na jadal va na sust yurmay, meyorni saqlay bilganliklaridan lashkar ham unga monand tartibli odimlardi. Hozir ham shunday qildilar-turli ko'ch-ko'ron, harb ashyolari ortilgan qator tuyalar oldinda lo'killab borardilar.

Ulardan keyin esa yollari taralib, xino va moylar surilgan, qadamlari hurliqolarning nozli yurishlarini yodga soluvchi go'zaldan-

go'zal arobiy hamda turk otlariga mingan suvoriylar joy olganlar. Ularning harb liboslari deyarli bir xil, dubulg'a va sovutlar haybatidan yirik gavdalari taqi ulkanlashganday ko'rinadi. Hatto otlarning bosh va yag'rinlariga ham sovut kiydirilgandi. Qalqonlarini egarning so'l yoniga, cho'qmorlarini esa o'ng yog'iga ilganlar. Bellarini siqqan po'lat kamarlariga shamshir osganlar. Ularning shamshirlari asosan damashqiy, misriy va salmoniy ediki, nisbatan qimmatbahoroq bo'lmish hindiy hamda sulaymoniy qilichlar esa sipohsolaru lashkarboshilarga nasib etgandi. Suvoriylarning egarlariga ixcham meshkoblar ham ilingan bo'lib, ularga suv to'ldirilgandi. Sho'rlik otlar chiniqqanliklari bois shuncha yukni ham pisand qilmay ildam yo'rtadilar. Otlilqlar qadrlarini tik tutishib, mardona qiyofada borishar, safar endigina boshlangani boismi, yuzlarida tetiklik va bir qadar mamnunlik zohir edi. Bazilari ot ustida lo'killab borisharkan, shuncha shovqin-suronga qaramay yonidagi hamrohlari ila o'ziga xos suhbat ham qurib qo'yarlilar.

Suvoriylar ortidan qoyaday-qoyaday bo'lishib, ulkan fillar kelardilar. Ular ham o'ziga xos "bezaklar ila "bezatilgan edilar. Oyoqlariga po'latdan yasalgan qalin "kovushlar kiydirilgan va bu narsa har qandayin jonzot yoxud to'siqni ezib, majaqlab, vayron etishga ko'mak berardi. Ustlariga naqshinkor kigizlar to'shalgan, ikki yoniga yoy va daroz nayzalar osilgan. Har birlariga bittadan zanchi filbonlar mingan bo'lib, ular barchadan baland turganliklaridanmi yoki keng dala-dashtlar hurligini tuyib, qadrdon vatandoshlari bo'lmish fillarga oshnoliklaridanmi, xushnud edilar. Fillar galasining adog'ida, ulardan xiyol uzilib, sultonning amoriysi o'rnatilgan, naqshinkor matolar ila bezatilgan yirik fil ham kelardi. Uni bir zanchi yetaklab olgan, biroq ustidagi amoriy hozir bo'sh edi. Sulton fildan orqaroqda soqchilar va xos navkarlar qurshovida o'zining suyuqli oti ustida kelardi. Uning oti oppoq bulutga qiyos edi. Oyoqlarini shu qadar yengil ko'tarib-tashlar ediki, huddi parvoz etayotganday ko'rinardi. Otning ustidagi quyoshning bahoriy nurida jilvakar yaltiragan tilla egar ham toblanib, ko'zni qamashtirguday edi. Sulton kalta yamaniy shamshir osgan, uning ham dastasi va qini oltindan edi. U ot ustida mag'rur va viqorli o'ltirar, otining oyoqlari uzunligi uchunmi yoxud chindan ham u shu qadar barvasta edimi, atrofidagilardan ancha baland ko'rinardi. Ehtimol haybat, salobat, viqor uyg'unligidan shundayin holat paydo bo'lar. Shunga qaramay, hukmdorning ko'zlari o'ychan boqardi...

Sultonning soqchilari-yu xos navkarlaridan so'ng qator safga tizilgan yoyandoz va zarbdor nayzabozlar kelardilar. Yoyandozlar yoylarini qo'llarida tutib, yelkalariga paykon to'la sadoqlarini osib olganlar. Ular ham boshlariga dubulg'a va egnilariga jeba (simdan to'qilgan harbiy kiyim) kiyganlar. Bularning ustlaridagi yuklari nisbatan yengil bo'lganligi bois shahdam qadam tashlaydilar, lekin nigohlaridagi bir qarashda payqash mushkul bo'lgan chuqur o'ychanlik oldindagi qaqshatqich janglarning mudhish manzaralarini yodga solayotgandek tuyuladi.

Zarbdor nayzabozlar ham dubulg'a va jeba kiygan edilar. Ular bir qo'llarida uzun nayza, bir qo'llarida qariyb bo'ylariga monand kelguvchi qalqon tutgandilar. Yonlarida esa kalta cho'qmor va yoysimon egri xanjar. Bularning qadam olishlari juda og'ir va odimlari ham ancha sust. Yoyandozlarning nigohlaridagi chuqur o'ychanlik, bularning yuz-ko'zlariga singib ketgan mung va zahmat aksi qoshida hech narsa emasdek ko'rinardi.

Harbiy karvonning keyingi qatorlaridan o'q-yoy, qurol-aslaha va oziq-ovqatlar ortilgan arobalar o'rin olgandi. Ular bilan yonmayon tabbohlar va boshqa turli xizmatlarga zimmali bo'lgan kishilar borardilar. Ulardan keyinda esa manjanaqlar va ularning o'qlari hamda qozonu saqich, naft (neftCH) ortilgan arobalar, nihoyat so'ngida janibatlar (ehtiyot uchun olib yuriladigan otlar) kelardilar. Ayni shu joyda qo'shinning bir tumani (o'n ming kishi) nihoyasiga yetib, yangi tuman boshlanardi. Hozir bu harbiy karvonda yigirma tumandan ortiq lashkar borardi. Beadad qo'shinning ko'chishidan ko'kka o'rlayotgan shovqin-suron tovushi uzoq-uzoqlardan eshutilib turardi.

Sulton quloqlarni batangga keltiruvchi mana shu ovozlari og'ushida ham dunyodan uzilgan yanglig' o'z o'y-fikrlari ila band edi. Buyuk saltanatining bosh kenti bo'lmish muazzam Isfahondan uzoqlashib borarkan, yuragining tub-tubidan nimadir uzilib qolayotgandek tuyulardi. Ayni damda dunyoni zir titratgan tojkor Ollohning barcha kabi bandasiga, oddiy mardumga aylanib borardi. Hali oldinda taqi necha haftalab yo'l yurmoq lozimligini va o'shal uzundan-uzoq fursatda yana ko'p bor og'iru yengil o'ylar girdobiga tushmog'ini bilsa ham hozirgi o'ylari cho'zilgandan cho'zilaverardiki, o'zi bunga monelik qilishni istamasdi. Mana endi taqi bir bora anglamoqda-farzandlari va xotinlariga, keyingi oylarda oralariga ancha-muncha dilxiralik tushgan bo'lsa-da, vaziri azamga, dilkash musohibi (suhbatdoshi), xiyol shubha-gumonga solgan ersa-da, nazdida, sadoqatli nadimi Umar Xayyom hamda ko'plab boshqalarga ko'nikib, hattoki suyanib qolgan ekan. Hali xayrlashayotganda fотиha bera turib vaziri azamning ko'zlarida yosh aylanganini payqadi. Ha, uning otasidek bo'lib qolgani rost. Sultonni darg'azab etgan o'shal voqeotga ham aslida Nizom ul Mulk bois emas, farzandi shakkoklik qilib, gunohga qo'l urdi. Vaziri azam unga bir umr sadoqat ila xizmat qilib kelmoqda. Uning ko'zlaridagi yosh nedin nishona? Uning qadriga yetmaganligidan o'kinish alomatimidi? Yoxud o'z farzandini urush sari uzatayotgan padarning ko'z yoshlarimidi? Ehtimol uning ham halok bo'lishi mumkinligini o'ylab, yig'lagandir? Axir padari buzrukvoril ulug' sulton Alp Arslon Jayhun bo'ylarida ajalga ro'baro' kelmaganmidi! Demak, bu ham o'lib ketishi mumkin... Sulton Malikshoh qoraxoniylar sulolasi haqida juda yaxshi malumotga ega edi: bu xususda avvalo turkon Xotunga uylanganidan so'ng bilgan bo'lsa, keyinroq Shams ul Mulkning saroyida bir necha muddat xizmat qilgan Xayyomdan eshitgandi. Ha, u bu buyuk turkiy hukmdorlar sulolasini juda yaxshi bilardi.

Qashqarlik qoraxoniylar naslining asoschisi Abdulkarim Sutuq Bug'roxon (hijriy 320 yillar) bo'lgan edi. U ancha marifatli va ziyopeshla inson bo'lib, o'z qavmining kamol topmog'ini istab Islomga kirgandi. Bug'roxon va uning avlodlari turkiy urug'larni birlashtirish hamda yurtni obod qilish borasida ko'pu xo'p ishlarni amalga oshiradilar. U bir safar Sayhun bo'ylaridan ortiga qaytib ketadi. Boisi bu yoqda barqaror bo'lgan forsiy madaniyatni yengish ancha mushkul ekanligini, ayni damda bu yurtga qo'shin tortsa, hademay ularga qorishib, singib ketishi mumkinligini anglab yetadi. Chunki u mustaqil turkiy davlat va madaniyatni barpo etmoqchi edi. Shul sababli ham ancha tayyorgarlikdan so'ng bu yurtga hujum qildi va uni ishg'ol etdi. (Buxoro, Vobkent, Jarqo'rg'on va O'zgdagi bir qator bino-yodgorliklar qoraxoniylar hukmronligi davrida bunyod etilgan bo'lib, ular o'ziga xos turkiy memorchilik uslublariga, jilolariga egadir. Shuningdek, bu davrda Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Farobiy kabi buyuk turkiy allomalar ham yetishib chiqqanlar.)

Dilxush suhbatlarining birida Buxoro va qoraxoniylar sulola haqida gap ketganida Xayyom qarshisida buyuk sulton o'ltirganligini dil-dilidan tuygan holda bag'oyat ehtiyotkorlik ila aytib bergan edi: uning so'ziga qaraganda, Sutuq Bug'roxonning zurriyodi bo'lmish Shams ul Mulk ham dastlab anchagina tadbirli, el-ulusga qayishguvchi hukmdor bo'lgan. Bir kuni u Buxorodagi barcha fuzalo-yu shuaro, memoru naqqoshlarni saroyda jam etib, majlis tuzadi. Shunda memoru va naqqoshlarni imtihon eta turib, o'z padarini eslaydi. Otasining bunyod etilayotgan binolarning hatto naqshu bo'yoqlariga ham etibor berganligini aytib, endi bu ota meros odat taqi davom etajagini takidlaydi. O'shanda Xayyom xiyol tabassum ila degandi:

-Olampanoh, qarangi, ul qoraxoniylar hukmdor turkiy va forsiy naqqoshlik sanatini ajab qiyos ila tariflagandi. So'ngroq o'zim ham

etibor qildimki, filhaqiqat, forsiy naqqoshlarning naqshlari dona-dona unsurli, yorqin rangli bo'larkan. Turkiy naqshlar esa nafis va jimjimador, bo'yoqlari esa ko'zga uyg'un ko'rinarkan.

Keyinchalik bu gapga sultonning o'zi ham iqrar bo'lgandi.

Biroq Sutuq Bug'roxon tuzgan ulug' saltanat uning naslidan bo'lmish Shams ul Mulk davrida tanazzulga yuz tuta boshladi, yurt salobati va fayzidan baraka ketdi. Sulton Malikshoh bu narsalardan juda yaxshi boxabar edi va baribir o'zi kabi turkiy qavmdan bo'lmish qoraxoniylar sulolasini dilida hurmatlardi. Bir tomoni, suyuqli zavjasi turkon Xotun ham ana o'sha urug'dan edi. Shu kabi sulton, o'zidek mag'ribu mashriqni zir titratgan turkiy hukmdor Mahmud G'aznaviy ham, uning o'zi ham ixtiyorsiz ravishda forsiyparast ekanliklarini ich-ichidan tan olardi va qoraxoniylarning sof turkiyparast bo'lganliklariga pinhona havas qilardi. Valekin bu kechmishlarini sirtiga chiqarmasdi, chunki saltanatida istasa-istamasa forsiy yo'riq ustuvorligini juda yaxshi bilardi... Saljuqiy qo'shin ikki oy deganda Jayhun bo'ylariga yetib keldi. Sulton lashkarning asosiy qismiga dam berib, maxsus ustalarga daryo uzra ko'priklar qurdira boshladi. Bo'sag'ada qadim Termiz shahri turardi.

Beshinchi bob

1

Sulton boshliq qo'shin Buxoro fathiga ketgach, dorussaltanat ancha huvillab qoldi. Bozorlarning gavjumligidan, ko'cha-yu karvonsaroylarning fayzidan ham qo'r ketdi. Buning ustiga boshkent osmoni uzra ko'z ilg'amas qora bulut to'planib, bag'rida bir mudhish sharpa izg'iy boshladi. Biroq uni o'shal sharpaga oshno bir necha kishidan o'zga birov payqamasdiki, zero uning kuchu qudrati ham shunda edi.

Qo'shin shaharni tark etgach, Muhammad Takash va Qazviniiy muloqotlari taqi quyuqlashib qoldi. Shoirlar amiri kunda-kun ora shahzodaning qasrida hozir bo'lardi, Buyog'i kunlar ilib, ko'klamning adog'i ko'rina boshlaganligi bois, ular ko'pincha odatdagidek qasr tomi ustida suhbat qurardilar. Chunki Takash kabutarlar parvozigamudom oshiqu beqaror edi. Bu safar ham shunday bo'ldi, Qazviniiy tomga ko'tarilib borarkan, Takashning kabutarlarga qarata beo'xshov qiyqirgani qulog'iga urildi.

-Ovoziny o'chsini kabutarboz, yurakni yoray deydiya battol!-deya g'udranib qo'ydi u o'ziginah eshitadigan ovozda. Biroq Takash ko'rinishi hamono shoirlar amirining basharasida tabassum chechagi barq urdi.

-Assalomu alaykum, shahzodam!-dedi u sohibi xonadonga. -Hademay kabutarlaringiz mengiz o'z parvozingiz ham mamlakat osmonini bezaguvsidir. Ilohi, o'shal kun jadal kela qolsin, ey, buyuk sultonzoda!

Qazviniiyning xushomadi kabutarlar raqsidan olinajak zavqdan ustun kelib, Muhammad Takash mamnun qiyofada unga o'grildi. Uning yaltoqlanib, qo'l qovushtirib turishi taqi xush yoqdi-da, viqoriga viqor qo'shilib, battar havolandi.

-Ahlan va sahlan, xush kelibsiz shoiri zamon! -dedi ko'ksini kerib, Qazviniiy o'ltirishga chorlarkan, o'zi ham o'ltirdi va shu o'ltirish asnosida ko'kdagi hur eshlariga ilkis ko'z tashlab qo'ydi. U kabutarlarni chindan-da yaxshi ko'rardi va ularning aksari oppoq tusda bo'lganliklari bois ko'k toqida o'mbaloq osharkanlar, serharakat qanotlari tangabaliq singari yalt-yult qiladi.

Kabutarlar Takash qalbidagi bir parcha oqlik edilar va uning xo'yida ulug'vorlik yoxud ezgulik bo'lsa agar, u ana o'shal go'zal mahluqlarga mehri tufayli edi.

-Fursat yetdi chog'i, shahzodam.-dedi Qazviniiy shipshigan yanglig' ovozini ohistalab.

Takash chuqur tin oldi, yuzida sezilarli xavotir zohir bo'ldi. Shu ko'yi anchagacha ilkidagi zabarjad uzugini barmoqlari ila o'ynab o'ltirdi.

-Amirni tadbir ila tarafimizga og'dirmoq lozim.-dedi u nihoyat xayolchan alpozda qolarkan.

-Tadbir tuzilgan, janobim.

Takash taqi jim qoldi. Undan hadeganda sado chiqavermagach, yana Qazviniiy so'zlamogga tutindi.

-Sizning minglik qo'shiningiz bor. Anovi kuffor shofeinga (vaziri azamni nazarda tutmoqda) itoat etguvchi o'shal amirni qo'lga olsak...

Takashni vahm bosa boshlagani uning yuz-ko'zidan shundoqqina bilinib turardi.

-Amirning xonadonini tunda olg'aymiz. Qarabsizki, ul ilkimizdada, chunki ahli xonadoni rahnda (garovda) bo'lg'ay. Shofeinni esa zindonga tashlaymiz.

-Evlarmikinmiz, shoir?-so'radi Takash ko'zlari ola-kula bo'lib. U taqi kabutarlariga boqdi. Ularning charx urishlarini bir muddat intiq kuzatarkan, yonboshidagi idishdan hovuchini to'latib don olib, kabutarlari o'rgangan ovozda hayqirdi va tom sahni uzra sochib yubordi. Ularning ikkisi paykon misoli tezlikda o'zlarini quyiga urdilar.

-Evlash ham gapmi!.. Sizning sultonlik haybatingiz ila tog'larni-da bir hamlada yiqurmiz, shahzodam. -Qazviniiy nishonni to'g'ri oldi, nihoyat Takashning ko'zlarida ham asta-sekin o't chaqnay boshladi.

-Qani, tadbiringizni so'zlang!-dedi u shoirlar amiri tomonga engashib...

Nihoyat kelishilgan kechasi xiyonatkor fitnachilar oyoqqa qalqdilar. Shahzoda o'z sarbozlari ila (malika va shahzodalarning o'z qasrlari, moliyaviy idoralari bo'lganidek, kichik-kichik qo'shinlari ham bo'lardi.) avvalo ehtiyot lashkarga bosh etib qoldirilgan amir xonadonini bosdi. Uning xotinlari va farzandlarini rahnga olgach, o'zi hamda lashkari bir qo'g'irchoq mengiz ko'yga tushdi.

So'ng Takash har ikki qo'shinni bir necha qismlarga taqsimlab, ularga o'zining ishonchli kishilarini bosh qildi. Ularning ikkisi malikalarning qasrlarini ishg'ol etib, qasr ahlini hibsga oldilar va qasrdan tashqariga chiqmaslikka amr qildilar. Takashning o'zi boshliq bir qism lashkar esa vaziri azamning qasrini qamal qilib, o'zini hibsga oldilar. Bu orada devon ahlining barchalari ham zudlik ila zindonband etildilar. Sohib devon Nizom ul Mulkning o'zi ham zindonning alohida xonasiga tashlandi. Shunday qilib, bir kechaning o'zida mavjud hukumat fitnachilar tomonidan ag'darildi. Nafaqat saroy, balki butun shahar ahli ham g'aflatda qoldilar. Saharmardonda olam-jahonni tutgan nog'oralarning vahimali ovozi hammani shohmaydon sari chorladi. Odamlar bomdod namozini shosha-pisha o'qishib, ne hodisa ro'y berganligini tezroq bilmoq uchun shahriston tomon chopdilar.

Bu payt Takashning qo'shinlari shohmaydonni xalqa orasiga oldi. Uning o'zi esa xos navkarlari ila supa ustida edi va viqorli nigohini sarosimada g'ala-g'ovur qilayotgan avomga qadagandi. Yonboshida ko'zlari ola-kula bo'lgan, bu qirovli keksa boshiga ne sho'rishlar yog'ilishini bilmay bazo'r nafas olayotgan muhtasib Badriy titrab turardi. Shoir Qazviniiy esa o'ziga yetgulik mug'ombir va ustomon ediki, Takashning g'alabasiga hali butkul ishonmaganligi bois o'zini g'anim ko'zlardan panaroqda saqlardi. Uning tungi hodisotlarning birontasida ishtirok etmaganligini hatto Takash ham payqamagandi.

-Siz kim tarafindasiz, muhtasib janoblari?-dedi Takash Badriyga boqib. Biroq har qancha tirishmasin ovozi titrab ketdi.

Badriy sarosimaga tushdi.

-Men... men... Sul... siz!..

-U sizga aslo el bo'lmag'ay, shahzodam.-deya shivirladi orqa tomonda turgan Qazviniy.

-Nega duduqlanursiz xezalak kabi? -Takash bu gapini Qazviniyning so'zidan dadillanib aytdi.

-Ur bu taka soqolni!-deya ishora qildi Qazviniy Takashning yonida turgan yangi hukumatda amirlikni orzulagan g'ilay ko'zli, barzangi soloriga (askar boshlig'i).

G'ilay ham qonga tashna turgan ekanmi, cho'qmori ila Badriyning bo'yni va orqa miyasi aralash bir urdi "jiq etgan sas chiqdi-yu muhtasib yerga ag'darildi va lahzada jon taslim qildi. Mudarra sallasi ancha nariga dumalab ketdi. Bu noxos qatlga ko'zlari tushgan atrofdagi kishilar qo'rquv ila orqalariga tislandilar.

-Jazoiningni oldingmi, taka soqol!-deya xiringlab qo'ydi Qazviniy.

Takash bunday bo'lishini kutmagan va g'ilayning tuyquq sayidan ichida bir qalqib tushgan esa-da, birovga sezdimadi, o'zini beparvo tutishga urindi. Maydon sari oqib kelayotgan odamlarga g'olibona tikildi. Biroq uning vujudida taqi o'sha eski fahm junbushga kela boshlagandi. Bu ne hol, deya o'ylardi u bo'g'zidagi nimarsa tepa-yu pastga jonsarak tarzda borib- kelarkan.. Nahotki sultondan shunchalar qo'rqa?! Axir u qo'rqoq emasdi-ku. Uni bu ko'yga solgan nahotki sultonning haybati bo'lsa? O'zi yo'q odam kishini shunchalar qo'rquvga solsa-ya!.. Yo Olloh, bu qilmishlarim ne ila intiho topmog'i faqatgina o'zingga ayon. O'zing najot ber, Tangrim!.. Kabutarlarim parvozigga termulib, ko'nnglim halovatda o'ltirsam ne qilardi-ya?..

Iblisi lain yo'rig'ida bu fitnaga go'yo bosh bo'lgan Muhammad Takash o'z ahvolini anglayolmay halak edi. Yuragida uyg'ongan vahm-bu o'z iymoni ekanligini, buzuq yumushga bosh qo'shganligi bois behalovat bo'layotganligini u aslo tushunolmasdi. Vahm-har tugul toza qalbdan joy olgan iymonning o'z sohibiga isyoni edi.

Bu payt Shokir Talx ham maydondagi olomon ichra edi. U fahmladiki, xiyonatkorlar rasadxona ahlini faromush etmish, aks holda allaqachon ularni ham bosh maydon sari quvib kelgan bo'lardilar. Talx har tomonga alanglay boshladi-shahardan chiqmoq uchun yo'l va bir ishonchli hamroh izlamoqqa tutindi. Yon-verini ko'zdan kechirarkan, hoynahoy barcha darvozalar g'anim ilkida bo'lsa kerak, deya xayol qildi. Nihoyat nigohi ila bir kosib birodarini topdi-yu u tomonga otildi... Ikkisi uzun rasan (chilvir, arqon) olishib, rasadxona tarafga chiquvchi darvozaga bordilar. Darvoza berk edi, uning oldida bir to'da xiyonatchi navkarlar turar edilar. Shokir Talx otashin bo'ldi-yu g'udrandi:

-Bu tojrdorlar kasriga dunyoda ham mani qolmadi. Ini og'aning yaqosidin olsa-ya! Qiyomat yaqin ko'rinadur... astag'furilloh!..

-Ne deb g'o'ldiraysiz, Talx?-deya so'radi uning turishidan hayratlangan hamrohi.

-Qani, ketduk, deyman.-dedi Shokirning zardasi qaynab.

Ular devor oshmoq uchun qulay joyni izlab kezina boshladilar. Allaqachon shaharning to's-to'poloni chiqib ketgandi. Barchaning yuzu ko'zida ulug' bir sarosima, harakatlarida tahluka zohir edi. Odamlar nihoyatda shoshib, jonsarak alpozda u yoqdan-bu yoqqa o'tib borardilar va shu jonsarakliklariga uyg'un tarzda tez-tez hamda muxtasar so'zlab ham qo'yardilar. Shu o'tgan qisqa muddat mobaynida go'zal boshkentdan, qadim Isfahondan fayzu halovat arib ulgurgandek edi. Hamma narsa go'yo xira qora parda ortiga o'tib borayotgandek ko'rinardi. Yo'l chetlaridagi borliqqa chiroy baxsh etgan anvoyi gullarning rangi endi uniqqanday, o'zining jilvakor tusini yo'qotgandek. Qator qad rostlagan sapidor (terak)larning ham yashil rangi qorayib-siyohlanib borardi go'yo. Ha, musulmon dunyosi hamisha tildan qo'ymagan, tinmay Ollohdan tilagan fayzu baraka faqat va faqat tinchligu omonlik tufayli ekan. Agar yurtidan halovat arisa, hamma narsaning bir zumda zeru zabar bo'lmog'i hech gap emas ekan.

Shaharda g'ala-g'ovur, parokandalik va eshu g'animning o'zi bilan o'zi ovora bo'lganligi bois ikki kosibning devor osha shaharni tark etganligini biron kimsa payqamay qoldi.

2

Ahli rasadxona shahar yuqorisida bo'layotgan shovqin-suronlarni elas-elas eshitgan esalar-da, asli hodisotdan bexabar edilar. Bundayin shum g'avg'o ilm ahlining yetti uxlab tushlariga ham kirmasligi aniq edi. Chunki ular saljuqiy saltanatning va ayniqsa, buyuk sulton Malikshohning kuch-qudratiga, idora usuliga shubha ila qaramoqlik xayolidan yiroq edilar. Illo rasadxona va ilmu urfonning barqarorligi ham sulton hazratlarining himmatu etiborlari bois edi. Buni ilm ahli juda yaxshi anglardilar va bu borada Ollohga shukronalari behad edi.

Voqeani Shokir Talx lafzidan eshitgan Xayyom zaruriy tadbir ilinjida o'yga botdi. Bosh maydon uzra muzaffariyat nashidasini surayotgan ekanlar, demak, vaziri azamu ahli devonni hibs etganlari aniq. Agarki qatli om qilib ulgurmagan bo'lsalar taqi. Vaziri azam itoatidagi qo'shin qayerda qoldiykin? Nahotki u ham xiyonatkorlar tarafiga og'gan bo'lsa?! Sohibi devon hazratlari omonmikinlar ishqilib? Yoki xusumat va hasad girdobida qolgan Takash va ... Xayyom tuyquq Talxga o'grilib, so'radi:

-Supa uzra amirul shuaro Qazviniy ko'rinmadimi?

-Ko'rinmadi chog'i.-degan Talx ikkilanib, yonidagi hamrohiga savol nazari ila qaradi. Undan ham tayinli javob ololmagach, Ha, u yo'q erdi. -dedi qatiy.

Xayriyat, deya o'yladi Xayyom biroq yengil tortib, yaxshiki bunga bosh qo'shmabdi u badkirdor. Taqi kim bilur? Bular ko'rmaganliklarini aytdilar xolos... Darvoqe, ne tadbir qo'llamoq joiz?..

-Mikoil! -deya chorladi u nihoyat u yon-bu yonga alanglab, ayiqbozni qidirarkan, yuz-ko'zida qatiyat aks etib.

-Labbay, xojam.-dedi uning o'trusida qo'l qovushtirgan Mekoil.

-Eng uchqur otni mingaysen va Sulton hazratlari huzuriga yelgaysen. Xiyonatkorlarning qilmishidan boxabar etgaysen.

-So'ng o'z ishorasi ila keltirilgan qog'ozga tezkor noma bitdi, unda bo'lib o'tgan hodisotlarni juda muxtasar bayon etdi va nomani Mikoilga tutqazarkan dedi,- Ushbuni sultonimizning o'z qo'llariga topshirgaysen. Qani, Olloh yor bo'lg'ay. Ollohu akbar!..

Mikoil ot sari chopib borarkan, Rindoniya dedi:

-Polvonni unutmag'aysiz, og'a.

Mikoilning qorasi qir ortiga yashiringach, fursat g'animat bo'lganligi, Xayyomning ayni paytida tadbir qo'llaganligi ayonlashdi. Chunki hademay shahar tomonda bir to'da otliq sarbozlar ko'rindilar.

Xayyom o'z izmida bo'lgan hamrohlarini vahima qilmaslikka, tahlukaga tushmaslikka undarkan, irodasini bo'lg'uvsi sinovlarga va hatto azob-uqubatlarga chog'lardi. Anovi yarog'langan hayvonmijozlarga ahli rasadxonani qarshi qo'ymoqlikdan mani yo'q. Baribir ularning qo'llari baland kelgay, chunki xoma va kitob tutgan qo'llar birovning joniga qasd qilmoqlikka qodir emas. Mabodo to'qnashuv ro'y berganida ham ilm ahlining mag'lubiyati aniq. Ularning jonlarini omonda saqlamoqlik esa avvalo Xayyom qo'llaguvchi tadbirga hamrishta edi.

Filhaqiqat, yuz chog'li suvoriylar yetib kelib, rasadxona atrofini xalqaga oldilar...

Bu mahal shaharning bosh maydoniga jam bo'lgan avomning ro'baro'sida oyoqlaridagi titroqni sezdimaslikka urinib, g'oz turgan

Muhammad Takash o'ng ilkinini ko'tarib, xaloyiqni jim bo'lishga undadi. Uning ishorasidan so'ng, o'tgan kechada ne voqealar ro'y berganligini bilmoqqa intiq bo'lib turgan, biroq ana o'sha noayonlik ortidan tinmay so'zlayotganligi bois shovqini shaharni boshiga ko'targan odamlar tezdagina tina qoldilar. Takash bunday bo'lishini kutmagandi, shuning uchun shahriston uzra yastangan sukunat uni taqi dovdiratib qo'ydi. Bir muddat so'zsiz turdi-yu, so'ng orqasida turgan Qazviniyning "Bardam bo'ling, shahzodam! degan rag'batidan dadillanib, gapira boshladi:

-Aziz fuqaro! Malumingizkim, ko'hna Isfahonda fisqu fujur in qurib, turfa jodugarlar, iymoni zaif shofeinlar ko'paymoqdalar. Ular sultonning pinjiga kirib, hatto saltanat boshiga ham chiqib olmoqdalar. Natijada nujumparastlik avj olib, kufru zalolat ildiz otmoqda. Bu esa Islom zaiflashuviga olib kelmoqda. Shunday ekan... -Takash og'ir bir yutindi, ichida nimadir qalqib ketdi. - Shunday ekan, ulug' padarimizdan meros qolgan mamlakat idorasini o'z ilkimizga olmoqlikka jazm etdik. Olloh taoloning irodasi ila buyuk Islomga kuchu jahd bermoqlik sharafi sizu bizning yelkamizga tushganligi muborak bo'lg'ay!

Biroq u kutganidek olqishlar taralmadi. Ne hol ro'y berayotganligini anglab yetolmayotgan xaloyiq lolu karaxt turardi. Bu Takashni battar esankiratib qo'ydi.

-So'zni muxtasar qilg'aysiz, shahzodam!-deya shipshidi orqadan Qazviniy.

Valekin Takash boshqa biron so'z aytolmadi, ko'zlari olaygancha avomga tikilib, yutina-yutina turaverdi. Buni payqagan Qazviniy quyiroqda turgan jarchiga manoli ishorat etdi. U supa ustiga chiqib, baland va jarangdor ovoz ila avvaldan yod etgan so'zlarini hayqirib ayta ketdi. Yani jarchi shahzoda Muhammad Takash ibn sulton Alp Arslon o'zini sulton deya elon etajagini, endi jamiki davlat ishlari uning amru irodasiga dohilligini, toki maxsus ijizat bo'limguncha shahardan chiqmoq, unga kirmoq, tunda ko'chada yurmoq va boshqa ko'plab nimarsalar man etilganligini tinimsiz takrorlamoqqa tushdi.

Takash o'zini ancha o'nglab olganligi bois, kibru viqor ila endigina ayonlariga aylangan bir necha kishilarni ergashtirib, shohsupani tark etayotganlarida maydon chetida navkarlar qurshoviga olingan Umar Xayyom va uning shogirdlari Vositiy hamda Isfazariy ko'rindilar. Ularni ko'r-di-yu Takashning taqi turqi o'zgardi. Bu holatini anglaguncha bo'lmay najot izlab Qazviniyga qaradi. Shoirilar amiri esa darhol g'ilay solorga ularni to'g'ri zindonga olib borishlikni amr etdi. Chunki bu nujumparastlarning, ayniqsa, Xayyomning xalq o'rtasida obro'si baland edi. Ular zindonband etilganliklarining pinhon tutilmog'i avom o'rtasida vujudga kelajak norizolikning oldini olmog'i tayin edi. Amirlik mansabidan sarmast bo'la boshlagan g'ilay solor valinematlari farmonini tezlikda bajarmoqlikka oshiqdi...

3

Vaziri azam zindonning tor va qorong'i xonasida behalovat o'ltirar ekan haligina sodir bo'lgan voqealarni xotirasida qayta tiklamoqqa urinardi. Shuuridagi ana shu xohish asnosida xavotirli nigohi xonaning kichkinagina tuynugiga intiq tikildi. tutilmog'i avom o'rtasida vujudga kelajak norizolikning oldini olmog'i tayin edi. Amirlik mansabidan sarmast bo'la boshlagan g'ilay solor valinematlari farmonini tezlikda bajarmoqlikka oshiqdi. Hali tong otmadi chog'i. U egnidagi xonaki chakmoniga bir qur qarab qo'yarkan, ilki ila boshidagi taqyasini paypasladi-da, xiyonatkorlar tuzukroq kiyinib olmoqqa ham imkon bermaganliklarini esladi. Shu o'tgan oz muddat ichida nimalar ro'y berdi o'zi?..

Aslida kekxa vazir yoshi o'tib qolganidanmi yoxud boshidagi tafakkur tug'yonlari boismi, kam uyqu edi. Biroq bu kech ne g'aflat bosdiki, xufton namozini ado etiboq ko'zlarini uyqu elitdiyu to'shakka yon berdi. Iblis alayhilananing makrini qarangi, uyquning zo'ridan shaharda kechgan shuncha to's-to'polonni ham sezmadiki. Bo'lmasa, u sulton boshkentni tark etgandan buyon go'yo shahar darvozasida qoyim turgan tungi posbon misol hamisha sergak edi. Ming nadomatkim, bu kecha xushyorlikni unutdi, g'animplarning hufiya rejaları ijobati uchun imkon yaratib qo'ydi. U o'z xobgohida qachonlardan beri ayro tushgani-mast uyqu og'ushida edi. Bir zamon vaziri azamning boshqa payt bo'lsa bundayin yumushga aslo jurat etolmasligi ayon, kichik xizmatchilaridan birovi xobgohga dod sola kirib keldi. Nizom ul Mulk uyqudan uyg'onib, hali o'zini o'nglab olmasidan, ne hodisa ro'y berayotganligini ilg'amasidan xonani shaqir-shuqir, dupur-dupur tovushlari bosib ketdi. Chunki bir necha qurollangan sipohiylar xonaga chopa kirib, u ichra doira bino etdilar.

-Bu ne adabsizlik?! -deya hayqirdi vaziri azam o'rnidan qo'pib.

Oxirida kirib kelgan solor unga mag'rur boqarkan, dedi:

-Shahzoda Muhammad Takash ibn Alp Arslon janobi oliylarining farmonlariga binoan siz bandi etildingiz.

Vaziri azam ana shundagina poytaxtda xiyonat ro'y berganligini angladi. Angladi-yu aqli kalta bu sipohi-yu ularning soloriga qaytib bir so'z demadi. Bularga so'z aytmqlik devorning qulog'i bor deya o'ylamoq ila barobar edi.

Ne bo'lganda ham vaziri azamga aziyat yetkazmoqqa bu avboshlarning birortalari jurat qilolmadilar. Boshkentda harchand qiyomat qo'pib, har bir sak o'z sohibidan yuz o'girmoqqa hozir turgani bilan bularni kekxa Nizom ul Mulkning salobati bosdimi yoxud farmoni oliyni kutib shunday qildilarmi, biron bir nojo'ya say etmadilar. Faqat zindonning alohida xonasiga kiritib, eshik oldiga bir emas, ikki emas, to'rt sipohiyni posbon etdilar. Zindon xizmatchilari tugul hatto zindonbonga ham ixtiyor bermadilar. Bu voqeotlarni ko'rib, kuzatgan bir zakiy zot topilgudek bo'lsa, shahar uzra va uning chekka-chekkalarida ham shavkatli sulton Malikshohning haybatu ruhi ogoh turganligini fahmlamog'i mumkin edi.

Mana endi qorong'u zindonda o'ltirgancha o'zini o'zi g'adablamoqda. Umr shomida endi bu ne g'aflat, ne sharmandalik bo'ldi?

Sulton hazratlari unga inonib qoldirgan boshkentni, taxtni bir zunda oyoq osti qilmoqliklariga imkon bersa-ya! Shu paytgacha Isfahon ichra ne hodisotlar ro'y berdi ekan? Malikalar, shahzodalar omonmikinlar? Ishqilib ularning qoni to'kilmasin!

Amirullashkar qaylarda qoldiykin? Yoki uni?.. Umar Xayyomchi?.. Ular ila qay yo'l ila robita o'rnatmog'i mumkin? Kekxa vazir zulmat ichra noayonlik og'ushida karaxtlanib borarkan, ogoh odam shohu, dunyodan ogoh bo'limgan shoh esa ojizu notavon kimsaga o'xshab qolmog'ini taqi bir bora anglardi.

Tashqaridan odamlarning shovqin-suronlari elas-elas eshitilardi. Tong otmoqda chog'i?.. Shu payt eshik ochilib, ro'baro'sida zindonbon paydo bo'ldi. Uning ilkida ancha uringan obdasta bor edi.

-Assalomu alaykum, hazrati oliylari!-dedi u egilib.

Vaziri azam unga savol nazari ila mag'rur tikilib turardi.

-Bomdodga tahorat olsangiz deb...

-Sen kimsen? -so'radi vazir biroz g'azab ila.

-Zindonbonmen.

Nizom ul Mulk uning so'z ohangidan ortiqcha gap lozim emasligini tushundi.

Zindonbon ustaomon odam edi. U sulton Malikshohning qudratini, mana bu bandi vaziri azamning esa aqli donishini

fahmlaganligi bois saljuqiy saltanatning inqiroziga inonmas, mazkur to's-to'polonlar vaqtincha ekanligiga aqli yetib turardi. Shul bois tama ilinjida otni qamchilardi.

-Mendin Umar Xayyomga xabar ber. Qog'oz keltir, noma bitib berurmen. -dedi vaziri azam tahorat olarkan.

-Meni qayta kiritmoqlari dushvor. -shipshidi zindonbon.

Eshik shaqirlab ochilib, bir sipohiyning qorasi ko'rindi.

-Nega imillaysen, hoy, zulmat sohibi?!-deya dag'dag'a qildi u. -Tez bo'!

-Say etib ko'r. -dedi shivirlab vazir.

Biroq zindonbon uning oldiga qaytib kirmadi (ehtimol kiritishmagandir). Umar Xayyomni ham bandi etganliklarini keyinroq eshitdi. Biron bir tadbir qo'llamoqlikka qancha urinmasin harakatlari nafsiz qoldi. Eshik oldidagi sarbozlar isyonning so'nggi kunlarigacha u yerni tark etmadilar. Vaziri azam malika-yu shahzodalar hibsdan, Xayyom zindonda, Isfahon amiri raxnda ekanligidan xabar topgach, kutmoqdan, Ollohga tavakkul qilmoqlikdan o'zga chora yo'qligini tushundi...

4

Muhammad Takash nihoyat sulton Malikshoh saroyiga, yanaki mamlakatning eng nufuzli mashvaratu kengashlari o'tguvchi xosxona-taxt poyiga kirib bordi. U bu yerga ko'p bor kirgan va aytmoq joizki, bu muhtasham qasrning har bir ustuni, qandilu darichasidan tortib naqshlaridagi turfa jilolarigacha unga juda yaxshi tanish edi. Avvallari kengash yoxud boshqa biron yig'in bahona huzuri muborakka kirganida, qasrdagi har bir nimarsaga, ayniqsa, uning hashamat va ulug'vorligiga havas ila tikilar, goho bularning bari o'ziniki bo'lishi mumkinligini o'ylab, yuragi orziqib ketar, bu orziqish ortidan ko'nglida sultonga nisbatan kuchli nafratu hasad vujudga kelardi. Biroq unda bu qasrga kirganida va hattoki sultonning o'tlig' qahriga ro'baro' kelganida ham vujudida hozirgidek titroq, tushuniksiz qo'rquv kezinmasdi, shuurini ishg'ol etib, o'z xohishiga bo'ysundirmasdi. Ayni damda esa, buyuk saljuqiy saltanatning tillodan yasalgan ulug'vor taxtiga tikilib turarkan, jismida nimarsadir quyiga tomon oqa boshladiki, bo'g'inlari bo'shashib, suyaklari toldi, yuragi ostiga tosh qadalgan misol pastga osilaverdi. Tanidan mador ketdi, ko'zlari namlangan mengiz bo'lsa, og'zi quruqshadi. Vujudini titroqqa solgan boyagidan ham ko'ra kuchliroq qo'rquv paydo bo'ldi. Oqir-og'ir yutinarkan, o'rtandi, dod deb yuborgisi keldi. Shundagina u o'zining naqadar ojiz ekanligini, aslida mamlakat taxti uchun yaralmaganligini angladi. Anglagan sari xo'rliqi keldi, bariga qo'l siltab, tog'u toshlarga ketmoqni istadi. Biroq endi kech edi, borliqda karvon ortidan ko'tarilgan gardgina qolgandi. Endi ortga chekinish mumkin emasdi...

Bolaligida padari sulton Alp Arslon uni xushlamaydigandek tuyulaverardi. Turli anjumanlarga, ayniqsa, harb ilmiga bois mashqlarda-chavandozlik yoxud qilichbozlik kabi saboqlarda sulton otasi unga u qadar ro'yxushlik bermas, hamisha bir yoshga katta bo'lmish o'g'li Jaloliddin Malikshohga mayl bildirardi. Uning har bir harakatlaridan va hatto nuqsonlaridan ham zavqlanar, agar biron borada qoyil qoldirsa bormi, tinmay olqishlardi. Unga sayin Jaloliddin kundan-kun har sohada mohir bo'lib, jussasi yiriklashib, to'lishib, bilaklariga kuch quyilib borardi. U chinakam zabardast yigitga aylanib, ulug'vorlik kasb etaverardi... Takash ila esa undayin munosabatda bo'lmasdi, hattoki ko'pincha unga etibor ham qilmasdi. Buni Takash o'zining kanizakdan tug'ilganligi tufayli deb bilar va shul sababli ham tobora ezilib, pismiqlashib borardi. Bola qalbiga bu muomala qattiq tasir etganligidanmi, padaridan ham, shahzodalar uchun majburiy bo'lgan harb mashqlaridan ham uzoqlashaverdi. Nisbatan kuchsiz va juratsizligi ham shundan ediki, biron yumushni qilishdan avval uzoq ikkilanib, oqibatidan shubhalanib, hurkib turardi. Bu feli uni ulg'aygach ham tark etmadi, aytmoq joizki, mudom taqib qiladi. U faqatgina kabutarlar davrasidagina o'zini erkinu ozod va hattoki juratli sezardi. Ehtimol biron bir insonshunosmi yoxud qalbshunosmi topilib, Takashni taftish etsa-yu va uning ho'yini to'la anglasa, har qandayin raqibni unga kabutarlari parvoz etganda ro'baro' qilarmidi. O'shanda balki u mislsiz pahlavonga evrilib, har ne g'animni yakson etarmidi. Uning kabutarlarga oshiqiligini bilgan odam bunga ishonishi tayin edi.

Avval aytilganidek, taxtga o'ltirmiz saljuqiy hukmdorlar atrofidagi tojga dahl qilishi mumkin barcha davogar jigarlarini bir chetdan qatl etaverardi. Takash o'zining hamon tirik yurganligiga goho hayron bo'lar, ishonmasdi ham. Nega endi og'asi sulton Malikshoh uning joniga qasd qilmadi- u huddi mana shuni tushunolmasdi. Sulton Malikshoh esa inisini nechun qatl etmaganligini juda yaxshi bilardi, bilganligi uchun ham o'ylagan rejasining intihosini kutibmi yoki boshqa bir murodi bormi, jon qasдини kechiktirardi. Takash, ayniqsa, bolaligida bir umr qisinib-qimtinib, o'ksinib yashadi. U hamisha Jaloliddinga hasad qilardi, biroq juratsizligi bois hasadu nafratni ham evlay olmasdi, yelkasini qisib, ezilgani-ezilgan edi. O'z mag'lubiyatini omadsizlikka yo'yib va hatto jismidagi tug'ma, nuqson mengiz tushunib, bosh ko'tarmoqdan tiyilardi. Bu otasiga yoqmas, og'asi esa uning bundayin kechmishlaridan huzurlanardi. Ana o'sha huzur (yoki uning humorimi) sultonni hanuz tark etmas, o'z jigarining mag'lubiyatidan, alamzadaligidan zafar nashidasini surardi. Takash uning yengib, bo'yinsundirib yashashdek insoniy tuyg'usiga posangi vazifasini o'tardi. U inisidagi hasad o'tini yana va yana alangalatib, uning ojiz boqishlaridan, pinhoni to'lg'onishlaridan qalbida huzur tuyardi. Shuning uchun ham uni qatl etmasdi.

Muhammad Takash taxtga o'ltirolmadi, oyoqlari titrab, quyidagi kursiga cho'kdi.

-Shahzodam!-dedi Qazviniy xushomadgo'yarlarcha tazim qilib, -Endi bu taxt sizniki. Uni muborak eting!

-Keyin. -deya Takash boshini egdi. -Toliqdim... Amir eting, tanavvul va may hozirlasinlar.- U chindan-da xorg'in va ayanchli ko'rinar, tobora cho'kib borayotganligini o'zi ham sezar, his qilar, shuning uchun chorasizday tuyulardi.

U bundan bo'lishini kutmagandi, taxtga o'ltiramanu buyuk saltanatni idora qilishga tushaman, deb o'ylagandi. Lekin unday bo'lib chiqmadi, mana o'shal taxt ro'baro'sida turibdi, ikki qadam bossa yetadi. Biroq ana o'sha ikki qadamga holi kelmadi. Endi hech qachon bu taxtga o'ltira olmasligiga uning aqli yetdi, faqat buni to'la tan olishni istamagani kabi boshqalar bilib qolishlarini, siridan voqif bo'lishlarini ham xohlamasdi. Qolaversa, mamlakatni idora etmoqni nimadan boshlamoq lozimligini ham bilmas, vaziri azam tartib bergan davlat tizimining sir-asrorlaridan bexabar edi. O'zi tan olmasa-da, saljuqiylar davlatida barqaror bo'lgan devonlarning yumushlariga-da aqli yetmasdi. Shul bois endi u o'z xatosining alamini may zahridan ola boshladi. Devonning bo'yin egmagan amaldorlarini qatorasiga zindonband etaverganliklaridan davlat ishlari o'lda-jo'lda qoldi. Shahar hayoti izdan chiqdi, o'g'rilik, talonchilik ko'paydi. Sulton Malikshoh taraf jon qayg'usiga tushgan bazi mansabdorlar, katta savdogarlar pinhona shaharni tark etmoqqa tushdilar. Xullas, ko'hna Isfahon xiyonat botqog'iga botib, boshini zulmat qopladi.

Shohona dasturxon uzra sarxush o'ltirganlarida o'zini vaziri azam darajasiga ko'targan Qazviniy Takashni Nizom ul Mulk va Xayyomni qatl etmoqqa undadi, hech yo'q qatlg'a ijozat berishligini o'tindi. Bu kabi qistovlar keyingi kunlarda ham muntazam davom etdi. Ammo Takash qay ahvolda bo'lmasin uning bu o'tinchini qatiyat ila rad etardi. U qalbining bir burjida saqlangan chimdingina nur tufayli bu ikki insonning ulug' maqomini his qilardi chog'i.

Filhaqiqat, Muhammad Takash qilg'ilikni qilib qo'ygach, bu qilmishining oqibatini o'ylab, vahimaga tushaverdi. Maishatga va

ayniqsa, ichkilikka ruju qo'ydi, kechalari uyqusini yo'qotdi. Ehtimol chindan ham sulton Malikshohning Olloh bergan biron xislati bormidi yoxud bu taxti oliy afsunu amal ila barqarormidi, har qalay Takash toj kiyib, o'shal taxtga o'tirmoqqa jurat etolmasdi. Oradan bir necha hafta o'tgach, shoirlilik to'nini yopingan makkor Qazviniy bu telbamonand, o'zi aytmoqchi, xezalakiyoz shahzodaga inonib, xato qilganligini tushunib yetdi. Anglab yetdi-yu jon qayg'usiga tushib qoldi...

Oltinchi bob

1

Sulton Malikshoh Jayhun uzra ko'priklar qurishni nihoyalab, Termiz fathini ko'zlab qadim daryo sohilida o'ltirganida padari buzrukvorining qismatini taqi bir bora yodiga oldi. U huddi mana shu joyda, manov shashtli daryo guvohligida Yusuf otlig' cho'bonning tig'iga ro'baro' kelgan edi. Uning valiahdi ham yana shul manzilda turibdi. Erta tongdan Termiz sari yurish boshlaydi. Malikshoh Termizni ham, Buxoroni va umuman butun Movarounnahrni ham hech qanday malolatsiz qo'lga kiritmog'iga ishonar, Ahmadxonning o'ziga munosib raqib emasligini juda yaxshi bilardi. Biroq hozir uning yuragini nechukdir mahzunlik egallab, bashar boshida hamisha tig' tutib turgan urush, qirg'inbarotlardan soviy boshladi. Shuurida o'z taqdiriga nisbatan ojizona isyon vujudga keldi. Mijjalari achishib, bag'ri o'rtandi. Dunyoning yarmiga hukmron bo'lgan saljuqiy sulton ayni damda dod solmoqni istardi. Lekin hozirgi ko'yini o'zi anglamas, bu bandaning o'z sohibiga, yanada ravshanrog'i, o'z asliga intilishi ekanligini tushunolmasdi. Shuningdek, bu holi o'tkinchi edi, hademay qudratli va viqorli sulton Malikshohning o'z suratiga taqi qaytmog'i aniq edi.

Tong saharlab Termiz sari yurish boshladilar. Mo'r-malax singari adog'siz qo'shin bu qadim shaharni hech qanday qarshiliksiz egalladilar. Oradan bir hafta o'tgach esa saljuqiy lashkar Buxoro bo'sag'asida turardi. Qoraxoni hukmdor Ahmadxonni tor-mor etish, lashkarining zaifligidanmi yoxud avomning unga qarshi bo'lganligidanmi, u qadar mushkul kechmadi. Bir kunda Buxoroi azim Malikshoh ilkiga o'tdi. Ahmadxonni tutib, bandi etib, Isfahon sari yo'lladi. Bu ila malika Turkon Xotunga o'z mehrini ayon etmoqchi bo'ldimi va yoki uning nasabini kamsitib, pinhona huzur topmoqchimidim- nomalum. Har tugul so'nggi qoraxoniyyozdaga shafqat qilgani rost.

Undan uyog'i Shosh, Sayram, Andigonu O'zgan kabi yirik shaharlar esa-da, Saljuqiylarga u qadar qarshilik ko'rsatmadilar. Nihoyat sulton Malikshoh Qashqar sari ko'z tikkanida, uning xonidan elchilar keldi. Qashqar xoni sovg'a sifatida olam-jahon oltin kumush va arg'umoqlarni yo'llab, sulton Malikshohga boj-xiroj to'lamoqqa tayyor ekanligini, uning nomini xutbaga qo'shib o'qitishligini malum qilgan edi. Malikshohning suvratu ismini oltin tangalarga zarb etib yo'llabdi. Bundan sulton benihoya shodlandi va Qashqarga yurish qilmasdan ortiga qaytmoqlikka jazm etdi. Ayni mana shu paytda uning huzuriga Mikoil yetib bordi...

Sulton g'azabnok bo'ldi va o'sha onning o'zidayoq xos navkarlarini otlantirib, bir qism zarbdor qo'shin tuzdi-da, boshkentga yo'lladi. Qo'shin amiriga Isfahonni zudlik bilan egallab, xiyonatkorlarni beshafqatlarcha tor-mor etmoqlikni amr etdi. So'zining so'ngida sohib devon Nizom ul mulk va amirul fuzalo Umar Xayyomni ne tadbir ila bo'lsa-da omonda saqlamoqlikni buyurdi. Ushbu farmonni berdi-yu donishmand ustoz Nizom ul Mulk va lutfi xo'b nadimi shoir Umar Xayyomni dil-dilidan sog'inganligini his etdi. His etdi-yu bag'ri sim-sim o'rtandi. Manov olis yurtlarda, chang-to'zon va dashtu biyobonlarni kezaverib, qon to'kaverib hamda faqatgina eranlar orasida yuraverib dag'allashgan sarbozlarning hayqiriqlari, otlaru fillarning bo'kirishlari, yarog'laru arobalar, manjanaqlar shaqir-shuquri ostida buyuk bir sog'inch ila angladiki, ul ikki ulug' zot naqadar go'zal va dilbar insonlar ekan. Demakki, to'zonu baqiriqlarga to'la bu dunyoda, ul ikki ziyopesha birisi tunda Oy, birisi kunda Quyosh yanglig' ekanlar. Ko'p ilmlardan boxabar bo'lgan sulton ilmning, hikmatu ziyoning manisiga mana endi taqi bir bora yetdi. Ilmu sanatga, olimu fuzalolarga homiylik qilmoq- bu hali ilmni anglamoq emas ekan. O, battol Takash! Seni ini demoqlikdin or eturmen. O'shanda nechuk seni ham qatl etmadim?! Nechuk bo'g'zingga cho'g' tiqmadim?! Babibir kanizakdan bo'lganligingg'a bording sen xiyonatkor. Yo alhazar! Shundayin buyuk saltanatning poytaxtini egallamoq shunchalar oson bo'lsa-ya?! Vaziri azam g'aflatda qolmish chog'i. Men kimga ishondimu dorussaltanatda bunchalar oz qo'shin qoldirdim? Asli aybdor men, asli g'ofil men!.. Sulton ot uzra Isfahon sari borarkan, tinmay o'zini g'adablardi. U saltanatni yoxud taxtni yo'qotishdan vahmga tushmasdi, ular uchun qayg'urmasdi. Uni otashin etib, alamga solgan xiyonat va aziz kishilarining qorong'u taqdirlari edi. Takash hukmdorlikni evlay olmasligini u yaxshi bilardi va poytaxtni ham, taxtni ham tezlikda qaytarib olmog'ini sezib turardi. Biroq nobakor inisi o'shal ongacha biron mudhish yumushni amalga oshirib qo'ymog'i mumkin. Malikshoh shundan qo'rqardi. O, xiyonat olovida jizg'inak bo'lgur Takash, ilkimga tushg'aysen hali!..

Bu paytga kelib saljuqlar saltanatining sarhadlari hofiqaynda (Sharqu G'arbda) bir yoni Shomu Ajam, bir yoni Rumoyu Vizantiyadan Rofidayn (Messopotamiya) gacha, buyog'i Qay (Mo'g'uliston), Chin (Xitoy) o'lkalarigacha cho'zilgandi. Bu juda ham ulkan bir mamalakatni tashkil etardi. Sulton Malikshoh o'zining shuuri-yu shamshiri va quvvai hofizasi ila mana shu cheksiz-chegarasiz saltanatni idora etardi. U har qanday g'aninning ko'ziga tik boqishga, shamshiriga shamshir urishga qodir edi. Valekin shuncha kuchu qudrati ila xiyonatning hiylasi qoshida g'ofil g'oldi. Yo'q, Takash bundayin kabir yumushga qodir emas. Uni biron bir ustomon yo'lga solganligi shubhasiz. Kim bo'lishi mumkin o'shal ustomon? O'zgalari huzurida otga dadil minolmaydigan, shamshir qay tomonga osilishini bilmaydigan kabutar jinnisi taxtga davogarlik qila olarmidi. Taxtga ro'baro' kelgan taqdirda ham unga qay tarafdin o'ltirishni bilmas. O'zing ojizlarning ojizi bo'lsangu!.. Yoxud ismoiliylar bosh qo'shdilarmikin? U yoqda sakvachcha Hasan (Sabboh) quturgandan-quturmoqda. Arslon Tosh ne qildi ekan? Alamit olindimikin? Nahotki inisi Takash ismoiliylar domiga tushgan bo'lsa? Unda ahvol jiddiy bo'lg'uvsi!..

2

Malikshoh yo'llagan xos lashkar Isfahonga sunbulaning adog'ida yetib keldi. Bu payt Hasan Sabboh qo'nim topgan Alamit qalasini ishg'ol etish uchun ketgan amirlar amiri Arslon Tosh boshliq qo'shin ham shahar bo'sag'asida turardi. So'ngroq malum bo'lishicha, bu qo'shin Alamitni uzoq muddat qamal qilib turishiga qaramasdan, uni olishga musharraf bo'lolmabdi, oxir oqibat amir Arslon Tosh ixtiyori ila ortiga qaytibdi. Hozir esa ular Isfahonda ne voqea ro'y berganligini, ne tadbir qo'llash lozimligini bilolmay boshlari qotib turar edilar. Mashriqdan sultonning xos qo'shini yetib kelgach, shahar ostonasida haybatli bir to'lqin paydo bo'ldi. Bu to'lqinning vahimasi, turgan gapki, shahar uzra ham yoyilib, Muhammad Takash qulog'iga-da yetib bordi va uning yuragiga g'ulg'ula soldi. Sultonlikni orzulab, xiyonatga qo'l urgan sarxush shahzoda o'sha zahotiyoyq adoyi tamom bo'lib, jon qayg'usiga tushib qoldi.

-Yo Olloh!.. -derdi u o'zini u tomondan-bu tomonga urib, -Tamom bo'ldim! Xonavayron bo'ldim!.. Shaytonning so'ziga yurib... O'z

panohingda asra, yo Olloh!..

Shahar ahli ham oyoqqa qalqa boshladi. Rahnga olingan amirning ixtiyorsiz bo'yinsundirilgan sarbozlari orasida g'alayon ko'tarildi. Shahar darvozasi oldida hayqirayotgan sulton qo'shinining haybati ularga kuch berdi. Ular izdan chiqqan, to's-to'polonga ko'milgan shahar hayoti ichra asta-sekin bir boshga ixtiyor bergan xaloskor jamoaga aylana boshladilar. Bir kunning o'zida ko'hna Isfahon sulton Malikshohning nomini ulug'lamoqqa tushdi. Hatto Takashga ixtiyorli sipohiylar ham sulton tarafiga o'tmoqda edilar.

Ustomon va hiylagar Qazviniyning anovi hezalak Takashdan allaqachonoq xafsalasi pir bo'lgan esa-da, biron mo'jiza ro'y berib, ulug' martabalarga erishmoqlikdan ham umidvor edi. Biroq hozirgidek evrilishni kutmagandi. Endi bir chora qo'llamasa bo'lmas, aks holda o'lim sharpasi yovuq ko'rinadur. U uzoq o'ylanib o'ltirmadi, bir pasgina xayolchan turdi-yu ishonch ila o'rnidan qo'zg'oldi. Zindonbonga borib, uning ilkiga katta aqcha tutqazdi. Umri bino bo'lib bunaqa mo'l tillo tangalarni ushlagan zindonbonning ko'zlari otilib ketmoqqa hozirlandilar.

-Hojam ne istaydilar? -dedi Qazviniyning qoshida egilib.

-Biron mushti og'ir xizmatchingni topib, meni kaltaklashga amr etursen.

Zindonbonning ko'z soqqalari bu gapdan so'ng shu qadar tashqariga otildilarki, ortidagi qizil tomirlari ham ko'rinib ketdi.

-Xojam?!..

-Amrimni bajar, illo bu sirdin kimsa voqif bo'lsa, boshing ketadur.

Zindonbon og'ir bir yutib, kafti ila bo'ynini silab qo'ydi-da, baland ovozda birovni chorladi. Ko'p o'tmay ularning qarshisida qop-qora devqomat bir isqirt kimsa paydo bo'ldi. Endi Qazviniy sho'rlikning ko'zlari qinidan chiqmoqqa urindilar. Lekin taqdirga tan bermoqdin o'za chorasi qolmadi.

-Mana bu odamni o'z oshyoningga olib kirib obdon do'pposlaysen, toki... -zindonbon shunday derkan Qazviniyga sinovchan nigoh tashlab qo'ydi. -Toki xushi og'maguncha...

Isqirt darranda mengiz bir irilladi-da, qop-qora, iflos ilkini sho'irning yelkasiga qo'yib, oldinga siltadi. Qazviniy zindonbonga ayanchli va shuningdek, iltijoli nigoh tashlab qo'yib, o'zi bitgan taqdir izmiga bo'yinsundi...

O'sha kuni kechga tomon xiyonatchilarga qarshi bosh ko'targanlar tartibsiz bir ravishda yarog' ila ish ko'rgan bo'lsalar-da, eng avvalo malikalaru ularning qarshilarini va shahzodalarni himoyatga oldilar. Takashning tarqoq qo'shinlari ila ko'cha janglari boshlandi. Hammayoqni qiy-chuv, baqir-chaqiru ohu faryodlar tutib ketdi. Shaharning bazi joylarida gurillagan olovlarning tillari osmonning yuzini yalamoqdan beri bo'ldilar. Ichkaridan berilgan zarbga toqat qilolmagan xiyonatkorlarning shahar darvozasida turgan qo'riqchilari avvali jon tashvishida, qolaversa, sultonning tarafdorlaridan himoyalannmoq ilinjida o'z joylarini tark etishga majbur bo'ldilar. Shomdan so'ng shahar tashqarisida turgan zarbdor qo'shin ham birvarakay hujum boshladi. Jangning boshidayoq devor ustidagi yoyandoz va "olov otuvchilar (saqichni yondirib otuvchilar), joylarini tashlab qochishga tushdilar. Natijada sulton qo'shinlarining shaharga kirishi osonlashdi. Shundan so'ng shahar uzra qiyomat qo'pdi. Qasos o'tida yopirilgan behisob qo'shin xiyonatkor sipohiylarni ayovsiz qira boshladi. Takashning tarafdorlari ikki o't orasida qoldilar, bazilari qurollarini tashlab, tiz cho'kib, tavba qilmoqqa tushdilar. Biroq ularning iltijolari farmoni oliydan kuch olgan lashkarga aslo kor qilmas va barchalarini bir-bir qilichdan o'tkazardi...

Amir Arslon Tosh boshliq qo'shin sulton hazratlarining farzandlari va zavjalarining himoyasini o'z nazoratiga olgach, avvalo hukmdorning irodasiga binoan Nizom ul Mulk hamda Umar Xayyomning, qolaversa, sultonning boshqa tarafdorlari jonlarini ham omonda saqlamoq niyatida zindon sari yo'l oldilar. U yerdan soppa-sog' vaziri azam, Xayyom va uning shogirdlarini hamda azoyi badani ko'karib, qontalash bo'lgan, so'l ilkining suyagi singan Qazviniy chala o'lik ahvolda ozod qildilar. Nihoyat zafar tantanalari yangrab, shahar osmonini sulton Malikshoh shaniga aylilgan olqish xitoblari tutdi...

Shokir Talx o'shanda o'zining hamrohi ila rasadxonadan chiqib, shaharga kirib olgan bo'lsalar-da, shu paytgacha tahlkada yashadilar. Butun Isfahon ahli singari ularning ham kasb-koru tirikchiliklaridan putur ketdi. Bazi kunlari och qolishib, qorinlariga tosh boylashga majbur bo'ldilar. Go'daklarning ohu nolalaridan zada bo'lsalar-da, Takashning betasir va ochko'zu beshafqat navkarlaridan jon saqlash uchun tishlarini tishlariga qo'yidilar. Sultonning tezroq qaytmog'ini so'rab Ollohga iltijolar qildilar. Mana endi muzaffar qo'shinining naralari ortidan tong saharda ko'chaga chiqdilar. Talx sulton shaniga aytilayotgan hamdu sanolarga o'z feliga zid ravishda beixtiyor qo'shilarkan, nigohi shahar ko'chalari uzra tentiydi. Hozir shaharni mutlaqo tanib bo'lmasdi: ko'chalari o'liklarga, turli qurol-yarog'u buyumlarga to'lgan. Qachonlardan beri farroshlar ilki tegib, supurib-sidirilmaganidan ko'p joylarda ahlatlar ko'rinar, bir so'z ila tarif etilsa, boshkentni fayzu farishtalar tark etgandi. Bazi qulagan, kuyib qoraygan devorlar ko'zga xunuk ko'rinsa, u yer-bu yerda mudom lovullayotgan olovlar yuraklarga vahm solardi.

Shokir Talx va uning hamrohi ehtiyotkor qadamlar ila bosh maydon sari o'tdilar. Hamma balo mana shu joydan boshlangandi, mana endi u qonga belangan o'liklarga to'lib yotibdi. Ana, Takash o'z hukmbardorligini boshlagan supa-mung'aygancha turibdi. Yo Olloh! Anov mayyit tanish ko'rinadurmi? Ha-ha, bu axir Takashning barzangi g'ilay solori-ku! Uning jag'i qattiq zarbdan majaqlangan, sog' ko'zi olaygancha ochiq qolgan. Bechora muhtasib Badriyning boshini u huddi shu yerda huddi shunday majaqlab tashlagandi. Qaytar dunyo ekan-da! Yo'q, itga it o'limi deganlari shu!..

Maydonning zindonga eltuvchi tomonida bir to'p kishilar ko'rindilar. Ularning oldida Xayyom, uning shogirdlari Vositiy va Isfazariy kelardilar. Boshqalar kabi sho'irning ham yuzi so'lg'in, ko'zi ichiga botgan, soch-soqoli o'sib, ayanchli ko'rinar, lekin mag'rur va bardam edi. U kelarkan,ushbuni pichirlardi:

Bu saroyda Bahrom ichar edi jom,

Endi kiyik, tulki oladi orom.

Bir umr qulonlar ovlar edi u,

O'limga qulunday ovlandi Bahrom...

3

Sulton dorussaltanatga kuz oxirida-vodiy shahar bo'lmish Isfahonning tanni junjiktiruvchi izg'irinlari kezina boshlaganda yetib keldi. Xiyonatkorlar bartaraf etilib, shahar taqi sulton kishilari ilkiga o'tgandan keyingi muddat ichida boshkent ko'chalari, maydonu bozorlari supurib-sidirildi, vayron bo'lgan bino-yu devorlar qayta tiklandi. Xullas, shahar husnida kuzga monand kulrang-qoramtir rang g'olib bo'lsa-da, unga fayz qayta boshladi. Odamlarning yuz-ko'zlarida tabassum, muomalalarida taqi

avvalgidek mutoyibalar paydo bo'ldi. Bozorlar gavjumlashib, rastalarga baraka kirdi. Shahristondagi hunarmandlar do'konu hujralarida yana hayot nafasi ufurib, turfa gap-so'zlar eshitila boshladi. Ko'hna Isfahon baralla quchoq yozib, o'z sohibini kutib oldi. Qala devorlari uzra karnay-surna-yu do'mbiralari yangradi.

Sulton Malikshoh choparlar orqali shaharning o'z ilkiga o'tganligini eshitgan bo'lsa-da, poytaxt bo'sag'asiga ruhsiz bir kayfiyatda yetib keldi. U huzuriga peshvoz chiqqan Nizom ul Mulk va suhbatini xush nadimi Umar Xayyom ila quchoqlashib ko'rishgach, qalbida ajib ravshanlashuv ro'y berdi. Xorg'in va so'lg'in yuzini tark etganiga necha kunlar bo'lgan tabassum yana chehrasiga qaytdi. Cho'lning samum- (garmsel)larida qoraygan yuziga oppoq tishlari marjon bo'ldi. U o'z inisidan ko'rgan xiyonat tufayli ancha iztirobga tushib, darg'azab bo'lgan edi va ana shu kechmishlari uni toliqtirgandi. Biroq endi angladiki, ul toliqish, yaqin va suygan kishilarining sog'inchi qoshida hech ekan. Sulton chindan ham o'z yaqinlarini juda-juda sog'ingandi...

Malikshoh shunchalar horigani bilan ertasi kuniyoq xiyonatkor Takashni ko'rmoqni, uning basharasiga bir bora razm solmoqni ixtiyor etdi. Hukmdorning amri vojib-Takashni sultonning ko'pchilikdan pinhon bo'lgan kichik hordiq xonasiga keltirdilar. Uning oyoq-qo'llari ozod edi, yuzi-yu tanasida zo'rlikning, zarblar yoxud qiynoqlarning hech qanday aksi ko'rinmasdi. Chunki farmoni oliy bo'lmay turib sultonzodalarga ozor bermoqqa hech kimning haddi sig'masdi. Lekin u battar ozib ketgan, shunday bo'lsa-da, ayanchli ko'rinmas, nigohida avvalgi qo'rquv, xavotir yo'q edi. U xotirjam va mag'rur turardi. Chamasi, bandilikda yotgan kunlarida, qilmishlarini sarhisob etib, o'zini xiyla tutib olgandi. Ehtimol avvalgi mavhum kechmishlar barham topib, nima bo'lganda ham, ertangi taqdiri ayonlashgani unga kuch berib, ko'ngliga halovat solgandir.

U sultonga tazim qilmadi, boshini mag'rur tutib turaverdi. Bu ila ro'baro'sida o'ltirgan og'asiga "men ham sen kabi sultonzodamen, degandek bo'ldi.

Sulton Malikshoh qaboqlari osilgan ko'yi qimir etmay o'ltirar, nigohi Takashga qattiq qadalgandi. U g'azabnok edi, biroq ovozi bosiq chiqdi:

-Ne itlig' qilding', nobakor?! -Sultonning g'azabda ekanligini uning odatdagidek saljuqiy-turkiy talaffuzda so'zlay boshlaganidan ham bilmoq mumkin edi. -Kavushing'ga cho'g' tushib edimiki, tek o'ltirolmay, xiyonat ko'chasig'a ayag' bosting'!..

Takash ko'zlarini olib qochdi.

-Xiyonatkorlig'im rost, tonmasmen. Biroq bu hodisalar kutilmaganda, mening ixtiyorimdin ayru bir holatda jadallashib ketdi. Bilmay qoldim, sultonim, shayton yo'ldan urdi!..

-Xiyonatkorning' jazosi ne? -so'radi sulton yerga qaragan ko'yi atrofidagilardan javob kutganday biroq sukut saqlab.

Bu savol-javobga vaziri azam, Xayyom, Arslon Tosh va taqi bir amir guvoh edilar. Lekin ularning birontasi sultonning so'rog'iga javob berib, sado chiqarmadilar. Sulton boyagidek bosiq ovozda savolini yana qaytardi.

Mudom barcha jim.

-O'linga ham tayyormen! -dedi nihoyat Takash xasta bir ovozda.

-O'lim seng'a jazo emas, tuhfa bo'lur, it! Toki sen bizning' muzaffar taqdirimizg'a voqif bo'lib, umr o'tqazg'aysen.

Takashning nigohida hayrat va xavotir aks etdi.

-Ko'ziga mil tortilsin!.. -dedi sulton keskin va haligi amirga buyurdi. -So'ng zindonga tashlansin.

-Yo'-o'q!.. -Takash oh urib yubordi. -Faqat bu emas, sultonim! Kabutarlarim parvozini ko'rmoqlikdan mahrum etmang meni!..

Yaxshisi qatl ettiring, og'a!..

-Olib chiqing'!.. -dedi sulton yuzini ters burib.

Takashni sudradilar. U esa dahshat ila hayqira boshladi:

-Ilohi, ro'shnoqlik ko'rmag'aysen, sulton! Ilohi, juvonmarg o'lg'aysen!..

Hamma bosh egib, jim qoldi. Xayyom ham so'zsiz turarkan, bag'rida ojiz bir o'rtanish ila vujudida titroq uyg'ondi. Ollohning ko'ngil atalmish mo'jizasini qarang-a! Sh'undayin xatokor va hatto johil bandaning ko'nglida bir chimdim nurga joy bera olgan Kariymning qudratiga ming tasanno. Mana shu kimsaning qalbiga kabutar ishqini ato etib, bir hikmat yaratmish. Shoir shularni o'y-larkan, Takashga rahmi kelib ketdi. Yo'q, haqiqati, unga emas, uning ko'nglidagi bir chimdim yorug' tuyg'uga achindi. Axir dunyoni shu yanglig' yorug' tuyg'ular, ezguliklar tutib turmayaptimi! Demakki, o'shal yorug'likning zavol topmog'iga bu ham sherik ekan-da? Vo darig'! Ayni damda sulton hazratlariga so'z aytmoq arining iniga cho'p suqmoq ila barobardir... Xayyom sultonga biron so'z aytmoqqa botinilmadi. Aytza, vaziri azam aytardi. Yo tavba, sening shuuringda kechgan o'yni vaziri azam qayoqdan bilsin, ehtimol bu kabi fikrlar uning xayoliga umuman kelmagandir. Ha, sho'rlik Takash hiyla ishlatmoqni, ustomonlik qilmoqni ham evlay olmadi. Har tugul uning felida mardlik, to'g'rilik bor ekan. Ammo Qazvinii barchani dog'da qoldirdi. Ko'ngli sezib turibdi -aslida bechora Takashni xiyonatga undagan ham ana o'sha g'alamis chiqar. Biroq o'zini saqlay bildi, chorasiz qolgach, hiyla ishlatdi chog'i. Biron kimsa uning haqida yomon gap aytmadi, uning to'g'risida sultonga chaquv yetmadi.

Xayyomning ilkidan esa bundayin yumush kelmas, birovning ustidan chaquv qilmoq uning feliga yot. Lekin baribir shoirlar amiri ham bir kun kelib albatta fosh bo'lg'uvsini.

Sulton Alamit olinmaganligi haqidagi xabarni eshitib ham ancha dilgir bo'lgandi. U padari buzrukvori sulton Alp Arslonga ham sadoqat ila xizmat qilgan amiri Arslon Toshga qattiq ishonardi. Shuning uchun ham bu xabardan achchiqlandi. Arslon Toshdek pahlavon bir necha oylab qamalda tutib ham ishg'ol etolmagan ekan, demak, bu Alamit deganlari juda mustahkam qala bo'lib, uning xojasi Hasan Sabboh bemisl bir sohibi qudrat ekan-da. Darvoqe, hufiyalarning xabarlariga qaraganda, bu Hasan otlig' tarror kunbotar tarafdagi Iyso alayhissalom qavmlariga, ularning hukmdorlariga ham dahl qila boshlaganmish. Hattoki bazi sohibi davlatlarini qatl ham ettirganmish. Yo Olloh! Bu ne baloi ofat bo'ldi? Yoxud kitoblarda aytilgan Dajjol o'shalmikin-a? Unda o'shal Hasanning angoriga bir boqmoq darkor. Ehtimol ko'zi bittadir!.. Sultonning kulgisi qistadi. Bu holatini bilintirmaslikka urinib, atrofidagilarga zimdan nazar tashladi. Hozirgina nechuk hukm etdi-yu, endi boshida aylangan o'ylarni qarang. Yo tavba!.. Uning nigohi ancha qarigan, bir necha haftalik bandilik tufayli ozib, xorg'in turgan Nizom ul Mulk va Xayyomda to'xtab, ko'nglida iliqlik paydo bo'ldi. Keyingi kunlarda sultonning mehri bu ikki ayoniga nisbatan beixtiyor ravishda ortgandan ortib borardi. U bu mehr Ollohdan ekanligini endi-endi anglay boshladi...

Hukmdor qolganlarga ijozat berib, vaziri azam va shoirning suhbatini ixtiyor etdi...

Sulton Malikshoh bir hafta hordiq olgach, arkoni davlatni saroyga-mashvaratga chorladi. U har safargidek, yaqindagina Takash ko'z tikib, bir lahza o'tira olish tugul hatto yaqinlashmoqqa jurat etolmagan ulkan taxtda avvalgidan-da ulug'vor qiyofada o'ltirardi.

Yuz-ko'zida o'ychanlik va shuningdek, har ne irodani mahf etmoqqa qodir jiddiqlik, aytmoq mumkinki, sirlilik zohir edi.

Ko'pchilik ko'nikib ketgan "yosh sulton endi ancha ulg'aygan, sochi va soqol-mo'y labiga ham bitta-ikkita oq oralagandi. U bir qadar tund va so'nik ko'rinsa-da, kayfiyati ancha xush, xayoli yangi rejalar ila band edi. Sulton yaqinginada o'zgalar ilkiga o'tib

ketishi mumkin bo'lgan davlatni yangi bir qurb va shijoat ila idora etishga kirishmoqda edi.

Qarshisida o'sha to's-to'polonlar tufayli xiyolgina siyraklashgan arkoni davlat qo'l qovushtirib turibdilar. Ularning orasida muhtasib, Takash va taqi bir necha kishilar yo'q, sho'rliklarning bazilari xiyonat qurboni bo'lgan esalar, bazilarining o'z xiyonatlari boshlariga yetdi.

Butun qiyofasida keksalikning borki sifatleri zuhur eta boshlagan vaziri azam va hibsdaligida tug'ilgan, pishib yetilgan fikrlarini qog'ozga tushirmoqqa berilganligi bois hozir ham pinhona tafakkur ummonida suzayotgan Xayyom Sulton hazratlariga mamnun boqib turardilar. Nizom ul Mulkning vujudida huzurbaxsh bir halovat sobit edi. Bu halovat kishi keksayganida, ayniqsa, qadrlri va muhim ediki, ancha muddat sohibi toj etiboridan chetda qolib, avom tilida aytganda, "ichikkan vaziri azam uni uzoq kutdi. U sulton ila bir umrga "yuz ko'rmas bo'ldim, deya xayol qilgandi va shuning uchun ham qattiq iztirobda qolgandi. Hamisha hukmdoru xalq nazarida bo'lib kelgan odamning birdaniga bu etiboru nazardan ayrilmog'i tarifsiz va hatto oliy jazo edi. Nizom ul Mulk bu jazoga malum fursat mustahiq etilgan esa-da, endi undan butkul xalos bo'lgandi. Chunki sulton unga taqi mehru hurmat nazari ila boqmoqda edi.

Olampanohning so'l yonida turgan Qazviniy esa bir qadar cho'kkan, o'zi yasagan achchiq qismat tufayli orttirgan jarohatlari tuzalgan bo'lsa-da, rang-ro'yi so'lg'in va zafaron edi. Singan qo'li taxtakachlanib, mudom bo'yniga osilgan ko'yi turardi. U butun suratu siyrati va harakatlari ila o'zini ko'p aziyatu jafu tortgan kimsa qilib ko'rsatishga urinardi. Qaniydi hamma uning ko'rgiliklarini, azoblarini sezsa, his qilsa. Afsuski ko'plarning nigohida malomat ko'radur. Ishqilib uning nomini tilga olib qolmasalar bo'lgani. Shundog'am so'ngaklarigacha qaltirab, oyoqda bazo'r turibdi, mabodo ismini aytguday bo'lsalar bormi, joni chiqib ketishi tayin. Necha kunlarki ko'zlari uyqu bilmaydi, ko'zlarini yumdi deguncha bir qora sharpa bosib kelaveradi. Tunu kun miyasida nimadir g'ing'irlagani g'ing'irlagan. Bu yurak qurg'ur buncha tez urmasa!..

Sulton salobatli, biroq kutilmaganda burungilarga nisbatan muloyim ovozdada so'z boshladi. U davlatning izdan chiqqan ishlarini tartibga solmoq, shaharni obod qilmoq, xiyonatkor mansabdorlarning mol-mulklarini musodara etmoq va ularning o'rinlariga munosib kishilarni tayinlamoq xususida gapirdi. Ko'klamdan boshlab boshkentda taqi bir kattakon dorushshifo (shifoxona) qurishga kirishmoq haqida farmon berdi. Rasadxona va madrasalarga berilguvchi aqchalar miqdorini yanada oshirdi. Bu farmonlar har bora sulton lafzidan uchganda uning ovozigaga ayonlarning tahsinu olqishlari ulandi. Nihoyat hukmdor iqtalarning tasarrufi xususida ham so'z aytdi:

-Egasiz qolg'on iqtalarning hisobini olib, sohiblilarini ham hadga solmoq joiz. Zero sulton nim tabassum ila vaziri azamga o'girildi, -borki yerlarni yangitdan hisob-kitob etmoq ham saltanat foydasidin holi bo'lmas.

Nizom ul Mulk xiyol bosh egib, tazim qildi:

-Haq gapni aytdingiz, olampanoh.

-Bu mushkulotdin holi o'laroq-so'zida davom etdi sulton. -urug'lik xususida ham bosh qotirmoq lozim. Boisi-xiyonatkorlarning bir necha oylik talon-tarojleri tufayli xalq urug'lik donlaridin-da mahrum bo'lgan chiqar. Illo hali zamon ko'klam kirib keladi, el-ulus o'z rizqini zaminga sohib, Olloh taolo inoyati ila barakatlig' etmog'i kerak. Shuning uchun bu yumushning ham taraddudini ko'rsinlar. -U taqi vaziri azamga qarab qo'ydi. Shu gapdan so'ng Sulton biroz o'yga tolib turgach, yuzi yanada jiddiy tus olib, so'zida davom etdi.-G'alamislar uyasi Alamitni yakson etmog'imiz - u endi amir Arslon Toshga tanali ko'z tashladi. -shart va uning sohibi, ko'ppaklar sardori Hasanni ham jazoga mustahiq etgaymiz. Bunga bizning kuch-qudratimiz yetadir, birovlar shubha ko'zi ila qaramasinlar. Bir sodiq amirimizning-sulton bu so'zga o'zga mano berib aytdi, -tadbiru chorasizlig'i bizga mag'lubiyat bo'lmag'ay?!..

Arslon Tosh bosh egib, qip-qizargan ko'yi so'zsiz qotdi.

Ozgina fursatdan so'ng sultonning chehrasi qayta ochilib, Xayyomga qaradi.

-Rasadxonada ne gaplar, yo sohibi nujum?

-Boshkentdagi to'polonlar sabab biroz susaygan ilm amallari taqi-da jadallashmoqda. -dedi Xayyom sergak tortib.

-Yulduzlarning hisobiga yetay dedingizmu?-deya mutoyiba etgan Sulton bilinar-bilinmas jilmaydi.

Bundan ilhomlangan shoir ham shunga munosib lutf etdi:

-Koinot sultonimiz saltanatining sarhadleri yanglig' cheksizki, undagi yulduzlarning hisobiga yetib bo'lsa. Illo yulduzlari adadi olampanohning saxovatleri mengizdir.

Sulton bu gapdan erib ketdi-da, baralla kulib yubordi. Unga ayonlar ham ergashib, ofarinlar aytdilar.

Qazviniy Xayyomning muzaffarlik tantanasidek tuyulgan gap-so'zlari-yu qiyofasidan battar ezilib borardi. Ayni shuning ustiga sultonning farmonbardor ovozi yangradi:

-Nadimimiz Umar Xayyom janoblariga zarrin xilat inom etilsun!

Qazviniy adoyi tamom bo'ldi.

Barcha shoirni shohona tuhfa ila muborakbod etib bo'lgach, sulton yana jiddiy tus oldi. Qoshleri chimirildi.

-Kimlardir o'z xiyonatini pinhon tutib, omon qolg'on bo'lishlari mumkin. -Hukmdor Qazviniyga tuyqus bir nazar tashlab qo'ydi. -Vale omon qolg'onliklari ular uchun ikki hissa jazo bo'lg'ay. Chunki bir bora nomaqbulni yegan kimsa, yana qayta albatta yeyajak!..

Hamma o'ychan bir qiyofada jim qoldi.

Yettinchi bob

1

Xayyom zindonaligida rasadxonani, yulduzlarni va ayniqsa, xoma-yu davotni juda-juda sog'ingan edi. Shul bois qish chillasining uzun kechalarini aksari ijod ila mashg'ullikda o'tkazardi. Ayni kunlarda riyoziyotga oid muhim bir risolasini yakuniga yetkazmoqda edi. Hibsdaligida shuurida nihoyasiga yetgan bu asar "Uqlidus kitobiga kirish mushkulotlariga izohlar deb atalardi. U o'zining g'oyibona ustozlari Uqlidus hazratleri ila mudom g'oyibona birga edi, uni o'rganmoqdan tolmasdi. Bandilikda yotgan onlarida ham u haqda, uning buyuk kashfiyotleri borasida ko'p o'yladi. O'shanda olimning ikki yondosh chiziqlar haqidagi hech qanday isbotu dalil talab etmaydigan, biroq Xayyom bir umr o'zi uchun qayta-qayta isbotlab kelayotgan beshinchi qoidasi uni taqi iztirobga soldi. Bu foniy dunyoning, inson hayotining butun mazmun-mohiyatini o'zida jam etgan bu qoida chinakam mo'jizaning huddi o'zginasi edi. Ikki yondosh chiziqlar hech qachon birlashmaydilar, illo ezgulik va yovuzlik, ziyo-yu jaholat ham aynan shunday. Lekin ular ko'zdan olislashib borgani sarin bir nuqtada tutashganday tuyulishi mumkin, yovuqlashib borganda esa yana ayro-ayro qoladilar. Aslida ham shu yanglig'-bir qarashda yaxshilik va yomonlik qovushgan kabi ko'ringani bilan ularning

birikmog'i haqiqatga butkul ziddir. Xayyom xayolan yondosh hadlar chizaverdi, ular zindonning u devoridan bu devoriga urilaverdilar ammo aslo tutashmadilar. Shundan so'ng xayoliy hadlar devorlarni ham teshib o'tib ketdilar va mavhum bir zamonning mavhum bir makonida tutashganday tuyuldilar. Balki o'sha zamon va makon Tangrining dargohidir? Xayyom farosat ilmimi (logikani), falsafiy fikrlashni suyardi, biroq bu ilmlarda xato ketish mo'lligini, ayniqsa, farosat ilmida chalg'ish, "bir yoqlarga yo'l solish oson kechishini ham bilardi. Ehtimol shuning uchun ham ahli shariat, ulamolar faylasuflarni suymaslar. Rost, faylasuflarda chuqur ketish bor. Ammo u faylasuf emas-ku! Balki shoir ham emasdir? Yo'q, shoirligi rost. Unda shoirlar chinakam faylasuflar ekanligiga ne deydi? Shariat ahli faylasuflarni gohida hatto kuffor (kofirlar)ga ham tenglaydilar. Astag'furilloh! Nahotki Forobiy, Abu Alilar kofir bo'lsalar?! O'shanda bandi shoirming xayolida ushbu satrlar dunyoga keldi:

Meni faylasuf deb, yov qilur xato,
Men unday emasman, biladi Xudo.
Shu qayg'u uyiga kelgach, o'zimni
Kim bilsam, o'shandan kamroqman hatto.

Vo darig', bilmasmisanki, ey, Ibrohim chodirdo'zning o'g'li Abulfath, bu bevafo dunyo kimga vafo qilibdi? Agar vafo qilgan esa ham o'shal bevafofarga vafo qilmish. Yana sher...

Ey charx, gardishingdan emasman xursand,
Ozod et, yarashmas menga hech bul band.
Nodon, noahilga gar karam qilsang,
Men ham emasmen-ku ahli donishmand.

Xayyomning ko'ngli shu kunlarda ham ayni o'shanday ko'ya edi. Yana uni may ishq'i bedor etar. Kunni tunlarga, tunlarni kunlarga ulab ichaverardi. Avvalgi zikr ila mashg'ullik, uzluksiz ibodat barham topib, bag'rida bemisl bir o't yonardi. Xonasiga, rasadxonaga va hatto olamga sig'may o'z qalbiga kirib ketardi. Uning huru ozod mavosida sarxush kezar, yozar va o'shal hurlikni, dahlsizlikni o'z yozmishlariga ixtiyorsiz ravishda singdirib tashlardi. Jo'ngina va hatto dag'alroq tuyulgan to'rt satrda basharning kitoblarida yozib tugatilmagan hikmatlar zuhr etardi. Xayyom o'zidan mosuvo bo'lib, ijod ummonida g'arq edi.

Choshgohga yaqin taqi Maryamning padari rohib Artur ko'rgani kirdi. U anchadan buyon betob edi. Mana, o'shal tanish qorong'u hujra. Qish emasmi, kunning darichadan tushayotgan ojiz nurlari xonaning qorong'uligiga urilib, battar kuchsizlanadilar. Hujraning bu ko'r tusiga qish chillasining rutubatli uzun kechalari va unda kezingan o'lim sharpasiningmi nuqsi ham urganligidan kishining oyeshu yelkalari og'irlashib borayotgandek tuyuladi. O'choqda yonayotgan olovning aksi qoraygan shiftning bolorlarini yalaydi va yana qaysidir qorong'uliklariga urilgisi, ularni yoritgisi keladi-yu ojiz qoladi...

Rohib Artur ko'zlari yumuq ko'yi chalg'ancha yotibdi. Yelkalari to'lg'ona-to'lg'ona qiyalib nafas oladi. Quyuq soqol-mo'ylovlari endi butkul oqargan, yonboshdan go'yo qor bosgan adirliklarga o'xshab ko'rinadi. Katta burni qir ustidagi qoya yanglig'. Uning qiyofasi shu qadar ulug'vor. Yonida o'ltirgan Maryamning ilkida kitob, unga ko'z qadagancha nimalarnidir pichirlab o'qiydi (Bazi o'quvchilar axir xona qorong'u bo'lsa, qiz qanday qilib kitob o'qishi mumkin, deya etiroz etsalar ham ajabmas. Lekin ul zamon kishilarining ko'zlari bilan zamondoshlarimizning ko'zlari o'rtasida katta farq mavjud. U paytlarda kishilar ancha-muncha qorong'ulikda ham bemalol kitob o'qib, yoza olar edilar. Bizning ko'zlarni esa son-sanoqsiz yorug'lik manbalari shu ahvolga soldi.)

Xayyomning ohista tomoq qirib kirib kelganini ko'rgan Maryam irg'ib o'rnidan turarkan, bosh egib, tazim qildi.

-Xush kelg'aysiz, ustoz! Assalomu alaykum.

-Vaalaykum assalom. Omonmisizlar?

Ikkisi ro'baro' o'ltirdilar.

Artur hamon uyquda edi.

-Tuzukmi? -deya so'radi Xayyom bemorga ishora qilib, past ovozd.

-Shukur!.. -qizning bo'g'ziga yig'i tiqildi, gapining davomini aytolmadi.

Aslida shoir ham bu so'roqni taomilga binoan beixtiyor bergan edi. Chunki rohibning dardi og'irligini, bedavo ekanligini juda yaxshi bilardi. Axir uni Xayyomning o'zi qolib, vaziri azamning himmati ila yana ne-ne tabiblar ko'rmadilar. Biroq iloj topilmadi, Arturning kasalligi davosiz edi-o'pkasi quriy boshlagandi. Endi uning qazosini kutish qolgandi xolos. Maryam esa bundan bexabar edi, tunu kun iltijo qilib, padarining sog'aymog'ini tilardi. Sho'rlik qizning bu musofir yurtda otasidan o'zga yaqin kishisi yo'q edi.

Hattoki Vatan ham undan juda-juda olisda edi. Agar otasi qazo qilguday bo'lsa, hayhotdek olamda huvillab, kimsasiz qolishi tayin edi. Juda nari borsa, uning uchun Xayyom yaqin kishi qavmida bo'lishi mumkin, ammo u sarkash xayolli, sohir ko'ngilli, darvishfelli bir shoir edi. Uning ko'ngil ko'yidan xiyonatdan o'zga hamma narsani kutmoqlik mumkin edi. Demakki, Maryam bechora bir buyuk ayriliq oldida turganidan xabarsiz, hasta otasi uchun dil-dilidan iztirob chekardi.

Shoir ne qilib bo'lsa-da, qizni chalg'itmoq zarurligini payqadi. Payqadi-yu gapni nimadan boshlashini bilmay, taraddudlanib qoldi.

-Ne mutolaa etursen, Bibi? -deya so'radi nihoyat qizni erkalashga urinib.

Maryam yoshli ko'zlarini artib, bejirim burnini yoqimli bir tarzda asta tortib qo'yarkan,

-Aflotunni o'qiydurmen.-dedi tizzadagi kitobni yopib.

-Qay tilda?

-Yunoncha.

-Ofarin, Maryam! Sen bizlardin o'zibsen. Chunki Aflotunni har kishi ham tushuna olmas. Yanaki uning o'z tilida. -Xayyom bu so'zlarni chin aytdi.

Ammo Maryam mahzun bir tarzda jilmayarkan,

-Ustoz mubolag'a etadur. Bizning urinish ul kishining ulug'ligi qoshida bir havas erur. -dedi kamtarinlik ila.

-Voh, Bibi, sen xato ayursen!

Shu payt Xayyom ovozini balandlatib yubordimi, mudom uxlab yotgan rohib ko'zlarini ochdi. Biroz shiftga termulib yotgach,

shuuri tiniqlashib, yonidagi kishilarni payqadi.

-Assalom, ey, shoirlar shoiri!-dedi boshini xiyol burib.

Xayyom unga yaqinlashdi.

-Olloh dardingizga shifo ato etsin. -dedi samimiy ovozda. -Qalay, dardingiz yengillashdimi?-Shukur!.. -Rohib xirillab, bazo'r so'zlardi, -Qaynoq sharbat keltir mehmonga, qizim.

Qiz o'rnidan turayotganda shoir uni qaytardi.

-Ovora bo'lma. -So'ng taqi Arturga qayrildi. -Men tayyorlab bergan damlamalarni ichayotirsizmi?

-Ha, tashakkur... (Rohibning nigohida tuyqusdan o'ychanlik paydo bo'ldi. -Bu kech Iyso alayhissalomni tush ko'ribmen. -Shu gapni bazo'r aytdi-yu birdan uni yo'tal tutdi. Bo'g'riqib-bo'g'riqib yo'taldi. Qizi uning boshini ko'tarib, sovutilgan giyohli damlama ichirdi. Yo'tali bosilgach, picha xansirab yotdi.

Xayyom hayron edi: rohib Iyso payg'ambarning ismini hurmat ila islomiy tarzda "Iyso alayhissalom deb aytdi. Bu Xayyomga va yoxud barcha musulmonlarga hurmat tufayli edimi yoki boshqa biron boisi bormidi, shoirga noayon.

Artur nafas rostlab olgach, nihoyat taqi tilga kirdi:

-Keng bir biyobon emish. Bu biyobon esa hasta-yu ko'r va gung, cho'log'u moxov, yana shu kabi nosog' odamlar ila to'la emish, Hazrati Iyso... -Shu nomni aytishi bilan rohibning ko'zi yoshlanib, bo'g'ziga yig'i tiqildi. -Ul zot esa bir ulkan tosh ustida turib, bemorlarni birin-ketin tuzatib, karomatu mo'jiza ko'rsatarmish. Men ham o'sha odamlar ichra emishmen. Bir zamon surila-surila payg'ambar alayhissalomga ro'baro' turibmenu. Ul zot shul qadar go'zal, nurli edilar. Ko'zlarim qamashdi. Uzun sochlaridan go'yo suv tomchilayotgandek ko'rinardi. Shunda Hazrati Iyso o'ng qo'lini yelkam uzra bir siltadi-da, nimanidir ichimdan sug'irib oldi. Ilkida kuygandek qop-qora bo'lgan mening o'pkam turardi. Men oh urib yubordim. So'ng u kishi yoqimli jilmaydilar-da, "endi sen sog'ayding, dedilar!.. -Rohibning ko'zlari jiqqa yoshga to'lgandi. -Keyin esa... -Tushining davomini aytishni istamadi, chunki qizi boshqacha tushunib, qayg'uga botishi mumkin edi. U tushida otasini ko'rди -oppoq kiyimda emish. Huddi tiriklik paytdagidek cho'bon tayog'ini tutib, qo'y boqib yurganmish. "Yur men bilan.-debdi u o'g'liga, -tiniq buloqqa olib boraman. Ha, padari cho'bon edi va tog'dagi barcha buloqlarni bilardi. Aziz Vatani, olis Vatanidagi buloqlarni. Rohibning lablariga tog'ning muzdek, totli suvlari urilgandek bo'ldi. Cho'zib xo'rsindi, biroq tushining davomini qiziga ham, Xayyomga ham aytmadi. Qazosi yaqin ko'rinadi...

-Ko'p xosiyatli tush ko'ribsiz, hazrat. -dedi Xayyom unga dalda berishga say etib. -Illo shifo topmog'ingiz yaqin.

Rohibni yana yo'tal tutdi. Yo'tala-yo'tala toliqdi, ko'zlarini yumib, tin oldi.

Xayyom Maryamga ishorat ila ketmog'ini ayon etib, eshikka tomon yo'naldi. Qiz uni kuzatib chiqdi.

-Bir gap bo'lsa, meni chorlamoqdin uyalma.-dedi qizga mehribonlik ila. -Darvoqe, o'zing ham taomlanmoqni unutma.

-Xo'p. -dedi Maryam xazin ovozda.

-Men Rindoniya aytamen, taom keltirgay.

-Ovora bo'lmang, hazratim, taomni o'zim hozirlaymen.

Xayyom mahzun bir kayfiyatda oshyonasiga qaytdi.

2

Asrdan so'ng Xayyomning huzuriga Rindoniya kirib keldi.

-Afu etgaysiz, xojam. Bu kun Mikoil ikkimiz daryoning girdobli joyiga dom solib edik. Xo'p barakotlig' balig'lar ilinubdur. Ixtiyor etsangiz, bir balig'xo'rlik qilsak?

Shoir Artur va Maryamga achingani bois mudom dilgir edi. Rindning gapidan so'ng yuziga tabassum yugurdi.

-Balig'xo'rlikmi yoxud mayxo'rlikmi, ey, Rind?-deya farroshga mutoyiba etdi.

-Ikkisi bir bo'lsa, tushu xushga hurlik keltirgay. Illo xo'rlik qilmasak bo'ldi-da, xojam.

Rindoniya lutfi Xayyomga yoqib tushdi, qolaversa, keyingi kunlarda mayni mo'l ichganligi sababli ayni damda tomog'i qaqrab borayotgandi.

-Xo'p aytdingiz, Rind. Qani, keltiring o'shal maqtaganingizni!

Keksa farrosh "xo'p bo'ladi, xojam dedi-da, chiqib ketdi.

Filhaqiqat, shoir keyingi kunlarda ko'p may ichar, ayniqsa, tunlarni shu ko'yda bedor o'tkazardi. Namozlari ketma-ket qazo bo'lar, sarxush holatda bu gunohi uchun qattiq ezilar, bo'g'zi kuyib, Ollohga ovozsiz nola qilardi. Bazan esa tun bo'yi zikrulloh ila band bo'lardi. Shunday paytlarda ich-ichidan, qalbining qar-qaridan istig'for o'tilib, tavbalar qilardi, endi qaytib ichmaslikka o'ziga o'zi so'z berib, uzluksiz ibodat etmoqni orzulardi. Biroq tong otib, choshgoh, goho peshingacha bardoshi yetar, undan so'ng taqi bag'ri sim-sim oqib, sarxushlikka mayl sezardi. Ichgach esa bir ajib o'ylar, fikrlar urilib, nazdida, bu moddiy olam yo'qdek, faqat va faqat tafakkur saltanatida yashayotgan kabi tuyulardi. Shundayin kechmishli kechalarda goho sherga zo'r berar, betakror, kuydirgulik va osiyona sratlar quyilib kelaverardi. Unga, uning ko'ngliga aslida shu lozim edi, shundan huzurlanardi. Keyin gohida o'zini o'zi yanmoqqa, malomat etmoqqa tushib ketardi. Boshqalarni-ku qo'ying, ilmparast tulonga va hatto suyakli kishisi vaziri azamga tazim qilib, poy-patak bo'lganligidan nafratlanardi. O'z asliga, yaniki siyratiga monand emasligidan, bu foniya dunyoda ozod-hur yashay olmayotganligidan o'rtanardi, o'kinardi. Men-bu men emas, derdi u oh urib, aslida bu yolg'on dunyoda lim-lim paymonaga mengzagan suratim kezar. Yo, Olloh! Nahotki bu yolg'onlarga, aldovlarga, suratu siyratning nomonandligiga ko'nib yashamoq menga qismat bo'lsa?! Nahot anov o'jiz saboda ohista silkinayotgan yaproqchalik ham qurbim, isyonim bo'lmasa! Axir men sen tanlab, siylagan hur va sharaflangan odam emasmanmi?!

Baliq juda xushxo'r pishirilibdi. Bu Rind deganlari balo- uhdasidan chiqolmaydigan yumushi yo'q. Ayniqsa, bu kabi pazandalik uning qonida bor- asli ahli Buxoroning "ilki totlig' bo'lishligini Xayyom juda yaxshi biladi. Buxoroda-Shams ul Mulik saroyida xizmatdaligida buning ko'p bora guvohi bo'lgan. Mubolag'a ila lutf etilsa, buxoroliklarning kafti kaftgiru cho'michda qabaradi.

Bir necha piyola mayi nob (toza musallas) ichilgach, ishtahalarga baraka kirdi. Uchovlon-Xayyom, Rindoniya va Mikoil balig'xo'rlikka zo'r berdilar. Daryoning oqar suvida yashagan balig'larning go'shti haliymdek, sermoy, qilustixonlardin holi edi. Shul bois va musallas tanlarini qizitib, oshqozonlariga shasht berganligidan to so'nggi luqmagacha "talashib-talashib yedilar. Lekin iyaklarning taqillashu shaqillashi uzoqqa cho'zilmadi, chunki mazali narsa hamisha oz, nari borsa, ozdek tuyulishi tayin edi. Ortidan taqi may simirdilar. Kuchli may barchalarini sarxush etib, dillaridan ixtiyor ketdi. Rindoniya belbog'idan nayini olib, uning lablariga lab bosdi. Nay tuyqus munglig'-munglig', o'tlig'-o'tlig' oh urib yubordi. Oradan hech qancha fursat o'tmay, bu oh Xayyomning ko'ngliga ko'chdi. Rindoniya daryodil, darvish xo'lyi kishi edi, shul bois uning bag'ridagi toshqin kuy og'ushiga ham

qo'shilib ketardi va tinglaguvchi yuragiga borib urilardi. Shoir ana shu toshgan daryo to'lqinlari qo'ynida suza boshlagandi. Uni sohir navo sarxush etib, ohangga monand tebranardi. Ko'zlari yumilgan bo'lsa-da, kipriklarining osti jizillab achishmoqqa tushgandi. U rohib Arturning tushidan mutaassir bo'lgandi. Uning tushi-Iyso alayhissalom ila yuzlashgani shafobatdin darak edi. Yo Olloh! Bunchalar karaming keng?

Nahotki nomuslim bir zot shafolat topsa?! Uning ne amali senga xush kelib, bu ulug' nematingni ato etding? Axir u iymonga kelmagan-ku! Sen qayoqdan bilursen, g'ofil banda, inson qalbini, uning asrorini anglamoq oson bo'libdurmi! Olloh istasa, har ne bo'lmog'i mumkin. Ne bo'lganda ham baribir kalimai shahodatni uning yodiga solmoq lozim. Hech yo'q qazo chog'i iymonga kelsa ajabmas. Ehtimolki bu tushi uning so'nggi nafasda iymon keltirishiga ishoratdir?.. Yo alhazar! O'zing ne noqis ahvoldasenu, nohalol xamir (achitilgan ichimlik) ila bulg'ongansenu iymon haqida bahs etasen. Sening ul g'ayrimuslim rohibdan ne avlo joying bor? Ha, sen undan yuz chandon, ming chandon xarobroqsan! Vo-oh, bu ne sinoat, tangrim?! O'zim o'zimda o'zimdan o'zgamen! Bu holim faqat o'zingga ayon emasmi! Na ilojimki, shul talx xamir meni hurlikka esh qilsa, seni vujud-vujudim ila his etmoqni osonlashtirsa?!.. Endi Xayyom kuy og'ushida ucha boshladi. Bu holati o'ziga xush yoqib, parvozi so'ngini kutmadi-yu taqi tush haqida esladi. Odamlar tushida parvoz etadilar. O'zim ham necha bor uchganmen. Shundoqqina qulochingni yozib, yugura-yugura uchib ketaverasen. Olam poyingda qoladi. To'xta-to'xta, nega endi bashar qavmi tushida ucha oladi-yu o'ngida bundan mahrum? Tushida uchibdimi, demakki, xushida ham bunga qodir. Yoki ruh parvoz etib, jism qolarmikin? Unda ruhni moddalashtirish lozim ekan-da. Yo tavba! Ne deb aljiraysen, ey chodirdo'zning o'g'li. Axir ruh Ollohning siri, odamning oliy javhari bo'lsa-yu sen uni moddalashtirmoq istasang-a! Ammo baribir bani odamning bir kun kelib albatta parvoz etmog'i tayin... Xayyom qaytib zaminga tushdi. Endi uning ko'ksi hapqirib, ko'ngli yana sim-sim oqa boshladi. Bu sher sog'inchi edi chog'i, shuurida bir ajib fikrlar, ularni opichlagan so'zlar tajalliy eta boshladi.

Rindoni y buni payqadimi yoxud o'zi toliqdimi, nay chalishni to'xtatib, shoirga manoli qaradi. Xayyomga shu kerak edi, u tanho qolmoqlikni istardi...

Rindoni y va Mikoil dasturxonni yig'ishtirib, chiqib ketdilar.

Xayyomning ixtiyori mastlikning hurlikka oshno ekanligi isboti uchun og'ib borar, shuurida barq urgan har bir fikr uning foydasiga xizmat etmoqqa shaylanardi. Yo alhazar! Bu ne asror? Yoxud alayhilananing makrimikin? Bunchalar xush yoqur dilga? Nechuk yig'lagim kelur, faryod urib, Ollohga qovushgim kelur?!.. Boshida sher aylana boshladi. Ilkiga xomani olib, haligina bitayotgani riyozatga oid risolasining ochiq turgan sahfasi hoshiyasiga yozmoqqa tushdi:

May ichsam egilib qoladi tizzam,
O'ylasam gunohmas, sajda-ku bu ham.
Azaldan bilardi buni Haq o'zi,
Shakkoklik emasmi, agar ichmasam!

Og'ir bir yutindi-yu yozganlarini ovoz chiqarib o'qib ko'rди. Ko'ngli to'lmadi-da, battar ezildi. Yuragi hamishadagidek tushunuksiz o'rtandi. Ne balomen-men balo?! Asli shakkok bo'la turib nelarni davo qilurmen? U piyolani to'latib may simirdi va bir muddat nafas yutib turdi. Go'yo shu ila o'zicha "insofga kelganday bo'ldi.

Bazilar xayoli mayda, ichkuda,
Bazilar mehrobda, dili osuda.
Bekor kishi yo'qdir, barchaga tashvish,
Yolg'iz O'zi uyg'oq, barcha uyquda.

Taqi takror o'qidi. Endi qalbiga ojiz bir halovat epkini urilganday bo'ldi. Bu ko'yi ortidan avval ko'ksi, so'ng butun vujudi qiziy boshladi. Darichaga boqdi-allaqachon tun edi. Tashqariga oshiqdi. Kechki ayoz turganligi bois havo sovuq edi va shuning uchun rasadxona hovlisida biron kimsa ko'rinmasdi. Hammayoq jim-jit. Faqat o'tinxona tarafdin Polvonning goho-goho pishillagani va bazan irillagani eshitilib qolardi. Yo'q, aslo bu sukunat ham g'animat ekan, hademay tog' tomondan esib, rasadxona devorlariga urilib, chiyillagan shamollar ovozi ham quloqqa chalindi. Hatto qayerdadir och bo'ri uvladi. Xayyomning tani lovullardi, shuning uchun unga qishning sovuq havosi ham xush yoqdi. Ana shu huzur og'ushida so'l tomonga o'girildi. Hozir u g'alat bir holatda edi- sarxush bo'lib sarxush emas, xushyor bo'lib xushyor. Go'yo muallaq bir mavoda turardi-yu hamma narsani ko'ra olardi. Tush bilan xush aro edi go'yo. Qalbi juda-juda sezgin, shuuri bag'oyat taniqlashgandi. Ikkinchi qavatdagi yo'lak adog'idin rasadxona minorasi sari chiqilardi. U aylana pillapoyalar uzra minoraga ko'tarila boshladi. Qadamlari shu qadar yengil ediki, go'yo uchayotgandek tuyulardi nazdida. Mana, nihoyat minoraning yuqorisiga-mezanaga chiqdi. Minoraning ikki tarafida kungurador darichalari borligidan bu joy ancha izg'iringir edi. Ammo sarxush va shuningdek, vujudida misilsiz bir olov uyg'ongan shoir sovuqni u qadar pisand etmasdi. Ro'baro'sidagi tog' qorayib, ulkan devning yelkalari mengiz ko'rinadi. Osmon juda ham tiniq, to'lin Oy kishi ko'ngliga oydinlik solar darajada osmonni nurlarga chulg'ar, yulduzlar esa go'yo qish ayozida sovuqqotgan yanglig' qaltiray-qaltiray jimirlaydilar. U mana shu manzarani juda-juda xush ko'radi. Osmonni, yulduzlarni sog'inadi, osmonning oshig'i u. Hozir shundoqqina osmonning bag'riga boshini qo'yib turganga o'xshaydi. Yulduzlar esa dona-dona bo'lib, ko'zlariga to'kilayotgandek. Ana, Oy ustida Nohid yulduzi porlaydi. Manovi yerda esa Dubbi Akbar yulduzlari joylashgan. Somon yo'li unga tutashib ketgan, uning ostidagi Hulkar cho'g' misoli miltiraydi. Ana, Zuhul, Mushtariy! Uning vujudida ajib, biroq tushunuksiz evrilish ro'y bermoqda edi. U butun koinotni his etardi go'yo. Yulduzlar bir-bir uning ko'ksiga bosh suqib, o'zlari haqida hisob berardilar. U har bir yulduzni tanirdi, ularning qaysi burj ostida qay tariqa joylashganliklarini ham bilardi. O, falak qozoni, seni to'ntarib qo'ygan zotga behisob hamdu sanolar bo'lsin! Bu miltirab, jonimga o't solgan yulduzlarning, sayyoralarning har biriga qadar necha ming yillik masofa mavjud ekan? Ularning manov nurlari "yo'lga chiqqaniga qancha yillar bo'ldi ekan? Ha, bir qutlug' kun kelib, raqamlar tilga kirgaylar va borki nimarsalarning hisob-kitobini so'zlab bergaylar. Raqamlar Ollohning mo'jizasi, ular voqifu qodir bo'lmagan nimarsaning o'zi yo'q. Ehtimol yulduzlarning nuridan, yaniki, nurdan, manov shamolning ovozidan ham tez yuruvchi markablar kashf etilib, bashar farzandi koinot sayriga, sayyoralar sayriga chiqmoqqa sazovor bo'lar? Shunday bo'lishi muqarrar, chunki oliy nemat bo'lmish shuur, tafakkur ko'p

nimarsalarga qodir. Qaniydi o'shal kunni ko'rolsam! U yulduzlarga intiq-intiq termulib, bo'g'zi kuya-kuya yutindi. Bag'ri sim-sim erib, xayolida taqi sher aylandi.

Bu bepoyon osmon holidan oson
Xabar topdi faqat ikki tur inson:
Yo yaxshi-yomondan xabardor olim,
Yo o'zin bilmas mast, aqli parishon.

Zina tomondan qadam tovushlari eshitildi. Sheri lablarida qotib, ortiga o'g'rildi. Kim bo'ldi u? Qadamlar sohibi uzoq kuttirmadi - o'trusida Maryam paydo bo'ldi.

-Assalomu alaykum,ustoz!-dedi u bosh egib.

Xayyom ul tomon talpindi:

-Kel, Bibi, kel!.. -U bir taskinli vaslga mushtoq edi, shul bois ichidan olov otilganday bo'ldi.

-Yulduzlar ila suhbatingizga halal bermadimmi?

-Aslo, Bibi! Aksincha, yulduzlar endi zaminga, sening poyingga tushadilar.

-Ustoz mubolag'a etdilar. -Maryamning fors tilida biroz talaffuz ila so'zlashi ham kishi ko'ngliga erka bir huzur baxsh etardi. -

Buning ustiga men ustozning tafakkur markabida koinotni sayr etmoq orzusidamen.

Xayyom qizning lutfidan mutaassir bo'lib zavqlandi va uning ilkidan tutdi. Qo'llari cho'g'dek issiq edi. Shoirniki esa ayozda uzoq turganidan muzdek bo'lib qolgandi. Shuning uchun bu issiq-sovuqlik ikkalalariga ham xush yoqdi.

-Otangning ahvoli durustmi? -so'radi Xayyom mehribon ovozda.

-Shukur, yaxshi. Uxlab qoldi. Men esa dimiqdim, biroz havo olay deb, tashqariga chiqdim. Qarasam xonangizda yo'qsiz.

Haynahoy yulduzlar ila suhbat qurayotgan bo'lsalar kerak, deya bu yoqqa chiqdim. Yanglishmabmen!.. -Qiz oxirgi so'zini juda xazin tovushda aytdi.

Shoir uni bag'riga oldi.

-Otamdan ayrilib qolishdan juda-juda qo'rqmoqdamen! -dedi Maryam nafaslari shoirning bo'yniga urilib.

-Qo'rqma. Xudo xohlasa, padaring hali uzoq yashaydi. -Xayyom bu gapni aytishga aytdi-yu, unga o'zi ham ishonmayotganligini his etdi. Bechora qizning otasidan boshqa kimi ham bor! Mabodo u qazo qilsa, Maryam bu yorug' olamda na Vatansiz, na bir jigarsiz tanho qoladi!.. Xayyom qizga juda-juda achinib ketdi.

-Yig'lama, Bibi!-dedi yuzini silab, lablaridan ohista o'parkan. Uning lablari bag'oyat xushbo'y edi, butun vujudidan tanga o't solguvchi huzurbaxsh ifor ufurardi.

Shoir uni qattiqroq quchdi...

3

Uni tongga yaqin Rindoniy uyg'otdi.

-Rohib og'irlashib qolibdi, sizni chorlayotgan emish.-dedi u xavotirli ovozda.

Xayyom tezlikda tahorat olib, keksa rohibning hujrasi tomon oshiqdi.

Artur xirillab bazo'r nafas olar, ko'ksi nafas olishiga hamohang tarzda siltanib-siltanib qo'yardi. Maryam esa uning yonida unsiz yig'lab o'ttirardi.

Xayyomning kirganini ko'rib, rohibning nigohida xiyol quvonch zohir bo'ldi.

-Tuzukmisiz, hazratim? -deya so'radi shoir uni "hazrat so'zi ila ulug'lashga say etib. -Ancha bardam ko'rinadursiz.

-Bu so'zlar ortiqcha.-dedi rohib xiriqroq ovozda. -Yaxshisi, mening so'zlarimni tinglangiz, shoir.

Xayyom unga yaqinroq bordi.

-Qulog'im sizda.

-Men Vatandin ayro tushdim. Bu sho'rish hech kimsaning boshiga tushmasin, ilohi! Endi... -U bir pas nafas rostlab oldi. -Endi esa yolg'iz qizimni taqi tanho tashlab ketayoturmen.

-Taqsir!.. -Xayyom uni bu ezg'in xayollardan chalg'itmoqchi bo'ldi.

Maryamning yig'isi avjlandi.

-O'tinamen, so'zlarimni bo'lmang. Kunim bitganligi ayon ko'rinadur... Illo qizimni sizga, sizni esa Xudoga topshirdim! -Uni yo'tal tutdi.

Shoir uning umri intihoga yetganligini sezdi. Shuning uchun iymonsiz holda rixlat qilmog'ini istamadi-da,

-La ilaha ilalloh, deng, hazrat, zora yengil tortsangiz. -dedi iltijoli ovozda.

-E, shoir, jon chiqar mahali qo'rqanlikdan bu so'zni aytmoqdan ne naf?! Axir... -Rohib so'l ilki ila kiyimining yoqasini tortib, ko'ksini ochdi.-Men uni mana bu yerga jo etmishmen!

Xayyomning quloqlari shang'illab ketdi. Hujra jaranglagandek bo'ldi-yu, "la ilaha ilalloh degan ehtirosli ovoz to'xtovsiz ravishda eshitila boshladi. Shoir rohibning yalang'och ko'ksiga boqib, hayrat og'ushida lol qoldi. Uning yuragi ko'krak qafasini teshib yuborgudek qattiq urar va boyagi ovoz o'sha joydan eshitalardi. Aslida uning bu ko'rayotganlari chinmida yoxud bir muddat alahsidimi, anglamadi, keyin ham anglolmadi. Ammo bularning bari g'aybdan ekanligini sezib, bilib turardi. U hayratini yashirolmadi:

-Axir!.. -shoir uning belidagi chilvirga ishora qildi, -Zunnor?!..

Arturning lablarida ojizona tabassum balqidi:

-Agar shugina tufayli musulmon bo'lsam, minglab zunnorlarni yechmasmidim, yo, Abulfath!

Artur yostig'ining ostidan Mushaf (Quron)ni olib, o'pdi, ko'zlariga surtdi-da, bag'riga bosdi.

-Bu sharafga yetishmog'im siz tufayli, xojam. -dedi so'ng.

Xayyom "yo Oллоh! deb yubordi titroq ichida.

Rohib mahzun turgan qiziga intiq termuldi. So'ng:

-Ashhadu anna ilaha ilalloh va ashhadu anna Muhammadun abduhu va rasuluhu!-deya bir siltandi-da, ko'zlarini yumdi...

Arturning o'limi va uning buyuk iymon sohibi bo'la turib, birovg'a sezdirmagani Xayyomga qattiq tasir qildi. U bir gal Sulton ila

shikorga chiqib, otashparastlar mubodi (ruhoniysi)ga ro'baro' kelgan edi. Mubod ila suhbat qurganida ham huddi bugungidek mutaassir bo'lgandi.

O'shanda dashtda ov qilar edilar. Saydgarlar o'lja ko'yida, boshqalar esa o'z yumushlari ila andarmon bo'lgan paytda jonzotlar qoni isidan ko'ngli allanechuk bo'lgan shoirning xayolini ancha naridagi do'nglik to'shida ne bilandir mashg'ul ko'ringan odam tortdi. U biron xush suhbat istadimi yoxud har narsaga qiziquvchanligi tutdimi, o'sha odam tomon yurdi. Unga yovuqlashavergach bildiki-u yontoq va saksovu, yani o'tin terayotgan ekan. Notanish kimsa u to yoniga kelib, salom bermaguncha ham parvo qilmay, o'z yumushidan bosh ko'tarmadi. Musulmoncha salomni eshitib, qaddini rostladi va juda ham muloyim tabassum ila boqib, alik oldi. Uning ozg'in yuzida so'lg'inlikka uyqash nurlilik zohir edi. Egnida uzun bo'z qabo, o'siq sochli boshiga oq kuloh kiygandi.

Uning harakatlari bag'oyat ohista, ulardan uzoq yillar mobaynida ko'nikilgan xafsala sezilib turardi. Sira shoshilmas, unga boqib, hozir bajarayotgani bu yumush albatta bajarilishi muqarrar va agar bajarilmay qolsa ham hech narsa o'zgarmasligiga bo'lgan ishonchni payqash mumkin edi. Xayyom uni yaqindan ko'riboq zardushtiy otashparast ekanligini fahmladi.

-Tangri yorlaqab nechuk bul jaziramada kezursiz? -deya so'radi u Quyosh tafti ilohiy nemat ekanligiga ishorat etib.

-Shikorda edik... -degan shoir so'zini ne deb davom ettirishni bilmay duduqlanib qoldi.

-Shikor yaxshi narsa. -dedi mubod Xayyomning yuzidagi aziyat va malol nishonasini sezib. Shuningdek, uning o'z olamidani qochmoqni istayotganini ham angladi chog'i. -Balki bizning makonda andak xordiq olursiz?-dedi u o'tinlarini yelkalarikan.

Shoir ko'mak bermoqqa uringandi, ko'nmad.

Do'nglikning ortida-ancha narida ko'rinishidan tashlandiq bir xarobat makon bor ekan. Xayyom yaqin kelib bildiki, bu kunish (otashparastlarning ibodatxonasi) bo'lib, tashqarisi munchalar vayrona ko'ringani bilan ichi nihoyatda ozoda va so'lim edi. U yerdagi hamma narsa o'z o'rnida, tosh va loydan yasalgan o'rindiqlar ham tartibli tarzda o'rnatilgan. Asosiy xonaning to'riga-mehrobgga Quyosh surati chizilgan, uning ostida moychiroq miltillab yonib turibdi. Go'yo har tarafdani tarifsiz halovat va sokinlik nafasi ufurib turganga o'xshaydi. Kunishning bundayin ko'rinishi darvishlar ahvolini Xayyomning yodiga soldi. Tashi vayrona-yu chok-chok, ichi nurga chulg'angan. Bu chin oshiqlar maqomi.

Mubod Xayyomni so'l tomonidagi chog'roq xonaga boshladi. U yerda turli-tuman idish-ayoqlar, suyuqligu turfa madanlar va taqi bir qancha nimarsalar tizib qo'yilgandi. Quyidagi o'choqda olovning ojiz tili yiltiraydi. Biroq xona kishini sarxush etar darajada salqin edi.

Otashparast xumchadagi qizg'ish suyuqlikdan quyib, shoirga uzatdi. Bu yontoq qaynatmasi bo'lib, bag'oyat chanqoqbosdi ichimlik edi. Xayyom juda tashna bo'lgandi, shuning uchun ichimlikni bir ko'tarishda sipqordi. Tani biroz orom olgach, atrofdagi narsalarga qiziquvchanlik ila nazar tashladi.

-Janoblari alkimyo ila mashg'ullik qilurlar chog'i?-so'radi so'ng turli toshlarga ishora qilib.

-O'zlari ham boxabarlar shekilli? -savolga savol qildi mubod.

Xayyom kamtarona jilmaydi:

-Bizniki bir havas, o'qiganlarimdan anglashilgan ojiz bir fikr xolos.

-Alkimyoni o'qib o'rganib bo'lmas, u ko'ngil ishidir.

Bu ikki odam asta-sekin suhbatga kirishib borar ekanlar, aytgan so'zlari bir-birlariga malol kelmayotganligini payqamoqda edilarki, bu suhbatga avj berib, samimiyatni ustuvor etmoqda edi.

-Ko'ngil?.. -Xayyom bu so'zni beixtiyor aytib yuborgan bo'lsa-da, uning zamirida savol alomati mujassam edi. -Axir ko'ngil modda emas-ku? Alkimyo esa moddalar uyg'unlashuviga asoslangan chog'i? -Shoir o'z savolini vujudidagi shiddatli evrilish asnosida aytarkan, bu ila islomiy so'fiylik talimotidagi o'zicha anglagan ko'ngil tushunchasini nazarda tutgandi.

Mubodning nigohidan Xayyomning ayni damdagi holati unga xush yoqayotganligini payqash mumkin edi.

-Odam o'z ko'zi ila olamni ko'rarkan ekan, olam uning nigohida aks etadi. Yani olam ham odamda o'zini ko'radi. Bu kurrai zaminda hamma narsa bir-biriga tasir etadi va shuningdek, har bir narsaning alohida o'z mohiyati bor. Ana o'sha mohiyatni anglagan kishi ko'p mo'jizalarga guvoh bo'ladi. Alkimyo ham narsalarning mohiyatini anglamoqdir. Mohiyatni anglash esa ko'ngil ishidir. -deya so'zini tugatdi mubod.

Xayyom uning gaplaridan nimalarnidir tushunganday bo'lar, biroq bular kamday tuyulardi.

-Xo'sh-xo'sh!.. -deb yubordi u beixtiyor.

Mubod yoqimli jilmaydi.

-Narsaning mohiyatini anglash va unga tasir etish mumkin. Masalan, anglash orqali suvni kuydiruvchi otashga, olovni esa suvga aylantirish mumkin. Axir alkimyoda ham jezdan yoxud misdan oltin olinadi-ku.

-Bu sehr-ku?..

-Ha, sehr, biroq u borliqdan ajralmagan sehr. Odam olamga, tabiatga yaqinlashib, u ila uyg'unlashib borgani sariyn yuksalaveradi. Chunki jamiki narsalarning -nabototu hayvonotning o'z olami bor. Bu olamlar butun bir koinotni bunyod etadi.

Bu nima, deya o'ylardi ko'zlari chaqnagan Xayyom, moddiy olam ila ruhiy olamning chegarasimi? So'fiylar va boshqa shu kabi ruhiyat kishilari zikru taqvo hamda parhezkorlik ila olamni, Yaratganni anglashga, unga yaqinlashishga urinadilar. Hatto narsalarga tasir etib, mo'jizalar ko'rsata oladilar. Ular ruhiy olam va kitoblarda aytilishicha, jinlar tasirida bunga erishadilar.

Manovilar esa moddiy olamni ruhiy olam ila hamrishta etadilar. Yo, Oллоh!... Xayyomning boshi g'ovlab ketdi. Demak, koinotdagi hamma narsa bir-biriga bog'liq va ular bir reja asosida Haqqoniyat tomonidan idora etiladi. Taqdir deganlari shu-da, undan hech kim qochib qutilolmaydi. Yo tavba! Axir bular o'zi bilgan gaplar-ku! Mubod boshqa nimarsalar xususida so'zladi chog'i. Yo'q, shular haqida gapirdi, illo mo'jizalar, ulug'liklar bag'oyat jo'n ko'rinmog'i ham haq gap.

Xayyom mana shu suhbatdan keyin olamga- hayvonotu nabotot, toshu tufrog'ga o'zga ko'z ila qaray boshladi. Ularning tillarini tushunib, yani borliqning tilini, butun koinotning lisoni umumiyasini anglamoqqa jahd etmoqqa tushdi.

Sakkizinchi bob

1

Rohib Arturning qazosi Abul Fath Umar ibn Ibrohimni qattiq mutaassir etdi. Demak, bashar Ollohni, Yaratganni anglamog'i uchun makon, zamon, millatu zabon farqsiz ekan. Haqqoniyatni barcha o'z bilganicha, quvvai hofizasi yetganicha idrok etarkan. Birov ko'z ila, birov aql, boshqasi esa qalb ila anglarkan. Ularning tasavvurlari, o'shal tasavvurlaridagi Ilohning suratu siyrati ham turfa ekan. Mana, asli armani bo'lmish nosaro Artur ham belida zunnori ila hidoyat topdi. Uning musulmon bo'lganligini Ollohdan o'zga hech kimsa bilmabdi. Hatto nomuslimona libosi-yu belidagi zunnorini ham yechmabdi. Demakki, suvratga boqib baho bermoqlik

xatolik sari yuzlantirmog'i ayon. Aslida ham rohib yomon odam emasdi, unda bizlar mo'minlarga nisbat berguvchi fazilatlarining barchasi mavjud edi.

Haligi majusiy mubod esa haqqoniyatni, mutloq Zotni o'zicha kashf etibdi. Uning dinida Yaratuvchini buyuk Olov-Quyoshga nisbat beriladi va olamdagi har bir nimarsa bir-biri ila uzviy deyiladi. Mubod mutlaq Zotning aslini emas, uning ijodini o'rganib, taftish etib, unga yaqinlashibdi va mo'jizalarga qodir bo'libdi. Islom esa Haqqoniyatning aslini tanitadi. Ammo Uning asli ham, ijodi ham Uning o'zidir. Bundan kelib chiqadiki, borar yo'llar turfa, biroq manzil birdir. Axir bu ham tirik jon, Ollohning mahluqi, deya jonivorlarni so'ymasdan, ixtiyorsiz ravishda mo'minlikning haliymlik, shafqatlilik sifatini namoyon etayotgan majusiy ila Ollohga zikr aytayotgan musulmonning maqomi bir emasmi. Boisi ikkisi ham mutlaq Zotni esga olmayaptimi? Yoxud Ollohni Quyosh timsolida ko'rib, har bir giyohu og'ochning tilini bilgan majusiy hech bir namozini qazo etmay, har kun dini Islom qayg'usida bo'lib, nihoyat kofirlik tamg'asini bosib, norasida yigitni qatl etayotgan shohdan afzal emasmi? Biz madh etgan chin insonlikning haddi bormi o'zi?!

Biz ko'rib turgan, anglayotgan, his etayotgan barcha nimarsalar avval ham yoki azaldan bor edi. Mutlaq Zotning xohish-irodasisiz bir xas o'rnidan jilmagay. Illo bizlarning ham har birimiz avvaldan bor edik (ruhimiz mavjud edi). Mutlaq Zot bizni (ruhimizni) o'zining qay bir mavosida saqlagandir. Endi esa jism ato etib, zamanga yo'llabdi. Bu Uning ijodi asrorini kashf etgan majusiy mubodning kibratul ahmarni (falsafa toshini) topib, har ne madandan oltin ola bilishiga qiyos emasmi? Zero inson bolasi sohirlik ila jismga tasir eta olganda, Borliq Egasining kuchu qudratiga tarifu tavsif yetarmikin?.. Xayyomning o'ylari chuvalgandan-chuvaldi. Kibratul ahmar!.. Artur ham o'zi nosaro bo'lgani bilan alkimyodan boxabar edi. Ehtimol u ham kibratul ahmarni inkishof eta olganmidi. Balki u borliqdagi jamiki nimarsalarning mohiyatini anglab yetgandir va shuning uchun ham iymon yo'lini tutganlar? Mohiyat?.. Unda iymon mohiyati ne?..

Rohib Arturni islomiy urf-odatlariga binoan dafn etdilar.

Sho'rlik Maryam bo'zlab qoldi...

Xayyom esa taqvo ummoniga g'arq bo'ldi. Tunlari namoz o'qib, savobini qadrdon do'sti, bir jihati, ko'p nimarsalarni anglashiga ko'mak bergan ustoz, suyakli kishisining otasi bo'lmish donishmand Arturning ruhiga baxshida etdi. Shu asno u azal va abad hikmatini anglab, Ollohning yozig'i- Taqdirning haq ekanligini qayta-qayta iymon keltirib borardi.

Sabab sahrasida kimki sargardon,
Ishlarin uningsiz yuritar Yazdon.
Bu kun bir bahona o'rta tashlab,
Erta bajo bo'lur taqdiri osmon.

2

Ko'klam kirdi. Ro'baro'dagi qirlar yashillanib, boychechaklarning tili chiqdi...

Uzluksiz taqvo, parhezkorlik va ayriliq solgan iztirob bois yuzi so'lg'in tus olib, ancha ozgan Xayyomning nazdida, bir siqim bo'lib qolgan kunlarga taqi baraka kirdi. Hatto rutubatli qish tunlarida go'yo qartayib, munglig'-munglig' bo'lib qolganday tuyulgan, aslida o'tlig' his-tuyg'ular ham ko'ngillarni asta-sekin huzurbaxsh jimirlata boshladilar. Bu, ayniqsa, shoirning bag'riga yana yangi sog'inchlarni solmoqqa tushdi. Bu sog'inchlar nomsiz va tarifsiz edilar. Xayyom ixtiyorsiz tarzda o'rtanardi, tushuniksiz bir ko'yda to'lg'onardi.

O'sha kunlarning birida uni vaziri azam yo'qlab qoldi. Xayyom sohibi devonning huzuriga oshiqarkan, xos liboslarini kiymoqni ham unutdi. U bezovta qalbiga do'sti, dilkash ustoz Nizom ul Mulk huzurida biron taskin topmoq ilinjida edi. Zero odam taftini odam olar, deydilar. Ehtimol suyakli kishisi ila suhbat qurib, bir navi halovat topar.

Vaziri azam Xayyomning aksi o'laroq, ancha to'lishgandi. Nuroniy yuzi avvalgidek yoqimli tus olib, bu foni dunyoning barcha ko'rguliklarini ko'rib ulgurgan ko'zlari taqi muloyim va xotirjam boqardi. Fitnachilar fosh etilib, sultonning oqu qorani anglashi va unga ishonch ila qaray boshlagani kekxa vazirning yana o'z holiga qaytmog'iga bois bo'lgandi. U shoirning ahvolidan mutaassir bo'ldi. Rohib Arturning o'limi tufayli shunchalar kuyishini, parishon holga kelishini o'ylamagandi.

Aslida Xayyomning bu ko'yga tushmog'iga faqatgina Arturning o'limi sabab emasdi. Uning o'limi azali oromsiz qalbli shoirning o'zi ham mudom anglab yetolmayotgan, kun-bakun vujudiga o't solib, yondirguvchi tuyg'ularni, o'ylarni uyg'otib yuborgandi. Bu kechmishi juda azobli, shuningdek, bag'oyat yoqimli va huzurbaxsh edi. U halovatsiz iztirob pinjida to'lg'onardi, biroq bu to'lg'onish qalbiga xush yoqardi ham. Uning ahvoli shunday-ham oydek ravshan, ham har ne shuurga-da tushuniksiz edi. U buyuk bir muhabbatni, buyuk bir ishqni sog'inardi chog'i.

-Bunchalar mutaassirlik, kuymoqlik bo'lmas, shoir.-dedi vaziri azam o'z odaticha o'ktam ovozda salom-alikdan so'ng.

-Bu ko'yimni o'zim ham aynglayolmasmen, hazratim. Yaxshisi, so'rmingiz!.. -Xayyom bu so'zni ohista, lekin qat'i aytdi va shu bilan gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi.

Vaziri azam xiyol xijolat tortdi: uning botiniga nechuk suqiladur? O'zi shoiri sho'rlik shundoq ham ich-etini yeb yurgan bo'lsa. Shuning uchun gap payrovini davlat yumushlariga burdi.

-Olampanoh ila maslahat qilib, rasadxonani yanada kengaytirmoqni lozim topdik.

-Xo'sh-xo'sh?.. -deya sergak tortdi bir qo'zg'olib olgan Xayyom.

-Rasadxonaning so'l yoniga madrasamonand hujralar, tahsilxonalar barpo etsak, ne deyrusen?

-Ayni muddao bo'lardi, hazratim. Illo ilmi toliblar uchun, ularning saboqlari uchun rasadxonamiz torlik qilib qolmish edi. Ilohi, sultonimizning umrlari uzun bo'lg'ay.

-Barcha yumushlar uchun yetarli mablag' ajratiladi. Ularni oqilona sarf etib, ishlarni maromga solmoq sening izmingdadur.

-Bosh ustiga, janobi oliylari.-deya xiyol tazim qildi shoir, -Chillai zimistonda qonlarimiz to'nqlab, so'ngaklarimiz qaqshagani rost. Bu kabi ulkan ishlar biz uchun ayni muddaodir. -Nechukdir shoirning yuziga qizillik yugurganday bo'ldi.

Birozgina avjsiz suhbatdan so'ngra vaziri azam Xayyomga shatranj surmoqlikni taklif etdi. U rozi bo'lg'ach, Nizom ul Mulk mutoyiba etdi:

-Illo chin jahd ila o'ynagaysen. Zero men oftobi olam sultonimiz emasmenki, mag'lub qilmoqqa jurat etolmasang.

Yengil kulishdilar.

Xayyom vaziri azamning qasridan chiqib borarkan, uning nima demoqchi ekanligini fahmlaganday bo'ldi. Ha, u dunyoga teran aql

ko'zi ila boqardi, qalbida misilsiz tug'yon va hatto isyon borligini ham yashirmasdi. Uning uchun ilmning millati va yoki irqi yo'q edi. U ilm olmoq istagida majusiy yoxud budparastga ham shogird tushmog'i mumkin, chunki taboyi (tabiat) ilmlarini diniy ilmdan ayro tushuna olardi. Ehtimol valinematini Nizom ul Mulk uning felidagi ana shu jihatlarni bilganligi bois uni o'zicha diniy bilimlarning sohibi G'azzoliyga aksil qo'ymoqchi bo'lgandir? Agar shunday bo'lsa, demak, vaziri azam xatokordir. Illo Olloh visoliga eltuvchi yo'llar turfa ekanligini u juda yaxshi biladi. Qolaversa, har kishining bir yomoni, har yomonning bir yaxshisi bo'ladi. Balki Xayyom bir umr sog'inib yashayotgan inson shudir...

Sulton hashamatli taxtda odatdagidek viqor ila o'ttiribdi. Kayfi xush chog'i, labu ko'zlarida nim tabassum. Ikki yonida esa bizga tanish arkoni davlat qator tizilishib, qo'l qovushtirib turibdilar. Barchalari bir nimarsani intiq kutmoqdalar. Oynavand darichalardan oqib kirayotgan jilvakor oftob par tavi (yolqin, shula) billur qandillarga urilib, sulton taxtining tillo naqshlariga, tojining olmos ko'ziga, ayonlarning turfa xil uzuklariga, liboslarining yorqin tusli kashtalariga vanihoyat ularning so'nik va chaqnoq, qisiq hamda katta ko'zlariga sochilib, jimirlab qo'yardi.

Bir zamon saroy mulozimining tantanavor ovozi yangradi:

-Ulamon kirom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al G'azzoliy janoblari Bog'doddan tashrif buyurmishlar.

Uning ovozi naqshinkor ustunlar va saroyning baland shiftlarida aks sado berib ulgurmay, borgoh(sulton qabulxonasi)ning ochiq turgan uzun eshigi ostonasida yigirma besh yoshlardagi ko'rkam yigit paydo bo'ldi. Yigitning boshida ixcham oppoq salla bo'lib, egniga eroniylarga xos kaltaroq-tizzasidan keladigan gulli chopon kiygandi. Qosh-ko'zlari qalamda chizilganday tekis va siyrak soqolining tim qoraligi bois shundoq ham nur taratayotgandek tuyulguvchi oq, biroq so'lg'in yuzi yanada oppoq ko'rinardi. Sallasining ostidan chiqib turgan tim qora sochlari quloqlarini yarmigacha yopgan. U o'rta bo'yli bo'lib, uzun kipriklari poyida qop-qora ko'ringuvchi bir qalam uchi qalinligidagi gardish orasidagi cho'g'dayin chaqnaq turgan ko'zlari kishiga kulib boqadi. Yigit sultonning ro'baro'sida to'xtadi, o'ng ilkini ko'ksiga qo'yib, boshini xiyol egdi-da, oliy nasabli kishilar kabi mag'rurona tazim qildi va vaziri azam tomonga bukilganча borayotgan mulozimni nigohi ila kuzatib qoldi. Mulozim ilkidagi yorliqni ikki qo'llab tutib, vaziri azamga uzatdi. Bu Bog'dod va aslida butun musulmon dunyosi shayxulislomining Muhammad G'azzoliy haqida Malikshohga bitgan nomasi, yanada to'g'rirog'i, ishonch yorlig'i edi.

Ayni kunlarga kelib, jahon musulmonlarini bir tug' ostiga birlashtirgan Bog'dod xalifaligining nufuzi asta-sekin yemirilib bormoqda edi. Yetti iqlimga buyuk turkiy qavm Saljuqiylar sulolasi hukmronlik qilardi. Shunday bo'lgach, mag'ribu mashriq sohibi sulton Malikshoh Bog'dod xalifasini va huddi shuningdek, shayxulislomni ham unchalar pisand qilavermasdi. Sultonning ularga dahl etmayotganligining boisi eng avvalo dini Islomga bo'lgan buyuk hurmatidan edi. Qolaversa, asli islomparvar bo'lgan Malikshoh ilmparvar ham edi va bog'dodlik mehmonga ko'rsatayotgan ehtiromi ana o'sha fazilatini namoyon etardi.

Nomani vaziri azam Nizom ul Mulk ochib, sultonning ijizat ishorasidan so'ng ovoz chiqarib o'qidi. Sulton uning mazmunidan avvaldanoq boxabar bo'lsa-da, hozir o'zini endigina eshitayotgandek tutardi. U G'azzoliyga qarab bilinar-bilinmas bosh silkidi-da, xiyol kulimsiradi.

Vaziri azam esa sultonning boqishlari manosini so'z ila ifodaladi:

-Xush kelibsiz, ey, Islom osmonining porlayotgan yulduzi, din ilmining buyuk istiqboli!.. -deya u ko'z qiri ila o'ng yonida turgan Umar Xayyomga qarab qo'ydi. -Shayxulislom hazratlarining sizga bo'lgan ishonch va ixloslari sharofati ila mamlakatimiz dorussaltanati shahri azim Isfahon yanada nurafshon bo'lg'ay, inshoolloh!

Saroy ahli vaziri azamga hamohang tarzda G'azzoliyini olqishladilar. U avval sulton, so'ng esa sohibi devonga tazim qildi.

Vaziri azam ohista, shuningdek, manoli tarzda bir bora tomoq qirib qo'ydi-da, dedi:

-Nomi butun Xurosonu Movarounnahrga yoyilgan ulug' shoir va olim Umar Xayyom janoblari ham sizni mushtoqlik ila kutmishlar. -U G'azzoliyga boqish avvalida taqi birbor ko'z qiri ila Xayyomga qarab qo'ydi. Uning bu xayrixohona nazarini payqagan alamzada Qazviniyning rangi bo'zarib ketdi. Ammo o'z ahvolini sulton va vaziri azamdan pinhon tutish maqsadida lablarini ikki yonga tortib, tishlarini ko'rsatdiki, bu ila o'zini tabassum qilayotgandek ko'rsatmoqqa urindi.

Xayyom bo'ydor va savlatli edi. Qalin qoshlari, iyakdor uzunchiq yuziga yarashgan dag'al qo'ng'ir-kulrang soqol-mo'ylabi uni tag'inda salobatli ko'rsatardi. Yelkasiga tushgan o'siq sochlari ixcham sallasi ostidan to'lqinlanib chiqib turardi. Egnidagi xirqasimon uzun jun chakmon uni bag'oyat jussali ko'rsatadi. U buyuk olim, faylasuf va boringki, toza ko'ngilli shoir bo'lgani bilan, shuningdek, oddiy banda ham edi. Uning ham vujudida goho shaytoniy istaklar yoxud tuyg'ular xuruj qilib qolardi. Shundayin onlarda iloji boricha shaytonga xayr berishga urinardi. Hozir har qancha say etmasin, vaziri azamning anovi mushtdek yigitchani maqtashi uning bag'rida qaro bir tuyg'u-hasadning uyg'onishiga sabab bo'ldi. Ixtiyorsiz tarzda qovoqlari osilib ketdi. Xayyom so'zlayotgan sohibi devonning qarashini bu safar ham sezdi va uning so'zlari nihoyalashi asnosida G'azzoliyga qaradi. U esa vaziri azamning gaplariga javobanmi, unga tikilib turardi. Asli shahri Tusdan bo'lmish kiborzoda bu yigitning nigohi hamon tabassumli edi va uning qarog'lariga cho'kkan qoracho'g'lari go'yo oq alanga berib yonayotganga o'xshardi. U endi o'trusidagi shoirga biroz havas, bu uchrashuvdan minnatdorlik va shu kabi samimiy xayrixohlik ila boqdi. Ammo kecha Nizom ul Mulkdan G'azzoliyning kelganini eshitgan va uning tashrifi rasadxona ishlariga xalaqit berishini gumon qilayotgan shoir bu qarashdan o'zgacha mano ilg'amoqda edi. Ehtimol shuning uchun ham Umar ibn Ibrohim ro'baro'sidagi o'zidan o'n yosh chamasida kichik yigitcha, mish-mishlardan eshitib ulgurganidek, ilohiyot ilmidagi favqulodda istedadga ega bo'lgan navqiron olimul musulminga (musulmonlar olimiga) xiyol pisandsizlik ila tikilardi. Uning nigohi xuddi qarog'larining tub-tubiga cho'kib ketganday qalin qoshlarining ostida qorayib ko'rinardi va bu ko'rinish bir qarashda go'yo nafrat nishonasidek tuyulsa-da, aslida unday emasdi. U yosh mehmonning so'zlarini tinglab, uning o'zini tutishi va yuz-ko'zidagi samimiyatni anglab, shu o'tgan bir kecha ichida qalbida paydo bo'lgan shubha-yu gumonlardan asta-sekin tozarib borardi. Axir u olim-ku, ummul Kitobni yod bilgan, tafsir etgan, Ollohning oshig'i bo'lgan kishidan yomonlik chiqadimi? Yoshlik qusurlari bo'lsa bordir. Hali odam ila bir bora so'zlashmay fikr etmoq-bu ayni xatolig' sari yuz tutmoq emasmi! Buncha badgumon va hurkak bo'lmasang, ey, chodirdo'zning o'g'li? Axir bu zaif, haqiqatni qo'yib, o'z tinchini o'ylaguvchi kimsalarning sifati emasmi... Bular Xayyomning shuurida kechayotgan fikrlari edi, uning qarashidan esa, qani bu o'zingga bino qo'yishlaring qachongacha davom etarkin, degan manoni uqish mumkin. G'azzoliy ham aynan shu manoni uqmoqda edi. Lablaridagi tabassumi ila esa shoirga o'ylaringiz xato, demoqchi bo'lar va unga samimiy bir tuyg'ularni ilinardi.

Bu ularning ilk uchrashuvi edi.

yosh kichik bo'lib, shofein mazhabidan edi. Xuroson va xususan, uning ko'hna shaharlari azali ilm-marifat o'chog'i bo'lib kelardi. Bu Abu Homidga ham hali bolaligidayoq o'z tasirini ko'rsatdi. Ilk saboqni Tusda benazir ustoz ar Rodgoniydan oldi. Azimushshan Quroni ham shu yerda hatm qildi, murattab qori bo'ldi. So'ngra Nishopurga kelib, so'fiy olim al Juvayniydan talim oldi. Shu yerda Quron tafsiri va hadis ilmi, fikh ila mashg'ul bo'ldi. Tunu kun tinimsiz kiitob mutolaa qildi, buyuk Islomning taraqqiyi xususida bosh qotirdi. Uning quvvai hofizasi juda kuchli, aqli va fikri juda tiniq edi. Har ne narsani bir ko'rishdayoq eslab qola olardi, jild-jild kitoblarni yod bilardi. Sohib karomat ustoz Juvayniy hazratlarining to'rt yuz nafardan ziyod shogirdlari bor edi. U mana shuncha ziyo talablar ichra yupungina kiyingan, oddiygina hunarmandning farzandi bo'lmish Abu Homidga alohida etibor va havas ila boqardi. Ehtimol o'shanda suyuqli shogirdining buyuk istiqbolini ko'ra olganmidi bu qalbi bedor zot. Ustoz Abu Homid haqida so'zlab, "U-qari xazinaga to'la ummon, deya tarif bergandi. Filhaqiqat, al Juvayniy yanglishmagandi-G'azzoliy o'z aqlu zakovati ila olamga dovrug' sola boshladi. Bog'dodga kelgach, bir necha risolalar bitdi va shu orqali ko'p ulug' zotlarning nazariga tushdi. Din nomi Olloh taboraka taolodan, asosi Payg'ambar alayhissalomdan bo'lgani bilan uning rivoji xos bandalarning aql-idroki va saylari tufayli edi. Buni xalifa-yu shayxulislom va hatto sahroyi sulton Malikshoh ham yaxshi bilardilar. Shul bois ular Islomga kuch bermoq, uni mustahkamlamoq niyatida va buning ortidan saltanatni, davlatni qudratli, fuqaroni andishali qilmog'i mumkin bo'lgan tolibi ilmlarni, fozillarni ehtiyot tutardilar. G'azzoliy ham ana shunday fazilat sohibi edi.

G'azzoliyga Olloh bergandi: u ayni damda Islom dunyosida barqaror bo'lgan qarashlar, fikrlarni o'rganardi va o'z navbatida birin-sirin ularni inkor etib borardi. G'azzoliy atrofga, musulmonlar hayotiga sinchkov boqarkan, ulardan o'z bo'yi ancha balandlab borayotganligini payqardi va shaytoniy kibru havoni daf qilmoq uchun istig'for aytardi. Lekin barcha nimarsalarni inkor etmoq ila haqiqatga yetib bo'lmasdi, iqror ham lozim edi. Buni u yaxshi bilardi va shuning uchun ham hozirda mavjud bo'lgan toifalarning borliq hamda dinga munosabatlarini taftish etardi. Ayni kunda butun musulmon dunyosi ikki oqimga bo'linardi-sunniylar va shialar. Bu ikki oqim esa taqi bir necha mazhablarga ajralardi. Abu Homidni mana shu nimarsa iztirobga solardi. Yani Islom olamining bir necha toifalarga bo'linib, sochilib ketganligidan azoblanardi. Uning o'zi shofein mazhabiga mansub edi. Saljuqiylar saltanati fuqarolari esa asosan hanafiy mazhabiga etiqod qilardilar. Shofeinlar, tabir joiz bo'lsa, ularning eng asosiy raqiblari edilar. Bundan o'zga taqi botiniylar, yaniki ismoiliylarning tarafdorlari ham tobora ko'paymoqda edi. Bularning tutumi havfli ediki, ular Hasan Sabboh otlig' kimsaning tarrorlari edilar.

Sulton Malikshoh hanafiy edi. Biroq shofeinlarga ham hurmat bilan qarardi. G'azzoliy bundan boxabarligi bois saljuqiylar saltanatining bosh kenti Isfahonga xavf-xatarni gumon etmay kirib keldi. Shu kabi u sultonning hanafiylik mazhabining asoschisi Imomi Azam Abu Hanifa No'mon ibn Sobitning Bog'doddagi qabri uzra maqbara ko'tarib, uning yonida hanafiyilar uchun ulkan madrasa qurdirganligini ham yaxshi bilardi. Bu bag'ri keng, sodda ko'ngilli turkiy qavm hurmat-izzatga chindan-da munosib edi. Islom ayni damda asta-sekin parokanda bo'lib borardi. Risolat davridan (Payg'ambar alayhissalom davridan) so'ng hotamul anbiyo keltirgan oxirgi haq dinning muhtasham binosi darz keta boshladi. Hazrati Ali tarafdorlari bir yon, Hazrati Usmon tarafdorlari taqi bir yon, o'zgalari uchunchi bir yon bo'ldilar. Jangu jadallar, qirg'inlar avj oldi. Oqibat esa ayon-musulmonlarning turfa mazhablari bunyod bo'ldi. G'azzoliy barcha oqim va mazhablarni yaxshi bilar, shul bois ularning barchalari ham Haq izlovchilar ekanligini tushunardi. Axir ularning birontasi Haqqa aksil emas-ku! Demak, ularni rad etmoq ham odillik nishonasi emas. Shuningdek, eski odatu etiqodlarga qaytmoq ham umid bermaydi. Tobora so'nib borayotgan salaflar haqida bosh qotirmoq yoxud ularga ergashmoq ham muqallidlarga xosdir. Ular bir oyna kapidurlarki, allaqachon darz ketgan. Ozigina dahl etmoq ila chilparchin bo'lg'uvsi. Illo darzni chegalamoq yoxud siniqlarni bir-biriga yopishtirmoqqa urinmoq natijasiz yumush. Yaxshisi, o'sha siniqlarni to'plab, olovda toblamoq va butunlay yangi hamda mustahkam oyna yasamoq lozimdur. Avomga ishonchli yangilik kerak. G'azzoliy shular haqida o'ylardi, din islohi haqida bosh qotirardi. Hali buyoqda mutazalliyar, faylasuflar, so'fiylar ham bor. Ularni ham asliyat sari yo'naltirmoq lozim.

Abu Homid so'fiylarga ancha xayrixoh edi, o'zi ham ibodatni barakotli etmoqda ularga mayl bildirardi. Nazdida, so'fiylik yo'li eng to'g'ri yo'ldek ko'rinardi. Go'yo unda tama, soxtakorlik kamroq edi. Zikru taqvo ila parhez tutib, sinib boraverasan, Ollohga yovuvqlashaverasan. Dilingda Ollohnin rizoligidan o'zga tama bo'lsa, o'lib boraveradi. Albatta, tasavvufda ham bir necha tariqatlar va ularning mashoyixlarining o'zaro obro'-yu martaba taloshlari bor. Aslida ham basharning feli-xo'yi azaldan malum: din peshvolari bo'lmish ulamolalar, shariat va fikh olimlari hamda din homiylari sanalmish hukmdorlar aro bahs ketsa, nimadir, boringki, Islom amallari borasidami, fikr-mulohaza taloshilsa, dinu Olloh bir yonda qolur. Hamma o'z foydasi uchun bahs etur. Shunday kezlarda ular dinni, shariatni istagan ko'ylariga solishlari, isloh bahona o'zlariga qulay amallarni yaratib olishlari mumkin. Demak, din va shariat odamlarning xohishu irodalariga binoan o'zgarib, yangilanib turar ekan. Din Ollohnin buyrug'i ila odamlarga nemat qilib berilgan bo'lsa-da, shariat asoslarini kishilar yaraturlar. Bundan kelib chiqadiki, dinu shariat bandalar yuzini Ollohga tomon buribgina qolmay, odamlar va ayniqsa, sohibi davlatlar foydasi uchun ham xizmat etarkan. Buning kabi olimlar ana o'sha qonun-qoidalarni mustahkamlab, farzu sunnat ila asoslab berar ekanlar. Yo Olloh! Xatokorlig'din o'zing asragaysen. Banda hamisha gunohlidir, biroq imkon qadar undan saqlanish va dini Islom uchun xizmatga sidqidildan bel bog'lamoq lozim. Zero sen bitgan bitiklarning qay tomonidan boqmasinlar, buyuk Islomning yorug' yuzi ko'rinsin. Hazrati payg'ambar sallallohu alayhi vasallamning vasiyatleri ham shunday emasmi!

Ehhe-e, bu olamda ne-ne kitoblar bitilmadi. Barchalari haqiqat va Islomga sadoqat davo qiladilar. Lekin ularning ichida kufru zalolat, sehru joduga eltguvchilari ham mo'l. Illo bani bashar, jumlai odam dinu diyonatga o'z shuuri, idroki yetganicha munosabat bildirur. Goho to'rtta hadisni yod olmagan, bir oyatni tafsir etolmaydigan kimsalar ham kitob bitmoqqa tutinadilar, xayollariga kelgan fikrlariga hikmat to'nini kiydirmoqchi bo'ladilar. Shunday qilib, o'shal chalamulloning kitobi qaysidir bir omiynin ilkiga tushadi-yu, u o'zgalardan aqlliroq ko'rinish ilinjida uni haqiqat deya talqin etadi. Qarabsizki, kimningdir aljirashi ortidan biron tariqat va yoxud hatto shariat yaralib turibdi-da. Aslida esa ul so'zlar shayton va jinlarning vasvasasidan o'zga nimarsa emasdi. Abu Homid Bog'dod madrasasida mudarrislik qilarkan, hatto ilmi toliblarga saboq berish va ayniqsa, bedor tunlarda shariatdagi ana o'shal noto'kisliklarni to'kis etmoq, parokandalikni jamlamoq xususida o'ylardi. Shu niyatda bir risola bitmoqni ixtiyor etdi. Endigina ilk sahifalarini bitayotgani bu kitob "Ihyou ulumiddin" ("Diniy ilmlarini tiriltirish) deb ataladi. Shu risolasida haligi yanglig' so'roqlarga javoblar bo'lg'uvsi, inshoolloh. Mazkur asarni bitmoqqa astoydil kirishayotganda yangi bir niyat oromini oldi. Bu faylasuflar ilmining tub mohiyatiga yetmoq orzusi edi. Chunki dinga quvvat bermoqni istagan odam albatta faylasuflarning fikrlari ila yuzma-yuz kelmog'i muqarrar edi. U buxorolik mashhur tabib va riyozatchi, shu kabi, faylasuf Ibn Sinoning falsafiy asarlaridan boxabar edi. Uning Isfahon rasadxonasida bir muddat ishlaganligini va u yerda ilm ila mashg'ul bo'lganligini yaxshi bilardi. Ayniqsa, tabibning falsafiy qarashlari uni qiziqtirar va uning fikrlariga inkorlar kashf etardi. Qolaversa, ayni kunda ham

Isfahonda faylasuflar bisyor edilar. Ularning boshida Umar Xayyom turar ehtimol!.. U shu niyatda shayxulislomga arz etdi va Isfahon sari yo'l oldi. Yanaki, vaziri azam Nizom ul Mulk hazratlari ila ham avvaldan tanishligi bor edi. Vaziri azam uni bir-ikki bor Isfahon Nizomiyasiga taklif qilgandi. Mana, vaqti-soati endi yetibdi.

G'azzoliy huzuri muborakda madrasada istiqomat qilmoqlik niyati borligini ayon etdi. O'z xohishiga binoan Nizomiyaning kattaroq hujralaridan biri uning ixtiyoriga berildi.

To'qqizinchi bob

1

Xayyom bu kecha bomdodga yaqin tush ko'rdi. Ajab tush, dahshatli tush: qayoqdandir juldurlarga burkanib, belidagi chilvirga musallas ayoqini osib olgan qop-qora Mastona kampir paydo bo'libdi-yu unga qarab rosa qah-qah uribdi. So'ng angrayib turgan Xayyomning ilkidan Quroni tortib olibdi-da, oldidagi g'oyibdan bino bo'lgan olovning yoniga cho'nqayib, Kalomullohni burdalab yoqa boshlabdi. Shoir dahshat ichra oh urib, kitobni tortib olmoq uchun uning ilkiga yopishibdi. Ammo harchand say etmasin kuchi yetmabdi...

U vahm og'ushida uyg'ondi. Qayta-qayta istig'for aytdi. Tahorat olib kelgach, bomdod namozidan so'ngra taqi ikki rakat namoz o'qib, tavba qildi. Biroq bu tush ko'z o'ngidan hadeganda nari ketmasdi. U tez-tez tush ko'rguvchi edi. Goho tushlari nelardandir bashoratlar ham qilardi. Shul bois keyin-keyin tushlariga etibor beradigan bo'ldi. Tabir kitoblarini mutolaa qilib, goho tushlaridan manolar axtarishga tushdi. Chindan ham u manoli, bashoratli tushlar ko'rar va bu mo'jizadan pinhona hayratlanardi ham. Shunday paytlari inson tafakkuri va ruhoniyyati ko'p nimarsalarga qodir ekanligiga taqi bir karra amin bo'lardi.

Xayyom o'tgan yillar mobaynida Mastona kampirni ko'p bor esladi. Ko'pincha ul pirazan shoir saroxush bo'lgan onlarda xayoliga kelar va aksariyat hollarda istiqbolda bo'lguvchi bazi voqeotlarga ishorat berib qolardi. Lekin hali biron marta tushiga kirmagandi, yanaki bugungidek alpozda. Yo Olloh! Devona pirazan Kalamullohni yoqsa-ya! Bu nelardin bashoratlar qilur? Taqi ne ko'rguliklar kutmoqda uni?! Ul yo devona, yoki shum va yoxud valiy pirazan nelarni aytmoqchi bo'lador? O'shanda Nishopurda, padarining chodirdo'zlik ustaxonasida o'n yoshli Umar Quroni karimni endigina xatm qilgan onlarda mastona kampir ila yo'liqqandi va u mullo bolakayni bag'riga olganida, bola esa xushi og'ib, yerga yiqilganida nimadir ro'y berganligini keyinroq his etgandi. Bu kun esa unda sohir bir ruhiy holat yuz berib, devona kampir va uning o'rtasida ko'rinmas rishta paydo bo'lganligini, ul pirazan o'ziga hamisha yo'ldosh ekanligini anglay boshlagandi. Rost, bu tush bejiz emas, Mastona kampirning g'oyibona tashrifi ham behikmat emas. Faqat u nelardin ogoh etur u shuni tushunolmay dog'da...

Yoxud Qazviniy otlig' mumsik, xiylasi morniki yanglig', nasli odamizot taqi biron fitnaning boshini tutdimikin? Xiyonatchilarning qilmishlaridan so'ngra ul ham sassiz qolmish. Yoki bu makkor mor og'u yig'mog' ila bandmi? Ehtimol endi biron yovuzlikni boshlamoq payidadir? Har holda bu sukunat ortida to'fonlar yashirin turmog'i ham ehtimol. Tag'in kim biladi, balki ul hasadgo'y g'ofilga Olloh insof ato etgan bo'lsa ham ajabmas. Biroq bunga shoir inonmaydi, inonolmaydi.

Buyoqda malika Turkon Xotundan ham har ne yomonlik kutsa bo'ladi. Muhammad Takash voqeasidan so'ng malika ila hali biron bora yo'liqmadi. Hatto shahzoda Mahmudni ham yo'qlamay qo'ydi. Chunki o'shal voqadan keyin Isfahonda ham, ahli saroy orasida ham muhit butkul o'zgardi, sulton hazratlarining felida ajab samimiyat vujudga keldi. Ehtimol malika bundan dilgir bo'lib, shoirga tish qayrab yurgan chiqar? Yo Rab!.. Gumonlar, shubhalar, ishibohlar!..

Yoxud yomonlik yangi kelgan mehmon Abu Homid G'azzoliy tarafidan bo'lurmi?.. Yo Abul Fath Umar, senga ne bo'ldi? Bunchalar badgumon bo'lmasang?! Axir Quroni tafsir, hadisu shariat ilmlarining bilimdoni bo'lmish shul nurposh yigitdan yomonlik chiqadimi! Uning yuz-ko'ziga boqmadimgi axir!.. Yuz-ko'zi!.. Nahotki surat siyratdin darak bersa? Bunga inonmoq dushvor. Uning yuz-ko'zida kibru havodan o'zga taqi ne bor? Yana tag'in xatkorlig' qiladursen, ey, nodon shoir. Ehtimolki bu ulug' tafakkur sohibining aslini, mohiyatini anglamayotirsen. Anglamayotganing shunda ham ko'rinadurki, sen tabiiyun oshig'i, moddiyunparast banda borliqning, undagi nabototu hayvonot, tufrog'u madan, har bir xasdan to kesakgacha mohiyatini izlab, anglamoq istarsenu bir ilmpeshaning qalbini tushunmoqqa jahd etmassen. U haqda o'zingcha bir qur hukm chiqarasenu bas, ortiq say ko'rsatmaysen. Hatto bir majusiyning tutmishidan mano, hikmat axtarib, uning joduga esh yumushlarini mo'jiza va yoxud ilm deysanu mana bu iymon sohibi, hofizi Qurondan yomonlik gumon qilasen. Qani, sendagi ezgulikka tashnalik davosining isboti?! Xayyom o'zidan xijolat tortib, uyaldi. G'azzoliy ila hali tuzukroq so'zlashmay, undan shubhalanayotganligi endi o'ziga tasir etib, vujudi qizidi. Lekin ne bo'lganda ham baribir, shariatpeshalar ila o'zining o'rtasida ixtilof yoxud, yumshoqroq aytganda, bahzu munozara hamisha muqarrarligini qalbi sezib turardi...

Kunlar isib, xurshidi olam ertalabdanoq tanlarga olovli tig'ini sanchadigan bo'lib qoldi. Shuning uchun rasadxonaning yangi qurilishidagi yumushlar ham erta boshlanardi. Musulmon olami o'zi shunaqa-ish unumini ertalabda deb biladi. Bomdoddan so'ng to Quyosh ko'tarilguncha ancha ish qilib ulgurish mumkin, musulmonlar ana shuni qadrlaydilar. Nari borsa choshgohgacha ishlaydilaru oftob tikkaga o'rlay boshlagach, xordiq olmoqqa tushadilar. Chunki Isfahon yozi bag'oyat issiq bo'ladi.

Hozir ham kun juda charog'on ediki, picha ko'kka yuz tutgan kishining ko'zlariga to'lib olib, bir muddat qamashtirib qo'yardi. Xayyom yerga boqqan ko'yi madrasa qurilishi tomon o'tdi. U hamon ko'rgan tushi tasirida edi. Mastona kampirni, uning ilkidagi Quroni, olovni qayta-qayta o'ylayverardi. Nazdida, bu tush mudhish bir voqeaning bashoratidek tuyulaverardi. Shul bois tezroq o'zini o'zi chalg'itishni istardi. Tushlar tasiriga berilmoq ham yaxshilikdan emas, bunchalik mutaassirlik yaramaydi... Birontasiga sadaqa berib yuborsa soz bo'lardi. Axir yaxshi tushga ham, yomon tushga ham sadaqa joiz, deydilar-ku. Rasadxonada yo biron devona bo'lmasa. Shu payt Xayyomning ko'zi obkashlik qilayotgan Yusuf Rindoniya tushdi. Sadaqani uningdek sofdil odamga bergani durust. U xamyonini kovlab, bitta kumush tanga oldi-da, Rindoniyni chorladi:

-Ayo, Rind, buyon kelgaysiz!

Ertalabdanoq sarxush bo'lib olgan mayparast farrosh shoirning qoshiga darrov yetib keldi.

-Subhi sodiqda duongizni olgim keldi. -dedi Xayyom kaftiga tangani joylab.

Rind uning ko'zlariga o'tkir bir nazar soldi-da, dedi:

-Xojam bir ajab tush ko'ribdilar chog'i?.. Omin yaxshilikka bo'lsin. -U ilkini yuziga tortib, o'z yumushiga ketdi.

Xayyom biroz yengil tortganday bo'ldi. Xayolchan nigohi ila sangtaroshlarning harakatlarini kuzatdi, biroq ularning taqir-tuqirlari qariyb qulog'iga kirmasdi. Hech qancha o'tmay ro'baro'sida-qurilayotgan madrasaning narigi chetida korfarmo paydo bo'ldi. U shoirga bir pas tikilib turdi-da, o'nga tomon yura boshladi. Lekin Xayyom ayni paytda hech kimsa ila so'zlashmoqni istamasdi, shundanmi, najot izlaganday u yon-bu yoniga alangladi. Shu asno rasadxona darvozasidan chiqib, narigi yoqqa qayrilayotgan Maryamga nigohi tushdi. Xursand bo'lganday bir qalqdi-yu uning ortidan yurdi. Korfarmo esa yarim yo'lda to'xtab, o'zga ishga

mashtag'ul bo'ldi. Xayyom borarkan, dilidan o'tkazdi- hozir bu olam tashvishlari dilimga sig'maydur...

Maryam buloq sari ko'tarilardi. U ortidan kelayotan Xayyomni anchagacha payqamadi, to buloqqa yetguncha biron marta qayrilib qaramadi. Nihoyat buloq boshidagi sayhonlikka qadam qo'ya turib, yaqinlashib qolgan shoirga ko'zi tushdi. Uning nigohiga hayrat nishonasi to'ldi-ustoz nechuk ish payti bu yerlarda yuribdi?..

Qiz tavoze ila salom berdi.

-Vaalaykum... -dedi Xayyom tez yurganligidan biroz xansirab.-Shundayin suluv qizni yolg'izlatib qo'ygim kelmadi. -U hazil qilmoqqa urindi, biroq ko'zlaridagi mahzun o'ychanlik hazilining shashtini anchagina susaytirib yubordi.

Buni qiz ham sezdi. Buloq bo'yidagi o'zlariga tanish va qadrdon joyga o'ttirarkanlar, Maryam juratsizlarcha so'radi:

-Dilgir ko'rinadursiz, ustoz?

-Hayronmen. Dunyoning g'avg'olaridan toliqdim shekilli. -Ammo g'alat tush ko'rganligini aytmadi.

Buloq boshi bag'oyat so'lim edi. Uning tarovati oftob tig'laridan yarolangan tanlarga go'yo malham yanglig' surkaladi.

Maryam ham hamon munglig' edi, judolik alami uni mudom tark etmagandi. Xayyom unga boqarkan, ko'nglidan o'tgan fikrdan ichida xijolat tortdi. U Maryamga endi avvalgidek zavq va ehtiros ila boqmasdi. Uning vasli bag'riga o'shal huzurbaxsh va shu kabi, ilhombaxsh olovni endi solmasdi. Yo Olloh! Bu ne hol? Nahotki bul muhabbatdin ham mahrummen? Mahrumiyatlar qachon intiho topgay, Tangrim?!.. U Maryamga achinayotganligini, yuragidagi o'tli ishq o'rnini endi shafqat tuyg'usi egallayotganligini payqadi-yu o'zidan battar uyalib ketdi.

Qiz ham burungidek durkun emasdi, ko'zlaridagi bag'rlarni kuydirguvchi olov ham so'nayozgandi. U avvalgidek go'zal edi, lekin shoir vujudiga kuch, ehtiros va qalbiga ilhom solgan allanimadir uni tark etgandi. Chunki Xayyom uning huzurida boyagidek o'rtanmasdi.

Ular anchagacha tip-tiniq buloq suviga so'zsiz tikilib o'ltirdilar. Bir zamon ko'zlarining qoracho'g'lari kengaygan shoir suvning jilvasiga termulik charchadimi yoki chindan ham qizga gapirgisi keldimi, ohista dedi:

-Ahvoling nechuk, Bibi?

Maryam unga o'grildi. Ko'zlar to'qnashdilar. Yo Rab! Qiz bechoraning ko'zlari jiqqa yosh edi. Ular oq uchqunlar sachratgan mensiz yonardilar.

Xayyom taqi tuyqus bu kecha ko'rgan va mudom davom etayotgan dilxiraligiga bois bo'lgan tushini esladi. Qop-qora Mastona kampir Quroni karimni yoqardi. Olov gurillab yonardi. Tushingga tabir izlabmiding, ey, shoiri devona? Balki... Yo Ollohim, nahotki?!.. Olov!.. Yoshli ko'zlar!.. Lov-lov yonayotgan Quron!.. Ehtimol bu o'z otashi ila hatto Quronni yondirguvchi Ishqni bashorat qilur? Men bandai behalovatni o'zim xiyol ham qila olmaguvchi ulug' bir Ishq kutayotgan bo'lsa ne tong! Xayyomning butun vujudi jimirlab ketdi. U tushining mana shu tabiriga ishona boshladi va ishongani sari qalbi tushuniksiz shoir tuyg'ularga yo'g'rilib bordi. O'shal tuyg'ular og'ushida erirkan, yana G'azzoliyning mag'rur qiyofasi yodiga tushdi. Tushdi-yu unga havasi kela boshladi. Uning sarkash feli bor edi - birovning o'ziga bo'lgan munosabatining manosini oydinlashtirmaguncha tinchimasdi. O'shal odamga yomonlik qila olish uning ilkidan kelmasa-da, toki o'zi u haqda bir qarorga kelmaguncha badgumonlikdan qutila olmasdi. Ammo hozir tarki odat qilib, G'azzoliyning maqsadini yaxshi anglab yetmagan bo'lsa-da, unga havasi kelib ketdi. O'zi yoshgina yigitu salobatidan shohlar seskangudek. Ha, bu ulug'likdan nishona. Ustozi Ibn Sino qandayin jasur va adolatpesha edi. Ulug' olim al Beruniychi, ilm deya, haqiqat deya, o'limga ham tik boqa olmadimi. O'zichi o'zi?!.. Qanchalar jasur, mard edi. Jannatmakon padari uning to'g'riso'zligini o'ylab, kelgusi taqdiridan xavotirga tushardi. Chunki to'g'riso'zligi biroz dag'allikka qorishib, uning felidagi xiyol dilozorlikni paydo qilardi. Endichi?! Nahotki u itoatgo'y, haqiqatni yonlab o'tguvchi oddiy bir bandi bandaga aylanib qolgan bo'lsa? G'azzoliyning nigohida esa isyon va kishilarni itoatga solguvchi bir kuch bor. Ayni damda Xayyom o'zini bo'yinsunuvchan, qo'rqqoq va juratsiz kimsa kabi his qilib, o'zidan nafratlana boshladi. Nazdida, sulton va vaziri azam uni ana o'sha itoatgo'yligi tufayli yomon ko'rib, G'azzoliyni ulug'lay boshlagandek tuyuldilar. Bu oddiy bir insoniy o'rijlik, hasadning qisqa xuruji edi.

Al Beruniy o'zining "Hindiston nomli asarida bitgan so'zlar go'yo unga malomat qilayotgan yanglig' yodiga tushdi: "Hukmdorlar qarshisida qo'rqqvga tushmang, ularga haqiqatni so'zlang. Axir ular faqatgina jismingizga hukm o'tkaza oladilar, ruhingizga esa dahl etolmaydilar. Bu Iysoi Masihning so'zlari edi. Xayyom uni "Injilda o'qigandi. Keyinroq "Hindistonda ham ko'rdi. Demak, Beruniy bu isyonkor va hikmatli so'zlarni yaxshi ko'rgan va ularga astoydil amal qilgan. Uning mashaqqatli hayoti buning isbotidir. Bu esa tobora, kun sayin itoatgo'y va murosasoz bo'lib bormoqda. Sulton qoshida uning marhum masxaraboz Jafar chuchukdan ne tafovuti bor? Xayyom o'zidan battarroq nafratlandi. Biroq u o'zining bu holati va boyagidek achingan monand boquvchi nigohi yonida o'ltirgan Maryamni ranjitayotganligini, uning ozor to'la ko'ngliga taqi ozor solayotganligini payqamasdi...

2

Abu Homid G'azzoliyning ulug' orzularidan biri, xuddi Xayyom kabi, Isfahonning qadim va benazir kutubxonasini ko'rmoq hamda u yerdagi yetti iqlimdan keltirilgan tafakkur mevalaridan termoqlik edi. Sultonning ijozatini olgach, u ham bu orzusiga musharraf bo'ldi, ko'plab kunlarini va hatto tunlarini ham mana shu irfon bo'stonida o'tkaza boshladi. Madrasa yumushlaridan bo'shadi deguncha shu yoqqa yelardi.

Hoziq tabib va shul kabi, tabiat ilmlarining bilimdoni bo'lmish Ibn Sino Sulton Mahmud taqibidan qochib, bir muddat Isfahonda yashab, rasadxona qurilishida ishtirok etganligidan G'azzoliy boxabar edi. Filhaqiqat, o'shal olamni sarson-sargardon kezgan kunlarida Abu Ali sulton Malikshohning bobosi Chag'ribek va katta amakisi, saljuqiylarning ilk sultoni To'g'rulbek ila uchrashgan edi. Unda bu sahroyi fothilar hali sulton emas edilar va hali saljuqiy saltanatga ham asos solinmagandi. U paytlari yurtma-yurt kezib yurguvchi ko'chmanchi qabila edilar. O'shanda To'g'rulbekning qavmida to'rt ming oila bor edi xolos. Biroq ular va ularning sardori olis-olislarga ko'z tikkan edilar. Bu qavm endigina Islomni qabul qilgan, iymon ahkomlarini ham endi-endi uhdalay boshlagan edi. Balki Olloh yarlaqagani shudirki, mard va jasurligiga qaramay, savodsiz hamda turmush tarzi ham bisyor ibtidoiy bo'lmish ko'chmanchi qavm dunyoning yarmiga ega chiqsa. Ehtimol iymon tantanasi mana shudir.

Sahro farzandlari-saljuqiylar tabiat ila oshno edilar. Ularning hayoti tabiat hayoti ila chambarchars hamrishta edi. Shul boismi, osmonu yerdagi barcha o'zgarishu evrilishlarni yaxshi bilardilar va ular ila hamohang yashardilar. Ayni shul tabiat yanglig' sodda va to'pori saljuqiylarning, ularning sardorlarining mana shu volida kabi aziz tabatning oshig'i Abu Aliga hurmatu izzat ko'rsatmoqlarining boisi ham ho'yalaridagi o'shal uyqashlik tufayli bo'lsa ajabmas. Nadomatkim, ulug' olimga islomparast va ilmparast saljuqiylarning muzaffar yurishlarini ko'rmoqlik nasib etmadi. Lekin Isfahonda ul zotning muborak izlari qolgan.

G'azzoliy bularning barchasidan ham boxabar emasdi, biroq Abu Alining ko'plab risolalarini mutolaa etgandi. Tabib va olimning

bazi falsafiy nazarlariga, tabiat ilmlariga mo'lroq urug'u berishlariga unchalik ham xayrixoh emasdi. U bu kabi falsafa va farosat ilmiga ruju qo'ygan ahli ilmlarning dunyoga nazarlarini yaxshi bilardi. Muxtasar aytganda, ularning fikrlari shunday edi: bul shuur sohiblari, olamning yuzidagi pardani butkul sidirmoqqa jahd etgan bul olimi tabiiyunlar azal va abadni, ibtido va intihoni tan olardilar, biroq o'rtada -bu dunyoda inson o'zicha yashaydi, unga ilohiy kuch tasir etmaydi, deya davo qilarilar. Bundan kelib chiqadiki, avom tili ila aytganda, Olloh taboraka taolo insonni dunyoga keltiradi-yu o'z holiga tashlab, uni unutadi. Oxiratda esa taqi o'z tasarrufiga oladi. Bundan o'zga, yana tag'in ular ibodatning shaklu shamoyilini ham tan olmaydilar. Ollohga ibodat qilmoqlikda ibodat shakli, yani surati ahamiyatsiz, kishi xohlagan alpozda Yaratganga sig'inishi mumkin, deya fikr etadilar. Eng asosiysi va xatarlisi shundaki, ular aql hamma nimarsaning asosi hamda boshlanishi deya tushunadilar. Asta-sekin anglamoqdaki, Umar Xayyomning dunyoga nazari ham ularniki mengiz ekan. Alxulosa, G'azzoliy faylasuflarning majoziy, imo-ishoralar tarzida, nim kosa qilib so'zlashlarini ham yoqlamasdi. Uningcha, fikr tiniq va aniq bo'lmo'g'i lozim. Faylasuflarning bitiklarini har yoqqa og'dirib anglash mumkin, chunki ularning tagdor fikrlari har bir odamning qanday tushunmog'iga va qay yo'sin talqin etmog'iga bog'liq...

G'azzoliy bu kun ertalabdan Nizomiyada talabalarga saboq bermoq ila mashg'ul bo'ldi. Isfahon talabalari ham o'z zamonasining farzandlari edilar. Zero ular Umar Xayyomdek olim va shoir hamda vaziri azam Nizom ul Mulk kabi donishmand zotlar tasirida ilm izlardilar. Ular bahsu munozaralarda juratli va savol qilishda iymanib o'ltirmasdilar. Chunki hur fikru amolli zakiy shoir Xayyomning ruhiy tasiri butun boshkent bo'ylab taralgan edi. Shuning uchun ular ilohiyot ilmining yetuk olimi, shayxulislomdek zotning etiboriga tushgan shariat mardining sabog'iga ham qiziqish, ham ishtiboh va hatto bazilari undan bir xatar kutayotgandek munosabatda bo'lardilar.

Xona suv quygandek jim-jit. Abu Homid G'azzoliy tolibi ilmlarga saboq bermoqda. Saboq poyonlab borayotgani bois voiz talabalardan tushgan savolga javob qaytarardi:

-Barcha xatkorlig'lar ibohat, yani yo'l qo'yishlik tufayli bino bo'lg'uvsi. Siz aytgan zotlar johildurlar-ki, bas, mavjudot ahvolini nujum va tabiatga havola qilurlar. Va ayturlarki, odam, hayvonot, balki hamma mavjudot o'zicha paydo bo'lg'ondir. Taqi abadiy bo'lg'uvsi, deydilar. Bu toifaning misoli shunday kishiga o'xsharkim, xushxat kitobni ko'rib ayturkim, bu xat o'zicha bitilgandur. Tabiiyun va munajjimning qismati oxir oqibat shaqovatga (baxtsizlikka) giriftordir.

G'azzoliyning gaplari bazi talabalarga o'zgacharoq tasir etdi shekilli, bir qo'zg'olishib, bir-birlariga manoli qarab qo'yidilar. Buning boisi ayon-ular goho esa-da Xayyomdan saboq olishgan va uning fikrlaridan hamda rasadxonada jumla koinotni o'rganish borasida olib borilayotgan yumushlardan har tugul boxabar edilar. Umuman Isfahon ilm olami, bu yerdagi olimlarning dunyoviy ilmlarga munosabati o'zgacha edi. Ularning fikr mezonlarida hurlik ustuvor edi.

Biroq G'azzoliy bag'oyat tasirli va chiroyli so'zlardi, fikrlari ishonchli asos ila bezangan edi.

-Ikkinchi bir guruh borkim, oxiratni inkor eturlar. Ayturlarkim, odam hayvonot va nabototga o'xshashdur, vaqtiki qazo qilsa, nobud bo'lur, unga savob va azob bo'lmas, deb o'ylaydilar. Bas, bu johillar o'zlarini xar (etmak), gov (sigir) va giyoh qatorida bilgaylar. Ruh haqiqati odamiy ekanligini bilmaslar, uni tanimaslar. Illo ruh abadiydurkim, hargiz o'lmas.

Orqaroqda o'ltirgan qaysidir tolib savol tashladi:

-Hayvonotda ruh bo'lmasmi?

Voiz hali so'zini tugatmagan bo'lsa-da, odobsiz tolibning so'rog'ini malol olmadi va uning bu tezkorligi g'o'rlik hamda qiziquvidan deb bildi. Sokin ovozi mutlaqo o'zgartirmagan holda savolga javob bermoqqa tushdi:

-Ha, hayvonotda ruh bo'lur. Vale ruhi hayvoniy ruhi odamiydan on qadar tafovutlidir. Chunonchi ruhi hayvoniy bu dunyo uchun va uning tirikligi uchundir. U tubandir. Biroq hayvonotda dil bo'lmas. Ruhi odamiyning quvvati dil iladir. Chunonchi ruhi odamiy abadiydur, ruhi hayvoniy esa o'lmak birga g'oyib bo'lur.

Barcha jim qoldi. Savol berguvchi javobdan qanoat hosil qildi chog'i, boshini egib, avvaldagilar ortiga berkindi.

Taqi kimdir savol qildi:

-Munajjim, yaniki jumla tabiiyunlarning g'alatligi xatkorligi ne ila oshkor bo'lur?

G'azzoliy go'zal qiroat ila surai "Arofdan bir oyat o'qidi (oyatning mano tarjimai quyidagicha):

-"Oftob va oy va sitoralar Haq subhonahu va taoloning amriga tobe va musaxxardurlar. Musaxxar deb ani ayturnizki, u birovning farmoni ila ish qailg'ay. Bas, nujum o'zicha bir ish qilolmas, balki farishtalar farmonicha ish qilur. Chunonchi payning amali atrof badanni harakat qildurmoqdadir. Yaniki kavokib (yulduzlar) oxirgi martabadagi chokarlardan(xizmatkorlardan)dur. Illo kotib ilkidagi qalam kapidur.

Ularning bir guruhi so'qirlarga mengizdur. Eshitibdurlarki, ularning shahrig'a fil kelibdur. Ular jam bo'lishib, filni qo'llari ila silab, tanimoqni, anglamoqni xohish qilur. Bazisi filning qulog'ini va bazisi oyog'ini va bazisi dandonini (tishini) paypaslaydurlar-da, fildan xabar bermoq bo'ladilar. Biri filning oyog'ini silar va ayturki, ustun yanglig' nimarsa ekan. Dandonini ushlagani esa fil pichoqqa o'xshash nimarsa ekan, deydi. Ulki qulog'ini silaguvchi filni gilamga o'xshatur. Bu toifalar hammalari rost ayturlar va ham xato qilurlar. Chunki ular filning hamma azosini bilishlikni gumon qilurlar, biroq bazi azosidan xabardor, o'zgasidan bexabardurlar. Shu kabi munajjim va tabiiyunlar ham Hazrati Haq subhonahu va taoloning chokarlaridan bazisini tanib, uning g'olib va ulug'vorligidan taajjub qilib, "podshoh ushbudir, deb ayturlar. Ular bu mo'jizakor hilqatlar taqi kimningdir iznu farmonida ekanligini anglamaslar. Mana, ularning g'alatligi va ojizligi. -G'azzoliy berilib so'zlardi va shul bois toliqqanligini tan olmoqni istamasdi. Asli bu kungi dars o'zgacha bo'ldi-uning huzurida talabalarining ko'zlari yona boshladi. Bu yaxshilikdan darak. U yana uzoq gapirdi va savollarga astoydil javob qaytardi. Saboqni esa ushbu so'zlar ila yakunladi:

-Xususan, ilmi kalom va farosat ilmini ehtiyojidan tashqari talab qilib, fikh ilmi ila hojatdan ortiqcha mashg'ul bo'lgan kishilarga nasihat qilmoqlik og'ir kechadi. -Voiz bu ila ilmi toliblarni taqi bir bora shariat va ilohiyot ilmlari sari davat etardi...

Namozi asrni o'z hujrasida ado etgan G'azzoliy ko'ngil ishtiyog'i ila rasadxona tomon yo'l oldi. Shahar darvozasidan chiqib, shahar devorlari ostidan kovlangan chuqur handaq ustidagi ko'prikdan o'tib borarkan, ne-ne jangu jadallarni ko'rgan ko'hna Isfahon haqidagi o'y shuuriga urildi. Vo darig'! Bashar qismati vahshatu quvonchlariga, zulmatu ziyoga bunchalar qorishiq bo'lmasa! Ehtimol mana bu handaq bag'rida qon daryo kabi oqqandir. Ro'baro'da esa, dunyoviy ilmlar qo'rg'oni, koinotga narvon qo'ymoq istagan rasadxona qad tutib turibdi. U rasadxonaning qir ortiga yashiringan pahlavonning dubulg'asi yanglig' ko'rinayotgan gumbazlariga, Bo'yra qishlog'ini qurshagan viqorli og'ochlarga va ularning ortida osmonga yelka tutgan ulkan qoyalarga boqib, o'zicha hikmatlar yaratdi. Ha, yuksakligu tubanlik, ezguligu yovuzlik, razolatu adolat hamisha yonma-yon. Bunga mana shu handaq, inson qoni ila sug'orilgan anovi giyohlar, ulug'vor gumbazlaru haybatli qoyalar guvoh...

G'azzoliy rasadxona darvozasidan kirib borganida Mikoil sahnning o'rtasida Polvonning yungini taramoq ila band edi. U bu

bahaybat mahluqning harakatlaridan, suratidagi mardonalikdan zavqlanib jilmaydi. Kirib kelgan mehmonni allaqachon tanib ulgurgan Mikoil qaddini rostlab, unga salom berdi. Mehmon esa mudom tabassum ila salomga alik olarkan, Polvonning qiliqlarini kuzatib, xiyol turib qoldi. Bu uning rasadxonaga ilk bora qadam qo'yishi edi.

-Ahli ilm yuqoridalar, taqsir. -dedi uning qay tarafga yurmoqni bilmayotganini sezgan Mikoil.

G'azzoliy Mikoil ko'rsatgan tomondan yuqoriga ko'tarildi. Usturlob o'rnatilgan bizga tanish xosxonada Vositiy, Isfazariy va taqi boshqa bir necha yosh olimlar jam bo'lgandilar. Ular xontaxta ustidagi qog'ozlarga boqib, nelarnidir hal etmoq ila ovora edilar. Rindoniyy ham ularning tevaragida uymalashib yurardi.

G'azzoliyning salomiga alik oldilar-da, o'ltirmoq uchun taklif etdilar.

-Hazratim nechuk baqodin fanoga qaytish qilibdilar? -dedi Isfazariyning shumligi tutib.

Mehmon bul nujumparast olimning so'zidagi manoni anglab, kuldi:

-Yulduzlar ularga g'alat mano berayotganliklaringizdan arz etdilar, shul bois...

Uning gapi yengil kulguga sabab bo'ldi.

-Tashrifingizdan boshimiz osmonga yetdi, janob.-dedi Vositiy ilkini ko'ksiga qo'yib.

-Qulluq. -tazim qildi G'azzoliy ham va - Umar Xayyom janoblari ko'rinmaydilar?-deya so'radi.

-Namozni asrni jamoat ila o'qidilaru hujralariga qaytdilar. -deb javob qildi Rindoniyy.

G'azzoliy xontaxta ustidagi chizmalarga qaradi. Unda zaminning surati, yanikim quruqlik va suvlik xaritasi yo'g'on-yo'g'on had ila aks ettirilgandi.

-Bu zaminimiz suvratimi?-so'radi G'azzoliy chizmalarga chuqurroq tikilib.

-Ha. -dedi Vositiy qisqa qilib.

-Qayoqdan bildingiz, hazratim? Axir eski kitoblarda yer nahang va ho'kiz ustida turadi, deyilardi-ku. -deya bidilladi Isfazariy.

Vositiy unga qarab qovoq uyib qo'ydi.

Ammo G'azzoliy uning bu beodobligiga pinak buzmay, kuldi-yu taqi o'z so'rog'iga qaytdi:

-Nedin bilursiz buni? Yoki bu ham yulduzlar bashoratimi? -U o'zining gapi ham kinoyaga o'xshab ketganligiga ichida afsuslandi.

-Yo'q, -dedi Vositiy xotirjamlik ila javob berarkan. -Bularning bari ilmi handasa va aljabr asosida hisob-kitob qilingan. Illo ularni to'lasicha aynan ham deb bo'lmas.

G'azzoliy javobdan qoniqish hosil qildi shekilli, qaytib savol bermadi. Biroq qalbidagi va umuman vujudidagi halovatga, sokinlikka nimarsadir halal berayotganligini seza boshlagandi. Shul bois bu holatni qalb ko'zi ila taftish qilmoqqa tushdi. Filhaqiqat, bu ilm koshonasi bo'lmish rasadxonada ko'z ilg'amas, quloq eshitmas bir g'alayon, balki isyon mavjud edi. Uni faqatgina uyg'oq qalb ila ko'rmoq, his qilmoq mumkindir. Ehtimol Xayyomning tasirimidi, har tugul bu yerda, undagi odamlarda, hattoki odamlarning sukutida ham jazava, g'alayon bordek edi. G'azzoliy buni sezib turardi, biroq ularning o'zlari payqamasdilar.

-Koinotni, nujumni shu ila kuzaturmisizlar?-dedi u bolalarcha qiziquvchanlik ila usturlobni ko'rsatib.

-Shunday. Shu va shu kabi taqi bir asbob-suds ila kuzaturmiz. -Javob qildi yana Vositiy.

-Yumushingiz bag'oyat qiziqarli ekan.

-Bizning yumushlarning qizig'ini ustoz Xayyomdan ko'rursiz hali. -dedi Isfazariy kulgu yasamoqqa urinib.

G'azzoliy o'zi tengi bu yigitning ko'p so'zlaguvchi ekanligidan ozor topganday bo'ldi-yu, lekin yonidagilarga sezdimadi.

-Ha, ustozingiz haqida ko'p eshitganmen.-dedi u yorug' biri niyat ila o'ychan qiyofada.

-Hazratim may va xojamizning unga oshnoligi haqida o'yladilar chog'i? -deya gap qo'shdi sarxush Rind.

G'azzoliy bugun ancha toliqqan bo'lsa-da, ruhan tetik edi.

-Aslo. Bu nimarsa xayolimga ham kelmagandi.-dedi u Rindoniyyning so'rog'idan hayron bo'lib.

-Hozir xayol qilmagan bo'lsangiz, bir kun albatta xayol qilursiz. Shuning uchun aytib qo'ymoqchimanki, xojamiz go'dak misolidir. Go'dakni bilursiz, agar qorni ochsa yoki onasini ko'rgisi kelsa, o'zini ham faromush aylab, yig'laydur. Shu qadar berilib yig'laydiki, onasi tugul boshqa odamning ham diydasi yumshaydur. Xayyom hazratlari ham sarxush bo'lganida ana shundayin bo'zlaydi. O'zini unutilib, Ollohga singib ketgisi keladi. Buning nimasi ayb?! Rostlik chog'ida bunday bo'lmaydi.

Yo tavba, deya o'ylardi G'azzoliy, bular barchasi bir bo'lib, kimdan kimni himoya qiladurlar? Mendan Xayyomni, Islomdan dunyoviy ilmlarinimi? Axir bu borada bir so'z aytmadim-ku! Bu nedin? Biz haqimizda to'qilgan malomatlardan, ilmdagi, dindagi bidatlardan (yangiliklardan), ilm va dindagi xurofotlardan emasmi! Bunchalik hadiksirash va badgumonlik ko'ngil qarolig'idan ham darakdur balki? Yo Olloh, har neki ilmni izlagan kishida yomonlik bo'lmasligini nahotki bular bilmasalar?..

-Assalomu alaykum! Ahlan va sahlani, yo mehmoni aziz. -Eshik tomondan Xayyom jilmayib kirib kelardi.

Salomdagi samimiyat va tabassumdan G'azzoliyning ko'ngliga yorug'lik indi.

Yuzlarga fotiha tortdilar.

-Xayriyatki janoblari biz g'ariblarni ham yo'qlamoqqa jazm etibdilar. -Xayyom mehmonga toza bir nigoh ila yuzlanib, so'zlardi. - Qutlug' qadamlariga bag'oyat mushtoq edik.

-Qulluq, taqsir.-dedi G'azzoliy ham ko'ngli ancha ko'tarilib.

Mehmon taqi biroz oldidagi qog'ozlarga tikilib o'ltirdi-da, mulohazakor ovozdagi so'zlay boshladi:

-Bazi o'zlarini Islomning do'stlari deb bilguvchi kishilar har neki ilmni, ayniqsa, dunyoviy ilmlarni inkor etmoq ila dinu shariatga quvvat bermoq mumkin, deb o'ylaydilar. Bu fahmsizlikdan o'zga nimarsa emasdur. Illo riyoziyot, handasa kabi ilmlarni rad etmoq ila dinga ko'mak berurmen, deb o'ylaguvchi kishilar behad jinoyatkordurlar.

Davradagilarning barchalari sergak tortib, bir-bir ko'z urishtirib oldilar. Turgan gapki, bu so'zlar, ayniqsa, Xayyomga yoqib tushdi va uning nazdida, kesakdan olov chiqqandek tuyuldi.

-Janoblari rost aytadurlar. Biroq unda bazi din peshvolarining din ila dunyoviy ilmlarni qarama-qarshi qo'ymoqliklaridan mano ne? -deya so'radi u o'z feliga zid ravishda yumshoqlik ila.

G'azzoliyning ovozigaga salobat kirdi:

-Bu dindor niqobidagi dinsizlar ishidur. Lekin bazi zaif iymonli va adashgan olimlar, yani tabiiyunchilar ham borki, o'z aqllariga bino qo'yishib, yaratuvchilik davo qiladilar. Aslida ilm Ollohga emas, insonlar uchun lozimdur. -Uning ko'zlari tobora chaq nab, yonib borardi. -Qarang, olam, koinot qanchalar mukammal yaratilgan. Dunyoviy ilmlarning sohiblari ana shu mukammallikni o'rganib, uning hajmi, vazni, tezligi va boshqa o'lchovlarining allaqachonlar (azaldan) aniq bo'lmish mukammal hisob-kitobini o'zlari, yaniki ahli bashar uchun isbotlaydilar xolos. Olloh Subhonahu va taologa esa bu eski kashfiyotning taqi bir bora etirof etilmog'ining minbad zaruriyati yo'qdur.

Xayyom ro'baro'sida o'tirgan yosh olimning benazir aql-zakovatiga ichida tan bermoqda edi. Biroq insoniy xudbinlik uning tilga chiqarilishiga monelik qilardi. Buning ustiga shoir undan hozirgiday xolis va asosli fikrlarning chiqmog'ini kutmagan edi.

-Unda qay yo'lni tutmoq lozim? -deya so'radi u "siz ne deysiz qabilida.

Mudom barcha jim edi va hammalari bu ikki ulug' olimning suhbatini ne ila yakun topmog'ini kutardilar.

-Olimlikda xatar bor. -deya so'z boshladi G'azzoliy endi ovozi xiyol pasaytirib. -Izidan odamlar ergashadigan olimning gunohkor bo'lmog'i oson. Jumladan, uning ipakdan libos kiyishi, oltin egarli ulovga minishi, sultonlarning shubhali molidan olishi, ularning huzuriga kirib turishi, ular haqida gapirganida taraddudlanishi, inkor etish lozim bo'lgan o'rinlarda ham ularni maqullashi, dilozorlik qilishi, behuda bahsga chorlab, kimnidir tahqirlashni qasd etishi, faqat dunyoviy manfaat talabida ilm ila mashg'ul bo'lishi gunohi sag'irani gunohi kabiraga aylantiruvchidir. Negaki ushbu gunohlarni qilayotgan olimga odamlar ergashadi...

Bu gaplar shoirni zeriktira boshladi. Shul bois mehmon gapini tugatar-tugatmas, so'zga tushdi:

-Bu gaplaringiz xo'p maquldir, janob. Biroq so'zlarimni og'ir olmasligingizni o'tinamen, shundayin gaplarni ko'p so'zlaguvchi shariat peshvolarining o'zlari ayni o'sha gunohlarni ko'p qiluvchilar emasmi? -Xayyom bir pas to'xtalib oldi. -Payg'ambar alayhissalom sayyidimizning hayotlari va sunnatlari haqida ko'p kitoblar yozilmish. Ayniqsa, hazrati Buxoriyning "Sahihi" ("Ishonarli hadislar to'plami) barchalarimizga ibrat oinasidir. Yoxud movarounnahrlilik islomiy olim Termiziyning "Shamoyili Muhammadiya kitobini oling. Ularda Mustafo alayhissalom naqadar sodda, oddiy, tufrog' qadar (xokisor) tasvirlanadur. Ul zoti tabarrukning sifatlarini tasavvur etib, hatto ustimizdagi mana bu kiyimlar ham ortiqcha tuyulib, og'irlik qilib qoladi. Bizning ustunlarimiz-shariat peshvolarichi?! Buning butkul aksi emasmi? Ular shohona kiyinadurlar, noz-nematga ko'miladurlar, inom ilinjida yolg'on fatvo beradurlar. Axir ular emasmi, dini Islomni, payg'ambar alayhissalomni xalqdan uzoqlashtirgan?! Endi ular o'z nafslari yetovida sayyidul anbiyoning pokiza shariatiga yangi-yangi hadlar torta boshladilar. Shundog' ekan, yuz yoxud ming yildan so'ng shariatning ahvoli ne bo'lur? Dinni, shariatni bilganlar yuhoga, mansabdorga aylanmasmu?!..

G'azzoliy shoirning qalbidagi ulug' isyonni, olovni his etib turardi. Aslida uning o'zida ham o'sha o't mavjud ediki, biroq bu olovga bir o'zan topolmay halak edi. U Xayyomdagi isyonning va hatto g'azabning asli ezgulik ekanligini yaxshi bilardi. Shul bois uning haq so'zlariga soxta etiroz bildirmoqdan tiyilib, mavzuni boshqa yoqqa burdi...

O'ninchi bob

1

Xayyomning vujudida kechayotgan g'alayonlar tobora avj olardi. Rohib Arturning o'limidan qattiq mutaassir bo'lishi va keyingi kunlarda ko'nglida Maryamga nisbatan o'zga ixtiyorning vujudga kelishi, umuman jonu jahonida kechayotgan to'lg'onishlar uni bag'oyat behalovat etib qo'ygandi. Qalbi bir yangilikni, huzurbaxsh halovatni istardi. Xuddi shu kechmishlari asnosida G'azzoliyning suhbatiga oshno bo'ldi va uning huzurida vujudida kechayotgan g'alayonlar tinayotganini, hech qursa, sust olayotganligini sezdi. Chindan-da bu yigitga so'lim bir halovat oshno edi. Uning o'z suhbatdoshini ehtiyotlab so'zlashi, o'zgalarni tinglay bilishi va fikrlarini aniq, ravon ifodalashi shoirga tasir qildi. O'zining xiyol dag'al feliga aksil o'laroq yangi oshnosining ho'yi unga yoqib tushdi va u hatto ayni damda erishayotgani halovatdan mosuvo bo'lmoqlikni ham istamasdi.

O'shanda G'azzoliy rasadxona xosxonasining darichasi osha oqish samoga boqarkan, Xayyomga dedi:

-Mana shu qismlari bir xil ko'rinishda bo'lgan samo bag'ridan uning qutbiy qismini aniqlab beringchi, ey, falakiyot ilmining sulтони.

Xayyom bu bahsli mavzudan ehtiyotlanib, uzoq va batafsil gapira boshladi hamda bunda harakat qandaydir tabaqalanmog'ini tushuntirmoqqa urindi. Batafsillik shoirning feliga xos edi va shul bois ham uzoq so'zladi. Oqibat fursat yetib, namozi asrga chorlovchi azon eshitildi. G'azzoliy Xayyomning gapini adabli ishorat ila to'xtatdi-da, arabiy lisonida dedi:

-"Haqiqat keldi, botil ketdi... ("Al-Isro surasi, 81-oyat).

Bu kech ular shom namozini ham rasadxonada birga ado etdilar. G'azzoliy ro'zador bo'lganligi bois kechki tanavvuldan bosh tortdi-yu vale ozgina suv va bir burda non ila iftorlik qilib oldi. So'ngra uning ixtiyori ila usturlabda yulduzlarni tomosha qildilar, sayyoralar, burjlar haqida so'zlashdilar. G'azzoliy osmon ilmidan tuzukkina boxabar ediki, bu Xayyom uchun ayni muddao bo'ldi.

-Qarang, kunduz charog'i xurshidi olam (Quyosh) eng kichik yulduz hisoblanadi. Agarki eng mitti yulduzning harorati shunchalar bo'lsa, koinotni to'ldirgan son-sanoqsiz ulkan yulduzlarning bag'ridagi otashi qanchalar ekan? Bir kun kelib bashar farzandi samolarni kezmoqqa qodir bo'larmikin?-Xayyom osmonga intiq tikildi.

-Bu ham bo'lsa, Olloh taboraka taoloning qudrati beqiyos ekanligidan dalolat. Mana shuncha ulkan olovli sayyoralar bir joyga jamlab, bizning nigohimizga oshkor etib qo'rganligining o'zi buyuk mo'jiza. Subhonolloh! Buncha ko'p yulduzlarni bag'riga singdirgan koinot qanchalar cheksiz. Axir ular bir-birlariga zarracha halal bermaydilar. Birgina Quyoshning harorati yoz oylari bizlarni ne ahvolga soladi. Mabodo o'shal yulduzlarning birontasi zaminimizga yovuq kelib qolsa bormi!.. Xudoning o'zi asrasin. Ha, majusiylar bejiz quyoshga, olovga sajda qilmaydilar, zero ular bu mo'jizalardan lol bo'lib, aqlarini yo'qotmishlar va buning ortidan o'shal olovning yaratuvchisini, sohibini unutmishlar.

Xayyom uchun yoqimli suhbatga taqi cho'g' tashlandi.

-Men sizning fikrlaringizni inkor etmoqqa ojizmen. Biroq o'shal adashganlar ko'p ulug' mo'jizalarni kashf etmishlar. Janoblariga malumki, alkimyo va uning natijasida kashf etilgan kibratul ahmar (hikmat toshi) ham majusiylar tafakkuri mahsulidir.-dedi u endi ancha bosiqlik ila.

-Ha, alkimyodin boxabarmen. Ular moddalar aralashuvidan oltin bino eturlar. Kibratul axmar esa har ne moddaga chog'ishtirilsa uni oltinga aylantirur. Haqqi rost, bu bag'oyat go'zal mo'jizadur. Biroq u aqlning sehru joduga uyqash bir mahsulidir. Islomda esa dil kimyosi mavjud. Uning sohiblari koinotni keza oladilar, farishtaga mengzab, harki nimarsaning mohiyatini, lisonini anglay boshlaydilar.

-Bu ikki kimyo qovushsa-chi?-deya so'radi Xayyom keskin bir tarzda.

G'azzoliy so'zsiz qoldi. Hamsuhbatining so'rog'iga fikran javob izladi.

Xayyom uni bu ko'yga tushirib, go'yo mot qilganidan xursand bo'lmasdi, u o'zini to'lg'oqqa solib kelayotgan jumboqqa tafakkuri keng suhbatdoshidan javob olmoqqa umid qilgandi. Lekin G'azzoliyning o'yga tolganini ko'rib, savoli taqi javobsiz qolmog'ini angladi. Albatta, buning kabi ul ham bir banda. Banda esa o'z nomi ila banda, yani bandi. Uning shuuri hadli, ixtiyori tushovlig'. Shunday bo'lgach, undan ortiqcha nimarsani talab etmoq ayni chog'da xatkorlig'qa yuz tutmoq ila barobardur.

Filhaqiqat, G'azzoliy o'y ila band edi: chindan-da ikki kimyoni bir etsa ne hol ro'y bergay? Dil kimyosini anglamoq uchun iymonli bo'lmoq shart. Demakki, alkimyodan voqif bo'lmish majusiylar dil kimyosidan boxabar bo'lmog'i mumkin emas. Unda sohibi iymon

alkimyoni o'rganmog'i mumkin ekan-da. Albatta, bunga qodir, biroq u bu kabi yumushlarga ixtiyor etmas. Bundan xulosaki, ikki kimyo birlashsa, chuqur ketiladi. Chuqur ketmoq esa... Yo Olloh!.. Aslida sohibi dillar ikki kimyoni ham Tangri ishq'i ila ko'ngulda kashf etmoqqa imkonlig'durlar-a!.. G'azzoliy o'y surarkan, yonidan shoirning past, vale qiroatli ovozi eshitildi:

-Meni ayladilar, dunyoda mavjud,
Hayotda topganim hayrat, taraddud.
Bu yo'lni o'tdimu tushunolmadim,
Kelmagu ketmaktin ne ekan maqsud?!

G'azzoliy o'ychan ko'zlarini Xayyomga tikdi va biroz jim turdi. So'ng

-Sinovdur maqsud. -dedi sekingina.

U yosh edi, ammo iymon halovatini tuyib ulgurgandi va shuning uchun ham har bir harakati, so'zi mayin, sokin edi.

-Isfahon qadim va obod shahar. -dedi G'azzoliy ozgina fursat o'tgach, taqi tilga kirib.-Biron kuni shaharni tomosha qilsam deb edim. Mabodo imkon topib, menga hamrohlig' qilsangiz bag'oyat xursand bo'lurdim. Har holda siz bu ko'hna shaharni yaxshi bilursiz.

-Bosh ustiga. -dedi Xayyom samimiy boqib. -Ixtiyor etgan kuningiz men hozir bo'lurmen.

-Tashakkur. Shu bir-ikki kun ichida sizga kishi yuborib, xabar berurmen...

2

Xayyomning hayotida taqi bir evrilish ro'y bermoqda edi. Uning so'nayotgan tuyg'ulari tag'in uyg'ona va umriga qachonlardagi kabi yana mano kira boshladi. U o'tgan shu bir necha kunlar ichida G'azzoliy haqida yanglish fikrda bo'lganligini fahmladi. Barcha fikrlariga, din, ilm borasidagi so'zu bitiklarining barchasiga ham qo'shilmasa-da, uni zakiy suhbatdosh, turfa bilimlarning donishmand sohibi va ayniqsa, xulqu odobi raso zot sifatida o'z qalbiga jo etdi. Bir-ikki bor suhbat qurgach, ixtiyorsiz tarzda taqi uning suhbatini sog'inadigan bo'ldi. Devonai sarkash ko'ngli bir oshno topdi go'yo. Bilmas kishilarga ularning bahslari oq va qora ranglarga qiyos bo'lgulik tarzda tuyulishi mumkin edi. Biroq ular suhbatlari avj olgani sarin bir-birlarini tobora kashf etib, borardilar. Xayyom ro'baro'sidagi go'zal suratu siyratli yigitga boqarkan, avom va hattoki ahli shariatu uning peshvolari bilgan G'azzoliy-bu hali asil G'azzoliy emasligini his etardi. Uning suratida niqob, siyratida mo'l asror mujassam edi. Aslini olganda, Xayyomning o'zi ham shunday emasmi: axir tunlari to'lg'ongan, tushuniksiz o'tlarda jizg'anak bo'lib, o'rtangan, bir sher ko'yida olamga sig'magan, goho ilohiy hilqatlar qurshovida qolgan Xayyomni kim ham bilibdi?!.. Bilmas, bilolmas. Ehtimolki Tangri taolo G'azzoliy timsolida shoirning yuziga oina tutmoqdadir? Balki buning aksidir. Sirlar, sirlar, sirlar!.. Bu dunyoning asli pardalig' emasmi, yaniki banda to'rt yon parda arosinda. Bu pardaning ko'tarilmog'i uchun on qadar jiddu jahd lozim. U G'azzoliyda ana o'sha jahdni tuymoqda edi...

Shahar tomoshasini Nizomiyaga tutash shahristondan boshladilar. Minorasi uzoq-uzoqlardan ko'rinib turguvchi jome masjidi, dong'i olamga ketgan kutubxona, sulton saroyi va malika-yu shahzodalarning qasrlarini jam etgan bosh maydon ortda qoldi. Abu Homid bularni ko'rib ulgurgan edi. Mana ular shohmaydondan boshlanguvchi ko'chaga chiqdilar. Tosh yotqizilgan yo'ning ikki chetidagi qatorasiga ketgan turfa do'konlarning oldidagi og'ochlar-sapidor va sarvlar yam-yashil tusga kirgan. Ularning ostidagi chetiga tosh terilgan ariqchaning suvi lim-lim oqib, nozik farosat ila tekis ekilgan har turli gullarga hayot baxsh etayotganday. Isfahonni bejiz "shahri sabz ("yashil shahar) deb atamasdilar, zero unda daraxtu mevalar, gulu suv bag'oyat mo'l edi. Shaharning bu sifati ayni kunlarda tag'in-da yaqqol namoyon bo'lmoqda edi.

G'azzoliy shaharning go'zal suvratiga mahliyo bo'lib borardi.

-Shahar bag'oyat ozoda ekan. -dedi u Xayyomga bir qarab olgach, atrofga intiq tikilib. Farroshlarning sidqidil mehnatlari ko'rinib turibdur.

-To'g'ri anglabsiz. -Uning gapini tasdiq etdi shoir,-Sultonimiz va ayniqsa, vaziri azam hazratlari boshkentning ozodaligiga alohida etibor qiladilar. Shul bois ham farroshlarga yaxshi haq to'laydilar.

-Ofarin! Sulton hazratlarining ham, vaziri azamning ham umrlari uzoq bo'lg'ay!

Ular ohista qadamlar ila yonma-yon borardilar. G'azzoliy har bir nimarsani nazaridan qochirmaslikka harakat qilar, mavridi kelsa yoxud ehtiyoj tug'ilsa Xayyomni so'roqqa tutardi. Yo'ldan o'tayotganlar, chetda turganlarning aksariyati ularni, to'g'rirog'i, shoirni tanib, astoydil salom berishar, ikkisi esa suhbat ila andarmon bo'lganliklari bois, ko'proq bosh silkiib alik olardilar-da, o'tib ketardilar.

-Buxorolik Abu Ali ham bu ko'chalarda kezgan chiqar?-deya savol qilgan bo'ldi G'azzoliy.

-Ha. G'aznalik Mahmudning zulmidan qochib, bir muddat Isfahonda ham jon saqlagan.-dedi Xayyom uning savoldan muddaosini anglashga urinib.

G'azzoliy o'ychan qiyofada dedi:

-Ul zot tabiat ilmlari bobida benazir olim va ulug' hakim edi.

-Quronu sunnat ilmlarini ham mukammal egallagandilar.

-Sizga ustoz qavmida chog'i?

-Shundog', janob. Ul zoti muborak ilk toshini qo'ygan rasadxonada ilm etayotganimdan iftixor qilurmen. Riyoziyot, handasa, falakiyot va tabobat ilmlari borasinda, aytganingizday, shogird maqomidadurmen. -dedi Xayyom ovozini xiyol ko'tarib.

-Unda Abu Alining ruhning ko'chib yurishi va bandaning taqdiri dahlsiz ekanligi haqidagi fikrlariga ham qo'shilsiz?

-Yani?

-Uning fikricha, kishi ruhi hech qachon yo'q bo'lmaydi, u qazo qilgach, yoki inson, yo hayvon va yoxud og'ochmi, giyohmi taniga jo bo'ladi. Bu to'ro'zi mahshargacha davom etaveradi.

Endi bandaning taqdiri xususiga kelsak, hakimi hoziqning bayonicha, ibtido bor, intiho bor va u Haq taolodan, biroq o'rtada, yanikim bu foniy dunyoda inson taqdiri mutlaqo dahlsizdir. U ne qilsa, o'zi qiladiki, illo oxiratda shunga munosib ajr oladi.

Ular suhbatga benihoya berilib ketganliklari bois endi salom berguvchilarga bosh silkimoqni ham unutmogda edilar.

-So'zlarinigizdan anladimki, ustozning risolalarini astoydil o'rganibsiz, Lekin ul zotning ruhning ko'chib yurishi haqidagi fikrlari

xususida so'zlashga oqizmen. Chunki bitiklarida hali bu yanglig' fikrni uchratmadim.

Bandaning taqdiri dahlsizligi borasidagi fikrlariga esa men ham qo'shilamen. Sizdayin donishmand shariatpesha qoshida bul so'zlarim g'alat tuyular. Lekin suhbatimiz do'stona bir tarzda erkanligi vajhidin uzr ila o'z qarashlarimni bayon etay. -Xayyom biroz jim turgach, o'ylarini jamlab oldi shekilli, taqi so'zida davom etdi. -"Sahihda shundayin hadis bor: -U hadisni chiroyli qiroat ila arabiyda aytmoqqa tushdi. -"Abdulloh (ibn Masud)rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bunday dedilar: "Har qaysingizning vujudingiz onangiz qornida qirq kunda tarkib topgay, so'ng yana shuncha kunda laxta qonga va yana shuncha kunda bir parcha etga aylangay. Keyin Olloh taolo (onangiz qorniga) bir farishtani yuborib, unga to'rt so'zni, yani qanday ishlar qilmog'ingizni, rizqingizni, umringizni va baxtsiz yokim baxtli ekanligingizni yozib qo'ymoqni amr qilgay. So'ng jismingizga ruh pudalgay. Sizlardan qaysiningizdir o'zi birlan jannat o'rtasida bir tirsak masofa qoluncha amali solihlar qilib yurgayda, pirovardida (onasi qornida bitilgan) taqdiri unga peshvoz chiqib, jahannam ahliga mansub bir ishni qilib qo'ygay va sizlardan qaysiningizdir o'zi birlan jahannam o'rtasida bir tirsak masofa qolguncha do'zaxiyilarga xos ishlarni qilib yurgay-da, pirovardida (onasi qornida bitilgan) taqdiri unga peshvoz chiqib, jannat ahliga mansub ish qilgay. ("Hadis, Toshkent Qomuslar Bosh tahririyati, 2-jild, 367-bet.) -Xayyom tomoq qirib, to'xtalib oldi. -Ollohning taqdiri, yozig'i haq. Bu shubhadin holi. Illo inson Olloh taboraka taoloning qudratu muhabbati mahsulidir. Vale hadisning ikkinchi qismi kishida ishtiboh uyg'otadi. Yaniki bandaning jannatliy va yoxud do'zaxiyiligi avvaldan belgilab qo'yilgan ekan, unda imtihon qilmoqdin ne mano? Buning ustiga Haqning adolati qayda qoladi? Mening fikri oqizimcha ham insonning bu foniy dunyodagi taqdiri dahlsizdir.

-Xayyom al Buxoriyning "Sahihidan mazkur hadisni eslarkan, shuurida bundan ancha yillar muqaddam ilk bor Samarqandga kelib imom Buxoriyning mozorini ziyorat qilganidagi xotiralar aylandi. O'shanda hazrat muhaddisning qabri ustida o'zi uchun tushuniksiz, biroq huzurli ilohiy jazba holiga tushgandi. O'n ikki kun o'shal mozoristonda toat-ibodat ila mashg'ul bo'lib, savobini imom hazratlarining ruhiga baxshida etgandi. Mozor boshida qalbida tug'ilgan ushbu satrlarni takror va takror o'qigandi:

Bandalikdan og'dim, payqadim, Tangrim,
Yuzdan gunohlarni artmadim, Tangrim.
Lek shafqat kuturmen, chunki umrimda
Tanhoni juft deya aytmadim, Tangrim[2].

G'azzoliy shoirning kuyunchaklik ila aytgan so'zlaridan mutaassir bo'lib, xiylagina sukutda qoldi. Ammo tan berishga yoxud indamay qo'ya qolishga xudbinlik hissi yo'l bermadimi, bosiq ovozda taqi gapira ketdi:

-Bilasizki, mudarris qay bir tolibi ilm, yani o'z shogirdining nelarga qobilligini va yoki oqiz jihatlarini juda yaxshi biladi. Lekin mavridi kelganda talabasini albatta imtihon qilmoqlikni ham unutmaydi. Bu uning burchidir. Olloh taboraka taoloning bandaga munosabatini avom tilida mana shu hodisotga qiyos qilgulik.

Xayyom miyig'ida zaharxanda yanglig' kuldi-da, o'z odaticha keskin tarzda dedi:

-Bu endi so'zamollik xolos, janob! Aslida bul so'rog'imga javob yo'q.

G'azzoliy "Bismillahir rohmanir rohiym deb, shirali ovoz ila bir oyat o'qidi:

- "Axir (qilgan) yomon amali o'ziga chiroyli ko'rinib, uni go'zal (amal) deb o'ylagan kimsa (Olloh haq yo'lga hidoyat qilgan zot kabi bo'lurmi)?! Zotan Olloh o'zi xohlagan kimsalarni yo'ldan ozdirur va o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur... ("Fotir surasi, 8-oyat) -U boshqa biron so'z aytmadi.

Uning jahdi Xayyomga ham tasir etmay qolmadi-u sukutga toldi.

Bu mahal shaharning obod va sarishta bosh ko'chasi nihoyalab, ikkiga ayrildi. So'l yoqdagi muyulishga tikilgancha to'xtab qolgan Xayyomni ko'rib G'azzoliy ham qadamini ohistaladi. Muyulishning so'l tarafida baland oq bino bo'lib, u katta bir tujjorning uyi ekanligini Xayyom yaxshi bilardi. Yo'lning narigi betidagi chog'roq, biroq naqshinkor darvozasi ustiga ixcham ayvoncha qurilgan hovli esa uning uchun anchagina qadrton edi. Qachonki bu tomonlarga yo'li tushsa yoxud goho ataylab mana shu darvozani qoralab kelganida unga uzoq-uzoq tikilib qolardi. Chunki bu muyulish, anovi darvoza va uning devorlari Nishopurdagi ota uyiga juda-juda o'xshardi. Shuning uchun uni ko'rib, olis bolaligi, Nishopur ko'chalari va ayniqsa, rahmatli padari, uni mudom kutayotgan volidasi-yu singlisi haqidagi xotiralarning bag'riga g'arq bo'lardi. Sog'inch va yaqinlariga nisbatan aybdorlik hissi qalbini ezib, qiynoqqa solardi. Hozir ham ayni shu ko'yga tushdi.

-Manov darvoza, bu muyulish Nishopurdagi uyimizga judayam o'xshaydi. -dedi u ovozi titrab.

G'azzoliy undagi evrilishni, iztirobni, oqi qizg'ish ko'zlarining yiltiraganini sezdi. Uning aksi o'laroq buning ko'zlari oqi bag'oyat oppoq bo'lib, qaroqlaridan oq alanga chiqayotganga o'xshardi. Mahzun turgan shoir uning nigohidan taqi bir bor mutaassir bo'lib, taajjubga tushdi-da, tezlikda o'z dardini unutib, hamrohini o'ng yoqqa boshladi. Keyingi kunlarda uning o'ngu so'li ayqash-uyqash bo'lib bormoqda edi. Avvallari o'zidagi so'l yoki sog' yoqqa og'ishni shuuran yaqqol sezib turardi. Endi esa go'yo unga baribirdek-qay tarafga qayrilsa ham mano izlamaydi va buning xato yoki o'zdan ketish ekanligini ham his etadi. Ammo qariyb parvo qilmaydi. Hozir esa beixtiyor o'ngga burildi.

Bu ko'cha shaharning o'sha bizga tanish eng katta bozoriga eltardi. Ungacha eng katta karvonsaroy ham shu yerga joylashgandi. Karvonsaroyning oldi ancha keng bo'lib, unda otu tuyalar, xachiru arabalar tizilib turar, ularning atrofida g'imirlayotgan odamlarning baqir-chaqir va so'zlashuv ovozlari bu jonivorlarning turfa tovushlariga qo'shilib, quloqni batangga keltirardi. Abu Homid karvon ila shaharga kelgan kuni mana shu karvonsaroyga qo'ngandi va bir necha kun davomida uni tuzukkina ko'rib ulgargandi. Shul boismi va yoki shovqin-suronga toqat qilolmadimi, Xayyomni ham ildamroq yurmoqqa undab, u yerdan tezlikda o'tib ketdilar. Karvonsaroydan so'ng yo'l yoqasida hunarmandlarning qator do'konlari joylashgandi. Haligi ovozlari ancha ortda qolib, quloqlari tingach, yana asta odimlay boshladilar.

G'azzoliy do'konlari oldida o'tirilib, allanimalarni tikayotgan yoxud yamayotgan kosiblarning harakatlariga ajib bir orziqish ila tikilib borardi.

-Mening padari buzrukvorim ham kosiblikdan boxabar edilar. Bul hunarni benihoya qadr etardilar.

Xayyom endigina bir so'z demoqchi bo'luvdi hamki, ro'baro'sida ularga orqa qilib o'ltirgancha, oldidagi ikki kishiga qiziq gaplarni gapirayotgan kosibning ovozi ikkalovlarining ham xayollarini bo'ldi. Darvoqe, bu Talxning do'koni-ku, degan o'y urildi shoirning boshiga va gapirguvchi aynan Shokir Talxning o'zi ekanligini ham payqadi. Talx esa ularni ko'rmas, tizzasidagi eski maxsiga tinmay bigiz urar, ikki suhbatdoshining quloqlariga bo'lsa so'z bigizini sanchardi:

-Bu ahli munajjim deganlari o'zlariga bag'oyat bino qo'ymishlar. Bir rivoyat eshitib edim...

Ikki olim to'xtadilar.. Ixtiyorsiz ravishda Talxning so'zlariga quloq tutarkanlar, uning gaplarini eshitgan G'azzoliy Xayyomga bir qur qarab, jilmayib qo'ydi. Unga javoban shoir ham samimiy tabassum qildi. Kosibning ikki suhbatdoshi Xayyomni tanib, o'rinlaridan qo'zg'almoqchi bo'luvdilar, u "jim deya ishorat etdi.

Ulardan bexabar Talx esa avom tilidan eshitgan rivoyatini so'zlamog'ga boshladi:

-Bir kuni Hazrati Ali karamallohu vajhahu Bog'dod shahrining rastalari oralab ketaturgan ekanlar. Shunda bir munajjimni ko'rdularki, ilmi nujumni ko'p yaxshi bilurmen, deb mubolag'alar qilib, mahtanib o'ltirubdur. Hazrati Ali kelib, aning ilkidan tutib aytdilarki, "Ey, birodar, siz mundog' ilmi nujumg'a mohir ekansiz, osmonning taboyilarini va yer yuzi iqlimlarining hammasini yaxshi bilur ekansiz. Shul kabi narhning arzonu qimmat bo'lmog'ini ham bilur ekansiz va o'zingiz munajjimlarning raisi erkansiz. - Talx so'zini hamrohlari jimgina eshitayotganliklaridan ilhomlanib tobora avjlanar va ovozig'a ham salobat kirib borardi. Shuningdek, u ilkidagi yumushini-da unutmaz, barmoqlari bigizga tin bermasdi. -Bas, meni sizga so'rog' etmog'ga hojatim bordur. Emdi siz bu joyda bir lahza tavaqquf qilib turing va men borib taom keltirayun. Ikkimiz hamtabaq bo'lub, xo'rak qilayluk. Andin so'ngra sizdin maqsadimni so'rarmen va sizning fazlingizni bul odamlarg'a bildirub mashhur qilayin. -deya bir kosa sut ila ikki adad non keltirdilar. Kosani o'rta qo'yub, nonning birini o'zlari olib, ikkinchisini o'shal munajjimga berib, dedilar: "Nonni kosaga to'g'rab soling. Va o'zlari ham nonni to'g'radilar, so'ngra ilki ila kosani kovlab, nonni aralashdirdilar. Andin so'ngra aytdilarki: "-Ey birodar, bu nonni yemoqda ham ilmingizni ishlating. Munajjim so'radi: "-Bul nong'a ilmimni qay tariqa ishlatayin? hazrati Ali aytdilarki: "-Ushbu kosag'a o'zingiz to'g'ragan nonlarni topib oling va men to'g'ragan nonni adashtirib olib yemang. Munajjim esa, "Har ikkimizning to'g'ragan nonlarimiz bir-biriga aralashib ketdi. Emdi ani qandog' topib olurmen? deb erdi, Hazrati Ali aytdilar: "-Ey, yolg'onchi va noinsof, o'zingni oldingda turgan kosaning ichidan o'z ilking ila to'g'rab solg'on noningni topib ololmassanu osmonning ustidagi yulduzlarni qandog' tanursen?! Olloh taoloning hikmatini va ilmi g'aybni qandog' qilursen?! Shunda munajjim "Siz o'zingiz to'g'ragan nonni topib olursizmi?-deya so'rog' etdi. Hazrati Ali aytdilarki: "Men ham bilmasmen va mendan o'zga kishilar ham bilmaslar, magar Olloh taolo bilur. Ul g'ofil banda dediki: "-Unda ko'rsat o'shal karomatingni, toki ilmi nujumni qo'yib, ilmi g'aybga ko'ngul bog'lay! Buning mutaassir bo'lg'on Hazrati Ali qo'llarini duoga ochib, munojot qildilar: "Xudoyo! Men Alining qulim deganing rost bo'lsa, Islomning hurmatidin ushbu osiyg'a qudratingni ko'rsatib, aning to'g'ragan nonini mening to'g'ragan nonimdan ajrat va xaloyiq oldida meni xijolatdan chiqargil! Shunda Olloh taoloning qudrati ila kosadagi sut qaynab, munajjimning to'g'ragan nonini kosadan chiqarib tashladiki, unga sut ham yuqmag'an, qurug' edi. Ul vaqtda nechalab kishilar bu mo'jizani tomosha qilib, taajjubda edilar. Andin so'ngra Hazrati Ali kosani ko'tarub, o'zi to'g'ragan non ila xaloyiqni siylardi. Hammani to'yg'uzdilar, biroq kosadagi non aslo kamaymadi. -Shokir Talx yumushdan qo'l uzib, qaddini rostlab, gerdaydi-da, ro'baro'sidagi kishilarga "qalay, bopladimmi, kaltafahmlar, so'z aytmoq mana mundog' bo'lur, degandek boqdi. Ular esa og'izlarining tanobi qochib, tirjayib turardilar. Chunki ortidagi G'azzoliy va Xayyom rostmanasiga kular edilar, G'azzoliy goho "uqdingizmi deya Xayyomni mutoyibali tergab qo'yardi. Ana shunda Talx ulug' mehmonlarni payqab qolib, shitob o'rnidan qo'pdi. -Assalomu alaykum, muhtaram zotlar! -dedi xiyol esankiragancha bidillab, lekin ilki kir bo'lg'anligi bois so'rashmoq uchun uzatmadi.

-Munajjimlarga mana shuncha malomatingiz bor ekan-da, yo Talx! -deya zaharxanda qildi Xayyom.

Talx biroz qizardi, ammo o'zini yo'qotmadi. Chiroyli mulozamat ila mehmonlarni do'koniga taklif etdi.

Xayyomda andak jizzakilik mavjud edi, lekin hozir bu jizzakiligi G'azzoliyga o'zlik bo'lib ko'rinmasligi uchun o'zining haligi gapidan keyin rostmona samimiy hazilga o'tdi:

-Agar Payg'ambar alayhissalomning kosiblar haqida aytgan hadisi sharifi bo'lmaganda edi, boyagi gapingiz uchun sizni tutib, ilmi nujumga o'qitgan bo'lur edik.

Yengil kulku ila do'kon ichiga kirdilar. Bundan murod -ozgina salqinlamoq edi.

Yuzlariga fotiha tortdilar.

Xona tor, biroq bag'oyat sarishta -hamma narsa o'z o'rnida edi. Unda charm, turfa moy, yelimlarning hidi ufurib turardi. Bu hol azali kamtarin bo'lg'an ikki olimga aslo aziyat yetkazmadi.

Talx qo'llarini yuvib, ayoqda yaxna sharbat keltirdi:

-Qani, marhamat qilsinlar!-dedi u piyolalarga sharbat quyib uzatarkan. -Bizning vayrona ham obod va nurafshon bo'ladurg'on kun bor ekan, Ollohga shukr!

G'azzoliy ro'zador edi va shul bois sharbatni rad etdi. Xayyom uning hamisha ro'za tutmog'ini eslab, ham iroda-yu etiqodiga lol qoldi, ham xijolat bo'lib sharbat ichmoqdan tiyilmoqqa say etdi, biroq tashnalik qo'ymadi.

-Siz yumushingizni qilavering.-dedi Xayyom tashqariga ishorat etib.-Shukrki, bizning futlarimiz (oyoqlarimiz) but. Biroz salqinlamoq istadik.

-Xo'p bo'ladi, taqsir. Lekin bu harakatlarim boisi boyagi so'zlarim zahridin qalbingizda bino bo'lg'uvchi kemtikni to'ldirmoqdir, xolos.

Kulishdilar. Shu bilan oradagi xijolatpazlik barham topdi.

-Aslida kosibning haligi olimona hikoyatida ham mani bor.-deya gap boshladi endi G'azzoliy. -Ahli nujumning bazilari goho aqllariga bino qo'yadilar.

Xayyom bu kabi malomatlarni, xalq orasida kezingan shundayin turfa gap-so'zlarni orqarvarotdan ko'p eshitardi. Shul boisdan hozir darrov qizishib ketmadi:

-Siz Furqonni (Quronni) bizdinda xo'p bilguvchisiz. Demakki, undagi "Burjlar ("Buru) deya ataluvchi suradan va uning "Burjlar egasi bo'lmish osmonga qasam degan ilk oyatidan boxabarsiz. O'n ikki burjni Olloh taoloning o'zi yaratgan va aqli raso bo'lg'an biron kimsa unga egalik qilolmas. Lekin ana o'shal mavolarning buyuk sohibi u yerga bandalarining taqdir kitoblarini, yaniki yoziqlarini pinhon etgan bo'lsa ne ajab. Ahli nujum esa o'shal asrorni, bani basharning taqdir kitobini o'qimoqqa say etadur xolos. Buning nimasi ayb, janob?!

-Axir Quron yulduzlarga qarab fol ochmoqni, inson taqdirini bashorat qilmoqni man etadi-ku!

-Quron emas, -dedi endi Xayyom o'z odaticha keskin.-sunnat, to'g'rirog'i, shariat uni taqiq etadi. Ehtimol bandalarning chuqur ketib, chalg'ishlaridan saqlanish uchun shunday qilingandir. Bilmadim, bu borada bir nima demoqdin o'jizmen.

G'azzoliy beixtiyor shoirning ilkidagi sharbatga boqib, biroz o'ychan ko'yda o'ltirdi.

-Unda Quron karimdagi mana bu oyatga ne deysiz? "Biz kecha va kunduzni (o'zimizning qudrati ilohiyalarimizni ko'rsatib turadigan) ikki belgi-alomat qilib qo'ydik. (Hech narsa) ko'rinmas qorong'ulikni kechaning alomati qildik. Kunduz alomatini esa,

parvardigoringizdan fazlu marhamat (yani rizqu ro'z) istashlaringiz uchun hamda yillar sanog'ini va hisob-kitobni bilishlaringiz uchun yorug'lik qilib qo'ydik... ("Al-Isro surasi, 12-oyat) Bu ilohiy so'zlardan bundin o'zgacha mano chiqarmoq mumkinmi? -Siz o'z o'zingizni inkor etayotirsiz. Axir Oллоh taboraka taolo bu oyati karimada ham bizlarni bilishga, hisob-kitobga davat qilayotir-ku!

G'azzoliy jim qoldi. Uning turishidan biron manoni uqish mushkul edi.

Bu ikki olimning suhbatlari edi. Ular ilmu hikmat asosida suhbat qurar ekanlar, bir-birlaridan g'alatlik qidirmasdilar yoxud bir-birovlarini mot qilmoqqa ham urinmasdilar. Zero yolg'iz Haqiqatni izlardilar. O'z ko'ngillaridagi tug'yonga bilmoq va anglamoq hissi ila taskin topmoq istardilar. Shuning uchun ular suhbat asnosida bir-birlaridan ranjimoqni xayollariga ham keltirmasdilar. Vujudlaridagi ilohiy ishq ularni tobora yaqinlashtirib bbormoqda ediki, buni o'zlari ham hozircha sezmasdilar. Tabir joiz bo'lsa, Abu Homid G'azzoliyning vujudida o'zi tan olmagan Xayyom, Abul Fath Umarning vujudida esa o'zi kashf etmoqni istamagan G'azzoliy yashardi. Yani ular jismlariga bir xil ilohiy ishq otashi tushgan ikki xil odam edilar.

Xayyomning ko'nglida huzurbaxsh bir evrilish kechmoqda ediki, bu unga juda-juda xush yoqardi.

-Mansuri Halloj ilohiy ishqda mast bo'lgani yanglig' ham suhbatigizdan mastdurmen. Misoli "Anal Haq lazzatini totadurmen. -dedi u taqi suhbatga cho'g' tashlamoq umidida. -Darvoqe, Hallojning maqomida u bir kecha-kunduzda o'qigan ming rakat namoz, to'g'riron'g'i, so'z (Anal Haq) muhimmi yoxud uning ruhiy holatimi?

Savol nozik edi. G'azzoliy nazdida, bu xatkorlig' day tuyuldi.

-Albatta namoz, so'z muhim. -dedi u qat'iy bir tarzda.

(Muhtaram o'quvchiga shuni aytib qo'ymoqchimizki, tarixiy kitoblarning guvohlik berishicha, "Hujjatul Islom, buyuk imom, shayx Abu Homid G'azzoliy hazratlari yoshlik yillarida Qur'on va sunnatni qattiq tutgan hamda shariat ahkomlariga qattiq berilgan zot bo'lganlar. U kishida hali ko'ngil maqomi shakllanmagan, tasavvuf ilmidan boxabar bo'lsalar-da, hali unga ixlos qo'yilmagan, yani bentiboh (ogoh bo'lmagan) edilar. U paytlari hazratimiz, hozirgi zamon tili bilan aytganda, Islom nazariyotchisi edilar. Yuqoridagi javobi ul zot umrining yoshlik yillariga to'g'ri keladi. Umrining ikkinchi yarmi va ayniqsa, oxirida u kishi dunyoviy narsalardan voz kechib, faqat toat-ibodat va ijod ila mashg'ul bo'lganlar hamda ulug' maqomlarga erishganlar.

Umar Xayyom esa bu paytda o'z ruhiy holatini to'la anglab yetmagan bo'lsa-da, ko'ngil maqomi G'azzoliy hazratlarinikidan xiyla yuqori edi. Ammo buni ularning o'zlari sezmasdilar. Sezdirguvchi zotning peshini hali tutmagandilar.)

Xayyom taqi yondi:

-Mansuri Halloj bir kecha-kunduzda ming rakat namoz o'qiganligini aytdim. Har bir rakat uchun esa alohida g'usl qilgan ekanlar. Hattoki yupqalashib ketganidan ustidagi hirqasining vazni ham qolmagan ekan. Agar jismga etibor etilsa, o'shal ming rakat namozning o'zini o'qish imkonsizdir. Demakki, buning uchun ruhiy tayyorlig' va maqomi xos darkor. Xulosa shulki, bunda Hallojning ahvoli (maqomi) muhim emasmi?

G'azzoliy bosiqlik ila, vale manodor jilmaydi:

-Unda janoblari aytsinlarchi, "Anal Haq xitobi uning jismidan uchdimi yoxud ruhidanmi (qalbidanmi)?

-Albatta ruhidan-da! -Xayyom suhbatga avjliron'g' kirishdi. -Halloj tinimsiz ibodat va zikrulloh ila nurga evrilib, ilohiy tajalliyya qorishib ketgan edi. Unda jism qolmagandi. G'ofilu johillar ersa, yo'q jismni qatl etdilar. Halloj buni sezmedi ham hatto. Bu bag'oyat yuksak maqomdur!... -Shoirning nigohida tuyqus o'ychanlik zohir bo'lib, yuzida iztirob balqdi. Yo sohibi G'ayb, bu kimning, so'zlari deya xiyol qilardi u, kim aytdi men uchun begona bo'lmish bul yanglig' fikrlarni? Men-ko'plar va ayniqsa, aqli shariat nazdida, mayparast bo'lmish sarkash shoir, bandaning bandilik maqomini qalban inkor etguvchi osiylik nomiga sazovor nujumparast zot nahotki shu so'zlarni aytgan bo'lsam?! Qaydin uchdi bu fikr paykonlari?!..

G'azzoliy shoirning so'zlarini tasdiq ham, inkor ham etmadi. Aslida ixtiyorsiz ravishda uning qalbidagi, vujudida ham o'zgacha bir g'alayonlar uyg'ona boshlagandi. Shuning uchun va yoxud o'z kechmishini anglay olmagani bo'ismi, hamrohini bu yerni tark etmoqlikka undadi.

Ular Talx ila quyuyq xo'shlashib, o'z yo'llarida davom etdilar. Oradan hech qancha fursat o'tmay, G'azzoliy titroq ovozdagi savol etdi:

-Isfahon muttakosi (suyanchig'i, madadkori) Adam Shayx hazratlarining honaqohlari qay tarafda?

Ikkalalarining nigohlari banogoh to'qnashdilar: vo' ajab, ayni damda Xayyomning xayolidan ham Shayx hazratlari o'tib turgandi.

-Shahar adog'ida.-dedi shoir kun botish tarafga ilki ila ishorat etib.

Shu bo'yi qaytib suhbatlari qovushmadi, ikkalalari ham xayolga chulg'anib, to namozi asrgacha shaharni kezdilar...

O'n birinchi bob

1

Xayyom oromini yo'qotdi. Avvallari vujudida uyg'ongan tushuniksiz kechmishlarni may tafti, musiqiy nolasi va yoki sher mavji ila bosib, qalbidagi olov-otashga malham topa olardi. Endi esa na may, na kuy va na nazm ahvoliga kor qilmayotir. Ilmdan, yulduzlardan va ularga esh davralardan ko'ngli sovudi. Ilgari shundayin ahvolga tushsa, ichidan bir nimarsa sirg'alib chiqardi-yu beadam may sipqorandi, musiqiy og'ushida tebranib, faryod ura sher o'qirdi. Bu kun o'shal nimarsa tashqari chiqmas va go'yo u mahf bo'lib borayotgandek tuyulsa-da, aslida boshqa yorug' bir nimarsaga evrilib, uning bag'ridagi o't tajalliysiga chulg'anib, jonu jahonini yanada battarroq kuydirardi.

Uning hatto namozdan, Kalomulloh mutolaasidan ham ko'ngli sovigandi. O'zidagi bu holatni anglayolmas, unga sari vujudiga tag'in-da kuydirguvchiron'g' o't ketardi. Tunlarni bedor o'tkazarkan, qalbidagi Oллоh degan kalom kun sayin ko'karib, gul ochib borayotganga o'xshardi va bu so'z adadsiz raqam kasb etardi. Shunday onlarda u faqat va faqat G'azzoliyning suhbatini istar, uning o'zidan necha yosh kichik ekanligini bilib, buning manosini shuuridan o'tkazib tursa ham unga tomon talpinaverardi. Shoir do'stining suhbatini ixtiyor etarkan, g'oyibona ustoz Uqlidusning uni mudom beorom tutgan beshinchi qoidasini esladi. Ikki yondosh to'g'ri had hech qachon kesishmaydi, degandi ustoz. U ikki yondosh chiziqni xayolan ufq sari yo'llarkan, ko'zlari ilg'agan malum bir nuqtada ular birlashdilar. Demak, ular qachondir kesishadi, birlashadi, faqat bunga bizlarning aqlimiz qosirlik qilmoqda xolos. Istiqbolda ular birlashur, illo u va G'azzoliy kabi. Unda din tabiat ilmlarini, tabiat ilmlari dinni isbot etib, bir-birlariga xizmat qilurlar. U kunlar qachon kelarkin?! Shunday paytlarda shoiri zorning yuragi o'rtanib ketardi.

Qur'on Oллоh taboraka taoloning beadam ilmidan bir ulushi xolos. Demak, Haqiqat Qur'onning ijodkorida, sohibida. Bundan ayon bo'ladiki, basharning shuuri ilg'amas koinotda barcha din va millatlardan, hatto eng sharafli Islom millatidan ham ustuvor bo'lgan mutlaq Haqiqat mavjud. Balki ana o'sha Mutlaqiyat olamni bir butun tutib, mohiyatni barpo etar va odamzotdan tortib barcha jonzotu nabotot, tufrog'u toshgacha bir lisonda so'zlatar. Xayyom bu nimarsalarni ayni kunlarda, yani bedor kunu tunlarida kashf

etardi. O'sha kunlari u o'zini vahmga va hatto sarosimaga solgan tushining tabirini yechganday bo'ldi: Mastona kampirning Quroni karimni o'tda yoqib o'ttirishi-uning vujudiga bemisl o't solgan ulug' Ishq tashrifi, yaniki Mutlaqiyatni anglashimidi-uyog'i endi Yaratuvchining o'zigagina ayon.

G'azzoliy ila kechgan navbatdagi suhbat, yoyinki bahslarida u mazkur fikrlarni ham to'lg'ona-to'lg'ona izhor etgandi:

-Koinotni o'rganuvchi, tabiat asrorini fosh etishda ko'mak berguvchi olmlar majusiylik avjida nihoyatda rivoj topmish edi. Alar jumla osmonlar ilmini, hayvonotu nabotot asrorini, aljabr, handasa, falsafa, farosat ilmlarini bag'oyat mukammal egallagandilar. Alkimyoni kashf etib, aning sirridin voqif bo'lib, misni oltinga aylantira olganlar. Jismlarni necha bora kattalashtirib berguvchi zarrabin shishani ham alar kashf etmishlarki, ul ila osmon ahlini mushkulotsiz kuzatmoq mumkin. Yoki sirri mudom barchadin pinhon kibratul ahmarni ayting... Ha, majusiylar barcha ilmlarni tabiat hodisotlariga hamohang tarzda o'rganmishlar!.. -Xayyom sher ayatayotgan yanglig' zavqu shavq ila so'zlardi va bu shavq tinglaguvchiga ham yuqumli edi. -Vanihyot endi bani bashar manglayiga saodat nurini yog'dirib, ulug' Islom dini yuborildi. Inson endi haligi ilmlarni iymon torozusi ila o'rganmoqqa kirishdi. Oqibat esa on qadar buyuk. Agar ilohiy ilmlar rivoj topib, tabiat ilmlari bir chetda qolsachi? Unda xurofotu turfa bidatlar avj olmaydimi? G'aznalik Mahmudlar dunyoga kelmaydimi? Ehtimol!.. Uning aksi o'laroq ilmi tabiiyun yuksaklab, ilmi ilohiy tubanda qolsa ham shu ahvol-ruhiy-ahloqiy sifatlar tanazzulga yuz tutadi. Demakki, har neda meyorini, sirli oraliqni unutmastlik lozim!..

O'shanda G'azzoliy ham bu fikrlarga mayl bildirib, so'zsiz qolgandi.

Xayyomning o'shal meyor yoxud sirli oraliq haqida taqi o'zga nazari ham mavjud ediki, ani birovlarga oshkor etmoqdan hamisha saqlanardi. Bu sir shoirning sherlariga ko'chgandi. Ehtimol uning nazmida o'shal rost sir borligi uchun ham el ani suyar. Mana, o'shal chin sir: kishi mastlikda rostlikni anglashga say etadi. Mastlik ila rostlik aro shundayin bir muddat, balki soniyadan ham kamroq muddat borki, ana o'shal vaqtda haqiqat yaqqol yo'lqinlanadi. Shul yo'lqinni ilg'ay olmoq muhimdir, sag'al u yoq-bu yoqqa og'moq xatolikning boshidir. Zero g'ayb olami ham shu yanglig'dir: kishi Olloh ishqida mastu behud bo'lmog'i va dunyo hamda g'ayb olami orasidagi soniyalik barqni payqay olmog'i lozim. O'shal soniyaning o'ndan bir ulushicha muddatda g'ayb pardasi ko'tarilib, odam butun bir olamni, osmonlarni ko'ra olmog'i imkonlidir.

Odam safiyulloh yaratilganicha, yaniki inson bu dunyoga kelgunicha qancha vaqtlar (zamonlar) o'tgan. Bundan keyin taqi qanchasi o'tmog'i aniq. Abadiyat (mangulik) qoshida inson umri, yillar, asrlar bir lahza kapidur. Inson umri-faqatgina bir lahza. Vale inson ana o'shal bir lahzada mangulikni his etmog'i, anglamog'i mumkin. Yani lahza va mangulik bir butun.

Xayyom inson umrini tushga qiyoslaydi. Odam tush ko'radi, unda taqi ko'p nimarsalarni ko'rmog'i mumkin. Biroq bitta muhim voqeagina yodida qoladi (bu kishining shuuri darajasi va ruhiy hamda jismoniy pokligiga qarab yaqqol yoxud xira tarzda ro'y beradi) va o'shal voqea ertangi kuni uchun bashorat bo'lishi ham mumkin. O'shani eslab qolsa bas, so'ng ertangi kunning mazmun-mohiyatini anglaydi. Inson umri ham shu-unda muhim bir lahza mavjudki, o'shani ilg'ay olgan zot Haqiqatni anglaydi.

Nadomatkim, bu hammaga ham nasib etavermaydi, aks holda...

Odamizot yashar ekan, shaharlar qurib, suvlar chiqarib, kitobot bitib, bir so'z ila aytganda, tamaddunga erishar ekan, u ibtidodan, yani o'z aslidan yiroqlashib boraveradi. Asil suratu siyratidan mosuvo bo'ladi. Uning fojeasi ham shunda. Ne etmasin, yangi-yangi urflar, qoida va taqiqlar paydo bo'laveradi-da, aslidan judolikka mahkum.

Haq din keldi. Hotamul anbiyo yuborildi. Saodat zamoni olamga yorug'lik sochdi. Rasuli Akram sallallohu alayhi vasallam har sohada ummatlariga ibrat bo'ldilar. Ne yaxshi nimarsaga erishmasin boshqalarga ilindi. Har qanday hukmni adolat ila chiqardi. Shul bois ham kishilar ul zoti muborakka ergashdilar va tinchu osuda, xotirjam yashadilar. Ollohning suyuqli Payg'ambaridan so'ng esa... Oy sayin, yil sayin turfa odatlar, ayrilishlar paydo bo'lib boraverdi. Sunnat va shariat ahkomlariga zamon ulamolarning tama-yu manfaatlari aralashdi. Shariatda paydo bo'lgan har bir yangi qoida, fatvo kimlarningdir nafi uchun xizmat qila boshladi. Oqibatni esa ko'rib turibmiz.

Xayyom o'shanda G'azzoliyga bir hikoyat aytib bergandi:

-Bir kambag'al odam tirikchilik tashvishlaridan nihoyatda xoribdi. Aqli parishon bo'lib, ixtiyorsiz ko'yda zamona shayxiga ro'baro' bo'libdi. Bir taskin ilinjida ul zotga yorilibdi. Ro'zg'ori yupunligidan, kun ko'rish og'irligi-yu zamona adolatsizligidan nolib, ko'z yosh to'kibdi.

Shayxning unga rahmi kelib, shunday debdi:

-Sabr qilmoq darkor, birodar, illo chin baxt, chin boylik qiyomatda sabrlilarga ato etilur. Axir Hazrati Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam ne-ne ofatlarga, xo'rliklarga sabr etmadilarmi. U kishining xonadonida hatto yemoqqa non qolmagan kunlari bo'lgan. Bu bizlarga saboq bo'lmog'i lozim...

Shunda kambag'al sho'rlikning alamli ovozi eshilibdi:

-Unda barcha -Payg'ambar ham, kambag'al hammol ham barobar edi-da, taqsir!

Bu gap chin haqiqat edi, zero fayzu barokat va ahillikning asli tenglikdadir.

-Siz Nabiy alayhissalomning hayotlarini o'zgalarga ibrat qilursiz -bu bag'oyat soz. -degandi bir safar Abu Homid. -Vale o'zingiz sherlaringizda Ollohga, uning taqdiriga isyon qilmaysizmi? Biz qay bir Xayyomga inonaylik?!

Xayyom o'ychan jilmaygandi o'shanda:

-G'azzoliy janoblari bilsinlarki, mening isyonim, yani osiyiligim Olloh-sohibi koinotga emas, shu hayot va uni shu tarzda bino etayotgan odamlargadir. Alar Tangri taolo yaratgan barcha nimarsalarni o'zlaricha qayta "ijod etadilar-da, yaratuvchilik davo qiladilar. Yangi-yangi tartiblar, taqiqlar joriy etadilar. Niqoblari dinu iymon bo'lgani bilan aslida unday emas. Din tashvishi alardan anchayin naridadir. Demak, alar o'zlarini bu dunyoning sohibi deb biladilar. Sherlarimdagi isyon ana o'shalargadir. G'azzoliy kinoyali tabassum qildi.

-Chiroyli so'zlaydursiz.-dedi, so'ng tagdor so'z aytdi. -Har tugul shoirlik etdingiz.

Xayyom mulzam bo'ldi. Hamsuhbatining gapidan so'ng chindan ham soxta so'zlaganini, o'zini oqlashga uringanini fahmladi.

Ammo endi kech bo'lgandi, aybini yopmoqqa urinishi uni ikki hissa oshirmoq ila barobar edi. Shuning uchun indamay qo'ya qoldi.

G'azzoliy buni sezib, o'zicha uni to'g'ri yo'lga chorlamoqchi bo'ldi:

-Sherlaringizdagi so'rog'u xitoblardan ularni qay holatda qanday yozganligingizni payqash mumkin. -U shoirning o'z sherlarini mastlikda bitganligiga ishorat qilmoqda edi. -"Shoirlarga yo'ldan ozganlar ergashur. Ularning (so'z vodiylaridan) har vodiya daydishlarini (yani o'zlariga yoqib qolgan eng tuban kimsa yo narsalarni ham ko'kka ko'tarib, yoqtirmaganlarini tuproqqa qorishlarini) va o'zlari qilmaydigan narsalarni aytishlarini ko'rmadingizmi?! ("Shuaro surasi, 224-225-226- oyatlar)

Xayyom xush qiroat ila aytilgan ilohiy so'zdan yanada mutaassir bo'ldi va bir lahzagina o'ziga xiyonat qilishi, o'z feliga zid ish

tutishi qanchalik oqibatlariga Solmog'ini tushunganidan battar xijolatga tushdi. Illo G'azzoliy nishonni to'g'ri olgandi. Chin so'z qarshisida har ne kuch hechdir.

-Ha, men o'z sherlarimni boshqa bir tarifga sig'mas holatlarda yozamen. -dedi nihoyat tilga kirgan Xayyom. -Keyin alar o'zimga ham g'alat tuyuladur. Illo bandamen, bu olamda ne-ne gunohlar qilmadim. Balki sherlarim ham o'shal gunohlarimning biridir. -Shoir bu so'zlarini chinakam istig'for ohangida aytdi.

-Sizni kun kelib kimlardir mayparast bir shoir, birovlar benazir tabiiyunchi olim, boshqalar esa Ummul Kitob bilimdoni hofizi Qur'on, deya suysalar ajabmas. Ehtimolki bunda ham Ollohning bir hikmati bordur.

Xayyomning avvalgi shashtidan asar ham qolmagandi, suhbatdoshining so'zlarini sukutda bosh eggancha tinglardi.

-Zero uch olam mavjud, -deya so'zida davom etdi G'azzoliy. -Birinchi, tuban (quyi) hisli jism olami. Ikkinchisi, o'rtaliq ruhiy, har nimarsa mano kasb etguvchi olam. Vanihoyat uchinchisi, yuqori olam-Ilohning makoni.

Quyi olam hamisha o'zgarib turadi. Iloh olami esa Buyuk Iroda tufayli o'zgarimas va mangudir. Toza ruhli kishilar Iloh olamiga mansubdirlar. Chunki ular Ilohdan yaralganlar va unga qaytadilar. Valekin quyi olamga mansub qalblar ham yuqori olam ila robitaga (aloqaga) kirishmoqlari imkonli, faqat tushda, ruhiy muroqabada.

Xayyom avvallari bo'lganida bundayin gaplarga quloq solib o'ltirmasdi, shartta uzardi-qo'yardi. Biroq ayni damda ro'baro'sidagi yosh shariatpeshaning so'zlarini ixtiyorsiz ravishda jon qulog'i ila tinglar va barini qalbiga jo etardi.

-Unda men qay olamdanmen? -deya so'radi u past ovozd.

G'azzoliy anchagina sukutga toldi va axiyri:

-Fursati ila ayon bo'lg'ay, inshoolloh!-dedi mavhum bir ohangda.

Kuzning o'rtalarida G'azzoliy shayxulislomning chorlovi ila taqi Bog'dodga otlandi. Safar tadorigini ko'rayotgan kunlarining birida shahar chetiga chiqib qaytdi. Ammo Adam Shayx ila ko'rishdimi yoki yo'qmi, Xayyomga ham noayonligicha qoldi.

Bu ayriliq ikkisi uchun ham og'ir edi. Ular bir-birlaridan nelardir olganliklarini, ruhiyatlarida, ko'ngillarida ham ajab evrilishlar ro'y berganligini sezib tursalar-da, tan olmasdilar yoxud tan olmoqni istamasdilar. Nega bunday-bu endi Yaratuvchining siri edi.

O'tgan kunlar, oylar ikki sohibi ilm va sohibi dilni go'zal mavolarga hamda ana o'shal mavolardagi betakror ruh chamanlariga, osmoniy tajalliylarga oshno etdi. O'sha kunlari G'azzoliy suhbat asnosida shunday degandi:

-Hali bizlar haqimizda turfa uydirmalar, malomatlar to'qiydilar. Hatto ikkimizni bir-birimizga aksil qo'yib, o'z nafslari uchun xizmat qildirmoqqa urinadilar. Dunyodagi barcha dinlar tanho Yaratuvchiga har tarafdan eltgani kabi bizlar ham bir manzilni ko'zlagan ikki xil yo'ldagi yo'lhilar ekanligimizni ko'plar anglamay o'tadilar. Lekin shunisiga ham shukur. Zero Tangridan kelganmiz, Tangriga qayturmiz!.. Aslida bu ham hali xolva. Chunki kun kelib, dunyoga sohiblik istagida bo'lgan Iblisning malaylari hali Islom ila odamlarni qo'rqitmoqqa tushadilar. Bundayin sinovlar ham bor hali!..

Ayriliq oni uzoq xayrlashdilar. Hali taqi ko'p bor diydor ko'rishmoqlarini sezib tursalar-da, ko'z yoshlarini tiyolmadilar.

-Sizning yo'lingiz olis, yo shoiri zamon!-dedi G'azzoliy uni quchoqlarkan. -Siz barcha olamlarga mansubsiz!..

U Isfahonga Ibn Sinoning izlarini izlab kelgan edi, angladiki, Xayyom ikkisini topdi..

-Xush endi, do'stim Umar Xayyom!

-Xush!.. Xush, aziz birodarim!..

2

Xayyomning dil va ruhiy g'alayonlari battar avj oldi. Endi angladiki, o'shal Quroni karimni yondirmoqqa qodir ishq butkul halovatini olgandi. Na ilmda, na ibodatda, na sherda va na mayda dardiga malham topolmasdi. Tez-tez ko'z ungida Mastona kampir namoyon bo'lar va o'z bag'riga chorlayverardi. O'krab yig'lamoq istardi, yig'lolmasdi, nujum holidan fol ochmoq bo'lardi, yulduzlar ham yol'g'onchidek tuyulib ketardi, ilm istardi, lekin o'rganayotgan, yaratayotgan ilmlari hechdek ko'rinardi, nazm olami esa undan yuz o'g'irgandek edi. Avvaliga u bu ko'yini G'azzoliydan ayro tushganligidan deb o'yladi, axir yaxshi yo'ldosh, har bir so'zingni osonlikcha anglaguvchi do'stdan, suhbatdoshdan ayrilish osonmi?! Odam taftini odam oladi, deydilar. Endi mislsiz olovdan bino bo'layotgan taftini olguvchi o'shal hamdami yo'q edi.

Ahli rasadxona ham hayratda-hammalari ixlos qo'ygan, haybatidan tog'lar muk tushgan, g'ayratidan har ne yumushning bo'yni singan teran aql va unga itoatli dil sohibi bo'lmish shoir Umar Xayyom aftoda bir ahvolga tushmish edi. Bu ne hol, deya bir chetlarda g'o'ldirardi erka shogirdi Isfazariy, ul shariatpesha ustozni qandayin joduga soldi?! Mikoil xojasiga goh-goh tikilib qo'yardi-da, ul zot olim odam bo'lsa, men bir omiy sangtaroshu tomoshaboz, uning aholini nedin bilurmen, deya Polvon ila andarmon bo'lardi. Faqat kekxa Rindgina uni tushunardi chog'i. Chunki hamisha Xayyomga halal bermaslikka urinar va turfa savolu nigohlari ila taqib ham etmasdi. Ammo xojasining kun sayin undan uzoqlashayotganligini sezib turardi.

O'shal kunlarning birida shoirni vaziri azam o'z huzuriga chorlab qoldi. U Xayyomdagi o'zgarishni birovdan eshitganmide yoxud ayni damda payqadimi, nomalum edi.

-Senga ne bo'ldi, ey, nishopurlik sarkash shoir?-deya so'radi u o'zining mardona ovozi ila uni qaddini ko'tarmoqlikka undab. -Betobmisen va yoxud toliqingmi?

-Bilmadim, hazrati oliylari. Rostdan ham toliqidim shekilli. -Xayyom bu so'zlarni mavhum ohangda aytdi.

-Unda hordiq ol. May ila yorni tut. Bundayin ahvol senga yarashmaydkr, o'g'lim. -Vaziri azam uni ilk bora shunday atashi edi.

Bu mehr tuyg'usi ila aytilgan so'z shoirga ham tasir etmay qolmadi-dod solib o'krab yuborishiga oz qoldi. Biroq uni mudom tark etmagan g'urur bo'g'ziga urilgan faryodni to'sdi.

Shundan so'ng gap qovushmadi. Ko'p o'tmay Xayyom vaziri azam dargohini tark etdi. Qaytayotib bo'sag'ada Qazviniyga yo'liqdi.

Amirul shuaro endi o'zini ancha o'nglab olgan, jismida zuhur etguvchi notavonlik, ruhidagi gumon va qo'rquv ham hozir sezilmasdi. U bo'lib o'tgan qaro kunlardan so'ng Sulton qahridan qo'rqib, o'zini chetga olib yurdi. Saltanat "ob-havosi bir maromga tushib, sulton boshqa arkoni davlatlar ham o'zga yumushlar ila andarmon bo'la boshlagach, taqi uning vujudidagi qora qurtlar g'imiray boshladi. Ne etib bo'lsa-da, Xayyomni olampanohga yomon ko'rsatish uchun reja tuzmoqqa tushdi. Biroq endi sulton Malikshoh uning so'zini unchalik ham so'z deyavermas, vaziri azam va ayniqsa, Umar Xayyom haqida yomon gap olib kelishlarini xushlamay qolgandi. Qazviniy buni bilardi va shul bois Xayyomni yomonotliq qilmoq uchun ayni kunda uning sherlaridan o'zga mahkamroq tutgulik dastak yo'q, deya hisoblardi. Filhaqiqat, so'nggi haftalarda Xayyomning g'alat va hattoki osiyona talqinda bitilgan sherlari ko'paymoqda edi. Amirul shuaro ana o'shanday sherlarni ulkan umidvorlik ila to'plamoqqa jahd etgandi. Shul yonishlari asnosida eshitdiki, nujumparast Xayyomning ko'yi ham o'zgarib, ahvoli savdoyinamo bo'lib qolgan emish. Shoirlar amiri bag'oyat shodlandi va ulkan umidvorligi tag'in ulkanlashdi. Ajab bo'lg'ay, dedi u ko'zlari chaqnab, sultonzoda Muhammad

Takashning uvoli tutibdi-da bul nobakorni! Hali bu ham kam, hademay chindan-da aqlidan mosuvo bo'lsa ajabmas. Shunday qilib, Xayyomga astoydil kafan bicha boshladi. Xayyom ila hozirgi yo'liquvi ham uning o'shal quvonchli kunlariga to'g'ri kelgandi. -Assalomu alaykum, yo yulduzlar shohi!-dedi u Xayyomning ko'zlariga sinovchan va ham kinoyali tikilib. Ko'ngli uyg'oq Xayyom uning boqishidagi manoni darrov payqadi. Savdoyi deb gumon qiladur bu dili siyoh, deya o'yladi, qarashlari muzaffarlik tantanasidek ko'rinadur. O, inson bolasi, o'zingning holingdan oshib, birovlarining ko'nglini taftish etmoqdan qachon tiyilasan-a!..

-Shaharda kamnamosiz? -deya davom etdi taqi Qazviniy undan ko'zlarini uzmay. -Yoki biz do'stlaringizdan etak qoqdingizmi, janob?

Bu gapga munosib javob qilmasa bo'lmasdi.

-Aslo, ey, amirul shuaro! Faqat do'stlarimning yaxshilik nuri yog'ilgan go'zal angorlariga boqmoqqa men faqirning toqatim yetmas. -dedi Xayyom so'zlariga koniyali jilo berib va yo'liga ketaverdi. Shaytoni lain esa ko'ngliga g'ulu solib, bul pachoq basharaning yoqasidan olib, kekirdagini sug'urmoqqa undardi.

Bundayin muomalani kutmagan Qazviniyning ko'zlari olayib, tusi bo'z yanglig' o'ngib ketdi...

Faqat Maryamgina... Xayyomning o'ziga nisbatan allaqachon sovib ulgurganligini, aniqrog'i, befarq bo'lib qolganligini sezsa-da, Maryam mudom unga talpinib turardi. Ayniqsa, shoirning hozirgi ahvoli qizni ortiq bezovtalantirar, ichki bir sezim ila uning tug'yoni boisini anglyotgandek ko'rinardi. Xayyom unga hamon ishonar, o'zgalardan pinhon tutgan kechmishini ham undan yashirmasdi. Biroq endi u Maryam sari talpinmasdi, vasliga oshiqmasdi.

-Ustoz, zora yorilsangiz!-dedi bir kuni Maryam zorlanib, -G'ayurlar bu holingizdan ogoh bo'lsalar, xavf nainki sizga, balki butun rasadxona soya solur.

Xayyom indamadi, qizga mahzun tikildi...

So'nggi kunlarda Xayyomning nazdida, olamdagi jamiki hilqatlar manosizlik kasb eta boshladi. Mavjud nimarsalardagi foniylilik uning ko'ngil oynasida tiniq-ravshan aks etmoqqa tushdi. O'zining barcha urinishlari, davolari zoyedek tuyuldi. Olgan ilmlari foniylilik, sher foniylilik, hatto manov ulug'vor qoyalar foniylilik, tiriklik foniylilik- hamma-hammasi foniylilik ekanligini angladi. Angladi-yu xo'rliqlik keldi. Nahotki yeb-ichmoq uchungina yaralgan bo'lsam, deya nara tortdi qaqragan bag'ri o't ichra. Unda ne boqiy? Bu olamdagi ne bir say zoye emas?! Tanho Yaratguvchi, sohibi koinot, yaniki eng oliy shuur haq. Vale masjidda sajdaga bosh urgan odamning o'z insoniy muddaosi bor bo'lganidek, kalisoda sig'ingan kimsa ham riyodan holi emas. Majusiy olovni, budparast sangni Xudo, deya o'z dardlarini aytib soladilar. Barchalari oddiygina mahluq (yaratilgan), banda, qul ekanliklarini bilganlari holda ojizona istak-iltijolarini tinglaguvchi, ijobat etguvchi yolg'iz Zotni ham ich-ichlaridan sezib turadilar. Biroq so'qir qalblari, noqis aqllari iskanjasida Yaratuvchini turfa suratlarda, o'zlari kabi ojizona qurblarda tasavvur etadilar. Alarning aqllari bundan ortig'iga dosh berolmas, farosatlari esa o'shal aqllariga bandidir. Illo bu olamda har neki bor qullikka, mahkumlikka eltur. Shoir esa bunga toqat qilolmas. Inson bo'yniga ilingan qullik zanjirlarini chil-chil qilmoqni istar.

Kabayu butxona qullik xonasi,
Butxona zangi ham shum taronasi.
Mehrobu kaliso, tasbehu salib-
Barchasi qullikning bir nishonasi.

Bu satrlar ketidan ushbusi keldi:

Bizga falak ishi-faqat tashvish-g'am,
Birini tiklasa, boshqasi barham.
Hali kelmaganlar bundan bexabar,
Xabar topa qolsa kelmas edi ham.

Shoir chinakam tug'yonga kelgandi. U foniylilik umrga, hammasi avvaldan bitib qo'yilganligiga, bu bitik-haddan ozgina bo'lsin chetlash mumkin emasligiga isyon qilardi. Uning qalbida yaratish ishq jo'sh urardi. Bu ishq uning ixtiyoridan ayro ravishda inom etilgan taqdirni inkor qilardi. Bu osiylik edi, hatto Ollohga shirk keltirmoq ila barobar edi. Ammo buni uning o'zi tuzukroq anglab yetmasdi, olov, jazaba og'ushida edi. U o'zining xato ketayotganligini goho elas-elas ilg'ab qolar, biroq fikr etmog'iga vujudidagi otash monelik qilardi. Taqi o'shal ixtiyorsiz tarzda nenidir, bir buyuk evrilishni kutardi. Tushlarida, o'ylarida Mastona kampir uni tark eta boshladi. So'zsiz, itoatkorlik ila tark etardi u. Endi oromini, xayolini o'n besh yoshlar chamasidagi go'zal va nurposh chehrali bir qiz o'g'irlamoqqa tushdi. U mislsiz sohibi chiroylilik edi, har safar ko'zlariga ko'ringanida yuragi xil-xil oqib ketardi. Bul beorom ruhiy huzurni qachondir o'qigan ikki rakat namozi asnosida bir bora totgan edi. Endi uning diydori tufayli takror va takror huzur og'ushida...

O'sha kuni shom mahali rasadxona ortida, tog'ning poyidagi og'ochzor ichra bir qush uzoq va asrorli sayradi. Ne qush edi, behud bo'lgan Xayyom anglolmadi. G'ayb ishorati edi go'yo bu. Chunki qushning sasi allaqachon tingan bo'lsa-da, uning quloqlarida aks sado berib turaverdi. Bu hol to yarim kechagacha davom etdi. Tun o'zining hikmatli qismiga og'ganda oromsiz shoir beixtiyor o'rnidan turdi. Jahd ila rasadxonani tark etib, shahar tomon yo'l oldi. Borarkan, umrning bebaqoligi va Tangrining vasli haqida o'yladi. Ha, filhaqiqat, yo'llar beadadu manzil bir. Shunday ekan, bir-birovni inkor etmoqqa ne hojat? Bu bashariy xudbinlikdan, nafs qutqusidan o'zga nimarsa emas-ku! Manzilga piyoda, xachir yoxud otda bording nima? Muhimi manzilga yetmoq, faqat otdagi yo'lchi xachirdagi va piyoda kishiga nisbatan avvalroq yetib borishi mumkin xolos. Bu xuddiki ketma-ket kelguvchi sonlarning bir-biriga nisbatlariga uyqashdir-ayirsalar ozayadi, qo'shsalar ko'payadi. Darvoqe, vaqt ham bor. Undan g'ofil bo'lmoq-ziyoda nimarsalarni boy bermoq ila barobardur. Ketma-ket o'tayotgan bir xil kunlar umrning zoye ketayotganligidir. Hazrati Risolat sallallohu alayhi vasallam aytmishlar: "Kimning ikki kuni bir xil bo'lsa, bas, u aldangan, kimniki bugunidan ertasi yomon bo'lsa, bas, u malundir, kimki ziyodalikda bo'lmasa bas, u nuqsonda, kimki nuqsonda bo'lsa, bas, unga o'lim yaxshidir. Bu hadisning uning shuuriga urilishi karomat edi, zero u ayni damda Islomdan falsafa so'qishga ojizlik qilardi. Hatto og'och Tangriga hamd aytishda, zikrullohdan ziyoda ekan, na odam, na nabotot, na hayvonot bo'lishlikda farq yo'q. Ziyodalik iymonda,

fidolik va baxshidalikda. O'shanda majusiy zohid-muboddan dinningning asosi ne, deb so'rganida, u shunday javob bergandi:

-Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu amal.

Yo, Oллоh! Axir Islomning Fikr, Zikr, Shukr hikmatiga asoslangan davatiga bag'oyat uyqash emasmi bu?!

Xayyomning boshi aylandi. O'ylarining avvalu oxirini yo'qotib qo'ydi. Shaharning narigi chekkasi sari borarkan, vujudidagi to'fon tobora avjlanmoqda edi. Bu bo'ron halovat ilinjida beixtiyor shahar chetidagi xonaqohni-Adam Shayxning sirli dargohini ko'zlab borardi...

Xonaqoh ostonasiga qadam qo'ydi. Ichkarilarkan, har qadam bosganida vujudidagi g'alayon tobora tinayotgandek tuyuldi.

Xonaqoh hovlisi o'rtasidagi hovuzga yetganda ro'baro'dagi xona eshigidan bir odam chiqib, to'g'ri u tomonga yurdi. Bu odam baland bo'yli bo'lib, quyuq uzun soqoli oppoq edi. Egnida rangpar xirqa, boshida kuloh, misoli uchayotgan kabi qadam qo'yar, atrofida bir quchoq nur ergashib yurganga o'xshardi. Ehtimol unga shunday tuyuldimi... Xayyom salom berdi yoki salom bermoqchi bo'ldi, biroq buni o'zi anglolmadi.

-Vanihoyat keldingizmi, yo olimlar amiri?!-dedi notanish kishi unga yovuq kelib.

Shoirning xayoliga urilgan birinchi savol shu bo'ldi: nega endi "senlamadi? Shundan so'ng jismu joni erib, holsizlanib borayotganligini sezdi. Diydalari yumshab, kipriklarining asti achishdi. Xo'rligi kelib, dod solmoqni istadi. Ana o'shanda haligi odam, yani endi u shuurining allaqayerida tanib ulgurgani Adam Shayx xirqasini ikki yonga qayirdi. Shoir itoatkorona bosh egib, yuzini Shayxning ko'ksiga bosdi, bosgani hamono shayx uning boshini xirqasi ila o'radi. U xuddi suv ostiga sho'ng'igandek bo'lib, misilsiz bir sukunat va huzurbaxsh halovat og'ushiga tushdi. Shuuri tiniqlashdi, quloqlari hali biron marta bundayin sukunat ovozi eshitmagandi. Yuragi judayam osuda ura boshladi. Nigohi ko'zni malollantirmaguvchi yoqimli yorug'likka to'ldi. Ana, oppoq surush (farishtalar) ulkan kapalaklar misoli uchib yuribdilar. Anovi yonma-yon o'ltirgan kishilar kim bo'ldiykin? Yo Oллоh! Bu axir sayyidul anbiyo Hazrati Risolat sallolohu alayhi vasallam-ku! Uning ko'zlaridan duvillab yosh o'tildi. Yig'lagani sari vujudidan nimarsadir sug'urilib chiqar va yengillashardi. Ul zoti muborakning yonlarida zavjalari Oysha onamiz o'ltirardilar. Yo Rasulilloh, deya hayqirdi unig qalbi. Payg'ambar alayhissalom ohista u tomonga qayrildilar va bilinar-bilinmas jilmaydilar... Shayx uni ko'ksidan ayirdi. Yo'q, shoir xushidan og'madi, uning borlig'i mudom osudalikda edi. Sohibi xonaqoh uni ichkariga boshladi. Xonaqohning barcha hujralarida shag'am va moychiroqlar yoniq edi. Ulardagi muridlar zikri hufiya yoxud namoz ila mashg'ul edilar. O'tib borisharkan, bir hujra eshigi oldida o'qchiyotgan yigitga ro'baro' keldilar. Xayyom uni betobmi, deb o'yladi. Shayx uning fikrini uqqanday dedi:

-Mana bir oydirki bu farzandimiz tanavvul qilmaydi. Neki yesa, qaytib chiqmoqda. Ammo sixati yaxshi, o'zi bardam. Hali bir burda non yeb, bir piyola suv ichgandi. Mana, oqibati.

Xayyom yoqa tutdi.

-Oллоh subhonahu taboraka taoloning siri bo'lmish ruh nelarga qodir ekanligidan g'ofilsiz, ey, valad (farzand)!-degan Adam Shayx uni taqi oldinga boshladi.

Kengroq bir xonaga kirdilar. Shayx uni o'ltirishga undadi. U o'ltirib, ixtiyorsiz tarzda ko'zlarini yumdi. Endi faqat piri komil so'zladi:

-Avvalgi sarxushlik-tan sarxushligi vujud olovidir. Bunda har dafa shayton alayhilana xuruj etib, ixtiyorni zabt etmog'i mumkin. Siz buni bilursiz. So'ngra bir sukunat, sokinlik keladur. Bunda shuur, qalb tinadur, tiniqlashadur. Buni payqagan banda ko'p go'zal mavolarni ko'rib, sohibi hol bo'ladi. Vale bu ko'yda ham xavf va ofat bor. Siz o'shandasiz. Intihoda sarxushlik bo'lur-bu endi Ilox, mujdasi. Unda xavfu ofat yo'q, faqat visol, ruhiy nasiba bor.

Taqi aytdi:

-Arab dunyosida zohidona fidolik suluki ko'p rivoj topdi. Bu foniyy dunyodan butunlay etak qoqqan ne-ne ulug'lar o'tdilar ayni yo'lda va buyuk-buyuk nasibalar topdilar. Endi esa turkiy olamdan, Turkistondan bir shiddat keladur. Bu shiddat jazabasidan dunyo titragay hali va olamni fayzga to'ldirgay. Nihoyat Ilohdan mujdalar yeturki, hademay forsiy olamda bir sinoatli sukunat bo'y ko'rsatgay. Ruhlar, ko'ngillar tingay, hufiya ibodatlar, iltijolar ko'payur. Oz fursat qoldi, hademay Islom dunyosiga osudalik cho'mar.

Dedi:

-Siz na undan, na bundan, na bizdانسiz. Sizning sulukingiz, maqomingiz, nasibangiz o'zga-bu bizga ayon. Faqat ortiq sharh etolmasmiz, ijozat yo'q. Siz yetguvchi mavolar yuksak!..

Tag'in dedi:

-Malaxda (chigirtkada) besh nimarsaga qobillik bor: u yuradi, biroq jadal emas, uchadi, lekin yuksak emas, suzadi-yu tez emas, sakraydi, vale yiroqqa emas, kovlaydi-yu chuqur emas. Demak, unda qurb bor, biroq ilohiy jazaba, istedod yo'q. Sizda ham har nega qobillik bor, faqat ularni tarbiyat etmoq lozim. Shunda ko'p ulug' nasibalar olursiz.

So'ng aytdi:

-Inson hur bo'lmo'g'i lozim. Bir nimarsaga jahd etdimi, boshqa umidlardan dilni forig' qilmog'i kerak. Butun vujudini, ruhu shuurini baxsh etsa, o'shal yumushning olamda tanho sohibi bo'lg'ay. Bizning talabimiz ham shul. Siz avvalo nimaga jahd etganingizni to'la anglab oling, bo'tam!..

Birdan ro'baro'sida janda kiygan Mastona kampir paydo bo'ldi. U avvaliga bir pas mahzun boqib turdi-da, so'ng vahimali qah-qah urib, uzoqlasha-uzoqlasha g'oyib bo'ldi. Endi esa sog'ida yuzigacha ro'ymol yopgan tegrasida nur o'ynagan farishtamonand go'zal qiz ko'rindi. Uning ilkida kosa bor edi. Kosada lim to'la sut. U kosani ilkiga olib, dil-dilidan "Bismillahir rohmanir rohiym, dedi-da, yutoqqanday bo'lib sutning yarmini sipqordi. Kosadan lab uzdi-yu bir vahimali tovushdan cho'chib uyg'onib ketdi. U o'z oshyonasida yotardi. Tovush esa Polvonniki edi, u g'ayritabiyy bezovtalik ila o'kirardi. Xayyomning bag'ri sirqirab, beixtiyor ko'zlariga yosh to'ldi. U farishta tutgan g'oyibona sutning yarmini icholmaganiga o'kinardi. Chunki shoir tushda sut ichmoq Oллоhning ilmiga sohib bo'lmoqlik ekanligini yaxshi bilardi. Yo Oллоh!.. Bu tush nedin darak, deya o'yladi u mudom sarxush, tushmida o'zi bu? Unda xonaqoh, Adam Shayx muridlar, sirli sukunat- hammasi tushmida? Nahotki tush bo'lsa?! O'yining oxiriga yetolmadi. Ko'ksidan otilgan xohish-ilhom ila tahorat olmoqqa shoshildi.. So'ng tovba niyati ila ikki rakat avvobin (tavba qiluvchilar) namozini o'qib, iztirob ichra istig'for aytdi. U dunyodan butkul forig' bo'lmoqlikni istadi...

Xayyom qirq yoshga kirdi...

This is not registered version of TotalDocConverter

Б†: Mushk ohuning uzoq yugurishi natijasida uning qoratalog'ida hosil bo'ladigan qora xushbo'y narsa. Saydgarlar saroy uchun ohularning tanidagi mushklarni ham yiqqanlar.

Б†: "Omar Xayyam, JZL, Moskva, "Molodaya gvardiya nashriyoti, 94-bet. Muallif tarjimasi.